Uy vazifasini bajarayotganda bola o'zini qanday tutadi?			
A-boshlashi qiyin, intilishni ko'rsatmaydi, yordam so'raydi.	B-ota-ona nazoratisiz o'z-o'zidan uy vazifasini bajaradi.	C-vijdon bilan qiladi, ehtiyotkorlik bilan, hamma narsani tezroq bajarishga harakat qiladi.	D-ehtiyotkorlik bilan emas, balki tezda, mayda-chuyda narsalar bilan chalg'ib bajaradi.

Mazkur taqdim etilgan maxsus test natijalarini hisoblashni ko'rib chiqamiz.

Agarda, “A” javoblar ustunlik qilsa:

Bola ochiqko'ngil, lekin o'ziga unchalik ishonmaydi. Bunday bolalar uchun individual sport turlari bilan shug'ullanish tavsiya etilmaydi. Unga jamoaviy sport turlari (basketbol, futbol yoki xokkey kabi) va jamoaviy o'yinlar mos keladi.

Agarda, “B” javoblar ustunlik qilsa:

Bunday bolalar yakkama-yakka raqib bilan o'zlarini yaxshi his qilishadi. Ular baxs va musobaqa strategiyasini o'zlari ishlab chiqishni afzal ko'rishadi. Ushbu toifadagi bolalar har qanday jangavor sport turlari yoki shaxmatga mos keladi. Shuningdek, sportcha yurish yoki uzoq masofalarga yugurishga tanlab olish mumkin.

Agarda, “C” javoblar ustunlik qilsa:

Bunday bolalar shunchaki, xarakterga ega sanaladi. Ular ochiqko'ngil, do'stona, qiziquvchan va diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'radi va ularga uzunlik va balandlikka sakrash kabi turlar mos keladi. Shu bilan birga bu kabi bolalarga murakkab-texnik sport turlari - figurali uchish, chang'i sporti, akrobatika kabi shaxsiy xususiyatlarini ochib beradigan sport turlari tavsiya etiladi.

Agarda, “D” javoblar ustunlik qilsa:

Bu toifadagi bolalar juda harakatchan, bir joyda o'tira olmaydigan hisoblanadi. Bunday bolalar uchun tez reaksiya va tezlikni o'zgartirish zarur bo'lgan sport muhim ahamiyatga ega. Masalan, qisqa masofaga yugurish, uzunlikka sakrash kabi yengil atletika turlari hamda futbol, basketbol, tennis va shunga o'xshash sport turlari mos keladi.

Bolalarni sport turiga moyilligini yanada aniq bilish uchun ma'lum bir sport turlari bo'yicha bir nechta sport murabbiylariga ko'rikdan o'tish uchun olib borgan ma'qul. Chunki, murabbiy o'zining sport turi xususiyatidan kelib chiqqan holda shu sport turiga mos bo'lgan saralash maxsus testlari orqali bolada ayni shu sportga layoqati borligini aniqlash imkoni bo'ladi.

Bolalarning ma'lum sport turlariga moyilligini aniqlashda murabbiydan e'tiborli va vaziyatga jiddiy yondashish talab etiladi. Chunki, bu vaziyatda bolaning nafaqat jismoniy rivojlanishi balki, uning psixologik holati ham inobatga olinishi muhimdir.

Ota-onalardan murabbiyning ko'rigiga borishda o'zlari bilan farzandining salomatligi to'g'risida ma'lumotnoma va o'sha sport turiga mos bo'lgan sport formasi bo'lishi kelgusida bolaning shu sport turiga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bu kabi ko'riklarni bolaga o'ta jiddiy sinov tariqasi emas. Shunchaki sport turini tanlash maqsadida amalga oshirilayotganini tushintirish zarur. Aks holda, bola oddiy hisoblangan ko'rikni jiddiy qabul qilishi va oqibatda kutilgan natija olinmasligi mumkin.

Bolalarni yengil atletika turlariga saralashda qo'llaniladigan maxsus amaliy tashtlarni ko'rib chiqamiz. Bu maxsus tetslar ko'pyillik tajriba va sport amaliyotida sinovdan o'tgan mashqlar bo'lib, bu orqali bolalarni qobiliyati va ko'rsatkichlariga qarab yengil atletikaning ma'lum turlariga saralash va yo'naltirish imkoni kengayib boradi.

## 2-jadval.

### Bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini baholovchi test me'yorlari.

Testlar	O'g'il bolalar			Qiz bolalar		
	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli
30 m (sek)	6,0	6,7	6,9	6,2	6,8	7,1
400 m (min:sek)	2:10.0	2:20.0	2:30.0	2:20.0	2:30.0	2:40.0
3x10 mokisimon (sek)	9,4	10,2	10,5	9,7	10,6	10,8

Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	170,0	155,0	140,0	160,0	145,0	130,0
Gimnastika devoriga tirmashib chiqish (sm)	220,0	215,0	210,0	170,0	165,0	160,0

Yuqorida tavsiya etilayotgan bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini baholovchi test me'yorlarini qabul qilish orqali ularni yengil atletikaning ma'lum turlariga saralash imkonini beradi. Bolalarning tezkorligini aniqlashda 30 m., chidamliligi uchun 400 m., chaqqonligiga 3x10 mokisimon yugurish, oyoq kuchi uchun turgan joydan uzunlikka sakrash, qo'l, gavda mushaklari kuchini aniqlashda gimnastika devoriga tirmashib chiqish mashqlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida 110 nafar boshlang'ich sinf (1-2-sinf) o'quvchilaridan ushbu test me'yorlari qabul qilindi.

3-jadval.

**Bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini baholovchi test me'yorlari natijalari (n=110).**

Testlar	O'g'il bolalar								Qiz bolalar							
	a'lo		yaxshi		qoniqarli		qoniqarsiz		a'lo		yaxshi		qoniqarli		qoniqarsiz	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
30 m (sek)	31	47,7	19	29,2	10	15,4	5	7,7	18	40,0	21	46,7	4	8,9	2	4,4
400 m (min:sek)	20	30,8	27	41,5	15	23,1	3	4,6	13	28,9	18	40,0	8	17,8	6	13,3
3x10 mokisimon (sek)	23	35,4	19	29,2	21	32,3	2	3,1	11	24,4	18	40,0	15	33,3	1	2,2
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	25	38,5	16	24,6	21	32,3	3	4,6	10	22,2	21	46,7	12	26,7	2	4,4
Gimnastika devoriga tirmashib chiqish (sm)	17	26,2	20	30,8	19	29,2	9	13,8	8	17,8	14	31,1	15	33,3	8	17,8

4-jadval.

**Bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini baholovchi test me'yorlari natijalarining % hisobida ko'rinishi (n=110).**


Testlar	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
30 m (sek)	44,5	36,4	12,7	6,4
400 m (min:sek)	30,0	40,9	20,9	8,2
3x10 m mokisimon (sek)	30,9	33,6	32,7	2,7
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	31,8	33,6	30,0	4,5
Gimnastika devoriga tirmashib chiqish (sm)	22,7	30,9	30,9	15,5
$\bar{X}$	32,0	35,1	25,5	7,5

Qabul qilingan test natijalarida 110 nafar o'quvchidan (65 ta o'g'il bola va 45 ta qiz) 49 tasi (44,5%) a'lo, 40 tasi (36,4%) yaxshi, 14 tasi (12,7%) qoniqarli va 7 tasi (6,4%) baholarni qayd etdi. Bolalarning ushbu ko'rsatkichlari orasida ayrimlarining natijalari juda yuqori ekanini qayd etish lozim. Masalan, 19 ta o'quvchi 30 m.ga yugurishda, 14 ta o'quvchi 400 m.ga yugurishda "A'lo"dan yuqori natija qayd etdilar. Turgan joydan uzunlikka sakrashda 22 ta o'quvchi 170 sm.dan uzoqroqqa sakragani kuzatildi. Gimnastika devoriga tirmashib chiqishda esa kutilgan ijobiy natija qayd etilmadi. O'quvchilarning qo'l mushaklari kuchsiz ekani sabab, o'g'il bolalarning 13,8%i, qizlarning esa 17,8%i talab me'yorlarini topshira olmadilar.

**Xulosa** qilib aytish mumkinki, tadqiqotimiz davomida bolalarning yangi atletika turlariga saralash va yo'naltirish bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishi yo'lida mamlakat miqyosida jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining tub mazmuni va maqsadi aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng



tadbiq etish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug’ullanishlarini tashkil etish va ular orasidan iqtidorlilarini professional sportga yo’naltirish kabi ustivor vazifalar aniq qilib belgilab qo’yilgan.



**1-rasm. Bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini baholovchi test me'yorlari natijalarining % hisobida ko'rinishi (n=110)**

Bolalarni yengil atletika turlariga saralashning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, psixologik hamda jismoniy tayyorgarligini maxsus test usulida nazoratdan o'tkazildi. Tadqiqotga jalb etilgan 110 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilarining deyarli hammasi aniqrog'i, umumiyning 92,5%i belgilangan talab me'yorlarini topshira oldilar. Biroq aytib o'tish joizki, 30 m.ga yugurishda 94,6%, 400 m.ga yugurishni 91,8%, 3x10 m.ga mokisimon yugurishda 97,3%, turgan joydan uzunlikka sakrashda 95,5%, gimnastika devoriga tirmashib chiqishda esa 84,5% sinaluvchilar talab me'yorlarini topshira olganini ko'rishimiz mumkin. Aytish mumkinki, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning tabiiy ravishdagi ushbu ko'rsatkichlari ularning harakat faolligi, jismoniy tarbiya darslarida egallagan ko'nikmalari va albatta, oiladagi hayot tarzining qanday ekanini namoyon etadi. Bularning ayrimlari esa genetik jihatdan ota-onasi va ulardan avvalgi ajdodlarining sportga bo'lgan qiziqishi va faolligining natijasida bolada ham o'z aksini ko'rsatmay qolmaydi.

Tadqiqotga jalb etgan bolalarning talab me'yorlarini topshirish chog'idagi o'zlarining tutishi, mashqlarni zavq bilan bajarayotgani va g'oliblikka bo'lgan intilishi ham kuzatildi. Bu esa bolalarning bu yoshdayoq bahslashishga, musobaqalashishga bo'lgan qobiliyatlarining yaxshi shakllanganidan dalolat beradi. Bu kabi saralash ishlarini izchil ravishda doimiy va uzluksiz barcha yosh toifalarida davom ettirish, kelgusida sport zaxirasiga iqtidorli yoshlarni tayyorlash borasidagi vazifalarga ijobiy yechim bo'la oladi.

#### Adabiyotlar:

1. G'aniboyev I.D., Xo'jamkeldiyev G'.S. / O'quv qo'llanma. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari "Yengil atletika" / O'quv qo'llanma. - Chirchiq.: 2019-yil.
2. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., Smuriygina L.V., To'xtaboyev N.T. va boshqalar. / Darslik. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari "Yengil atletika". – Toshkent, 2018 y.
3. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To'xtaboyev N.T., Smuriygina L.V. va boshqalar. / Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati. / Darslik. – Toshkent, Ilmiy texnika axboroti-press nashtiyoti, 2018-yil.
4. Olimov M.S., Soliyev I.R., Haydarov B.Sh. / Darslik. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – Toshkent.: 2017-yil.

**TALABALARINING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TABAQALASHTIRILGAN USLUBIYATI**

**Ernazarov G‘olibjon Ne‘matovich,**

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali*

*“Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariya” kafedarasini mudiri,*

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*golibjonematovich@gmail.com*

*Ushbu maqolada talabalarning jismoniy sifati va tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan tabaqalashtirilgan usullarning ahamiyati va foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Jismoniy tarbiyada talabalarni tabaqalashtirilgan holda tarbiyalash, ularning imkoniyatlariga qarab individual yondashuvlardan foydalanish, talabalarning umumiy va maxsus jismoniy ko‘rsatkichlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Maqolada jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan asosiy omillar, metodlar va metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *tabaqalashtirilgan usullar, jismoniy sifatlari, talabalar, jismoniy tarbiya, tayyorgarlik darajasi, individual yondashuv.*

**ДИФФЕРЕНЦИРОВАННАЯ МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ  
СТУДЕНТОВ**

*В данной статье рассматривается важность и возможности использования дифференцированных методов, направленных на повышение физического качества и уровня подготовки студентов. В физическом воспитании большое значение в развитии общих и специальных физических показателей учащихся имеет дифференцированное воспитание учащихся, использование индивидуальных подходов с учётом их возможностей. В статье анализируются основные факторы, методы и методические подходы, лежащие в основе развития физических качеств.*

**Ключевые слова:** *дифференцированные методы, физические качества, студенты, физическое воспитание, уровень тренированности, индивидуальный подход.*

**DIFFERENTIATED METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL  
QUALITIES OF STUDENTS**

*This article discusses the importance and possibilities of using differentiated methods aimed at improving the physical quality and level of training of students. In physical education, differentiated education of students, the use of individual approaches taking into account their capabilities are of great importance in the development of general and special physical indicators of students. The article analyzes the main factors, methods and methodological approaches underlying the development of physical qualities.*

**Keywords:** *differentiated methods, physical qualities, students, physical education, level of training, individual approach.*

**Kirish.** Hozirgi kunda jismoniy tarbiya jarayoni samaradorligi odamning ijtimoiy moslashuvi darajalarini va salomatligini tavsiflaydigan mezonlar hamda talabalarning jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarligini doimiy nazorat qilish va hisobga olish bilan bog‘liq.

Jismoniy sifatlari deganda insonning harakat qobiliyatining alohida sifat tomonlari va alohida harakatlari tushuniladi. Ularning rivojlanish darajasi faqatgina jismoniy omillar bilangina emas, balki ruhiy, jumladan, intellektual va irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

**Asosiy qism.** Jismoniy sifatlarni har tomonlama va o‘z vaqtida rivojlantirish zarur. Jismoniy sifatlari xususiyatlar tarkibida tabiiy qobiliyat (kuch-kuchsizlik, harakatchanlik, harakatsizlik) ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi asab tizimining tipologik xossalari bilan bog‘liqdir.

**Chidamkorlik tushunchasi.** Chidamkorlik – kasbiy, sport amaliyotida (sport turining har bir turida u yoki bu darajada) va kundalik hayotda namoyon bo‘luvchi charchashga qarshi kurashishning jismoniy alomatlari sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘zida insonning ishlash qobiliyati umumiy darajasini aks ettiradi. Jismoniy tarbiya nazariyasida chidamkorlik deganda insonning uzoq vaqt davomida ish quvvati yoki jadallikni pasaytirmasdan bajarishi yoki organizmning charchoqqa qarshilik ko‘rsatish qobiliyati tushuniladi.

**Tezlik qobiliyati tushunchasi.** Tezkorlik – bu odamni bir lahzada o‘ziga xos sharoitlarda tashqi qo‘zg‘ovchiga qisqa vaqt ichida yuqori tezlik harakati bilan ta’sirlanish vaqtidir. Uzoq vaqt davom etuvchi

ta'sirlanish esa – bu to'satdan paydo bo'lgan signalga javoban bajarilgan aniq harakat yoki ish hisoblanadi. Signalga javob berish vaqti signal berilishi va unga javoban harakat bajarilishi bilan o'lchanadi. Bu vaqt quyidagilar bilan belgilanadi: retseptorlarning uyg'onishi va sensor markazlariga impuls yuborilish tezligi bilan; markaziy asab tizimida signalga ishlov berish tezligi bilan; signalga javob berish qarorini qabul qilish tezligi bilan; harakatlarni boshlashga signal yuborish tezligi bilan; bajaruvchi mushaklarda harakatga qo'zg'alish tezligi bilan. Ko'pgina hollarda sportchidan signalga oddiy javob berish emas, balki ayrim vaziyatda (sport o'yinlari, qilichbozlik, yengil atletikada ishora beruvchining ishorasi va h.k.) bir ishoraga javob berish, ikkinchisiga esa javob yo'q bo'lgan holatlarni baholash talab etiladi. Tabiiy holki, bu ishoraga javob berish vaqtini uzaytiradi.

*Kuch tushunchasi.* Kuch – bu insonning mushak kuchi qisqarishi evaziga tashqi muhitga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. Kuch sportning aytarli barcha turlarida jismoniy sifatlarning eng muhimi hisoblanadi. Shuning uchun uning rivojlanishiga sportchilar juda katta ahamiyat beradilar.

Og'ir yukni ushlab turish, ko'tarish, tushirish bilan bog'liq bo'lgan sport yoki kasbiy usullarni bajarish vaqtida mushaklar qarshilikni yengib qisqaradi yoki kaltaroq bo'ladi. Bunday ish yenguvchi deb ataladi. Biron-bir qarshilikni yengish vaqtida, mushaklar tortilgan payti, masalan, juda og'ir yukni ko'targanda uzayishi ham mumkin. Bunday holda ularning ishi yon bosuvchi deb ataladi. Bularning ikkalasi bir nom bilan – dinamik kuch deb ataladi.

Trenajyorlardagi badan qismlarining siljish tezligi berilgandagi rejim izokinetik deb ataladi (suzish, eshkak eshish). Agar harakatlar sportchi tomonidan kuch ishlatilmasdan mushaklar uzunligining o'zgarishsiz bajarilsa, bu holda turg'un rejim haqida so'z boradi. Bunday kuch turg'un deb ataladi. Kuch va mushaklarning qisqarish tezligi orasida teskari tobelik mavjuddir.

Bu sifat (kuch)ning ruhiy mexanizmlari ular ishining turli rejimidagi zo'riqishini boshqarish bilan bog'liq:

- izometrikda – mushaklar uzunligining o'zgarmasligi;
- miometrikda – mushaklar uzunligi qisqarishi;
- pliometrikda – mushak cho'zilganda uning uzunligining ortishi.

Bu tartib o'tirib-turish bilan, to'pni otish vaqtida qo'lni ko'tarish bilan bog'liq.

Insonning kuch sifatlarini pedagogik jihatdan baholashda quyidagi turlar ajratiladi: maksimal izometrik (turg'un kuch) benihoya zo'riqishning aniq vaqt ichida ushlab turishda nomoyon bo'ladigan kuch ko'rsatkichi; sekin dinamik (siltamasdan tik ko'tarish kuchi) katta massali jismlarni joydan-joyga ko'chirish vaqtida nomoyon bo'ladigan (bu vaqtda ko'chirish tezligi amaliy ahamiyatga ega bo'lmaydi); “portlovchi” kuch – qisqa vaqt ichida mushaklarning yuqori kuchlanishsiz qarshilikni yengish.

Sport amaliyotida portlovchi kuch turli harakatlarda namoyon bo'lib, turlicha nomlanadi: sakrovchanlik (yerdan itarilganda); keskinlik (to'pni urganda); amortizatsion kuch mushaklarning qisqa vaqt ichida yon bosish rejimida ishlashida, masalan, sakrashning turli ko'rinishida tayanchga tushishda kuchlanishning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Kuch chidamkorligi harakatning kerakli kuchini uzoq vaqt ushlab turish bilan baholanadi.

Dinamik ishdagi kuch chidamkorligi va turg'un chidamkorlik (tanani kam harakatlanish holatini saqlab qolmoq va h.k.) ajratiladi. Oxirgi vaqtda kuch tavsiflaridan yana biri o'z rivojini topdi – namoyon etiladigan kuch zo'riqishini saqlab qolgan holda bir rejimdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati. Buning uchun maxsus yo'naltirilgan mashg'ulotlar kerak bo'ladi.

O'zining tavsifi bo'yicha kuchni rivojlantirishga yordam beruvchi barcha mashg'ulotlar quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi: mushaklarga umumiy, hududiy va lokal ta'sir etuvchilar.

Zo'riqish (kuch ishlatiladigan) mashqlar ta'sir etish yo'nalishlari asosan quyidagilar bilan belgilanadi:

- mashqlarning turi va ko'rinishi bilan;
- og'irlashtirish yoki qarshilik ko'rsatish kattaligi bilan;
- mashqlarni takrorlash soni bilan;
- yengiluvchi yoki yon bosuvchi harakatlarni bajarish tezligi bilan;
- mashqlarni bajarish jadalligi bilan;
- urinishlar orasidagi dam olish vaqtining uzoqligi va tavsifi bilan.

Nisbatan katta bo'lmagan qarshilikka qarshi tez harakatlarni bajarishda Tezkor-kuch namoyon bo'ladi. Tezkor-kuchni rivojlantirish uchun og'irlashtirish bilan mashqlar va sakrash mashqlari bajariladi.

*Egiluvchanlik tushunchasi.* Jismoniy tarbiya amaliyotida egiluvchanlik tana bo'g'inlari harakati imkonini aniqlovchi, insonning tayanch harakat apparatining ko'p vazifaviy xususiyati deb hisoblanadi.

*Chaqqonlik tushunchasi.* Chaqqonlik murakkab sifat bo'lib, yaxshi koordinatsiya va harakatning oliy aniqligi bilan tavsiflanadi.

Chaqqonlik – bu murakkab harakatlarni tezda ilg‘ab olish va o‘zgaruvchi vaziyat talabiga muvofiq harakat faoliyatini aniq qayta qurish qobiliyatidir. Chaqqonlik, ma‘lum darajada, tug‘ma sifat bo‘lib, mashqlar yordamida uni sezilarli darajada takomillashtirish mumkin.

*Jismoniy sifatlar orasida o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro tobelik.* Mashg‘ulotlarning boshlang‘ich davrida jismoniy sifatning birini rivojlantirish boshqalarning takomillashtirilishiga olib keladi. Biroq kelajakda bu sifatning rivojlanishi to‘xtab qoladi. Oldin barcha jismoniy sifatning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi mashqlar bunda faqatgina ularning ayrimlariga ta‘sir eta boshlaydi. Kelajakda, hattoki, alohida sifatlar orasida o‘zaro qoniqarsiz ta‘sir namoyon bo‘lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya sohasida talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga alohida e‘tibor qaratish zarurati tobora ortib bormoqda. Bunda talabalarning imkoniyatlari, ularning jismoniy holati va salomatlik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda, individual yondashuvni talab etadigan tabaqalashtirilgan usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Jismoniy sifatning rivojlantirish uchun individual yondashuvning samaradorligi, talabalarning jismoniy tarbiyasini uyg‘unlashtirishga imkon beradi va ularning salomatligi, o‘zini tutishi hamda hayotiy faoliyati uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning jismoniy sifatlarini tabaqalashtirilgan holda rivojlantirishning ahamiyati. Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy holatni, balki talabalarning ruhiy, psixologik holatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning turli jismoniy sifatleri, jumladan, tezlik, kuch, chidamlilik, harakatchanlik va koordinatsiya rivojlanadi. Lekin bu jarayonda har bir talabaning imkoniyatlari har xil bo‘ladi. Shuning uchun ham tabaqalashtirilgan usullar juda muhimdir. Tabaqalashtirilgan usul talabalarni jismoniy holatiga qarab guruhlariga ajratishni va har bir guruh uchun alohida mashg‘ulotlar rejasini tuzishni talab etadi. Bu usul talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda samarali natijalar berishi mumkin. Talabalarning jismoniy holatiga qarab ularning turli jismoniy faoliyatlarga bo‘lgan reaksiyalari, chidamliligi va quvvati turlicha bo‘ladi. Bu esa jismoniy mashqlar jarayonida individual yondashuvni talab qiladi.

Tabaqalashtirilgan usulni qo‘llash tartibi: Tabaqalashtirilgan usullarning asosiy vazifasi talabalarning jismoniy sifatlarini individual ravishda rivojlantirishdir. Bu jarayonda quyidagi tadbirlar qo‘llanilishi mumkin:

1. Talabalarning jismoniy holatini tahlil qilish va baholash. Bu bosqichda talabalarning umumiy jismoniy holati va tayyorgarlik darajasi turli testlar orqali baholanadi. Masalan, yugurish, sakrash, turli chidamlilik va kuch testlari orqali har bir talabaning jismoniy holati aniqlanadi.

2. Tabaqalashtirilgan guruhlariga ajratish. Test natijalari asosida talabalar jismoniy holatiga ko‘ra guruhlariga bo‘linadi. Bir guruhdagi talabalarning jismoniy sifatleri bir-biriga yaqin bo‘lishi lozim. Bu esa mashg‘ulotlarning samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

3. Turli mashg‘ulotlar rejasini tuzish. Har bir guruh uchun individual mashg‘ulotlar rejasini ishlab chiqiladi. Mashqlar jarayonida talabalarning chidamliligi, quvvati va quvvatdan tiklanishiga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Masalan, kuchga asoslangan mashqlar uchun bir guruhda chidamlilikni oshirishga yo‘naltirilgan mashqlar qo‘llansa, boshqa guruhda tezlik va kuchni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tashkil etiladi.

4. Jarayonni nazorat qilish va baholash. Mashg‘ulotlar jarayonida har bir talabaning holati doimiy ravishda kuzatib borilishi kerak. Jismoniy sifatlar rivojlanishini baholash va zaruriyat tug‘ilganda mashg‘ulotlar rejasiga o‘zgartishlar kiritish muhimdir.

Tabaqalashtirilgan usulni qo‘llashning afzalliklaridan biri shundaki, u har bir talabaning imkoniyatlarini hisobga oladi va ularni individual tartibda rivojlantiradi. Bu talabalarning jismoniy holatini yaxshilashga, ularning umumiy jismoniy holatini mustahkamlashga va mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, talabalarning jismoniy rivojlanishi ularning umumiy salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jismoniy faoliyat kasalliklarning oldini olishda va insonning hayot sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tabaqalashtirilgan usul talabalarga individual yondashuvni ta‘minlab, ularning salomatligi va jismoniy tayyorgarligini oshirishda katta yordam beradi [1].

Jismoniy sifatning takomillashtirish uchun, odatda, an‘anaviy usullar qo‘llaniladi. Ular bir qator salbiy oqibatlariga – passivlik, tashabbusning bo‘lmasligi, mustaqil bo‘lmaslik, xulq-atvorining sxematikligi, faollikni qo‘llab turishi uchun tashqi omillarga bo‘lgan ortiqcha ehtiyojga ega. Talabalarning jismoniy tarbiyasida ijodiy tafakkur va faollikni rivojlantiruvchi usullar hozircha mavjud emas. Uzoq muddatli ish usuli: ta‘sir kuchi (qo‘zg‘atuvchanlik) maksimal quvvatdan – 25 % dan to 75 % gacha shiddatli tarzda ortadi. Ta‘sir zichligi – tanaffuslarsiz mashq bajarish. Ta‘sir hajmi juda katta. Ta‘sirning davomiyligi juda uzoq (yoki uzoq bajariladigan mashq, yoki juda ko‘p qisqa muddatli mashqlar). Mashg‘ulotlar samarasi – irodaga oid sifatlar, umumiy chidamkorlik, maxsus (lokal) mushak chidamkorligi. Ta‘sirning davomiyligi – 14 soniyadan to 70 soniyagacha.

Intervalli usul: a) ekstensiv intervalli ish. Ta’sir kuchi maksimal quvvatdan 60 % dan to 80 % gacha. To‘xtamlarning davomiyligi har biriniki 45 dan to 90 soniyagacha. Har bir mashq taxminan 20 tadan to 30 tagacha takrorlanadi (seriyalar bilan ham bo‘lishi mumkin). Mashg‘ulotlar samarasi umumiy va kuch chidamkorligiga yo‘naltiriladi; b) jadal intervalli ish. Ta’sir kuchi maksimal quvvatdan 80 % dan to 90 % gacha. Ta’sir hajmi har bir seriyada 10 dan to 12 ta takrorlashlarga gacha. Mashqlarning davomiyligi 12,5 dan to 60 soniyagacha tashkil qiladi. Mashg‘ulot samarasi maxsus tezkorlik va kuch chidamkorligiga, Tezkor-kuchga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Takroriy ish usuli. Ta’sir kuchi maksimal quvvatdan 90 % dan to 100 % gacha. Dam olish intervallari 2 dan to 3 daqiqagacha. Ta’sir hajmi har bir seriyada 3 tadan to 6 ta takrorlashlarga gacha. Ta’sirning davomiyligi qisqa. Mashg‘ulotlar samarasi maksimal kuch va tezkorlik bilan, Tezkor-kuch qobiliyatlari bilan bog‘liq [2,3].

Tajriba ishlari talabalarining jismoniy madaniyat darslarida, turli darajadagi jismoniy sifatlarga ega bo‘lgan talabalarining o‘quv mashg‘ulotlarida uch oydan ikki bosqichga bo‘lib olib borildi. O‘quv yili boshida talabalarining jismoniy sifatlarning rivojlanganlik holatini bilish maqsadida nazorat testlarni o‘tkazildi. Undan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan nazorat mashqlaridan olingan ma’lumotlarga qarab oldingi tayyorgarligiga nisbatan o‘zgarishlar faraz qilindi. Shuning uchun ushbu tajriba ishlari aynan tajriba guruhidagi talabalarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan va tabaqalashtirilgan mashg‘ulot uslubiyati asosida rejalashtirildi.

Shuningdek, tajriba uchun Farg‘ona davlat universitetining jismoniy tarbiya bo‘yicha nomutaxassis fakultetlari hisoblangan fizika-matematika hamda tarix fakulteti talabalari tanlab olindi. Tajriba guruhiga tanlab olingan umumiy 161 nafar talabalarining 81 nafari qiz bolalar, 80 nafari o‘g‘il bolalarni tashkil etdi. Nazorat guruhiga esa jami 75 nafar talaba (37 nafar qiz bola, 38 nafar o‘g‘il bola) tanlab olindi.

Jismoniy mashq turi bo‘yicha turnikda tortilishni o‘rganish uchun haftaning dushanba, chorshanba, juma kunlarining birinchi yarimida baland turnikda osilib turish mashqi 2 daqiqadan, 3 seriya, 3 marotaba takrorlansa, shu qatorda baland turnikda (belda yoki yelkada) yuk bilan tortilish harakati 10-15 soniyadan, 3-4 seriya, 3-4 marotaba takrorlanishlar bajarilgandan so‘ng, past turnikda oyoqlarni oldinga uzatib, chalqancha yotgan holda tortilish 20-40 soniya oralig‘ida, 3-4 seriyadan iborat bo‘lgan 3-4 marta takrorlanishlarni bajarish tartibiga qat’iy rioya etib olib boriladi. Mazkur mashqlar tartibi 5 oydan keyin, turnikda tortilish davomiyligi 15-20 marotaba bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Talabalarining tajriba guruhi talabalarining kuch sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlari bo‘yicha. Talaba o‘g‘il bolalarda shtangani belgacha ko‘tarish shaxsiy vazning 50 %dagi og‘irlikdan bajarish mashqda tajriba boshida o‘rtacha 15,80 (marta) bajargan bo‘lsa, biz tomonimizdan tavsiya etilgan tabaqalashtirilgan mashqlar majmuamasini muntazam bajarib borgan tajriba guruhidagi talaba o‘g‘il bolalariniki o‘rtacha 16,63 martaga oshgan, jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari tajriba yakuniga kelib ishonchli darajada rivojlangan ( $R < 0.05$ ).

Tajribalar natijasiga ko‘ra, an’anaviy mashg‘ulotlar asosida shug‘ullangan nazorat guruhi talaba qiz bolalarining jismoniy tayyorgarligi trenajerda oyoqlarni bukib yozish bo‘yicha tajriba boshida o‘rtacha 7,50 martani tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib o‘rtacha 7,84 martani ko‘rsatgan ( $R > 0,05$ ), bu esa ishonchsiz rivojlanganligidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Tadqiqot davomidagi nazorat guruhi talabalari a’nanaviy, ya’ni davlat dasturi asosida o‘qishni davom etirganda, olingan natijalar tajriba boshida va tajriba yakunidagi ko‘rsatkichlar solishtirilganda past darajada o‘sganligi aniqlandi. Talabalarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan usullarni qo‘llash zamonaviy jismoniy tarbiya tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul talabalarining jismoniy holati, qobiliyati va individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos tarzda mashg‘ulotlar o‘tkazish imkonini beradi. Tabaqalashtirilgan yondashuv talabalarining jismoniy sifatlarini maqsadli ravishda rivojlantirishga, ularning salomatligini yaxshilashga va mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday usul talabalarining hayotiy faoliyat va kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning umumiy ruhiy va psixologik holatiga ham yaxshi ta’sir qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Ernazarov G. N. (2022). Due to anthropogenic changes in the ecological conditions, the negativity that occurs in the aerobic capacity of students. // International journal of social science & Interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(12), 132-139.
2. Gafurov A. U., & Ernazarov G. N. (2023). Improving the knowledge of future physical education teachers in sports tourism // Oriental Journal of Social Sciences, 3(03), 59-67.
3. Эрнazarов Г. (2023). Талабалари жисмоний сифатларини кўрсаткичи // Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 5), 85-92.

## YOSH FUTBOLCHILARDA TEXNIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

*Sharipov Fayzullo Maribjon o'g'li,*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali o'qituvchisi  
6865994@gmail.com*

*Yosh futbolchilarda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, yosh, murabbiylik uslubi, individual qobiliyat va atrof-muhit sharoitlari kabi turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada futbol sportida yosh futbolchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy jihatlari haqida umumiy ma'lumot berishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ko'nikma, dribling, texnika, mashg'ulot, to'pga zarba berish, tajriba, tezkor qaror, maydon, takomillashtirish, yo'l-yo'riq, sport, strategiya, karera.*

## РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

*Развитие технических навыков у молодых игроков - это многогранный процесс, на который влияют различные факторы, такие как возраст, стиль тренировок, индивидуальные способности и условия окружающей среды. Эта статья призвана дать обзор основных аспектов развития технических способностей юных футболистов в футбольном спорте*

**Ключевые слова:** *навыки, dribлинг, техника, тренировка, удар по мячу, опыт, быстрое решение, поле, улучшение, руководство, спорт, стратегия, карьера..*

## DEVELOPMENT OF TECHNICAL SKILLS IN YOUNG PLAYERS

*The development of technical skills in young players is a multifaceted process, influenced by various factors such as age, coaching style, individual ability and environmental conditions. This article aims to give an overview of the main aspects of the development of technical abilities of young players in the sport of football.*

**Keywords:** *skills, dribbling, technique, training, ball hitting, experience, quick decision, field, improvement, guidance, sport, strategy, career.*

**Kirish.** Texnik ko'nikmalarni egallash o'zlari tanlagan sport turi bo'yicha yuksaklikka intilayotgan yosh sportchilar uchun asosiy hisoblanadi. Futbol to'pini aniq dribling qilishmi, basketbol to'pini aniq otishmi yoki mukammal tennis xizmatini bajarish bo'ladimi, bu ko'nikmalarni mukammallashtirish alohida kuch va yo'l-yo'riqni talab qiladi. Ushbu maqolada biz yosh o'yinchilarga texnik qobiliyatlarini yaxshilash va maydonda, kortda yoki maydonda to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan samarali strategiyalarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, yoshga mos keladigan o'qitish metodologiyasining ahamiyatini tan olish kerak. Yosh o'yinchilar o'sib ulg'aygan sari jiddiy jismoniy, kognitiv va hissiy o'zgarishlarga duch kelishadi, bu esa moslashtirilgan murabbiy yondashuvlarini talab qiladi. Dribling, to'p uzatish, zarba berish va to'pni nazorat qilish kabi asosiy ko'nikmalarga erta ta'sir qilish yanada ilg'or usullarni qurish uchun po'ydevor yaratadi.

Qolaversa, yosh futbolchilarning texnik jihatdan rivojlanishini shakllantirishda murabbiylarning rolini ham aytib bo'lmaydi. Samarali murabbiylar ko'nikmalarni egallashni zavq bilan muvozanatlashtiradigan, ijobiy o'quv muhitini yaratadigan qiziqarli mashg'ulotlarni yaratish qobiliyatiga ega. Bundan tashqari, konstruktiv fikr-mulohaza va individual e'tiborni taqdim etish o'yinchilarga o'z texnikasini yaxshilash va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy o'quv qurollari va texnologiyalaridan foydalanish yosh sportchilarning o'quv tajribasini oshirish imkonini beradi. Video tahlillari, virtual reallik simulyatsiyalari va taqiladigan qurilmalar o'yinchilarning ishlashi haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etib, texnik mahoratning muayyan sohalarida maqsadli yaxshilanishlarni osonlashtiradi.

Yosh futbolchilarning mashg'ulot o'tkazayotgan va raqobatlashayotgan ijtimoiy va atrof-muhit sharoitlari ham ularning mahoratiga ta'sir qiladi. Sifatli imkoniyatlardan foydalanish, tengdoshlar bilan muloqot va raqobatbardosh imkoniyatlar o'yinchilarning qobiliyatlari va maydondagi ishonchini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh futbolchilarda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish dinamik jarayon bo'lib, u yoshga mos tayyorgarlik metodologiyasini, samarali murabbiylik amaliyotini, texnologiyadan

foydalanishni, ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olishni o'z ichiga olgan yaxlit yondashuvni talab qiladi. Murabbiy va murabbiylar ana shu muhim jihatlarga e'tibor qaratish orqali yosh sportchilarning iqtidorini tarbiyalashi, ularning futbol sportida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi mumkin.

Murakkab texnikaga sho'ng'ishdan oldin, asosiy ko'nikmalarning mustahkam poydevorini yaratish juda muhimdir. Murabbiylar to'p uzatish, dribbling, zarba berish va to'pni nazorat qilish kabi asosiy harakatlarni o'rgatishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Keyinchalik rivojlanishga to'sqinlik qiladigan yomon odatlarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun boshidan to'g'ri texnikani ta'kidlashlari kerak.

Barselonaning sobiq futbolchi va murabbiyi Xavining fikricha, muvaffaqiyatlar iste'dodga emas, balki Kroyf prinsipini tushunishga bog'liq: "men futbol dahosi emasman. Men shunchaki Kroyf maktabining talabasiman. Kroyf futbolni bitta jumla bilan sarhisob qildi: "futbolni bosh bilan o'ynash kerak". Men har doim miyamni maydonda ishlatishim kerak edi. Men Mbappe emasman. U tez yuguradi, to'pni tashlaydi, raqibni chetlab o'tadi. Menda Mbappeni oyoqlari yo'q, buning o'rnini qoplash uchun miyam kerak. Men 11 yoshimda "Barsa" ga keldim va birinchi kundan boshlab har bir harakat va mashqni tushunishga majbur bo'ldim. Agar maydonda nima bo'layotganini tushunmasangiz, futbol o'ynay olmaysiz. Hamma narsa to'pning oyoq bilan aloqa qilishidan ancha chuqurroqdir. Har bir fikr, har bir savol yangi istiqbollarni ochib beradi. Nega bizdan bir-birimizga bo'sh joy yaratishimiz so'raladi? Hammasi mantiqqa va texnik mahoratga asoslangan. Tasavvur qiling-a, menda to'p bor, men uni sherigimga o'tkazmoqchiman, lekin oramizda raqib bor. Agar men va sherik o'rtasida yetarli joy bo'lsa, unda raqib hech narsa qila olmaydi. Agar bo'sh joy yetarli bo'lmasa, hatto, eng texnik mahorat yuqori o'yinchilar ham to'pni yo'qotadilar. Bu Kroyf akkordeonidir. To'p bizda bo'lmasa, nima qilish kerak? O'zingizni tez himoya qiling. Nima uchun? Raqibni bo'g'ish uchun, uni bo'sh joydan mahrum qilish. Raqibning maydoni qanchalik kichik bo'lsa, u bizning darvozamizga etib borish ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Futbol-tezkor fikrlab tez qaror qabul qilib o'ynaladi va buning uchun yuqori texnik mahorat talab etiladi deya fikr bildiradi Xavi.

Yosh futbolchilarda texnik mahoratni yuksak bo'lishini ta'minlashimiz ularni yuqori ligalarda ko'rishimiz uchun, albatta, har bir kichik elementga ham e'tibor berish maydonda bosqichma-bosqich mashqlarni ketma-ketlikda uyg'unlashtirib mashg'ulotni tashkil etish kerak. Misol uchun, futbolchi to'pni qanotda olsa, maydonning barcha qismlarida nima bo'layotganini ko'rishi kerak. Agar futbolchi tribunalardagi muxlislarga qarasa unda maydonni xis qilmaydi. Bu oddiy, lekin futbolchilardan bunday xatoga yo'l qo'yishadi. Nima uchun ular bunday qilishadi? Aslida ular diqqatni jamlashi va qanday qilib burilish? har doim maydonni ko'rishi kerak. To'pni olganda, maydon ko'rinadigan joyda bo'lishi. Bo'sh joy haqida ma'lumot olishi va vaqtni tejashi kerak. Mantiqan, to'g'rimi? Ammo ba'zi o'yinchilar qiyin vaziyatlarga tushib qolishadi. Nega? Chunki yoshligidan bunday xislat shakllantirilmaganni bunga pand beradi. Keyin ular qimmatli vaqtni yo'qotib, burilishlari kerak. Futbolda vaqtni yo'qotish oltinni yo'qotishga o'xshaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.** Iste'dod nima? Bu nima qilayotganingizni va boshqalar nima qilayotganini nazorat qilish qobiliyatidir – bu faqat oyoqlaringni emas, balki aqlni ishlatib futbol o'ynash demakdir. Bugungi kunda futbol maktablarida texnikadan ko'ra ko'proq jismoniy kuchni afzal ko'rishadi, to'g'ri lekin faqat jismoniy sifatlar bilan futbol o'ynab bo'lmaydi. Masalan mashg'ulotlarda 60% jismoniy tayyorgarlik va 40% texnik tayyorgarlik o'tilsa bu bilan futbolchilarning qaysi xislatlari ko'proq rivojlanadi albatta jismoniy tayyorgarlik. Bunday holatda biz futbolchilarga qachon aql bilan futbol o'ynashni o'rgatamiz bunda faqat talantlarni yo'qotamiz. Biz xar doim professional futbolchhi tarbiyalash maqsadida ishlashimiz lozim.

Butun dunyo futboliga “tiki-taka” usulini olib kirgan Pep Gvardiola aslida Kroyf maktabi tarbiyalanuvchisi xisoblanadi. Gvardiola bu usulni shu qadar takomillashtirdiki bu taktik sxemaga qarshi o'ynash mushkuldek tuyulardi. Bu usulni Gvardiola birinchi bo'lib Barselona futbol klubida sinab ko'rdi. Buni ijro etishda unga texnik jihatdan eng yuqori ustunlikka ega futbolchilar Messi, Xavi, Iniesta uchligi yordam berdi va buni ular shu qadar ustalik bilan bajardilarki futbolni san'at darajasiga olib chiqdilar. Futbolni san'at darajasiga olib chiqqan bu uchlik ham Kroyf maktabi tarbiyalanuvchilari edilar.

Kroyf o'z intervyularining birida futbol o'yinini akkordeonga o'xshatishini aytgan: maydonda ochilish va yopilish haqida nazarda tutgan. Bu bilan u futbolchilarga bo'sh hududga ochilish agar bo'sh hudud yo'q bo'lsa bo'shliq yaratishni, agar raqib to'p bilan bo'lsa bo'sh hududlarni yopishni o'rgatgan.

Individual murabbiylik:

Har bir o'yinchining o'ziga xos kuchli, zaif tomonlari va o'rganish uslublari borligini tan oling. Har bir sportchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiy murabbiylikni taqdim eting. Muayyan malaka kamchiliklarini bartaraf etish uchun takomillashtirilishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlash va moslashtirilgan o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun baholashlarni o'tkazing.

Takrorlash va amaliyot:

Ko'nikmalarni egallash va mushaklar xotirasini rivojlantirish uchun takrorlash juda muhimdir. O'yinchilarga ikkinchi tabiatga aylanmaguncha texnik ko'nikmalarni qayta-qayta mashq qilish imkonini beradigan mashqlar va mashqlarni loyihalash. O'rganishni kuchaytirish va yaxshilanishni tezlashtirish uchun o'yinchilarni jamoaviy mashg'ulotlardan tashqari individual mashg'ulotlarga muntazam vaqt ajratishga undash.

#### **Rivojlanish va qiyinchilik:**

O'yinchilarning yaxshilanishi bilan mashg'ulotlar va mashqlarning qiyinligini asta-sekin oshiring. Qattiqqo'llikning oldini olish va doimiy o'sishni rag'batlantirish uchun yangi muammolar va o'zgarishlarni kiriting. Murakkab ko'nikmalarni kichikroq, boshqariladigan bosqichlarga bo'ling va o'zlashtirishni osonlashtirish uchun ularni asta-sekin o'quv mashg'ulotlariga qo'shing.

#### **Video tahlili:**

O'yinchilarga vizual fikr bildirish uchun video tahlil vositalaridan foydalaning. Mashq mashg'ulotlari yoki o'yinlarni yozib oling va yaxshilanishi kerak bo'lgan joylarni aniqlash uchun tasvirlarni birgalikda ko'rib chiqing. Texnika, qaror qabul qilish va joylashishni tahlil qilish uchun sekin harakatlanuvchi ijro va izohlardan foydalaning. O'yinchilarni o'rganish tajribasini oshirish uchun o'z-o'zini baholash va mulohaza yuritishda faol ishtirok etishga undash.

#### **Kichik o'yinlar:**

O'yinchilarga texnik ko'nikmalarini o'yinga o'xshash sharoitda qo'llash imkoniyatini yaratish uchun mashg'ulotlarga kichik qirrali o'yinlarni qo'shing. Kichik qirrali o'yinlar faol ishtirok etishga, tezkor qaror qabul qilishga va taktikadan xabardorlikka yordam beradi. O'yin maydonining o'lchamini va o'yinchilar sonini mashg'ulotning rivojlanish darajasi va maqsadlariga mos ravishda sozlang.

#### **Ijodkorlik va innovatsiyalar:**

O'yinchilar o'rtasida ijodkorlik va tajribani rag'batlantirish. Sportchilar yangi usullarni sinab ko'rishlari va o'zlarini erkin ifoda etishlari uchun qulay muhit yarating. O'yinchilarni maydondan tashqarida o'ylashga va o'ziga xos o'yin uslublarini rivojlantirishga undash va shu bilan birga asosiy prinsiplarning muhimligini ta'kidlang.

#### **Ijoby mustahkamlash va motivatsiya:**

Yosh o'yinchilarning yutuqlari va yutuqlarini tan oling va nishonlang. Ishonch va motivatsiyani oshirish uchun konstruktiv fikr-mulohazalar va ijobiy mustahkamlashni taklif qiling. Xatolar o'rganish va o'sish imkoniyatlari sifatida qaraladigan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash madaniyatini yarating.

#### **O'zaro mashg'ulotlar va umumiy sport rivojlanishi:**

Umumiy atletikani rivojlantirish va charchashning oldini olish uchun o'yinchilarni turli sport va tadbirlarda qatnashishga undash. Suzish, yoga yoki jang san'ati kabi o'zaro mashg'ulotlar har qanday sportda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan chaqqonlik, muvozanat, muvofiqlashtirish va kuchni oshirishi mumkin.

#### **Bir umrlik ta'lim:**

Doimiy o'rganish va takomillashtirish muhimligini ta'kidlab, yosh sportchilarda o'sish ongini shakllantirish. O'yinchilarni lagerlar, klinikalar yoki mavsumdan tashqari mashg'ulotlarga borish kabi keyingi rivojlanish imkoniyatlarini izlashga undash. O'yinga bo'lgan muhabbat va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan ishtiyoqni oshiring, bu ularning yoshlardagi sport karerasidan tashqariga chiqadi.

**Munozara.** Yosh futbolchilarning texnik ko'nikmalarni oshirib borishda o'rgatishning bosqichlarini aniqlab olish va sgu ketma-ketlikda uni amalga oshirish tavsiya etiladi. Yosh futbolchilarga futbol texnikasini o'rgatar ekansiz bolalar bir usulni to'liq o'rganib olmaslaridan keyingingi usullarga o'tish bu bolada o'sha elementlar yosh futbolchida takomillashmay qoladi demakdir.

Yosh futbolchilarga mashg'ulotlar aslida nima uchun kerakligini tushuntirib berish va o'yinni tushunib o'ynashni futbolchi yoshligidan unga singdirib borish kerak. Maydonda nima bo'layotganini tushunmaydigan ko'plab professional o'yinchilar bor. Ular shunchaki noto'g'ri o'qitilgan-maydonda nima bo'layotgani haqida o'ylash o'rgatilmagan. Jan Piagetning aytishicha, aql – bu biz ilgari bo'lmagan vaziyatga munosabat bildirish qobiliyatidir. Biz bu fikrga qo'shilishimiz kerak. Aql-idrok-bu siz ilgari hal qilmagan muammoga javob berish va moslashish qobiliyati. Yosh futbolchilarga 12 yoshdan boshlab futbolni tushunib o'ynashni o'rgatish zarur. Buning uchun, albatta, mashg'ulotlarda aqlni charxlovchi tezkor qaror qabul qiluvchi maxsus mashqlardan foydalanish kerak va albatta, texnik takomillashuvni yuqorida darajaga olib chiqish lozim.

Texnik elementlar, tezkor firlash to'pni qabul qilish va jamoadoshiga aniq oshirib berish bu futbolning bir qismi sanaladi agar bu xislatlarni futbolchilarga yoshlikdan o'rgatilmasa futbolchi bo'lib shakllanishi birmuncha qiyin kechadi, ya'ni yoshi katta bo'lgani sari taktik harakatlanish bilan birga qiyin jarayonga aylanib qoladi. Aslida o'rgatishning qiyin ekanligi ham shundadir.



**Xulosa.** Yosh o'yinchilarda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish tizimli mashg'ulotlar, individual mashg'ulotlar va doimiy yordamni birlashtirgan yaxlit yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada bayon etilgan strategiyalarni amalga oshirish va ijobiy ta'lim muhitini yaratish orqali murabbiylar yosh sportchilarga o'zlarining to'liq imkoniyatlarini ochishlari va maydonda va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Fidoyilik, qat'iyat va yo'l-yo'riq bilan yosh o'yinchilar o'zlari tanlagan sport turida muvaffaqiyat qozonish va sport orzularini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik mahoratni rivojlantirishlari mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Maguayr, J. va Pearton, R. (2020). Futbol biznesi. Routledge.
2. Hamill, S. (2018). Sport marketingidagi ijtimoiy media. Routledge.
3. UEFA. (2021). UEFA 2020/21 yillik hisoboti. UEFA.
4. Froschauer, S. va Björk, P. (Tahrirlar). (2020). Futbol industriyasida korporativ ijtimoiy mas'uliyat. Routledge.
5. Sharipov, F. (2023, April). The Importance of technical methods in the development of football skills. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 76-79).
6. Maribjon o'g'li, S. F. (2024). Futbol musobaqalarini tashkil etish: to'liq ma'lumot. Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati, 1(1), 217-219.
7. Sharipov, F. (2023, November). Futbol o'yinida darvozabonning o'yin texnikasi. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
8. Sharipov, F. (2023, November). Futbolning umumiy tavsifi. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
9. Sharipov, F. (2023, November). Futbolchilarni tayyorlash uslubiyati. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".
10. Sharipov, F. (2023, November). Futbol o'yinining paydo bo'lishi va rivojlanishi. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ТРЕНИРОВКАМ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СПОРТСМЕНОВ

Лукмонов Субхонжон Шавкиддин угли,

докторант Бухарского государственного педагогического института  
subhonjonluqmonov@gmail.com

*Индивидуальный подход в спортивной тренировке становится всё более актуальным, особенно в условиях возрастающих требований к физической подготовке спортсменов. В основе успешного развития физических качеств спортсменов лежит педагогический подход, учитывающий индивидуальные особенности, потребности и возможности каждого спортсмена. Современные методики тренировки и подходы к обучению базируются на использовании персонализированных программ, позволяющих достичь высокой результативности и избежать травм. Эта статья исследует основные педагогические принципы, лежащие в основе индивидуальных подходов к тренировке, и описывает методы адаптации тренировочного процесса под конкретные физические, психологические и мотивационные аспекты каждого спортсмена. Рассматриваются также современные цифровые технологии, позволяющие проводить мониторинг и корректировку тренировок в режиме реального времени, что делает подготовку ещё более точной и эффективной.*

**Ключевые слова:** индивидуальный подход, педагогические принципы, физические качества, персонализированные тренировки, спортивная подготовка, тестирование и диагностика, адаптивные тренировочные методы, психологическая подготовка, технология.

## SPORTCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK VA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR

*Sport mashg'ulotlariga individual yondashish, ayniqsa, sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi sharoitida tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Sportchilarning jismoniy sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosi har bir sportchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga oladigan pedagogik yondashuvdir. O'qitishning zamonaviy usullari va yondashuvlari yuqori ko'rsatkichlarga erishish va jarohatlardan qochish imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan dasturlardan foydalanishga asoslangan. Ushbu maqola individual mashg'ulotlarga yondashuvlar asosidagi asosiy pedagogik tamoyillarni o'rganadi va mashg'ulot jarayonini har bir sportchining o'ziga xos jismoniy, psixologik va motivatsion jihatlariga moslashtirish usullarini tavsiflaydi. Shuningdek, real vaqt rejimida o'qitishni kuzatish va sozlash imkonini beruvchi zamonaviy raqamli texnologiyalari ham ko'rib chiqilmoqda, bu esa o'qitishni yanada aniq va samaraliroq qiladi.*

**Калит so'zlar:** individual yondashuv, pedagogik tamoyillar, jismoniy sifatlar, shaxsiylashtirilgan tayyorgarlik, sport mashg'ulotlari, test va diagnostika, moslashuvchan o'qitish usullari, psixologik tayyorgarlik, texnologiya.

## PEDAGOGICAL AND INDIVIDUAL APPROACHES TO TRAINING ATHLETES' PHYSICAL QUALITIES

4. Keyingi yillarda ta’lim sifati holatini baholash jarayonlari natijalariga ko‘ra aniqlash ta’lim sifatini o‘rganishda uzoq muddatli prognozlash va tendensiyalarni belgilashning innovatsion usullari bilan almashtirildi. Baholash jarayonlarining natijalari batafsil izohlash bilan birga keladi, bu o‘quv jarayonini tuzatish va ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishlarini tanlash imkonini beradi. Xalqaro va milliy miqyosda ta’lim sifatini monitoring qilish tadqiqotlari natijalaridan foydalanish deyarli universal tus olmoqda.

5. Pedagogik o‘lchovlar va ta’lim sifatini boshqarish sohasida maqsadli tizimli tadqiqotlar faollashdi.

6. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim sifatini baholash fuqarolik institutlari, kasbiy hamjamiyat va mehnat bozori vakillari uchun ochiq bo‘lib, zamonaviy jamiyat talablari va talablariga moslashishga yordam beradi.

**Xulosa.** Ta’lim sifatini baholashning butun davlat ta’lim tizimini shakllantirishda mavjud tarixiy tajribani ham, turli mamlakatlarda baholash tizimlari faoliyatining xalqaro tajribasini ham hisobga olish kerak deb hisoblaymiz. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashning mintaqaviy tizimini shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda va bizning tahlilimiz ham bu boradagi ishlar uchun dolzarb va zarurdir, deb hisoblaymiz.

### Adabiyotlar:

1. Elmuratova A. et al. Hozirgi bosqichda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika fani // Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 1548-1550.

2. TretyakovaTatyanaVasilevna Chet elda ta'lim sifatini baholashga yondashuvlarni tahlil qilish // SVFU gazetasi. 2009. №2.

3. Qayumova I., Rayimjonva S., Latipova D. Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar //Im-fanvata’lim. – 2024. – №. 6 (21).

4. Губа В., Пресняков В. Методы математической обработки результатов спортивно-педагогических исследований. – Litres, 2022.

5. Третьякова Т. В. Качество образования: от оценки к управлению //Высшее образование сегодня. – 2010. – №. 6. – С. 16-21.

6. Arcago J.S. Quality in Education: An Implementation Hand book. – Abington: St.Lucie Press, 1995. – 192 p.

7. Accreditation and the Role of the Council on Post-secondaryAccreditation. -Washington, 1990. – 143 p.

8. Гладкая И. В. Психолого-педагогическая диагностика в образовании. Базовый уровень (учебно-методическое пособие) //Письма в Эмиссия. Оффлайн. – 2015. – №. S2. – С. 40-40.

9. Хайрулин И. Т. Сравнительная педагогика: Краткий конспект лекций. – 2013.

10. Xumora F. Innavatsion ta’limda Amerika maktabgacha ta’lim tizimi va oila bilan hamkorlik aloqalarining tarixi va hozirgi qiyofasi //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 2. – С. 89-91.]

11. Гладкая И. В. Психолого-педагогическая диагностика в образовании. Базовый уровень (учебно-методическое пособие) //Письма в Эмиссия. Офлайн. – 2015. – №. S2. – С. 40-40.]

12. Komildjonovna U. D. Boshlang ‘ich ta’lim o ‘quvchilarini kreativ ruhda tarbiyalashda xorijiy ta’lim tajribalaridan foydalanishning ahamiyati //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 58. – №. 1. – С. 158-163.

13. Ковалева Г.С. Международный опыт оценки качества образования // Материалы коллегии по ЕГЭ /Центр оценки качества образования ИОСО РАО. – М.

14. Третьякова Т. В. Качество образования: от оценки к управлению //Высшее образование сегодня. – 2010. – №. 6. – С. 16-21.

15. Тагунова И. А. Подготовка выпускников-учителей к работе в школе за рубежом //Педагогическое образование за рубежом. – 2021. – С. 116-125.

16. Vladimirovna O. L. Ta’lim sifati-samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish //Finland" modern scientific research: Topicalissues, achievementsand innovations". – 2023. – Т. 14. – №. 1.

17. Thorndike R.L. Educational Measurement (Second ed.).Washington, D.C.: American Council on Education, 1971. – 214p. Brennan J., Frederiks M, Shah T. Improving the Quality ofEducation: The Impact of Quality Assessment on Institutions. –Milton Keynes: QSC/HEFCE, 1997. – 217 p.

18. Звонников В.И., Челышкова М.Б. Зарубежный опыт создания систем оценки качества образования: материалы межрег.сов. – М., 2007. – С. 101-115.

19. Mashhura O., Jahongir B. Ta’lim sifatini ta’minlashda ilg’or xorijiy metodikalar //Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 444-451.

20. Рубин Ю. Б. и др. О подходах к созданию общероссийского регистра организаций, удостоверяющих качество образования //Высшее образование в России. – 2013. – №. 5. – С. 20-35.

21. Dustova U. Ta’limni modernizatsiyalashda xorijiy tajribadan foydalanishning afzalliklari //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 14-16.
22. Axmedov A., Meliqo‘ziyeva M. Uzluksiz ta’limni modernizatsiyalashda xorijiy tajribadan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 774-777.
23. Faxriddin o‘g‘li F. M. Dunyo ta’lim uslublaridagi sara durdonalar.. //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 190-193.
24. Dustova U. Ta’limni modernizatsiyalashda xorijiy tajribadan foydalanishning afzalliklari //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 14-16.
25. Amondjonov I. B. et al. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi va maktablarda ta’lim-tarbiya amaliyoti //Новости образования: исследование в XXI веке.–2023.–Т. 1.–№. 11. – С. 1025-1030.

## TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MUAMMOLARI

*Arashova Dilobar Ruzimurotovna,*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi o'qituvchisi*

*Shaxslar va jamiyatlarning taqdiriga ularning ta'lim tajribasi sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bu ijtimoiy yuksalish, martaba yutuqlari va shaxsiy rivojlanish uchun asos yaratadi. Pedagoglar va ta'lim tizimining ishtirokchilari sifatida doimo takomillashtirishga intilish va muassasalarimizdagi ta'limning eng yuqori saviyada bo'lishini ta'minlash bizning mas'uliyatimizdir. Ushbu maqolada, ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilar muvaffaqiyat qozonishi va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishning eng yaxshi yondashuvlarini o'rganish tavsiya qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *sifatli ta'lim, tanqidiy fikrlash, uzluksiz ta'lim, zamonaviy ta'lim usullari, texnologiya, demokratiya.*

## ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

*На судьбу отдельных людей и обществ существенное влияние оказывает их образовательный опыт. Он закладывает основу для социального продвижения, карьерного роста и личного развития. Как педагоги и участники системы образования, мы обязаны постоянно стремиться к совершенствованию и обеспечивать то, чтобы образование в наших учреждениях было на самом высоком уровне. В данной статье рекомендуется изучить лучшие подходы к повышению качества образования в образовательных учреждениях и созданию среды, в которой учащиеся смогут добиться успеха и полностью раскрыть свой потенциал.*

**Ключевые слова:** *качественное образование, критическое мышление, непрерывное образование, современные методы обучения, технологии, демократия.*

## PROBLEMS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*The fate of individuals and societies is significantly influenced by their educational experience. It lays the foundation for social advancement, career advancement, and personal development. As pedagogues and participants in the education system, it is our responsibility to constantly strive for improvement and ensure that the education in our institutions is of the highest level. This article recommends exploring the best approaches to improving the quality of education in educational institutions and creating an environment where students can succeed and reach their full potential.*

**Keywords:** *quality education, critical thinking, continuous education, modern educational methods, technology, democracy.*

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro andozalar darajasida ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim sifatini oshirish uchun istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va yanada samarali shakl, metodlar hamda o'quv qo'llanmalarini izlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, buning natijasida ta'lim sifatini oshirish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Qanday qilib fanga barqaror qiziqishni rivojlantirish, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirishga eng ko'p yordam beradigan zarur usul va usullarni topish mumkin? Bunda o'quv materialini diqqat bilan tanlash o'quv muammolarini hal qilish uchun maqbul sharoitlarni yaratish va sozlash, birlikda o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalash muammolarini maksimal darajada hal qiladi;

Bizningcha, o'qituvchi rahbarligida darslarda o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini faollashtirish o'quv jarayonini takomillashtirishning samarali usullaridan biridir. Shuning uchun sinfda o'quvchilarning bilim faolligini faollashtiradigan va o'rganish sifatini oshiradigan muhitni yaratish kerak.

Zamonaviy umumta'lim maktabi rang-barang va murakkab, u doimo o'zgarib turadi. Ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladigan ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida har qanday maktab o'z o'quvchilarini sifatli ta'lim bilan ta'minlash muammosiga duch keladi.

Maktabni yangilash bir qator tizimli muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi: tartibga solish, iqtisodiy va mazmun. Birinchi navbatda, ta'limning yangi, zamonaviy sifatiga erishish vazifasi.

Milliy nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim sifati uning mamlakat taraqqiyotining zamonaviy hayotiy ehtiyojlariga muvofiqligidir.

Pedagogik nuqtayi nazardan, bu ta'limning o'quvchilar tomonidan ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

Ta'lim muassasasi o'z oldiga ta'limning zamonaviy mazmunini tashkil etuvchi umuminsoniy bilim, ko'nikma va malakalarning, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil faoliyat tajribasi va shaxsiy mas'uliyatining yangi tizimini, ya'ni zamonaviy asosiy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi.

Maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashni o'z ichiga olgan ta'lim sifati - bu bilim, qobiliyat va ko'nikmalar ko'rsatkichlari tizimi, shuningdek, dunyoga va bir-biriga bo'lgan qadriyat-emotsional munosabat normalari.

Ushbu yondashuv yakuniy natijalar asosida maktab faoliyatini baholashga qaratilgan bo'lib, ular orasida maktab faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish kerak:

- o'quvchilarning bilim darajasi;
- ularning ta'limni davom ettirishga tayyorligi;
- bolalar salomatligi holati;
- bitiruvchilarning jamiyat hayotiga ijtimoiy moslashuv darajasi;
- ta'lim standartlarini amalga oshirish darajasi.

Yuqoridagi barcha parametrlar bir-biriga bog'langan va bir-birini to'ldiradi.

Ammo bugungi kunda o'quvchilarning bilim sifati ko'rsatkichi maktab samaradorligini baholashda birinchi va asosiy ko'rsatkich bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Agar biz maktab uchun sifat ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, unda bizning natijalarimiz va bu ko'rsatkich bo'yicha dinamikamiz yaxshi yoki yomonmi, bir necha yil davomida kiritilgan va yakuniy nazoratni taqqoslash orqali aniqlanadi. Eng oson usul - sifat nazorati. Bu maktabdagi ta'lim sifati haqida tasavvur beradi, lekin uning asosidagi hamma narsani aks ettirmaydi.

Bilim sifatini nazorat qilish (ta'lim natijalarini nazorat qilish) – bir butun sifatida o'quv jarayoniga xos bo'lgan uchta vazifani bajaradi va aniq belgilangan ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega.

Uning tarbiyaviy ahamiyati shundan dalolat beradiki, u o'quvchiga o'z bilim va ko'nikmalarini to'g'rilash imkonini beradi. Doimiy test sinovlari o'quvchilarni tizimli ishlashga, olingan bilim va ko'nikmalar sifati yuzasidan sinfga, o'zlariga va ota-onalariga hisobot berishga o'rgatadi. O'quvchilarda mas'uliyat hissi, yaxshi natijalarga erishish istagi paydo bo'ladi. O'quv natijalari fanning umumiy maqsadlariga va uni o'zlashtirish talablariga mos kelishi kerak. Bilim sifati yoshga qarab, boshlang'ich maktabdan o'rta maktabga o'tish davrida va boshqa ba'zi hollarda o'zgaradi. Ammo, aksariyat hollarda, sabablar aniq.

Bilim sifatining pasayib ketishining sabablari O'QUVCHI, O'QITUVCHI VA OTA-ONA NAZORATIGA BOG'LIQ.

- ota-onalar tomonidan ham, maktabda ham davomat ustidan zaif nazorat;
- kasallik tufayli ham, uzrli sabablarsiz ham darslarga qatnashmaslik;
- professor-o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning javoblariga qo'yiladigan talablar birligining yo'qligi;
- bolaning rivojlanish psixologiyasining xususiyatlarini yomon bilish;
- bolalar o'rtasida o'rganish uchun motivatsiyaning yo'qligi va o'qituvchilarning haddan tashqari g'amxo'rliqi;
- o'quvchilar o'z bilimlarini qo'llash istiqbollarini ko'rmaydilar;
- bolalarni o'qitishning passiv shakllarining (frontal, jamoaviy) faollardan ustunligi (guruh, loyiha, tizimli faoliyat, gumanitar fanlar bo'yicha laboratoriya ishi, muhokama, interfaol va integratsiyalashgan o'qitish ...);

O'quvchilarning bilim sifatini oshirish yo'llaridan biri ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishdir. Zamonaviy darsga yuqori talablar qo'yiladi. Ammo darsga hayotning bir parchasi sifatida qarasaq, uni stixiyali jarayonga aylantirsak, ularning bajarilishiga erisha olmaymiz. Darsning o'z vaqtida boshlanishi, sinf xonasini tashkil etish, dars bosqichlarini aniq tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabati, o'quvchilarning muayyan harakatlariga o'qituvchining munosabati, o'quv materialini tanlash va uni taqdim etish usullari, zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish va texnologiyalardan foydalanish - bularning barchasi o'quvchilar faoliyatining ta'lim natijalariga ta'sir qiladi.

Ta’lim sifatini boshqarish masalalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun ta’lim - bu o’sib borayotgan shaxsning har tomonlama rivojlanishi jarayoni ekanligini unutmaslik kerak. Bunday holda, shaxsning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olish kerak:

Ta’limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o’qitishda innovasion ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta’lim oluvchi yaxshi o’zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo’llagan holda o’tilishini ta’minlash talab etiladi. O’qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limni amaliyotga joriy etish, ta’lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo’llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta’lim olish, o’quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

**Asosiy qism.** Sifatli ta’lim eslab qolish va test ballaridan tashqariga chiqadi. U doimo o’zgaruvchan dunyoda rivojlana oladigan har tomonlama barkamol shaxslarni yetishtirishga intiladi:

• **Kuchli tayanch bilim:** matematika, fizika, kimyo, biologiya, fan va til kabi asosiy fanlar bo’yicha mustahkam bazani ta’minlaydi.

• **Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish:** o’quvchilarga ma’lumotni tahlil qilish, taxminlarni so’rash va ijodiy yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

• **Hamkorlik:** o’quvchilarni jamoalarda samarali ishlash qobiliyati bilan ta’minlaydi, bu o’zaro bog’liq dunyo uchun muhim mahoratdir.

• **Ijtimoiy farovonlikni rivojlantirish:** o’z qadr-qimmatini, hamdardlik va burch tuyg’usini rivojlantiradigan mehmondo’st va qabul qiluvchi muhitni o’rnatadi.

• **Uzluksiz ta’lim:** o’quvchilarni o’rganish tafakkurini qamrab olgan holda, hayotlari davomida rivojlanish va rivojlanishga undaydi.

• **Foydali ta’sir:** O’quvchilarni o’z jamoalari va global jamiyatga hissa qo’shish uchun tayyorlaydi.

Sifatli ta’limning ahamiyatini ortiqcha baholab bo’lmaydi. Bu teng huquqli jamiyatning asosi bo’lib, shaxslarning imkoniyatlarini kengaytiradi, jamiyat hamjihatligini rag’batlantiradi va taraqqiyotni rag’batlantiradi. Sifatli ta’lim o’quvchilarga muvaffaqiyat uchun zarur bo’lgan bilim, qobiliyat va tamoyillarni berish orqali mamlakatda taraqqiyot va ijodkorlikka yo’l ochadi.

**Sifatli ta’lim bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:**

• **O’quvchilarni fikrlash qobiliyatini kuchaytirish:** O’quvchilarni fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlik kabi ko’nikmalarni rivojlantiradi, bu ularga rivojlanayotgan dunyoga moslashishga yordam beradi. Bu imkoniyatlar ularga tanlash, o’z intilishlari sari harakat qilish va o’zlarining qiziqish sohalariida rol o’ynash uchun jasorat beradi.

• **Kuchli jamoalar:** Sifatli ta’lim demokratiyada faol ishtirok etadigan mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalaydi. U bag’rikenglik, tushunish va ijtimoiy hamjihatlikka, jamiyatlarni mustahkamlashga va yanada faolroq bo’lishga yordam beradi.

• **Iqtisodiy vosita:** Ma’lumotli ishchi kuchi innovatsiyalar va iqtisodiy o’sishni ta’minlaydi. Sifatli ta’lim shaxslarni ertangi kunning kasbi uchun zarur bo’lgan ko’nikma va bilimlar bilan qurollantiradi, tadbirkorlikni va butun jamiyatga foyda keltiradigan texnologik yutuqlarni rag’batlantiradi.

• **Ijtimoiy adolat:** Sifatli ta’lim ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi yoki kimligidan qat’iy nazar, teng imkoniyatlarni ta’minlaydi. Bu shaxslarga kambag’allik siklini buzish, ijtimoiy harakatchanlikka erishish va jamiyatda to’liq ishtirok etish imkoniyatini beradi.

• **Bir umrlik ta’lim:** Sifatli ta’lim sinfdan tashqarida ham o’rganishga bo’lgan muhabbatni kuchaytiradi. U odamlarni doimiy ravishda o’rganish va moslashish uchun vositalar va qiziqish bilan ta’minlab, ularni noaniq kelajakka tayyorlaydi.

**Mamlakatimizda ta’lim tizimimizni qanday yaxshilashimiz mumkin?**

• **O’qituvchilarni tayyorlash va qo’llab-quvvatlash:**

O’qituvchilarni eng yangi pedagogik usullar, texnologiya ko’nikmalari va sinfni boshqarish usullari bilan jihozlashga sarmoya kiritish, oliy ta’lim muassalari bilan hamkorliklar orqali bilim almashish uchun yordam tizimini yaratish.

• **Ta’lim natijalariga e’tibor qaratish:** tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni ta’kidlab, eslab qolishdan tashqariga chiqish: bunga turli xil ta’lim uslublariga mos keladigan munozaralar, loyihalar va tadbirlar kabi o’quvchiga yo’naltirilgan ta’lim yondashuvlari orqali erishish mumkin.

• **Texnologiya integratsiyasini qamrab olish:** boy va qiziqarli o’rganish tajribasini yaratish uchun ta’lim ilovalari, onlayn resurslar, interfaol doskalar yoki virtual reallik simulyatsiyalarini strategik birlashtirish. Biroq, texnologiya an’anaviy usullarning o’rnini bosmasdan, o’rganishni kuchaytirish vositasi bo’lishi kerak.

• **Yaxlit rivojlanish:** qo`llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni yaratish orqali o`quvchilarning ijtimoiy-emotsional farovonligini tarbiyalash. Bu ruhiy salomatlik haqida xabardorlikni, ijtimoiy mas`uliyatni va tegishlilik tuyg`usini targ`ib qiluvchi dasturlarni o`z ichiga olishi mumkin.

• **Manfaatdor tomonlar o`rtasidagi hamkorlik:** o`qituvchilar, ota-onalar, mansabdor shaxslar va jamoatchilik o`rtasidagi samarali muloqot va hamkorlik kuchli ta`lim tizimini yaratish uchun juda muhimdir.

**Sifatli ta`limga qanday erishish mumkin?**

Sifatli ta`limga erishish bir nechta asosiy yo`nalishlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi:

**Ijobiy ta`lim muhitini yaratish:** Maktablar o`rganishni rag`batlantiradigan rag`batlantiruvchi va qo`llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

- Zamonaviy o`quv resurslariga ega yaxshi ta`mirlangan sinf xonalari.

- Faol ishtirok etish va tanqidiy fikrlashni rag`batlantiradigan o`quvchiga yo`naltirilgan ta`limga o`tish.

- Tegishli, qiziqarli va zamon ehtiyojlarini aks ettiruvchi o`quv dasturi.

**O`qituvchilarni kuchaytirish:** O`qituvchilar hal qiluvchi rol o`ynaydi, ularning samaradorligini ta`minlash uchun:

- O`qituvchilarni tayyorlash bo`yicha kompleks dasturlarga sarmoya kiritish.

- Doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etish.

- Bilim almashish va qo`llab-quvvatlashni rag`batlantiradigan hamkorlikdagi maktab madaniyatini yaratish.

**Texnologiyadan strategik foydalanish:** Texnologiya kuchli vosita bo`lishi mumkin, ammo undan strategik foydalanish kerak:

- Ta`limni yaxshilash uchun ta`lim ilovalari, onlayn resurslar va interaktiv vositalarni birlashtirish.

**Doimiy takomillashtirish:** Sifatli ta`lim maqsad emas, sayohatdir:

- Yaxshilash kerak bo`lgan yo`nalishlarni aniqlash uchun o`quvchilarning yutuqlarini muntazam ravishda baholash.

- O`qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilikning fikr-mulohazalarini qo`shish.

- Innovatsion yondashuvlarga ochiq bo`lish va o`quvchilarning o`zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish.

**Boshlang`ich maktablarda sifatli ta`limning qanday afzalliklari bor?**

Boshlang`ich maktabda mustahkam poydevor qo`yish bolaning kelajakdagi akademik muvaffaqiyati va umumiy farovonligi uchun juda muhimdir. Ushbu shakllanish yillarida sifatli ta`lim tajribasi ko`plab afzalliklarni beradi:

**Akademik tayyorgarlik:** Boshlang`ich maktablar o`quvchilarni keyingi ta`lim uchun zarur bo`lgan asosiy savodxonlik va hisoblash ko`nikmalari beradi. Ular o`qish, yozish va muammolarni hal qilishni o`rganadilar, kelajakda o`rganish uchun kuchli baza yaratadilar.

**Bir umrlik ta`lim odatlari:** Sifatli boshlang`ich ta`lim yoshlar ongida o`rganishga bo`lgan muhabbat va qiziqishni uyg`otadi. O`quvchilarni interfaol faoliyatga va turli xil ta`lim uslublariga jalb qilish ularning hayoti davomida kashf qilish va kashf qilish istagini uyg`otadi.

**Ijtimoiy va hissiy rivojlanish:** Boshlang`ich maktablar bolaning hissiy rivojlanishida rol o`ynaydi. O`quvchilar sinfdoshlari va o`qituvchilari bilan muloqot qilish orqali o`zlarining muloqot qobiliyatlarini, jamoada ishlash qobiliyatini va o`zini o`zi qadrlashlarini oshiradilar.

**Yaxlit rivojlanish:** Sifatli ta`lim akademiklardan tashqariga chiqadi. Bu bolaning ijodkorligini, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, u jismoniy faollikni, ruhiy salomatlikdan xabardorlikni va ijtimoiy mas`uliyatni rivojlantiruvchi, barkamol shaxslarni tarbiyalovchi dasturlarni o`z ichiga olishi mumkin.

**Ta`lim sifatini oshirish:** shaxslar va jamiyatlarning imkoniyatlarini kengaytirish

Adolatli jamiyat qurishda ta`lim muhim rol o`ynaydi. Bu odamlarga hayotiy qiyinchiliklarni samarali yengish, atrofdagilarga hissa qo`shish va haqiqiy qobiliyatlarini ro`yobga chiqarish uchun bilim, qobiliyat va e`tiqodlar bilan ta`minlaydi. Sifatli ta`limga ustuvorlik berish imtihon natijalarini yaxshilashdan tashqarida; u odamlar va jamoalarga ertangi kunni yaxshiroq yaratish uchun kuch beradi.

Sifatli ta`lim insonlar va jamiyatlar rivojlanishini qanday qo`llab-quvvatlaydi:

**Shaxsiy imkoniyatlar:**

**Ishonchli va ijodkor shaxslar:** Sifatli ta`lim o`quvchilarda o`z qadr-qimmatini va ishonchini uyg`otadi. Bu ularni intellektual tavakkal qilishga, ijodkorlikni o`rganishga undaydi. Bu ularga o`zlarining noyob hayot yo`llarini belgilash uchun kuch beradi.

**Samarali o`quvchilar va moslashuvchan fikrlovchilar:** Sifatli ta`lim eslab qolishdan tashqariga chiqadi va o`quvchilarga qanday qilib samarali o`rganishni o`rgatadi. Ular kuchli tadqiqot ko`nikmalarini,



axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini va yangi muammolarga javoban o`z tafakkurini moslash uchun moslashuvchanlikni rivojlantiradi. Bu ularga tez o`zgaruvchan dunyoda rivojlana oladigan umrbod o`rganuvchilar bo`lish imkoniyatini beradi.

**Raqamli savodxonlik va global fuqarolar:** Bugungi o`zaro bog`liq dunyoda raqamli savodxonlik muhim ahamiyatga ega. Sifatli ta`lim o`quvchilarni raqamli landshaftda xavfsiz va mas`uliyatli harakat qilish ko`nikmalari bilan ta`minlaydi. Bu, shuningdek, global xabardorlik va tushunishni rivojlantiradi, ularni yanada o`zaro bog`langan va farovon dunyoga hissa qo`shishi mumkin bo`lgan mas`uliyatli fuqarolar bo`lishga tayyorlaydi.

**Ijtimoiy o`zgarishlar:**

**Iqtisodiy vosita:** Ma`lumotli ishchi kuchi innovatsiyalar va iqtisodiy o`shishni ta`minlaydi. Sifatli ta`lim shaxslarni ertangi kunning kasbi uchun zarur bo`lgan ko`nikma va bilimlar bilan qurollantiradi, tadbirkorlikni va butun jamiyatga foyda keltiradigan texnologik yutuqlarni rag`batlantiradi.

**Ijtimoiy adolat va tenglik:** Sifatli ta`lim ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi yoki kimligidan qat`iy nazar, barcha uchun teng imkoniyatlarni ta`minlaydi. Bu har bir insonning rivojlanish imkoniyatiga ega bo`lgan adolatli jamiyatga olib keladi.

**Faol fuqarolar:** Sifatli ta`lim demokratik jarayonda faol ishtirok etuvchi mas`uliyatli va xabardor fuqarolarni tarbiyalaydi. Bu tanqidiy fikrlash, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas`uliyat hissini rivojlantiradi, bu esa kuchli va jonli demokratiyaga olib keladi.

**Tinch va barqaror kelajak:** Ta`lim tinchlik, bag`rikenglik va madaniyatlar o`rtasidagi tushunishni targ`ib qiladi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va global ongni rivojlantirish orqali sifatli ta`lim odamlarga hamma uchun tinchroq va barqaror kelajakka hissa qo`shishi mumkin bo`lgan mas`uliyatli global fuqarolar bo`lishga imkon beradi.

**Xulosa.** Ta`lim sifatini oshirish, uzluksiz ta`limni modernizatsiya qilish, uning muammolarini hal etish uchun boshqaruv tamoyillari, mezonlari va yondashuvlarini o`zgartirish, nazorat ishlarini olib borish zarur.

Shuning uchun, O`zbekistonda ilg`or xorijiy tajribadan foydalanish, ta`lim sifatini oshirish bo`yicha rivojlangan davlatlar metodologiyasini qabul qilish, ta`lim sifati ustidan nazoratni erkinlashtirish, markazlashgan boshqaruvga barham berish, bu boradagi vazifalar oddiy va xolis tizim yaratish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida” Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma`lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori.
3. Мавлянов А., ва б.к.лар. "Илгор педагогик технология бўйича ўқув машғулоти лойиҳалаш" Замонавий таълим. 2016. №2. Б.25-29.
4. Мавлянов А., ва б.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув кўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. Тошкент, 2013. 142 б.
5. Kamoldinov M, Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. -Т.: "Navro`z", 2013.
6. Xudoyqulov X.J. Zamonaviy pedagogik texnologiya ta`lim samaradorligining asosidir. - Т.: "Navro`z", 2013.
7. Hamdamov R., Begimqulov U., Taylaqov N. Ta`limda axborot texnologiyalari. "O`zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent 2010.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNI  
TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

*Elliyev Hamza Quvvatovich,*  
Toshkent amaliy fanlar univertiteti tadqiqotchisi  
xamza.elliyev@mail.ru

*Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimini baholash va fanga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirish, kreativ fikrlashini oshirish, malakalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'quvchilarning aniq fanlar savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan o'yinli, muammoli, modulli va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, umumiy kompetensiya, aniq fanlar, savodxonlik, ta'lim texnologiyalari, malaka, boshlang'ich ta'lim.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ  
В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В статье особое внимание уделяется вопросам оценки знаний учащихся и формирования у них общих компетенций, связанных с дисциплиной, повышения их творческого мышления, развития их навыков в системе непрерывного образования. Описано применение в образовательном процессе игровых, проблемных, модульных и лично-ориентированных образовательных технологий, которые служат повышению грамотности учащихся по конкретным предметам.*

**Ключевые слова:** инновации, педагогические технологии, общая компетентность, конкретные предметы, грамотность, образовательные технологии, компетентность, начальное образование.

NEEDS TO IMPROVE THE ASSESSMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE IN THE  
CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM

*In the article, special attention is paid to the issues of evaluating the knowledge of students and forming their general competences related to science, increasing their creative thinking, and developing their skills in the continuous education system. The application of playful, problem-based, modular and person-oriented educational technologies to the educational process, which serve to increase the literacy of students in specific subjects are described.*

**Keywords:** innovation, pedagogical technologies, general competence, specific subjects, literacy, educational technologies, competence, primary education.

**Kirish.** Jahonda aniq fanlarning fanining rivojlanishiga oid innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va elektron o'quv vositalarni imkoniyatlaridan keng foydalanib o'qitishning nazariy-metodologik va metodik asoslarini takomillashtirish orqali o'quvchilarda fanga oid malakalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni **o'quv jarayoniga** tatbiq etish asosida uzluksiz ta'limda o'quvchilarning aniq fanlar savodxonligi va fanga oid tayanch hamda umumiy kompetensiyasini shakllantirish, kreativ fikrlashini oshirish, malakalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'zlashtirishi maxsus mezonlar asosida baholanadi, ayniqsa, o'qish va aniq fanlar savodxonlikka katta e'tibor qaratiladi. Rivojlangan mamlakatlarning kelajak taraqqiyoti manashu ko'nikmalar orqali baholanadi. Jumladan, PISA, PIRLS, TIMSS tadqiqotlari bo'yicha eng yuqori natijalar Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Finlandiya kabi davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Shu ma'noda bugun o'quvchilarda aniq fanlar savodxonlikni rivojlantirish va baholashda Finlandiya tajribasiga asoslanish muhim yondashuv hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda o'quvchilarni jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning aniq fanlar savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan o'yinli, muammoli, modulli, hamkorlikdagi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish, shu asosida boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirish hamda o'qitishda yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda umumiy oʻrta taʼlim maktablarining oʻqitish tizimini xalqaro baholash dasturlari (TIMSS, PISA)ga moslashtirish, taʼlim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish imkoniyatlarini oshmoqda. Oʻz navbatida, boshlangʻich taʼlim aniq fanlarning fanini oʻqitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Xalq taʼlimi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “kichik yoshdan oʻquvchilarda oʻqishga sogʻlom, kuchli va taʼsirchan motivatsiyani shakllantirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini tatbiq etish, zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, taʼlim muassasalarida oʻquv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yangi, shu jumladan, muqobil yondashuvlarni oʻrganishga va ilmiy asoslashga yoʻnaltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek, “taʼlim tizimida oʻqish, aniq fanlarning va tabiiy yoʻnalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yoʻnaltirilgan ilmiy izlanishlar olib borib rejalashtirilgan. Bu borada umumtaʼlim tizimida aniq fanlarning taʼlimi jarayonida oʻquvchilarning aniq fanlar savodxonligi boʻyicha malakalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻqitish mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining aniq fanlarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradigan mantiqiy masalalar tizimi, amaliy dasturlar va elektron dars ishlanmalarini yaratishni taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi, 2018- yil 25 -yanvardagi PF-5313-son «Umumiy oʻrta, oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi Farmonlari, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi taʼlim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Aniq fanlarning turkumiga kiruvchi fanlarni oʻqitishda va baholashga asoslangan tadqiqotlar respublikamiz olimlari: Sh.A.Abdullayeva, S.Alixonov, I.Aliyev, M.Barakayev, G.V.Zloskiy, D.Maxmudova, I.Sh.Laktayeva [ M.Tojiyev, M.I.Toshpulatova, D.Turdiyoyev, A.Xurramov, E.Sharipov, D.Yunusova, Sh.M.Yunusova kabilarning ilmiy izlanishlarida yoritib berilgan. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining bilish faolligini oshirish va aniq fanlarning oʻqitish metodikasini takomillashtirish boʻyicha B.R.Adizov, A.Yu.Bakirova, M.S.Divanova, M.Jumayev, R.Ibragimov, R.A.Mavlanova, M.J.Saidova, M.M.Sultonov, A.Xalilayev, N.Sh.Ruzikulova, E.Yangabayeva, F.Kasimov, Sh.M. Yunusova va boshqalarning tadqiqotlarida oʻz aksini topgan.

Mustaqil davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) olimlaridan M.I.Maxmutov, J.A.Junisbekova, G.Yu.Ksenzova, I.Ya.Lerner, Z.E.Sidikova N.F.Talizina kabilar tomonidan oʻqitish samaradorligini oshirish va oʻqitish jarayoniga taʼlim texnologiyalarini qoʻllash boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xorijlik olimlardan Kristopher T.Stripling, Cheryl Jean Schwab, Erica Kviatkovskiy-Egizio, Karen M.K.Hamond, Pejmon Sadr ishlarida maniq fanlar taʼlimidagi innovatsiyalar uchun zarur boʻlgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqorida ilmiy manbalar tahlili baholash mezonlarni ishlab chiqish va uni taʼlim jarayoniga tatbiq qilishning umumiy jihatlari borasida nazariy ahamiyatga ega boʻlgan qarashlar ilgari surilgan boʻlsa-da, ayni vaqtga qadar boshlangʻich taʼlim jarayonida aniq fanlarning oʻqitish texnologiyalarini taʼlim jarayoniga amaliy jihatdan tatbiq etish oʻzining toʻla yechimini topmagan va uni takomillashtirish zarurati mavjudligini koʻrsatdi:

- uzluksiz taʼlim tizimida aniq fanlar savodxonlikni baholash mazmunini takomillashtirish va shu asosda oʻquv qoʻllanma, metodik tavsiya, multimediali elektron taʼlim resurslarini ishlab chiqish;

- aniq fanlar savodxonlikni baholash jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qoʻllash orqali oʻquvchilarda EGMA, TIMSS va PISA topshiriqlarini bajarish boʻyicha kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

- oʻquvchilarining aniq fanlar savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish kompetensiyasi mazmunini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari asosida mustahkamlab borishga yoʻnaltirilgan faoliyat mazmunini takomillashtirish;

- oʻquvchilarining aniq fanlar kompetentligini shakllantirishga oid ilmiy asoslangan (algoritmik, tizimli, samarali) taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

- uzluksiz taʼlim tizimida aniq fanlar savodxonlikni baholashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qoʻllash orqali oʻqitish mazmunini (texnik, texnologik, mantiqiy, uzviyligi, uzluksizligi) takomillashtirish asosida oʻquv qoʻllanma va metodik tavsiya tayyorlandi, har bir dars turi (yangi bilim

beruvchi, bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, takrorlash, nazorat qilish) bo‘yicha elektron dars ishlanmalari yaratildi;

- o‘quvchilarida aniq fanlar savodxonligini baholash jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ularda EGMA, TIMSS va PISA topshiriqlarini bajarish bo‘yicha kompetensiyalari (tanqidiy fikrlash, kreativlik, muloqot qilish)ni shakllantirish mexanizmlari (mazmun sohasini bilish, muammo kontekstida yondashuv) takomillashtirilgan;

- o‘quvchilarining aniq fanlar savodxonligi mazmuni (muammoni tushunish, mulohaza yuritish, aniq fanlarning ni qo‘llash, fikrni ifodalash, natijani baholash)ni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish tendensiyalari (elektron darslik, elektron o‘quv-uslubiy majmua va elektron ilovalar) baholash asosida takomillashtirilgan;

- o‘quvchilarining aniq fanlar savodxonligini baholashga yo‘naltirilgan o‘qitish (muammoli, modulli, hamkorlikdagi) texnologiyalariga oid ilmiy asoslangan (algoritmik, tizimli, samarali) taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tahlil va natijalar.** Maktab o‘quvchilarini bilimini baholashni xorij tajribasini quyidagi davlatlar misolida ko‘rib chiqildi. Finlyandiya yaqinda talabalarining yuqori natijalarga erishishi Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) orqali butun dunyo e‘tiborni qozondi. Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) har uch yilda bir marta o‘tkazilib, taxminan 57 mamlakatda 15 yoshli talabalarga amalda qo‘llaniladi. (Kupianinen, Hautamaki va Karjalainen, 2009). Finlandiyaning maktab amaliyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Finlyandiyaning umumiy maktab amaliyotlari Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘qituvchilari uchun notanish bo‘lishi mumkin chunki Finlandiya hukumati 6 yoshdan bolalar davlat tomonidan taqdim etilgan bir yillik boshlang‘ich maktabga borish imkoniyatiga ega va talabalarining 96% bu imkoniyatdan foydalanishadi. Sinflar soni 20 ta o‘quvchilar bilan cheklangan va o‘quvchilar soni 12 tadan oshmasligi tavsiya qilinadi. 7 yoshdan boshlab barcha o‘quvchilar 9 yillik majburiy asosiy ta‘limni boshlaydilar, undan so‘ng 3 yillik kasb hunar kolleji yoki umumiy ta‘lim uchun maktabga topshiradilar. Bunday ta‘lim dargohlarida o‘qish uchun 9 yillik majburiy asosiy ta‘limni bitirganligi to‘g‘risida sertifikat bilan qabul qilinadilar.

Olgan ballari yuqori pastligiga qarab yuqori balli talabalar umumiy ta‘limni olish maktablariga topshiradilar, sal pastroq baldagi talabalar esa kollejlarga kirib o‘qishlarini davom ettiradilar. Bu dargohlarda o‘quvchilar ta‘lim olganliklaridan so‘ng universitetlarda yoki politexnika maktablarida o‘qishlarini davom ettirishlari mumkin. Hamma turdagi xalq ta‘limi universitetlardan tortib politexnika maktablarida ta‘lim olish bepul, 9 yillik majburiy asosiy ta‘lim va 3 yillik umumiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilar ovqat va transport xizmati bilan ta‘minlanadilar. Finlandiya maktablarida me‘yoriy baholash turi ham mavjud bo‘lib bunda o‘quvchilar biror nogironligi yo‘qligi yoki maxsus yordamga muhtoj o‘quvchilar bo‘lsa tekshiriladi. Talabalar iqtidori orqali har xil gruppalariga ajratilmaydilar aksincha har bir guruh uchun bilim olishda qiynalayotgan talabalar uchun qo‘shimcha o‘qituvchilar tayyorlanadi. Birincha va ikkinchi yil o‘qiydigan talabalar maktabdan oldin va maktabdan keyin to‘garaklarga qatnashishlari mumkin ammo kattaroq yoshdagi talabalar uchun maktabdan tashqari soatlarda maxsus tutor o‘qituvchilari bilan yakkama yakka holda shug‘ullanib bilim olish imkoniyati ham yaratiladi. O‘quvchilarga odatda tun uchun yarim soatlik uy vazifalar beriladi, va maktab formalarini kiymaydilar. Bunga qo‘shimcha qiladigan bo‘lsak, Finlandiyada maktablarda qat‘iy o‘qib o‘rganishga e‘tibor qaratilgan, ya‘ni ularda raqs darslari, atletik jamoa o‘yinlari, marsh maktablari yo‘q bo‘lmagan maktab o‘quvchilarini yaxshi ta‘lim olishiga yanada imkon yaratadi (Gamerman, 2008) Maktab ta‘limi san‘at, musiqa, pazandalik, duradgorlik, va odatdagi til, tarix, matematika va fanlardan tashqari uzoq tanaffus davri kurslar (Abrams, 2011).

O‘qituvchilik juda qadrli va raqobatbardosh kasb bo‘lib, o‘qituvchilik kasbiga topshirgan abiturentlarning 10% gina qabul qilanadilar. Hamma o‘qituvchilik kasbi uchun ta‘lim olayotgan talabalar magistirlilik darajasi uchun ham o‘qishadi va o‘qituvchilar maktablarda o‘zlari xohlagan darslarni qo‘llab bolalarga dars berish huquqlarga egalar. Milliy o‘quv dasturlarida Finlandiya ta‘limi o‘quvchilar o‘rtasida raqobatni ta‘qiqalaydi, buning o‘rniga ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va bir-biriga bo‘lgan yordam berishni qo‘llab quvvatlaydilar.

Finlyandiyaning baholash tizimi ta‘limini takomillashtirishga asoslangan va ularning aksariyati joriy baholashdir va ta‘lim yaxshilash uchun ishlatiladi. Finlyandiya talabalarni baholash 3 xil korinishda bo‘ladi: sinf mashg‘ulotlarida, maktabni bitirish jarayonida va universitetlarda kirish imtixonlarini topshiradilar. Bundan tashqari, milliy o‘quv rejasi tashqi baholovchi tizim yordamida va milliy ma‘lumotlaridan foydalangan holda baholandi, o‘qituvchi va maktablarda o‘zini baholash orqali mahalliy ta‘limini rivojlantiradi.

#### **Finlyandiya o‘quvchilarni baholash.**

2004- yilgi Milliy o‘quv dasturi boshlang‘ich sinflarda va o‘quvchilarni baholash bo‘yicha asosiy ta‘lim davomida ko‘rsatmalar beradi. Asosiy ta‘lim bo‘yicha milliy asosiy o‘quv dasturi 2004- (Finlyandiya

Milliy ta'lim kengashi, 2004) sinfni baholashni ikki toifaga ajratadi: o'qish davomida baholash va yakuniy baholash.

Ikkalasi ham milliy miqyosda mezonlarga ega bo'lib, lekin ular turli maqsadlarga xizmat qiladi. Sinfda joriy baholash talabalarning o'sishi va o'zini o'zi baholashini rag'batlantiradi. Milliy o'quv dasturida buning mezonlari ko'rsatilgan o'qish davomida sinfni baholash va buni amalga oshirish, talabalarning xulq-atvori va maktab ishlarini ushbu milliy mezonlar bo'yicha baholash o'qituvchining mas'uliyatidir. Yillik baholashda esa o'quvchilarning turli ishlariga asoslanib, o'quvchilarga o'qishdagi muvaffaqiyatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar haqida fikr bildiradi. Asosiy ta'limning yuqori darajadagi yakuniy bahosi Milliy o'quv dasturining ichida bo'lib, talabalarning 2 yillik ish namunalarini talab qiladi va fan o'qituvchisi tomonidan olib boriladi. Milliy o'quv rejasiga kiritilmagan yakuniy baholash turi ham mavjud bo'lib bu - abituriyentlik imtihoni, talabalar tomonidan topshiriladigan yagona standartlashtirilgan test hisoblanadi. Agar talaba keying ta'limni ham o'qib tugatish niyatida bo'lsa, abituriyentlikonla maktabni tugatgandan so'ng o'tkaziladi. Xulosa qilib aytganda, Finlyandiyaning baholash amaliyotida rasmiy baholashlarni kamaytirish orqali o'qituvchilarga talabalarni kerakli bilimlarini tekshiruvni imtixoniga tayyorlash uchun kamroq bosim berib yaxshi natijalar beradi.

#### **Joriy nazorat turi.**

Black va Wiliam (1998) joriy baholash turini o'qituvchilar barcha amaliyotlarni o'z zimmasiga olgan baholash turi deb ta'rif beradilar. Matematika fanini baholashning 5 ta maqsadi Kulm (1994) tomonidan quyidagicha ifodalangan: bularga o'quvchilarning o'qib o'rganishlarini takomillashtirish, yutuqlarini baholash, ularning fikr mulohazalarini tushunish, muloqotda kutilayotgan bilimlarni berish, matematika faniga munosabatlarini yaxshilash kiradi. Finlyandiya sinfini baholash xuddi shunday maqsadlarga xizmat qiladi. Finlyandiya baholashdan maqsad o'qib-o'rganishni va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini takomillashtirish va rag'batlantirishdir. Baholash orqali ta'lim taraqqiyoti, mehnat ko'nikmalari va xulq-atvor belgilanadi. (Finnish National Board of Education, 2010) Finlyandiya sinfni baholash amaliyoti o'qituvchilarga baholash va talaba ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'limni o'zgartirish imkonini beradi. Sinfda o'qituvchilar joriy, shuningdek, yakuniy baholashdan foydalanadilar. O'quvchilarga darslik kompaniyasi yoki o'qituvchilar uyushmalari tomonidan tuzilgan imtihonlarni topshiradilar. Kasanen et. al. (2003) ga ko'ra, boshlang'ich maktablarda o'qituvchilar testlar va test ko'rinishiga o'xshash holatlardan foydalanadilar lekin haqiqiy test olish kabi holatlarini amalga oshirmaslikka iloji boricha harakat qiladilar. Shuning uchun o'quvchilar test olish holatlarini yakuniy nazoratdek emas, balki o'rganish tajribasidek qabul qiladilar. Raqamli baholash sistemasida foydalanishmaydi, buning o'rniga o'quvchilar yaxshi natijalar qabul qilishsa “juda yaxshi” yoki yomon natijalarga “ yanada bilim olish kerak” iboralari bilan o'quvchilar natijalari baholanadi. Odatda natijalar ota-onalar va o'quvchilarga ko'rsatilmaydi faqatgina o'qituvchilar bu natijalardan habardor bo'ladilar. O'quv yilining ikkinchi yarmidagi olingan test natijalarigina asosiy haqiqiy bilim natijalari sifatida qabul qilinadi va bu natijalargina haqiqiy o'rganilgan bilim natijasi sifatida qaraladi.

Finlyandiya milliy ta'lim kengashi (2004) ga ko'ra darslar davomida baholashning asosiy roli, o'rganish uchun berilgan bilimlarni o'quvchilar qanday o'rganganlarini nazorat qilish va rag'batlantirib turish hisoblanadi. Shuningdek, darslar davomida o'quvchilarga ularning o'rganish va bilim olish jarayonlari haqida fikr mulohazalar berilib turiladi. Individual o'quvchi va o'qituvchining muloqati orqali xulq atvori, mehnatga layoqatligi va olinayotgan bilimlari baholanadi va ota-onalari bilan doimiy ravishda suhbat olib borilib turiladi. O'quvchilar bilim olishi va o'z-o'zini samaradorligini oshirish uchun rag'batlantiruvchi ijobiy fikrlar beriladi. O'quvchining bilimi o'sishi va natijalari va shuningdek, ularni o'zini baholay olish mahoratlari doimiy ravishda kuzatiladi va o'quvchilar va ularning ota onalariga bu haqida ma'lumot berilib turadi, bu jarayon ularning kelajakda yanada bilim olishlariga imkoniyat beradi.

Bunga qo'shimcha ravishda, o'quvchilarning bilimni rivojlantiruvchi yoki kamchilik tarafini ko'rsatuvchi ma'lumotlar har o'quv yilining oxirida yoki o'quv yili o'rtasida o'quvchilarga taqdim etiladi, bunday ma'lumotlar ularning kelajakda olayotgan bilimlari yanada mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Sinf rahbarlari va yordamchi o'qituvchilar individual yoki guruh ko'rinishida o'quvchilar bilan ba'zi bir yaxshi o'zlashtirilmagan mavzular ustida ishlaydilar. Yordamchi o'qituvchilar maxsus o'rta maktabdan keyingi dastur bo'yicha treninglar olib borishadi, bu ularning bilimlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchilar bilan ishlashda yordam beradi, asistent o'qituvchilar sinf rahbari bilan yaqinda ishlaydilar. Shuning uchun, bunday zudlik bilan yondashuv, bilim olishda qiynalayotgan o'quvchilar bilan ishlash ularni yanada bilim olishlarini yaxshilashga, tushunmagan mavzularni anglab yetishlariga xizmat qiladi. Agarda juda zarur bo'lsa, o'quvchilarga maxsus o'qituvchilar (ya'ni mavzuni yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchilar bilan ishlaydigan o'qituvchilar) tomonidan darslardan so'ng yana qo'shimcha darslar o'tiladi. Joriy nazorat turi o'quvchilarni o'z-o'zini baholashni ham targ'ib qiladi. Finlyandiya ta'lim kengashi (2004) o'quvchilar o'zlarini fikrlashlarini shuningdek o'quv dasturi orqali qay darajada rivojlanayotganliklarini baholashni

rag’batlantiradilar. Shuning uchun, o’quvchilar uchun o’zini-o’zi baholash tanqidiy mahoratni rivojlantiruvchi jarayon hisoblanadi. O’z-o’zini baholashni ham o’rganish o’qituvchi nazorati asosida amalga oshiriladi. Kulm (1994) ga ko’ra baholar shunchaki ballardan ko’ra ko’proq narsa yetkazish kerak va o’quvchilar qaysi yo’llar bilan o’rganayotgan bilimlarini yanada oshirishlari mumkinligini shu baholari orqali anglab yetishlari kerak. Bu jarayon kelajakdagi faoliyatlarini o’z-o’zini baholash orqali o’quvchini mahoratini rag’batlantiradi. Shuningdek, Rossi (1995) ta’kidlagandek, o’z-o’zini baholashdan asosiy maqsad, o’quvchini ijobiy rag’batlantirish va yo’naltirishdir. O’quvchiga baholash orqali taqdim etilgan ma’lumotlar o’quvchiga o’quv jarayonini yanada jadallashtirishi va maqsadlarni belgilashda yordam berishi kerak.

**Yakuniy nazorat turi.**

Umumta’lim maktabining yakuniy bahosi o’zi belgilaganidek, yuqori baho deb hisoblanadi chunki o’quvchilar tamomlaganlik to’g’risida sertifikat olishadi va bu sertifikat bilan o’rta maktabda o’qishni davom ettirishlari mumkin. Har bir fan bo’yicha asosiy o’qituvchi tomonidan tuzilgan yakuniy baholash portfelin o’z ichiga oladi, talabalarning yillik hisobotlari, shuningdek, sakkizinchi va to’qqizinchi sinfdagi o’quvchilar ishining baholari ham mavjud bo’ladi.

Milliy o’quv dasturi yakuniy baholashni talab qiladi, ya’ni “milliy jihatdan qiyoslash va o’quvchilarga teng munosabatda bo’lish”likni bildiradi. Bu baholash orqali har bir fan uchun mezonlar, o’quvchilardan talab qilinadigan maqsadlarga erishganliklarini ko’rsatadilar. Sinov ballari baholash uchun yagona mezon sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Keyinchalik, yakuniy baholash, og’zaki sharhlar va to’rttdan o’ngacha bo’lgan shkala bo’yicha raqamli balldan iborat yana baholanadi. Sakkiz ball olinsa yaxshi ishlashni aks ettiradi va besh ball esa yetarli darajada ishlash darajasini ko’rsatadi va bu baholash jarayonlaridan keyin talabalar bitiruv sertifikatini olishlari imkonini beradi.

O’quvchilar o’rta maktabni tugatgandan so’ng standartlashtirilgan imtihondan o’tadilar va universitet, politexnika yoki kasb-hunar kollejlari kirishadi.

Ushbu baholash jarayoni to’liq o’rta ta’lim o’quv dasturi orqali olingan bilim va etuklikni ko’rsatadi.

**Koreya.**

Janubiy Koreyada ta’lim:

IQ reytingida dunyoda yetakchilardan bo’lish siri nimada? Bugungi kunda dunyoda ta’limga e’tibor har qachongidanda yuqori. Boisi, davlat kelajagi uchun yoshlarning ilmi bo’lishi o’ta muhim masala. Bunga Janubiy Koreya ta’lim tizimini yaqqol misol qilib keltirish mumkin. Janubiy Koreya ta’lim tizimi dunyodagi eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Buni koreys xalqining o’qish va hisoblash qobiliyati, ya’ni matematikaga oid bilim-lari yuqoriligidan ham bilish mumkin. Qolaversa, intellektuallik koeffitsiyenti (ing. intelligence quotient, qisqartma nomi IQ), odamning turli test uslublari asosida aniqlanadigan aqliy rivojlanish ko’rsatkichi, bilim saviyasi bo’yicha dunyoda 2-o’rinda turadi.

Bu davlatda umumiy ta’lim 11 yil va 3 bosqichda tashkil etiladi:

T/r	Bosqich	Davriylik
1.	Boshlang’ich maktab – 6 yil;	
2.	O’rta maktab – 3 yil;	
3.	Yuqori maktab – 2 yil.	

Bu bosqichlarning har biri alohida ahamiyatga ega. Masalan, matematika saboqlariga bog’cha davridanoq kuchli e’tibor qaratiladi. Eng kichik yoshidan bolalarga o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish va boshqalar bilan muloqot qilishning birinchi ko’nikmalari, misol uchun yo’lda yo’qolib qolgudek bo’lsa, qayerga borishi, nima qilishi kerakligi, ota-onasi kimligi, ularning raqamlari, yashash manzillari o’rgatiladi. Shuningdek, yozish, o’qish, hisoblash, musiqa, rasm, chet tili (asosan ingliz tili), xavfsizlik asoslari, jismoniy tarbiya, ochiq havoda o’yinlar va basseynida suzishni o’rganishadi. Bog’chadagi ta’lim aynan shuning uchun ham muhim bo’lib, ota-onalar farzandlari erta rivojlanishi uchun 3 yoshidan bolalar bog’chasiga yuboradi. Bu davrda ular maktabga chiqishga ham tayyorlanadi. Maktabgacha ta’lim tugaganidan so’ng bola 5 yoshida boshlang’ich maktabga qabul qilinadi.

Boshlang’ich va o’rta maktabda ta’lim olish majburiy bo’lgani uchun darslar bepul, lekin ovqatlanish va maktab formasi uchun davlat tomonidan maxsus to’lov joriy etilgan. Janubiy Koreya maktablarining barchasi o’z formasiga ega va barcha uchun kiyish majburiydir.

Boshlang’ich maktab davri 6 yil. Dars ertalab 9:00 da boshlanib, tartibni saqlash maqsadida 1-2-sinflarga 13:00, 3-4-sinf-larga 14:00, 5-6-sinflarga 15:00 da tugaydi. Bu davrda o’quvchilar, ona (koreys) tili, chet tili (asosan ingliz tili), ijtimoiy fanlar, matematika, musiqa, tasviriy san’at kabi fanlarni o’rganadi.

Jismoniy ta’lim ham barcha fanlar kabi majburiy. Boshlang’ich maktab davrida asosan 9 ta fan, arifmetika va ijtimoiy fanlar o’rgatiladi. Koreys tiliga ham alohida e’tibor beriladi. 6 yillik boshlang’ich ta’lim tugaganidan so’ng o’quvchilar o’rta maktabga qabul qilinadi. O’rta maktabning bir nechta turi bo’lib,

ular o‘quv dasturi va o‘quv turiga qarab farq qiladi. Ta’lim davri 3 yil. O‘quvchilar asosan koreys tili, matematika, ingliz tili, ijtimoiy fan, tarix, ilm-fan, musiqa, san’at, jismoniy tarbiya, axloq va ikkinchi chet tili sifatida qo‘shimcha chet tili va xitoy yozuvini o‘rganadi. Bu asosiy fanlardan tashqari fizika, estetik bilim, kelajakdagi kasb-hunarga yo‘naltirilgan tanlovli mavzular ham o‘qitiladi. Yuqori maktab ta’lim tizimi o‘rta maktabning ikkinchi bosqichi bo‘lib, ma’lum bir mutaxassislikni o‘zlashtirishga qaratilgan. U 2 yil davom etadi. Mavzular institut va universitetlarda qo‘shimcha o‘rganiladi. Bu ta’lim jarayonida turli reyting va qiyin imtihonlar mavjud. Baholar nisbiy baholash tizimida bo‘lgani uchun yuqori maktab o‘quvchilari orasida qattiq raqobat bor. Ular odatiy darslar yakunlanganidan so‘ng qo‘shimcha darslarga boradi yoki kechki payt ham maktabda qolib mustaqil o‘qib o‘rganadi. Bu bosqichdagi baholar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kollejga qabul qilish bilan bog‘liq. Yuqori maktab o‘quvchilarining asosiy maqsadi nomdor universitetga kirish, chunki ular qanchalik obro‘li universitetda o‘qisa ishga kirishi osonroq, maoshi va kelajak hayoti shunga yarasha bo‘lishini yaxshi anglaydi.

**Xulosa** qilib aytganda, Janubiy Koreya va O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘xshashliklar ko‘p. Janubiy Koreya ta’lim tizimidagi o‘ziga xos jihatlardan biri, bog‘cha davridanoq matematika va chet tiliga alohida e’tibor qaratilishidir. Aynan shuning uchun ham koreyslar hisob-kitobga juda usta va kamida xitoy yoki ingliz tilini yaxshi biladi. Shuningdek, Janubiy Koreya davlati eng birinchi bo‘lib barcha ta’lim maskanlarini, boshlang‘ichdan to oliy ta’lim tizimigacha yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlagan. Ta’kidlash kerakki, universitetdagi ta’lim jarayonida ham talabalar uchun yaxshi qulayliklar yaratilgan. Masalan, ular fanlarni o‘z xohishiga ko‘ra tanlaydi. Har bir talabada ID raqami bor va fanlarni tanlash uchun ham alohida bir kun ajratiladi. Talabalar semestr boshida darslarda ishtirok etib ko‘rishadi, agar dars yoqmasa qayta tanlash huquqiga ham ega. Buning uchun universitet saytida professor va talabalar muloqot qiladigan alohida joy bo‘ladi. Kutubxonalardan nafaqat kitob olish, balki u yerda dam olish, seminarlar ham o‘tkazish mumkin. Hattoki, imtihon paytlari talabalar kutubxonada qolsa ham bo‘ladi, buning uchun maxsus joylar ajratilgan. Talabalar universitetga istagan kiyimida borishi mumkin. Eng muhimi ularning darsdagi ishtiroki hisoblanadi. Bunday tizim nafaqat talabalarga, o‘qituvchi, professorlar uchun ham qulaydir.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-arreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori.
3. Axmedova M.E. Umumiy pedagogika. Darslik. 2023-yil. Zuhra baraka biznes MCHJ
4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademya nashr, 2020, 252 bet.
5. Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 318 b.
6. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent, 2019-yil. –B. 92.
7. Asilova G.A. Umumiy o‘rta ta’limda tanlash usulidagi testlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 1998. – 137 b.
8. Asqarova M.J. 7-9-sinf algebra kursi bo‘yicha test topshiriqlari tuzish prinsiplarini takomillashtirish: ped.fan. nomz. ... dis. – Farg‘ona, 1998. – 141 b.

**XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIDA TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGIGA  
TA'SIR QILUVCHI IJTIMOY OMILLAR TADQIQI**

**Matkarimov Akramjon Muxtorovich,**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi professor v.b.,*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*akramjon14@list.ru*

*Maqolada ta'lim tizimi samaradorligi, o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar tadqiq qilingan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ota-onalarning ta'limga bo'lgan munosabati, oilada ta'lim muhitini rivojlantirishning pedagogik jihatlari, mazmuni, shakli va o'ziga xosliklari tahlil qilib o'tilgan. Oilada ta'lim muhitini rivojlantirish, avvalambor, ota-onalarning ta'limga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllanganligi bilan tavsiflanadi. Xalqaro baholash tadqiqotlarida mazkur ijtimoiy jihatlar alohida o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *xalqaro baholash tadqiqotlari, ta'lim samaradorligi, tayanch kompetentsiya, oilada ta'lim muhiti, ijtimoiy qobiliyatlar, ota-onalar tashabbuskorligi va faolligi.*

**ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ  
ИССЛЕДОВАНИЯХ**

*В статье рассматривается эффективность системы образования, социальные факторы, влияющие на успешность учащихся в обучении. На основе анализа научной литературы проанализировано отношение родителей к образованию, педагогические аспекты, содержание, форма и особенности развития образовательной среды в семье. Развитие образовательной среды в семье прежде всего характеризуется формированием положительного отношения родителей к образованию. Эти социальные аспекты изучаются отдельно в международных оценочных исследованиях.*

**Ключевые слова:** *международные оценочные исследования, эффективность образования, базовая компетентность, семейная образовательная среда, социальные навыки, родительская инициатива и активность.*

**STUDY OF SOCIAL FACTORS AFFECTING THE EFFECTIVENESS OF THE  
EDUCATIONAL SYSTEM IN INTERNATIONAL EVALUATION STUDIES**

*The article examines the effectiveness of the educational system, social factors affecting the success of students in education. Based on the analysis of scientific literature, parents' attitude to education, pedagogical aspects, content, form and peculiarities of the development of the educational environment in the family were analyzed. The development of the educational environment in the family is primarily characterized by the formation of a positive attitude of parents towards education. These social aspects are studied separately in international evaluation studies.*

**Keywords:** *international assessment studies, educational effectiveness, basic competence, family educational environment, social skills, parental initiative and activity.*

**Kirish.** Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta'lim muassasalari o'quvchilarida tayanch kompetentsiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning ta'lim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlari bog'lagan holda aniqlaydi. Tayanch kompetentsiyalar ijtimoiy me'yor sifatida ham talqin qilinishi mumkin bo'lib, bu tushuncha o'quvchining kundalik-amaliy faoliyatda mustaqil hayot kechirishi uchun lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning umumlashmasini tavsif etadi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tadbiiq etish samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari o'rganilganligi hamda shu jihatlarni hisobga olgan holda ta'limdagi islohotlarni rejalashtirish bilan uzviy bog'liq.

Ma'lumki, „Ta'lim to'g'risida“gi qonunning 3-bobida „...ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog



xodimlar va ularning vakillari“ ekanligi ta’kidlab o’tilgan. Shuningdek, mazkur qonun bilan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar ham belgilab qo’yilgan. Jumladan, ta’lim ustuvorligining tan olinishi; ta’lim sohasida kamsitishlarga yo’l qo’yilmasligi; ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi; ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi; ta’limning uzluksizligi va izchilligi; insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi kabi prinsiplar ta’limning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini o’zida aks ettiradi. Shuningdek, Ta’lim to’g’risidagi 5-moddada „...jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi „, deb qayd etilgan [1].

**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili.** Ta’lim – nafaqat o’quvchilarga biror narsani o’rgatish, balki ularga tobora murakkablashib va o’zgarib borayotgan dunyoda, o’ziga bo’lgan ishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy imkoniyatlar bilan ta’minlash jarayonidir [6.49]. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo’lida xorijiy ilg’or tajribalarni o’rganish, xalqaro standartlarni joriy etish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega [7. 21].

Ota-onalarning o’z farzandlarini qo’llab-quvvatlashi hamda oiladagi ta’lim muhit va munosabatning rivojlanganligi pedagog faoliyatini samaradorligi hamda sinfda ijobiy o’rganish muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O’qituvchining o’z kasbidan roziligini qo’llab-quvvatlash maktablarda yuqori malakali o’qituvchilarni saqlab qolishning garovi hisoblanadi. Birgalikda ishlash va qo’llab-quvvatlash hamda maktabdagi ijobiy ijtimoiy muhitni va kuchli yetakchilik mahorati kabi ijtimoiy omillar o’qituvchilarning o’z kasbidan qoniqishi va ularni ish joylarida saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

R. Sh. Axlidinov o’z dissertatsion ishida maktab avvalambor ijtimoiy muassasa ekanligini ta’kidlab o’tadi [2. 48]. Maktab boshqa ijtimoiy tashkilotlar singari tashqi muhit bilan faol aloqadagi to’laqonli murakkab tizim hisoblanadi (bunda tizimlarning ochiq tizim deb atashadi) [2. 52]. Maktab hudud, mintaq va mamlakat ta’lim majmualaridan tarkib topgan yanada kengroq maorif tizimlari sirasiga kiradi. Shu vaqtning o’zida maktab butun ijtimoiy tizimning bir qismi hisoblanadi va uning hayotiy faoliyati ko’p darajada atrofdaan kelayotgan ta’sirlarga bog’liq. Lekin maktabning tashqi muhit bilan aloqasi bir tomonlama bo’lmagan, balki ikki tomonlama bo’lib, maktabda tashqi muhitga nisbatan erkin tanlash huquqi bor.

- tashqi muhit o’zgarishlari va talablari darajasida bo’lishga harakat qilgan holdagi nafaol-ko’nikuvchanlik holatida;
- tashqi muhit o’zgarishlarini hamda ijtimoiy buyurtmani tahlil qilish va shu bilan real o’zgarishlarni oldindan ko’ra bilish, faol-ko’nikuvchanlik holatida;
- muhitga o’z ta’sirini o’tkaza oladigan, ya’ni bir vaqtning o’zida ko’nikuvchan tizim tariqasida (muhitga nisbatan) va ko’niktiruvchi tizim tariqasida (muhitni o’zining ehtiyojlariga bo’ysunduruvchi) bo’lishi mumkin [2. 53].

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta’lim muassasalari o’quvchilarida tayanch kompetentsiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning ta’lim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlariga bog’lagan holda aniqlaydi. Tayanch kompetentsiyalar ijtimoiy me’yor sifatida ham talqin qilinishi mumkin bo’lib, bu tushuncha o’quvchining kundalik-amaliy faoliyatda mustaqil hayot kechirishi uchun lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malakalarning umumlashmasini tavsif etadi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga tadbiiq etish samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari o’rganilganligi hamda shu jihatlarini hisobga olgan holda ta’limdagi islohotlarni rejalashtirish bilan uzviy bog’liq.

Shuningdek, xalqaro baholash tadqiqotlarida „o’quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyati“ tushunchasi keng qo’llanilgan bo’lib, o’quvchining ta’lim mazmunini mustaqil hayotga tayyorgarlik ko’rish uchun qo’llay olishini ko’rsatadi. O’quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlashning ijtimoiy aspektlari ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi:

- o’quvchining ijtimoiy kelib chiqishi;
- ta’lim olishning o’z hayotidagi ahamiyati tushunishliligi;
- „umumta’lim muassasasi-oila hamkorlik mexanizmi“ning samaradorligi;
- oilalarda ta’limiy qadriyatlarining rivojlanganligi;
- ijtimoiy, akademik va madaniy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanishning mavjud holati.

Oiladagi ta’limiy muhit bilan bog’liq muammolarning asosiysi ota-onalarning pedagogik kompetentsiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, jamiyatda farzand tarbiyasi va ta’limi bo’yicha professional ta’lim dasturlarining mavjud emasligi, kamligi yoki mazmunining sifat darajasi pastligi. Buning natijasida ota-onalar internet tarmog’i orqali, o’z tanishlari orqali tajriba almashish orqali istagan ma’lumotlarini topishga harakat qiladi. Yana bir jihati aynan oiladagi ta’lim muhitini rivojlantirishga doir

ma'lumotlar oiladagi tarbiyaviy muhitni rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarga nisbatan kamroq uchraydi. Ota-onalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish institutsional va professional yondashuvni taqozo etadi.

Jamiyatda oilalardagi tuzilmalar o'zgarib bormoqda. Insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy ehtiyojlari ham o'zgarib bormoqda. Bu esa har bir insonning individual turmush kechirishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda avlodlar almashinuvi jarayoni tezlashmoqda va ularning fikrlash darajasi ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi maktab yoshidagi bolalar, asosan, Z va  $\alpha$  gen avlodlariga to'g'ri keladi. Boshqa tarafdin maktablarning o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdagi funksional vazifalari salmog'i, ijtimoiy ma'suliyati yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, ta'lim tizimidagi xalqaro baholash tadqiqotlarining joriy etilishi jamiyatning yildan-yilga ta'lim va uning sifatiga talablari oshib borayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar oila va maktab hamkorligini mustahkamlash borasida ko'plab muammolar mavjud ekanligini ko'rsatadi [4; 266]. Muammoning eng asosiysi sifatida ota-onalar yoki o'qituvchilarning hamkorlikka qiziqishi yo'qligi bilan tavsiflanadi. Otterpohl und Wild [5; 295] o'z tadqiqotlarida qat'iy xulosa sifatida, muvaffaqiyatli hamkorlik uchun aslida barcha ishtirokchilarning yagona „hamkorlik“ tushunchasiga ega bo'lishi tushuniladi. Bunda ota-onalar, shuningdek, maktab ma'muriyati, o'qituvchilarning hamkorlik borasidagi tasavvurlari tubdan bir-biridan farq qiladi. Asosiy faoliyat sifatida darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, zarurat bo'lganda tashkillashtiriladigan kam sonli subhatlar oddiy sheriklik munosabatlari sifatida baholanishi mumkin. Bunda, albatta, kommunikativ muvofiqlashtirish jarayoni zarur bo'lib, ota-ona va maktab hamkorligi aslida qanday bo'lishi va amalga oshirilishi lozimligi muzokaralar orqali aniqlashtirib olinishi lozim [5; 293].

**Natijalar.** Ilmiy adabiyotlar tahlili xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta'lim tizimiga tadbiriq etishning pedagogik zarurati quyidagilarda ekanligini ko'rsatadi: taqqoslash imkoniyati, ilg'or tajribalar almashinuvi, islohatlarni tezlashtirish, ilmiy-empirik ma'lumotlarga ega bo'lish, shaffoflik va mas'uliyatlilik.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilari ta'limdagi yutuqlarini xalqaro tadqiqotlar hamda milliy tadqiqotlar asosida baholash orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- milliy ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot olish;
- ta'lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi;
- ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi;
- o'quvchilarning bilimi, salohiyati va savodxonligining qay darajada shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosda taqqoslash;
- ta'lim muassasalaridagi joriy etilgan o'qitish usullarini boshqa mamlakatlardagi usullardan farqli jihatlar haqida tasavvurga ega bo'lish;
- o'quvchilarning savodxonlikni rivojlantirishga oid darslar maktablarda qanday tashkil etilganligi haqida ma'lumot olish;
- ota-onalar tomonidan o'quvchilarning bilimi va savodxonligini yaxshilashda qo'shilayotgan hissalar salmog'ini bilish;
- o'quvchilarni fanlararo uyg'unlik asosida baholash, dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilish;
- ta'lim sifati va samaradorligiga yangicha qarash, zamonaviy, kompetensiyaviy yondashuvlar, ya'ni o'quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish yondashuvini olib kirish;
- shuningdek tizimda tub islohotlar va burilishlarga sabab bo'ladigan strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma'lumotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi.

Xalqaro baholash tadqiqotlarining vazifasi unda ishtirok etuvchi davlatlar, ta'limga mas'ul vazirlik va idoralarning oldida turgan quyidagi savollarga javob topishida zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir:

- o'quvchilar majburiy ta'lim so'nggida demokratik jamiyatda faol fuqarolik rolini olishga yetarli tayyorlanganmi?
- o'quvchilar o'z g'oya va tasavvurlarini tahlil qilish, asoslash va shular asosida muloqot qila olish ko'nikmasiga egami?
- o'quvchilar hozirgi mehnat bozori talablari asosida maktabda ta'lim olayaptimi?
- o'quvchilar «butun hayot davomida o'qish» kontseptsiyasi talablariga javob beradimi? [3;9].

**Munozara.** Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari va ularning turli davlatlar misolidagi ilmiy tahlillari asosida o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning ta'limdagi muvaffaqiyati bilan chambarchas bog'liqligini, milliy ta'lim tizimi samaradorligi uning ijtimoiy jihatlarini hisobga olinishi va doimiy ravishda ta'lim tizimiga doir muammolar bilan birgalikda ijtimoiy masalalarni ham o'rganib borishni

taqozo etishini yaqqol ko‘rsatadi. Gap shundaki, ta‘limdagi ijtimoiy tengsizlikning sabablari xilma-xil va murakkabd tushunchadir. Milliy ta‘lim tizimi sohasiga doir ta‘lim siyosati bu kabi ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega, ammo bu barcha ijtimoiy muammolarni hal qilinishida yagona yechim bo‘la olmaydi. Ta‘limga doir ijtimoiy muammolar umumta‘lim maktablarining jamiyatning boshqa institutlari bilan hamkorligi, o‘qituvchilarni tayyovlash va malakasini oshirish, jamiyatdagi iqtisodiy resurslarni taqsimoti hamda ta‘limni moliyalashtirish, ta‘limning ahamiyatini qadriyatlar darajasiga ko‘tarilganligi kabi masalalar bilan o‘rganish barobarida ijtimoiy masalalar hal bo‘lib boradi. Ta‘lim sohasidagi vazirliklar, boshqarmalar ta‘lim muammolarini barchasini hal qiluvchi yagona institut deb qaramaslik lozim bo‘ladi.

Ko‘plab pedagogik-empirik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, oilalardagi ijtimoiylashish o‘quvchilarning yutuqlariga ta‘sir ko‘rsatadigan eng katta omillardan biri hisoblanadi. Oilaning ahamiyati umumta‘lim maktablarining moddiy-texnik bazasi, o‘qituvchilar malakasi yoki maktablarning boshqaruv mustaqilligi kabi masalalardan ahamiyati kattaroq degan qat‘iy xulosa qilinishiga asos bo‘ladi. Boshqa tadqiqotda yanada aniqroq xulosa qiluvchi dalillar keltirilib o‘tiladi: tadqiqotga ko‘ra o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlarning uchdan ikki qismi oilaviy omillarga bog‘liq va faqat uchdan bir qismigina maktab omillariga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur ikki tadqiqot natijalari tahlili asosida jamoatchilikda “ideal” maktab tizimi haqidagi bahslarni, tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muammoning kelib chiqish sabalari va oqibat bog‘liqligini oila instituti nuqtayi nazaridan hal qilish zaruriyatini ko‘rsatib o‘tmoqda.

Barcha davlatlarida ota-onalar kelajakda o‘z farzandlarini ta‘limdagi muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun maqbul shart-sharoit bilan ta‘minlash, ularni professional darajada qo‘llab-quvvatlashlari uchun ilmiy asoslangan mazmun asosida shakllantirilgan ota-onalik kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim dasturlari, ijtimoiy loyihalarga muhtojlik mavjud. Shuningdek, umumta‘lim maktablari, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va barcha ta‘lim muassasalarida ota-onalar bilan konstruktiv va muloqotga yo‘naltirilgan xamkorlik, ota-onalar bilan ishlashning miqdor va sifat jihatdan rivojlantirish uchun ko‘proq ijtimoiy-pedagogik faoliyat zarurat ekanligi anglatadi.

Ota-onalarning maktab ta‘lim-tarbiya faoliyatidagi faolligining turli-tumanligiga munosib ravishda ta‘limdagi ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqishi bir biriga mos degan xulosalar ham mavjud. Shu jihatdan olib qaraganda ota-onalarning o‘z faoliyatini tanqidiy baholay olishi uchun ta‘sirchan tadbirlar ishlab chiqish maktablar faoliyatining ajaralmas qismi bo‘lishi lozim. Ota-onalarning sinflardagi har bir ta‘lim-tarbiya jarayoniga bevosita va bilvosita ishtirok etishi mazkur jarayonning kuchli va “uzoqni o‘ylab” qilingan faoliyat deb qarash mumkin bo‘ladi. Pedagogik amaliyotda ota-onalar bilan hamkorlik qilish maktablar uchun ba‘zan rasmiyatchilik, ba‘zan “ehtiyot chorasi” sifatidagi maktab, shu bilan qatorda maktab ma‘muriyati, o‘qituvchilar jamoasini himoya qilish maqsadida deb tushunilishini kuzatish mumkin. Ota – onalar bilan xamkorlik qilishdan xavfsirash har doim muassasalarning muammosi bo‘lib kelgan. Boshqa tomondan esa ta‘lim muassasalarning cheklangan resurslarini (vaqt, xodimlar va boshqalar) hisobga olish lozim.

**Xulosa.** Xalqaro baholash tadqiqoti milliy davlat ta‘lim standartlarining kompetentsiyaviy yondashuvli didaktik tamoyil asosida shakllanganligini taqozo etadi. Baholash tadqiqotlarida nazarda tutilgan kompetentsiyaviy yondashuv ko‘p jihatdan jamiyat va mehnat bozori talablari asosida «jamiyatning faol a‘zolari», «bo‘lg‘usi mutaxassislar», «yetuk hayotiy-amaliy kompetentsiyalarga ega shaxs»ga nisbat beriladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mehnat bozorining inson resurslari va uning sifatiga bo‘lgan talablarini doimiy monitoring qilib keladi. Mehnat bozori talablari ta‘limning maqsadi sifatida shakllanib kelgan. Mehnat bozori bevosita ta‘lim tizimiga kerakli mutaxassislariga «buyurtmachi» ekan, mehnat bozorida ta‘lim tizimi mutaxassislariga bo‘lgan talablarni shakllantirib kelgan. Ta‘lim tizimi esa mehnat bozoriga moslashgan holda ta‘lim standartlariga mazkur talablarni singdirib kelgan. O‘quv jarayonining tashkil etilishi, o‘quv jarayonining mazmuni, qo‘llaniladigan metodlar va fanlar didaktikasi ham mehnat bozorida talab etilayotgan kompetentsiyalarga moslashtirib kelinmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son „Ta‘lim to‘g‘risida“ gi Qonuni//<https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Axlidinov R. Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi materiallari asosida). Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T. 2002. B. 48 (285)
3. Bildungsmonitoring Schweiz: Für das Leben gerüstet? Die Grundkompetenzen der Jugendlichen-Nationaler Bericht der Erhebung // PISA 2000. – p. 91.
4. Jäger-Flor, D. & Jäger, R. S. Bildungsbarometer zur Kooperation Elternhaus-Schule. Ergebnisse,

Bewertungen und Perspektiven. Landau: VEP Verlag Empirische Pädagogik, 2010. -p. 266

5. Otterpohl, N. & Wild, E. (2019). Kooperation zwischen Elternhaus und Schule im Kontext der schulischen Leistungsentwicklung. In B. Kracke & P. Noack (Hrsg.), Handbuch Entwicklungs- und Erziehungspsychologie. Springer Reference Psychologie Berlin, 2019. -p. 293-306.

6. Исмаилов А.А. Ўқувчиларнинг таълимдаги ютуқларини баҳолаш: танлов рамкасини шакллантириш // Замонавий таълим, 12. 2021. -49-56б.

7. Шляйхер А. Образование Мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? //Издательство Национальное образование. ФИОКО Москва. 2019. - 27с.

MUAMMOGA ASOSLANGAN O‘QITISHNING SAMARADORLIGI HAQIDA BA’ZI  
MULOHAZALAR

*Davronova Fotima Pirnazarovna,*  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik  
va biotexnologiyalar universiteti dotsenti v.b.,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)  
fotimadavronova82@gmail.com  
ORCID ID 0009-0005-0911-6821

*Ushbu maqolada muammoli o‘qitish, ilmiy-o‘quv masalalarni nostandart usullar bilan yechish, talabalarga taqdim qilingan muammoli masalalarni dars jarayonida yangi yechimlar izlashga qaratishi haqida fikrlar ifodalangan. Muammoli ta‘limning mohiyati va vazifalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, bu jarayon intellektual sifatlarni xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog‘liq ekanligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shunga ko‘ra, o‘quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxmini to‘g‘ri belgilash va yechimning to‘g‘riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlantirib borish natijadorligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Talabalardagi kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish va o‘rganilayotgan mavzuni tafakkur qilish orqali tub mohiyatiga yetib borish, mustaqil va jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada dars jarayonida o‘qituvchi ko‘zlangan maqsadiga erishadi.*

*Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo‘lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiylik, umumlashtirilganligi, xususiylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniylik darajasi bilan belgilanadi. Intellektual taraqqiyot darajasi o‘qituvchilarda hamda o‘quvchilarda qancha yuqori bo‘lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo‘ladi.*

**Kalit so‘zlar:** muammoli ta‘lim, ko‘nikma, malaka, muammoli vaziyat, intellektual sifatlarni.

НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ ОБ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

*В данной статье высказаны мнения о проблемном обучении, решении научно-учебных задач нестандартными методами, ориентировании на поиск новых решений проблемных вопросов, предъявляемых учащимся в ходе урока. Приводятся сведения о природе и задачах проблемного образования. При этом приводятся сведения о том, что этот процесс связан с интеллектуальными качествами памяти, воображения, осознанности, а также скоростью и другими параметрами подобных психологических процессов. Соответственно, даётся информация об эффективности развития способностей учащихся воспринимать проблему, идентифицировать её, правильно оценивать решение, проверять правильность решения. Оно развивает творческие способности учащихся и их способность работать самостоятельно и в команде, размышляя над изучаемой темой. В результате учитель достигает своей цели на уроке.*

*Основным процессом в мыслительной деятельности является процесс мышления, а качеством мышления является степень его логичности, самостоятельности, креативности, научности, разумности, связности, экономности, целеустремленности, быстроты, аналитичности, сравнительности, обобщения, специализации, широты. определяется глубина, правдоподобность, реальность, правдивость. Чем выше уровень интеллектуального развития учителей и учащихся, тем больше возможностей добиться результатов.*

**Ключевые слова:** проблемное обучение, умение, компетентность, проблемная ситуация, интеллектуальные качества.

SOME CONSIDERATIONS ON THE EFFECTIVENESS OF PROBLEM-BASED LEARNING

*In this article, thoughts are expressed about problem-based teaching, solving non-standard scientific and educational problems with non-standard methods, and focusing on the search for new solutions to problematic problems given to students. Information about the nature and tasks of problem-based learning is provided.*

*In addition, opinions are expressed about problem-based teaching, solving scientific-educational issues by non-standard methods, focusing on the search for new solutions to the problematic issues*

presented to students in the course of the lesson. Information about the nature and tasks of problem-based education is given. At the same time, information is given that this process is related to the intellectual qualities of memory, imagination, awareness, and the speed and other parameters of similar psychological processes. Accordingly, information is given on the effectiveness of developing students' abilities to perceive a problem, identify it, correctly estimate the solution, and check the correctness of the solution. It develops students' creativity and the ability to work independently and as a team by thinking about the topic being studied. As a result, the teacher achieves his goal during the lesson.

The main process in mental activity is the process of thinking, and the quality of thinking is the degree of its logicity, independence, creativity, scientificity, reasonableness, coherence, economy, purposefulness, speed, analytical, comparative, generalization, specialization, breadth, depth, believability, reality, truthfulness is determined. The higher the level of intellectual development of teachers and students, the better the opportunity to achieve results.

**Keywords:** problem-based learning, skills, competence, problem situation, intellectual qualities.

**Kirish.** Muammoga asoslangan ta'lim (PBL) katta rivojlanish va o'zgarishlarni talab etadi. PBL muvaffaqiyatli o'qitish va o'rganish strategiyasidir talabalarni yuzaki emas, balki chuqur o'rganishga jalb qilish va bu o'qituvchiga emas, balki talabalarga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi [1, B.44-47].

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

**Natija va muhokama.** Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin: 1. Isbotlash bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi. 2. Tekshirish bu tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi. 3. Tushuntirish bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning ijodiy tafakkur va ijodiy gobiliyatlarini ostirishda muammoliy talimdan unumli foydalanish uchun uning ayrim nazariy asoslari sifatida B.Blumning bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlar taksonomiyasi (tafakkurning bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajasi)ga hamda G.Gardnerning intellekt kopligi nazariyasiga asoslanish maqsadga muvofiq [2, B.58-63].

Intellekt kopligi nazariyasining qisqacha bayoni quidagicha:

Bu nazariyani amerikalik psixolog Govard Gardner ishlab chiqqan. Bu nazariya har bir odam turli darajada ifodalangan kamida sakkizta tipdagi intellektga ega ekanligini ochib berdi. Ular quyidagilar: 1. Verbal-lingvistik intellekt-so'z xotirasi, so'z boyligi yaxshi, o'qishni yaxshi ko'radi, so'z bilan ijod qilishni yoqtiradi. Bular shoir, yozuvchi, notiqalar. 2. Mantiqiy-matematik intellekt-hisoblash va sonlar bilan ishlashni, mantiqiy masalalar, boshqotirmalarni echishni, shaxmat o'ynashni yaxshi ko'radi, tengqurlariga nisbatan ko'proq abstrakt darajada fikrlaydi, sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunadi. Bular matematik, fizik va boshqalar. 3. Vizual-fazoviy intellekt-ko'rish obrazlari bilan fikrlaydi, karta, sxema, diagrammalarni tekstga nisbatan oson o'qiydi, xayolga berilish, rasm chizish, modellar konstruksiyalashni yaxshi ko'radi. Bular rassom, haykaltarosh, me'mor, ixtirochi, shaxmatchilar. 4. Motor-harakatli intellekt-yuqori sport natijasiga erishadi, boshqalarning harakatlari, mimikasi, odatlarini yaxshi takrorlaydi, hamma narsaga qo'l tekizish, buyumlarni qismlarga ajratish va yig'ish, yugurish, sakrash, kurash tushishni yaxshi ko'radi. Hunarlarga qobiliyatli. Bular raqqos, mim, artist, sportchilar. 5. Musiqiy-ritmik intellekt-qo'shiqlar, kuylarni eslab qoladi, ovozi yaxshi, musiqa asbobini chaladi, xorda ashula aytadi, harakatlari va so'zlashi ritimli, o'zicha sezmasdan kuylaydi, biror ish qilayotib, stolni ritmik chertadi. Bular bastakor, musiqachi, qo'shiqchi, raqqoslar. 6. Shaxslararo intellekt-tengqurlari bilan muloqotni, boshqa bolalar bilan o'ynash va ularga o'rgatishni yaxshi ko'radi, turli holatlarda yetakchi bo'lib qoladi, hamdardlikni, boshqalarga g'amxo'rlik

ko'rsatishni biladi, boshqa bolalar unga sherik bo'lishga intiladilar. Bular diniy xodim, siyosatchi, diplomatlar. 7. Ichki shaxsiy intellekt-mustaqillik hissi, iroda kuchini namoyish qiladi, o'zining yaxshi va yomon xislatlarini real anglaydi, vazifalarni hech kim xalaqit bermaganda yaxshi bajaradi, o'zini boshqara oladi, yakka ishlashni ma'qul ko'radi, o'z hissiyatlarini aniq tasvirlaydi, o'z xatolaridan ibrat oladi, o'z qadrini bilish hissi rivojlangan. Bular psixolog, o'qituvchi, tarbiyachilar. 8. Tabiatshunos intellekti bu tabiatga, tabiat hodisalariga, jonivorlar, o'simliklarga qiziqadi, tabiat olamini tushunish, atrof-muhitning belgilari va xususiyatlarini farqlash, tasniflash va shu kabilarga qobiliyatini namoyon qiladi. Bular tabiatshunos, ekolog, qishloq xo'jalik xodimlari. Ayrim bolalar o'zlaridagi eng ustun intellekt tipi orqali boshqalarga nisbatan osonroq o'qishlari mumkin. Har bir boladagi o'z vaqtida aniqlangan va rivojlanirilgan talant unga hayotda yuksak cho'qqilarga erishish uchun yo'l ochib beradi [3, B.89-92].

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, subyekt, obyekt va yana subyekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlarini rivojlanadi. Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarining maqsadi pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir.

Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantig'i o'zida muammoli vaziyatlar mantig'ini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi. Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo odatda murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto, muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi. O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, subyekt, obyekt va yana subyekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi [4, B.55-57].

Muammoga asoslangan ta'limning uchta darajasi mavjud: muammoni o'qituvchi qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan hamkorlikda topadi; muammoni o'qituvchi qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar mustaqil topadi; muammoni o'qituvchining o'zi qo'yadi va uning yechimini ham mustaqil topadi.

Muammoli ta'lim bu o'quvchilar faoliyatini nazariy va amaliy muammolarni va ushbu muammoli vaziyatlar kuchi orqali yaratilgan muammoli topshiriqlarni hal etish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan holda tashkil etish usulidir. Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarning bahslari, mushohadalarida amalga oshiriluvchi analiz-sintez faoliyatiga asoslanadi. Bu ta'limning tadqiqotchilik turidir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishniig reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi. Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik «vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Muammoli vaziyat har qanday

fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt) ning unga avval va ayni vaqtda ma’lum bo’lgan vazifa, masala bo’yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Muamoli o’qitishning o’ziga xos jihatlari mavjudki, bu jihatlarni tadqiqotchi B.Aysmontas quyidagicha izohlaydi.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi bu o’quvchilarning o’rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to’liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o’rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo’llashda asosiy masalalardan biri o’rganilayotgan mavzu bilan bog’liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o’quv fanlari bo’yicha o’qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko’zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari: o’qituvchi o’quvchilarga dars mavzusi bilan bog’liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo’lini topishni taklif qiladi; bir masalaga doir turli nuqtayi-nazarlarni bayon qiladi; hal etish uchun yetarli bo’lmagan yoki ortiqcha ma’lumotlar bo’lgan yoki savolning qo’yilishi noto’g’ri bo’lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari: o’qituvchi muammoni qo’yadi va o’zi yechadi; o’qituvchi muammoni qo’yadi va uning yechimini o’quvchilar bilan birgalikda topadi; o’quvchilarning o’zlari muammoni qo’yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo’llaniladigan usullar: muammoni turli nuqtayi-nazardan o’rganish, tahlil qilish; solishtirish, umumlashtirish; faktlarni aniqlash va qiyoslash; vaziyatga bog’liq xulosalar chiqarish; o’quvchilarning o’zlari aniq savollar qo’yishi va boshqalar.

Muammoli ta’lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin: 1. Muammoli vaziyat hosil qilish. 2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish. 3. Yechimning to’g’riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog’liq axborotni tizimlashtirish orqali) [5, B.67-72].

Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim: Muammolar nazariy yoki amaliy yo’nalishda bo’ladi.

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o’quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo’yiladigan eng asosiy talab bu o’quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o’quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo’lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko’zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo’lmaydi. Muammo o’quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo’lishi shart.

Hosil bo’lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o’zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo’naltirilgan bo’ladi.

O’quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog’liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo’ladi. Bunday tushuna olish esa o’quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoli ta’lim murakkabligiga ko’ra turli darajada bo’lishi, ya’ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog’liq holda tanlanadi.

Muammoli ta’limning birinchi darajasi bu o’qituvchi tomonidan muammo yaratiladi va o’qituvchi tomonidan yechimlar ishlab chiqiladi, talabalar bu holda muammoli ta’lim jarayonida faoliyat yuritishga o’rganadilar.

Muammoli ta’limning ikkinchi darajasida bu o’qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan yechiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo’ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

Muammoli ta’limning uchinchi darajasida bu talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o’rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

Muammoli ta’limning to’rtinchi darajasida bu muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o’zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko’ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o’rganadilar. Bu muammoli ta’limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o’rganadilar. Bu holda talabalar o’ta faol holatda bo’ladilar. O’qituvchi esa kuzatuvchi va ba’zan yo’naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar [6, B.64-67].

Muammoli vaziyatlar mazmuniga ko’ra quyidagicha tavsiflanadi: 1. Maqsad noma’lum uni aniqlash kerak. 2. Faoliyat obyekti noma’lum uni aniqlash kerak. 3. Faoliyat usuli noma’lum uni aniqlash kerak. 4. Faoliyatni bajarish shartlari noma’lum uni aniqlash kerak [7, B.102-107].

**Xulosa.** Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o’quvchi o’zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi.



Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo‘lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliqi, mustaqilligi, ijodiyliqi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliqi, maqsadliliqi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyliqi, umumlashtirilganliqi, xususiylashtirilganliqi, kengliqi, chuqurliqi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyliqi darajasi bilan belgilanadi

Shu bilan birga intellektual sifatlari xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog‘liq.

Intellektual taraqqiyot darajasi o‘qituvchilarda hamda o‘quvchilarda qancha yuqori bo‘lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, o‘quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxminni to‘g‘ri belgilash va yechimning to‘g‘riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi. Bu esa talabalardagi kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish va o‘rganilayotgan mavzuni tafakkur qilish orqali tub mohiyatiga yetib borish, mustaqil va jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada dars jarayonida o‘qituvchi ko‘zlangan maqsadiga erishadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ibragimov. A.A. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv asoslari. / Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.-160 b.
2. Lessons from Problem-based learning. – Oxford University Press, 2010.-267 p.
3. David J.L. (2008). What research says about problem-based learning. // Educational Leadership, 65(5).
4. Sweller John. “The worked example effect and human cognition”/ Learning and teaching. 16(2); 165-169. 2006.
5. Davronova F.P. (2022). Digital technologies in studying English at University: traditions and innovations. // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(3).
6. Davronova F.P. (2022). Ways of forming digital literacy in the context of teaching English. // Epra international Journal of Research and Development (IJRD), 7(3).
7. Davronova, F. (2022). Experiment-testing methodology of on rapid teaching of English to students in the conditions of digital technologies. // Innovative Development in Educational Activities, 1(2).

## TA'LIM TIZIMINING ZAMONAVIYLASHUVI VA XORIJ TAJRIBASI

*Yoqubova Firuza Yo'ldosheva,  
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

*Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislar tayyorlash sifatini ta'minlash muammosi, yechimi, innovatsion faoliyat, shuningdek, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash va nazorat qilishda xorij tajribasidan foydalanish bo'yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsiya, innovatsion yondashuv, amaliyot, modernizatsiya, mehnat bozori, strategiya, nou-xau, raqobat, kadrlar tayyorlash dasturi, malaka, jahon tajribasi, tendensiya, ta'lim tizimi, ko'nikma.*

## МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

*В данной статье рассматривается проблема обеспечения качества подготовки будущих специалистов в образовательных организациях, её решение, инновационная деятельность, а также даны предложения и рекомендации по использованию зарубежного опыта обеспечения и контроля качества образования в высших учебных заведениях сегодня.*

**Ключевые слова:** *инновации, инновационный подход, практика, модернизация, рынок труда, стратегия, ноу-хау, конкуренция, программа подготовки кадров, квалификация, мировой опыт, тренд, система образования, навыки.*

## MODERNIZATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM AND FOREIGN EXPERIENCE

*In this article, the problem of ensuring the quality of training of future specialists in educational institutions, its solution, innovative activities, as well as proposals for the use of foreign experience in ensuring and controlling the quality of education in higher education institutions today, and recommendations are given.*

**Keywords:** *innovation, innovative approach, practice, modernization, labor market, strategy, know-how, competition, personnel training program, qualification, world experience, trend, education system, skills.*

**Kirish.** XXI asr texnologik taraqqiyot va globallashtirish tarqalishining o'ziga xos davriga aylandi, bu o'tgan o'n yilliklardagi voqealardan ustun keldi. Dunyo bo'ylab ta'limni rejalashtiruvchilar o'sib borayotgan iqtisodiy raqobat sharoitida keyingi avlod o'quvchilarining texnologik savodli bo'lishlari va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarga qiziqish bildirishlari uchun harakat qilishadi. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning sakkizinchi bandida mamlakatda sifatli ta'limga erishish vazifalari belgilangan. So'nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda o'sib kelayotgan avlodning sog'lom va har tomonlama yetuk bo'lib o'sishiga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'limtarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 avgustdagi PQ-4312-son “O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” Qarori qabul qilindi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 5- sentyabrdagi PF-5538-son “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadida, O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, ta'lim oluvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida qabul qilingan edi. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisning Senati va

Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ham ta’kidlab o’tildi: «...maktab o’quv dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o’quv yuklama va fanlarini qayta ko’rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur».

**Asosiy qism.** Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizimga ega mamlakatlardagina innovatsiya jarayonlar samarali amalga oshirilib, texnologiyalar va boshqa ilmtalab mahsulotlar tijoratlashtirilmoqda. Bu jarayonda davlatning ishtiroki, iqtisodiyotning real sektori va yetakchi kompaniyalarning innovatsiya faoliyatini qo’llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilm-fan davlatning texnik taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan ushbu integratsiya mexanizmining asosini tashkil qiladi. Bugungi kun innovatsion texnologiyalari ilm-fan va ta’lim sohasida muvaffaqiyatli qo’llanilsa, yangi yosh avlod ana shu jahon tajribasi asosida saboq olib, ulg’aysa, davlatimizning ertangi istiqboli, kelajagi yorqin bo’lishiga shak-shubha yo’q. E’tirof etish kerakki, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’lim mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayondir. Shu tufayli yurtimizda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta’minlashga ajratilayotgan mablag’lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga, respublikamizda ta’lim tizimida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirish va ularni natijaviyligini ta’minlash bu borada ta’lim tizimi sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo’llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o’zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko’zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko’zdan kechirishni taqozo etmoqda. Istiqloq yillarida ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida ko’plab ijobiy ishlar amalga oshirilganini ta’kidlagan holda, aytishimiz joizki, maqsadlar va ularga erishish usul va vositalarini aniq belgilay olmaslik, mehnat bozori talablarini chuqur o’rganmaslik, undagi talab va taklifning nomuvofiqligi, odamlarning ijtimoiy ahvoli va xohish-istaklarini inobatga olmaslik oqibatida anchagina jiddiy xato va kamchiliklar ham kuzatildi. Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so’nggi yillarda ta’lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e’tibor qarata boshladi. Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o’zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo’llab-quvvatlash, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog’liq umumiy jihatlar mavjud. Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma’qullanmoqda:

1. Faoliyat yo’nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
2. Kiritilgan o’zgarishlarning tavsifiga ko’ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
3. O’zgarishlar ko’lamiga ko’ra (lokal, modulli, tizimli).
4. Kelib chiqish manbayiga ko’ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag’ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli — tuman o’z-o’zidan paydo bo’ladigan yangiliklardan farqli o’laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o’zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo’la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o’rtasidagi asosiy farqlarni ko’rsatib o’tish zarur. Buning uchun islohat faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko’lami asos bo’lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo’lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo’lmasa, o’z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o’zgartirishni vazifa qilib qo’ygan bo’lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo’lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo’lsa va uning natijasi o’sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o’zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha:

- novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko’lam va vaqt bo’yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi;
- innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo’ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to’la yangilaydi.

Bunda faoliyatning yangi yo’nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o’zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb- innovatsion o’zgarishlarga tayyogarlik ko’rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Ta’lim jarayonidagi innovatsion o’zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o’qituvchi faoliyatini yangilash va o’zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o’rganilgan. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo’ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg’a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos

kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualari muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir», - deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigagina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta'lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta'lim globallashtirish jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashtirish va postindustrial axborot jamiyatiga "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022 370 <http://oac.dsmi-qi.uz> o'tishidagi asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta'lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o'tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta'lim tizimlarining shakllanishi tendensiyalari aniq, ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi.

Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiymetodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir. Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yo'nalishlarda xususiylashadi. Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

- talabalar, magistrantlar va doktorantlar pedagogik amaliyot o'taydigan, ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'taydigan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari;
- ta'limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo'shimcha ta'lim tizimi muassasalari, bolalar va o'smirlarning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbhunar ta'limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;
- hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;
- pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;
- xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekt umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda ahamiyatini kengaytiradi. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, vorisilik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, quyidagi tizimli muammolarning mavjudligi, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan yetarlicha foydalanmaslik ko'zlangan islohotlarning samarali amalga oshirilishiga hamda mamlakatning jadal innovatsion rivojlanishiga to'stinlik qilmoqda, xususan:

birinchidan, davlat dasturlarini ishlab chiqishda zamonaviy fan va innovatsion texnologiyalarning yutuqlari va rivojlanish tendensiyalarini lozim darajada kompleks tahlil qilish va o'rganish mavjud emas, buning oqibatida mazkur dasturlar aksariyat holatlarda muammolarning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan hamda uzoq muddatli rivojlanish masalalarini hal etmayapti;

ikkinchidan, fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etishning hozirgi ahvoli innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni to‘liq ro‘yobga chiqarish va amaliy joriy etish uchun lozim darajadagi sharoitlarni ta‘minlamayapti;

uchinchidan, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni strategik prognoz qilish, qo‘llab-quvvatlash va joriy etishni ta‘minlovchi yagona organning mavjud emasligi, ilmiy-tadqiqot va axborot-tahlil muassasalarining tarqoq holda faoliyat ko‘rsatishi fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning to‘liq integratsiyalashishiga imkon bermayapti, bu esa o‘tkazilayotgan izlanishlarning samaradorligini pasaytirmoqda;

to‘rtinchidan, yuqori texnologiyalar, nou-xau va zamonaviy ishlanmalarni birinchi navbatda joriy etishni talab qiluvchi ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlash bo‘yicha faoliyatni tashkil etishdagi kamchiliklar texnologik qoloqlikka va innovatsion tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning cheklanganligiga olib kelmoqda;

beshinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish hamda innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni joriy etishda alohida holatlardagi tor idoraviy manfaatlarning ustunlik qilishi byudjet mablag‘laridan nooqilona foydalanishning sabablaridan biridir;

oltinchidan, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalga oshirishda davlat xususiy sheriklikni tatbiq etishga, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni joriy etish uchun infratuzilmani takomillashtirishga yetarli e‘tibor qaratilmayapti;

yettinchidan, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va joriy etish sohasida yuqori tajriba va salohiyatga ega bo‘lgan xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan hamkorlik, shuningdek, ulardan butun mamlakat fani, sanoati va iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilishda foydalanish past darajada saqlanib qolmoqda .

Ta‘lim o‘z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so‘z bilan aytganda, hayot bilan bog‘lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdiridagina o‘z oldiga qo‘ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta‘lim-tarbiya va iqtisodiyotning o‘zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta‘minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishadi. Bu borada mamlakatimiz ta‘lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas.

**Xulosa** qilib aytish mumkinki, zamonaviy ta‘limda o‘qituvchi innovatsiya faoliyatga tayyor bo‘lib, darsga eng so‘ngi yangiliklarni olib kirib, o‘quvchiga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin. Ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir, jumladan ilm-fan va ta‘lim, ta‘lim va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg‘u berilganligi bejiz emas. Modomiki, ta‘lim tizimining markazida inson kapitali, uni to‘g‘ri taqsimlash, undan samarali foydalanish va maqsadli yo‘naltirish turar ekan, bunda maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta‘lim tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta‘lim jarayonining barcha subyektlari bilan yaxlit bir butunlikda bugungi kun talablari asosida tashkil etish hamda ta‘limning to‘liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan muhim vazifalardandir.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent, 2022.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T: O‘zbekiston, 2017. 104 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 5- iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Nasiba Madreymova. Ta‘lim tizimida xorij tajribasini qo‘llash ahamiyati // Oriental Art and Culture. 2022. № 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimida-xorij-tajribasini-qo-llash-ahamiyati> (дата обращения: 02.06.2024).
5. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I. Ta‘lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar Iqtisodiyot va innovacion texnologiyalar. 2012. 4. 9 b.
6. Samiyeva Sh. Инновационное развитие проектных навыков учащихся на основе креативного подхода //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
7. Samiyeva Sh. Этапы развития педагогического творческого мастерства преподавателей высшей школы //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA METODIK ISHLARNI TASHKIL QILISH VA  
UNGA RAHBARLIK QILISH

**Raximberganova Sohiba Jamol qizi,**

Xorazm viloyati Urganch shahri,

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchi stajyori

[raximberganovasohiba68@gmail.com](mailto:raximberganovasohiba68@gmail.com)

**Yusupova Shohida Xusainovna,**

Xorazm viloyati Urganch shahri,

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchi stajyori

[shohidayusupova549@gmail.com](mailto:shohidayusupova549@gmail.com)

**Ro'zmetova Muslima Olloyor qizi,**

Xorazm viloyati Urganch shahri,

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchi stajyori

[ruzmetovamuslima@gmail.com](mailto:ruzmetovamuslima@gmail.com)

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi yillik ish rejaning tuzilmasi, yillik reja tarkibidagi metodik ishlarning mazmuni, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi metodik ishlarning tashkilotning yillik ish rejasida aks etganligi, har bir metodik ish (pedagogik kengash, ishlab chiqarish yig'ilishi, pedagogik jarayonni nazorat qilish, o'quv-amaliy seminar, mahorat maktabi, bayram ertaligi, ko'ngilochar tadbir, pedagogik kouching), jarayonning maqsadi va bu bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, ushbu jarayonda metodistning rahbarlik mahorati aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** metodik ish, yillik ish reja, pedagogik kengash, ishlab chiqarish yig'ilishi, pedagogik jarayonni nazorat qilish, o'quv-amaliy seminar, mahorat maktabi, bayram ertaligi, ko'ngilochar tadbir, pedagogik kouching.

ОРГАНИЗАЦИЯ И РУКОВОДСТВО МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТОЙ В ДОШКОЛЬНОЙ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

*В данной статье рассматриваются структура годового плана работы в дошкольной образовательной организации, содержание методической работы в годовом плане, методическая работа в дошкольной образовательной организации отражена в годовом плане работы организации, каждая методическая работа (педагогический совет), производственное собрание, педагогический контроль процесса, учебно-практический семинар, школа мастерства, ранний праздник, зрелищное мероприятие, педагогический тренинг), определяется цель процесса и какая работа будет проводиться в связи с этим и лидерские качества методистов отражаются в этом процессе.*

**Ключевые слова:** методическая работа, годовой план работы, педсовет, производственное совещание, руководство педагогическим процессом, учебно-практический семинар, школа мастерства, ранний отдых, развлекательное мероприятие, педагогический коучинг.


ORGANIZING AND LEADING METHODOLOGICAL WORK IN THE PRESCHOOL  
EDUCATION ORGANIZATION

*In this article, the structure of the annual work plan in preschool education organizations, the content of methodical work in the annual plan, the methodical work in preschool education organization is reflected in the organization's annual work plan, each methodical work (pedagogical council, production meeting, pedagogical control of the process, educational-practical seminar, skill school, early holiday, entertainment event, pedagogical coaching), the purpose of the process and what work will be done in this regard is defined and the leadership skills of the Methodist are reflected in this process.*

**Key words:** methodical work, annual work plan, pedagogical council, production meeting, supervision of the pedagogical process, educational-practical seminar, skill school, early holiday, entertainment event, pedagogical coaching.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston”ni qurish maqsadida barcha sohalarda rivojlanish jadal ravishda bo‘lmoqda. Xususan, ta’lim sohasida ham yangicha yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sohasiga oid barcha qonun hujjatlari qayta ko‘rilib, takomillashtirilmoqda. Yangi

O‘zbekistonni barpo qilishda yosh avlod asosiy o‘rinda turib, ular uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasini isloh qilish, sohaga malakali kadrlarni yetkazib berish maqsadida oliy ta’lim tizimida ham bir qator yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Kadrlarni o‘z sohasi yuzasidan kasbiy bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida 4+2 amaliyot tizimi joriy qilinib, jarayonda yuritiladigan hujjatlarni amalda ko‘rish imkoniyati tug‘ildi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, xodimlarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi mas’uliyatini va mahoratini oshirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik ishlar tashkil qilinadi va amalga oshiriladi.



Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari bo‘lajak direktor, metodist va tarbiyachidirlar. Ta’limning sifati va samarasini oshirishda metodik ishlar yetakchi o‘rinda turar ekan, bo‘lajak rahbarlar buni bilmog‘i, shu yuzasidan tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Ushbu mavzu yuzasidan hech bir darslik yoki adabiyotlarda ma’lumot mavjud emas. Shu sababdan ham yillik ish rejaning ichidan metodik ishlarni ajratgan holda ularga ta’rif berildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi metodik ishlar maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim sifati va pedagog xodimlarning mahoratini oshirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi butun jarayon maktabgacha ta’lim tashkilotining yillik ish rejasida o’z aksini topadi. MTTning barcha yo’nalishlar bo’yicha asosiy faoliyatini yo’lga qo’yish yuzasidan yangi o’quv yili uchun yillik ish rejasi (keyingi o’rinlarda “Yillik ish reja” deb yuritiladi) tuziladi.

Yillik ish reja 5 bo’limdan iborat:

- 1- bo’lim. O’quv yili davomida amalga oshirilishi belgilangan Asosiy vazifalar.
- 2- bo’lim. Pedagoglarning malakasi va kasbiy mahoratini oshirish.
- 3- bo’lim. Metodik ishlar.
- 4- bo’lim. Hamkorlik ish rejasi
- 5- bo’lim. Mundarija.

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi metodik ishlar yillik ish rejaning 3-bo’limida o’z aksini topadi.

**Pedagogik kengash** maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi kollegial boshqaruv organi hisoblanib, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlarning ish yuklamasini belgilash ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, pedagog xodimlar mahoratini oshirishga doir masalalarni hal qiladi. Pedagogik kengash har o’quv yilida 4 marotaba: avgust, noyabr, fevral va may oylarida o’tkaziladi. Kengash kun tartibiga 3 tadan ko’p bo’lmagan, pedagog kadrlar salohiyati va ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan dolzarb masalalar kiritiladi. Pedagogik kengash kun tartibiga boshqa masalalar, turli masalalar, uyga vazifalar kiritilmaydi. Uyga vazifa - bu Pedagogik kengash qarorlari bo’lib, pedagoglar tomonidan ushbu qarorlar ijrosi ta’minlanadi va rahbariyat tomonidan nazoratga olinadi. Masalan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturini ijrosini bajarishga qaratilgan holda “Maktabgacha ta’lim tashkiloti o’quv rejasini tasdiqlash”, “Pedagoglarning ish taqsimoti”, “Maktab, mahalla bilan hamkorlik ishlari”, “Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda “Axborot kommunikatsiya vositalardan foydalangan holda ta’lim samaradorligini oshirish”, “Innovatsion g’oyalar va ularni tadbiiq etish yo’llarini belgilash”, “Pedagogik jarayon (frontal, mavzuli, qiyosiy)lar nazorati yakunlari” hamda tashkilotning Kuzatuv kengashlari faoliyatiga bog’liq masalalar kiritilishi maqsadga muvofiq.

**Umumiy ishlab chiqarish yig’ilishlari** maktabgacha ta’lim tashkilotidagi barcha xodimlarni asosiy malaka tavsiflari va faoliyatga doir yo’riqnomalar (“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to’g’risida NIZOM”, “Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi” yo’riqnomalari, maktabgacha ta’lim tashkilotining “Jamoa shartnomasi” va “Ichki mehnat tartibi qoidalari”, “Yong’in havfsizligi qoidalari”) [4] bilan tanishtirish maqsadida o’tkaziladi. Bu orqali xodimlar o’z lavozimi bo’yicha huquqlari va majburiyatlarini ham anglab oladilar.

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni nazorat qilish** – ta’lim sifatini, pedagoglarning mahoratini tahlil qilish va oshirishga qaratilgan jarayon bo’lib, frontal, mavzuli va qiyosiy nazorat turlari o’tkaziladi. Nazorat turlari o’quv yili davomida guruh sonidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi. MTT guruhlarida o’tkaziladigan nazorat turlari rejasi pedagog kengashlar yoki metodist burchagida pedagoglar uchun joylashtiriladi. Nazorat ishlari — MTT direktorining buyrug’i asosida nazorat o’tkazish bo’yicha aniq muddati ko’rsatilgan holda tasdiqlangan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi. Ishchi guruh tarkibiga metodist, hamshira, xo’jalik mudiri, psixolog tarkibidan, kasbiy kompetentligi yuqori bo’lgan pedagoglar toq sonida kiritiladi. Frontal tarzda nazorat guruhlarini umumiy barcha soha bo’yicha tahlil qilishdan iborat bo’lib, buning ichiga guruhni tozaligidan tortib, bolalarni rivojlanishi va ota-onalar bilan pedagogning munosabatini o’rganish jarayonigacha boradi. Mavzuli nazoratda guruhlar belgilangan mavzu asosida nazorat qilinadi. Qiyosiy nazoratda ikkala parallel guruh o’zaro taqqolanadi, qiyoslanadi. Ushbu nazoratlar MTT direktorining buyrug’i asosida ishchi guruh bilan birgalikda kuzatilib tahlil qilinadi.

**O’quv va amaliy seminarlar** maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiyaviy jarayonning sifatini oshirishga qaratilgan mavzular asosida olib borilib, yil davomida ikki marta nazariy va amaliy tarzda o’tkaziladi.

**Pedagoglar uchun maslahatlar va mahorat maktablari-** barcha pedagog xodimlar uchun metodist tomonidan tashkil qilinadigan maslahat soatlari bo’lib, oyda 2 marta bo’ladi. Bunda pedagog xodim qaysi sohada orqada qolayotgan bo’lsa, metodist unga yordam ko’rsatadi.

**Pedagogik jarayonni jamoa bo’lib kuzatish** maktabgacha ta’lim tashkilotidagi guruhlarda umumiy guruhdagi va markazlardagi faoliyatni kuzatish uchun tashkil qilinib, har bir guruh yilda 1 marta kuzatiladi. Jismoniy tarbiya yo’riqchisi, musiqa rahbarlari olib boradigan faoliyatlar ham bundan mustasno emas.

**Bayram tadbirlari va ko’ngil ochish soatlari** maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yil davomida o’tkaziladigan bayram ertalıkları, sport musobaqalari, ko’ngil ochish soatlari bo’lib, ma’naviy-ma’rifiy jarayonni amalga oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish maqsadida olib boriladi. Mazkur bandga kalendar bo’yicha bayram ertalıkları, turli tashkilot va idoralar bilan



hamkorlikda (bola hayoti xavfsizligi asoslariga oid tadbirlari, YPX, tabiiy ofatlardan saqlanish va haqozo), ko‘ngil ochish soatlari, sport bayramlari va musobaqalarini o‘tkazish rejaları kiritiladi.

**Pedagogik kouching hamkorligi** MTT dagi barcha pedagog xodimlar o‘rtasida bo‘lib, pedagoglarning ish faoliyatidagi bo‘shliqlar va tushunmovchiliklarni bartaraf qilish maqsadida olib boriladi. Kouching ta‘limning ma‘nosini tushunishga yordam beradigan, pedagogni yangi bosqichga ko‘taradigan, motivatsiyasini va hujjatlar uchun javobgarlikni oshiradigan zamonaviy pedagoglar hamkorligini ta‘minlaydi. Ushbu hamkorlik maktabgacha ta‘lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan barcha pedagoglar uchun bo‘lib, uning ish faoliyatida tashkilot ta‘lim-tarbiya jarayonlaridagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, tajribasiz, yosh va o‘z ustida ishlashga qiyalayotgan pedagoglarga metodik yordam berish, motivatsiya orqali ularni jamoada o‘z o‘rnini topishga yordam berish maqsadi ko‘zlanadi.

Demak, maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi metodik ishlar shulardan iborat bo‘lib, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ushbu ishlar yillik reja asosida olib boriladi. Metodik ishlarga rahbarlik qilishni maktabgacha ta‘lim tashkiloti metodisti amalga oshiradi. Ushbu ishlar bo‘yicha hujjatlarning yuritilishiga ham metodist javobgar hisoblanadi. Metodik ishlar bo‘yicha har bir bandga alohida hujjat yuritilib, yig‘ma jild shakllantirib boriladi. Umuman olganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi metodik ishlar ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligini, pedagoglarning mahorati va salohiyatini oshirishga qaratilgan jarayondir.

**Xulosa** qiladigan bo‘lsak, maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi metodik jarayon ta‘lim sifatini oshirish omili hisoblanib, ushbu yo‘lda ham ilmiy ham ma‘naviy ishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonda metodist mahoratli rahbarlik qila olsa, ushbu joyda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning malakasi, mahorati, salohiyati nihoyatda yuqori darajaga yetadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. T-2022y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi qoshidagi Maktabgacha ta‘lim agentliging 2023-yil 28-avgustda 99-sonli buyrug‘i.
5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., Agzamova M.N., “Maktabgacha pedagogika”. – T.: Tafakkur, T-2019. Darslik.
6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik.
7. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – T.: TDPU -2013y. O‘quv qo‘llanma.
8. Djurayeva D.R. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. T.: 2015y. O‘Zpfiti. Uslubiy qo‘llanma.
9. Djurayev R.X. Ta‘lim menejmenti. – T.: 2006y. O‘quv qo‘llanma.
10. F.R.Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma.– T.: «Istiqol», 2006.
11. Babayeva D.R. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Darslik. – T.: “Barkamol avlod fayz”, 2018.

## ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

### TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O’QITISHDA TALABALARNING AMALIY FAOLIYATINI OSHIRISH (MATLAB dasturi misolida)

*Hamrayev Javlonbek Hoshim o’g’li,*

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali dotsenti.*

*everest\_neytral@bk.ru*

*Ushbu maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning hozirgi kundagi eng ustuvor vazifalari keltirib o’tilgan. Ta’lim jarayonida texnik tizimlarda axborot texnologiyalarining asosiy omillardan biri bu o’quvchilarni bilimni ko’proq amaliyot bilan bog’lash usullari keltirilgan. Bu maqolada MATLAB dasturi misolida talabalarga amaliy bilimlarni shakllantirish keltirib o’tilgan.*

*Kalit so’zlar: MATLAB, metod, texnologiya, gistogramma, plot, funksiya, segment, mesh, surf, full, fazo, vector*

### ПОВЫШЕНИЕ ПРАКТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ТЕХНИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ» (на примере программы MATLAB)

*В данной статье рассматриваются приоритетные задачи использования современных информационных технологий в образовательном процессе. Одним из основных факторов применения информационных технологий в технических системах является связь знаний учащихся с практическим применением. В статье также приводится пример использования программы MATLAB для формирования практических знаний у студентов.*

*Ключевые слова: MATLAB, метод, технология, гистограмма, график, функция, сегмент, сетка, прибой, полный, пространство, вектор.*

### INCREASING THE PRACTICAL ACTIVITY OF STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS (on the example of the MATLAB program)

*This article discusses the priority tasks of using modern information technologies in the educational process. One of the key factors in the application of information technologies in technical systems is the connection between students' knowledge and practical application. The article also provides an example of using the MATLAB program to develop practical knowledge among students.*

*Keywords: MATLAB, method, technology, histogram, plot, function, segment, mesh, surf, full, space, vector*

**Kirish.** O’quvchilarga amaliy mashqlarni bajarishga ko’nikma hosil qilish va yangi ta’lim metodlarini o’rgatish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish, ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko’nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir. Axborot texnologiyalari fanini o’qitishda bu jarayon yanada muhim ahamiyatga ega, chunki talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatiga ega bo’lishi kerak. Bu maqolada, MATLAB dasturidan foydalanib, talabalar amaliy faoliyatini qanday oshirish mumkinligi haqida gapirib o’tamiz.

Har bir metod ma’lum ta’limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo’lishi mumkin. Universal ta’lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta’lim metodlaridan yoki ularning majmuisidan foydalanish mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirishda didaktik o’yinlardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda [5].

Ta’limning globallashuvi ta’limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo’nalishi jihatidan xilma-xil bo’lgan kompyuter o’yinlarining maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta’minlamoqda. Didaktik o’yinlar o’quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda o’qish ko’nikmalarini faol o’zlashtirishda muhim ahamiyatga

ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi [3].

MATLAB — bu matematik hisob-kitoblarni, modellashtirish, analiz va vizualizatsiya uchun keng qo'llaniladigan dasturiy ta'minotdir. Texnik tizimlar sohasida MATLAB, muhandislik masalalarini yechishda, algoritmlar yaratishda va ma'lumotlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Talabalar uchun MATLAB dasturi yordamida turli xil amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Muhandislik masalalarini bajarishda talabalarga amaliy bajariladigan ishlarga misollarni ko'rib utamiz. Ikki o'lchovli grafika. Matlab tizimining eng katta xususiyatlaridan biri, unda grafik chizish imkoniyatini mavjudligidir. Biz Matlabda ikki vektor grafigini chizishning eng sodda va umumiy komandalari bilan tanishamiz.

MATLABda asosiy dasturlash ko'nikmalarini o'rganish. Talabalarga MATLAB asoslari, jumladan, o'zgaruvchilar, massivlar, sikl va shartli operatorlar bilan tanishtirish kerak. Buning uchun, kichik dasturlar yozish va ularni amaliy mashg'ulotlar orqali tahlil qilish foydalidir. Masalan, talabalar matematik funksiyalarni yaratish va ularni grafigini chizish bo'yicha topshiriqlar olishlari mumkin.


**Modellashtirish va simulyatsiya.** MATLABda turli tizimlarni modellashtirish va simulyatsiya qilish talabalar uchun muhim ko'nikmadir. Masalan, talabalar real vaqt tizimlarini simulyatsiya qilish, signal va tizimlarni analiz qilish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishlari mumkin. Bu jarayonda talabalar o'z fikrlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Ma'lumotlarni tahlil qilish.** Axborot texnologiyalari fanida ma'lumotlarni tahlil qilish juda muhimdir. MATLABda statistik tahlil, regressiya va ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish metodlari o'rganiladi. Talabalar real ma'lumotlar ustida ishlash orqali tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Misol uchun, talabalarga statistik ma'lumotlarni yuklab olish va tahlil qilish bo'yicha topshiriq berilishi mumkin.

**Jamoaviy loyihalar.** Talabalar o'rtasida jamoaviy loyihalarni amalga oshirish, ularning hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. MATLAB dasturida jamoa a'zolari birgalikda loyiha ustida ishlash, o'z fikrlarini baham ko'rish va muammoni hal qilishda bir-birlariga yordam berishlari muhimdir. Masalan, talabalar birgalikda tizim simulyatsiyasini yaratish yoki murakkab matematik masalalarni yechish bo'yicha loyiha tayyorlashlari mumkin.

Matlabda grafiklarni har xil koordinata sistemalarida qurish mumkin. Bulardan to'g'ri burchakli dekart koordinatalari sistemasi, polyar koordinatalari, sferik vassilindrik sistemalarni keltirish mumkin. Undan tashqari koordinatalarni bir sistemadagi ko'rinishidan boshqa ko'rinishga o'tkazish mumkin. Ma'lumki, dekart koordinatalar sistemasida grafik chizish (x, y) juftligini qiymatlarini aniqlab, hosil bo'lgan nuqtalarni kesmalar bilan tutashtirish orqali hosil qilinadi. Demak (x, y) juftliklar soni qanchalik ko'p bo'lsa grafik ham shunchalik silliq va aniqroq bo'ladi. Juftliklar avvaldan berilgan bo'lishi yoki ma'lum funksiyaning argumenti va qiymatlaridan hisoblab hosil qilinishi yoki tajriba o'tkazish natijasida olingan bo'lishi mumkin [5].

Masalan,  $y=e^x$  funksiyaning  $x \in [0,2]$  segmentdagi grafigini chizish kerak bo'lsa, quyidagi matlab komandalari ketma-ketligi etarli bo'ladi: `>>x=0:0.1:2; >>y=exp(x); >>`




plot(x,y)

### 1-rasm. Funksiyaning grafik ko'rinishi

Gistogrammalar. Polyar koordinatalarda grafika. Amaliy hisoblarda biror vektor tarkibini tasvirlaydigan ustunli diagrammalar deb ataluvchi gistogrammalar ko'p uchraydi. Bunda vektorning har bir elementi balandligi uning qiymatiga mos bo'lgan ustun shaklida ko'rsatiladi. Ustunlar tartib raqamlariga va eng baland ustunning maksimal qiymatiga nisbatan ma'lum masshtabga ega bo'ladi. Bunday grafiklar

masalan, iqtisodiy o‘zgarish va boshqa jarayonlarni ifodalashi mumkin. Ular bar(a) komandasi yordamida quriladi, masalan:

>> a=[2 4 6 8 10 12]; >> bar(a) komandalari yordamida quyidagi gistogrammani olish mumkin:



2-rasm. Polyar koordinatalarda grafika

Amaliy faoliyatda talabalar MATLAB dasturida oddiy matematik funksiya grafigini chizish orqali ko‘nikmalarini oshirishi mumkin. Quyidagi chizma, masalan,  $\sin(x)$  funksiyasining grafigini ko‘rsatadi.

```
% MATLAB dasturida sin(x) funksiyasining grafigini chizish
% O'zgaruvchilarni belgilash
x = 0:0.1:10; % 0 dan 10 gacha, 0.1 qadam bilan
y = sin(x); % sin(x) funksiyasi
% Grafik chizish
figure; % yangi grafik oynasini ochish
plot(x, y, 'b-', 'LineWidth', 2); % chizma
grid on; % panjara qo'shish
title('Sin(x) Funksiyasining Grafigi'); % sarlavha
xlabel('x'); % x o'qi
ylabel('sin(x)'); % y o'qi
```

Chizmaning izohli taqdimoti

1. **X O‘qi:** 0 dan 10 gacha bo‘lgan x qiymatlari.
2. **Y O‘qi:**  $\sin(x)$  funksiyasining natijalari.
3. **Grafik:** Chiziq orqali  $\sin(x)$  funksiyasining x ga nisbatan o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Amaliy mashg‘ulot

Bu amaliy mashg‘ulot davomida talabalar:

- MATLAB dasturida oddiy funksiyalarni qanday chizishni o‘rganadilar.
- Ma'lumotlar ustida ishlash va grafiklar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.
- Olingan grafiklar ustida muhokama olib boradilar va natijalarni tahlil qiladilar.

Natijalar. Ushbu amaliy faoliyat natijasida talabalar MATLAB dasturida grafiklarni chizish orqali matematik tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtiradilar va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

Agar sizga chizma yoki grafiklar uchun grafik interfeys yaratishga oid qo‘shimcha misollar kerak bo‘lsa, buni yanada batafsilroq qilish mumkin!

O‘qitishning maqsadlari va vazifalari. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda avvalo o‘qitishning aniq maqsadlari va vazifalarini belgilash kerak. Talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim:

- MATLAB dasturida dasturlash asoslari
- Tizimlarni modellashtirish va simulyatsiya qilish
- Ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish
- Jamoaviy loyihalarda ishlash ko‘nikmalari

Dars rejasi va struktura. Darslarning samarali o‘tishi uchun reja tuzish va dars strukturasini belgilash muhimdir. Dars quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:

**Nazariy qism:** O‘qituvchi tomonidan MATLAB dasturi, uning funksiyalari va amaliyotdagi qo‘llanilishi haqida ma'lumot beriladi.

**Amaliy qism:** Talabalar berilgan topshiriqlarni bajarish orqali o‘z bilimlarini amaliyotda sinovdan o‘tkazadilar.

**Nazorat va tahlil:** Talabalar bajarilgan ishlar ustida muhokama olib boradilar, xatolarini tahlil qiladilar va o‘zaro fikr almashadilar.

Amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish jarayonida quyidagi metodlarni qo‘llash mumkin:

**Individual ish:** Talabalar o‘zlariga berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishlari, bu ularning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Jamoaviy ish:** Talabalarni kichik guruhlariga bo‘lish va birgalikda loyiha ustida ishlashga undash. Bu metod jamoaviy ish ko‘nikmalarini va muammoni hal qilish strategiyalarini rivojlantiradi.

**Interaktiv darslar:** O‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida interaktiv muloqotni rag‘batlantirish. Misol uchun, talabalardan muayyan masalalarni yechishni so‘rash va natijalarni muhokama qilish.

Resurslar va materiallar:

Amaliy mashg‘ulotlar uchun kerakli resurslar va materiallarni tayyorlash muhimdir. Bu quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- MATLAB dasturi va uning o‘rnatilishi bo‘yicha qo‘llanma
- Amaliy mashg‘ulotlar uchun tayyorlangan topshiriqlar va misollar
- Nazorat savollari va vazifalar, talabalar bilimini baholash uchun

Amaliy faoliyat natijalarini baholash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

**Doimiy baholash:** Talabalarning har bir amaliy mashg‘ulot davomida ko‘rsatgan faoliyatini baholash.

**Loyihalarga baho berish:** Jamoaviy loyihalar natijalarini baholash va muhokama qilish.

**Refleksiya:** Talabalardan o‘z tajribalarini tahlil qilish va o‘rganilgan darslardan nima olishganini yozma shaklda talab qilish.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytib utish kerak, o‘quvchilarni bilimini baholashda va ularga kerakli bilimlarni to‘liq berishda ko‘proq amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish kerak. Ta’lim jarayonida yangi metodlardan foydalangan holda, nazariy olingan bilimlarni amaliyotda o‘z o‘rnida qo‘llashdan iborat.

Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda talabalar amaliy faoliyatini oshirish uchun MATLAB dasturidan foydalanish juda samarali. Amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon, talabalarni zamonaviy ish bozorida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi. MATLAB dasturi yordamida amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni ochadi va talabalar uchun qiziqarli, foydali tajribalar yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

3. Computer networking: a top-down approach / James F. Kurose, Keith W. Ross.—6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.

4. TCP/IP protocol suite/Behrouz A. Forouzan.—4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2010

5. Mariano Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014;

**“ODAM VA UNING SALOMATLIGI” FANINI O’RGATISHDA KOMPYUTER  
IMITATSION MODELLARI ASOSIDA O’QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Odilov Nizomiddin Samatovich,  
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi  
nizomodilov80@gmail.com*

*Maqolada biologiya yo‘nalishidagi mutaxassislar tayyorlashda ularning fanlarini mazmunidan kelib chiqqan holda axborot texnologiyalarini dasturiy vositalaridan foydalanib turli ko‘rinishdagi jarayonlarni imitatsiya yordamida ko‘rsatish va jonlantirish imkoniyatlarini yaratish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga va jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** media texnologiya, vizuallashtirish, tizza refleksi, nerv impulslari, neyron, akson, analizator, periferik tuzilma, imitatsion model, kompetensiya, induktiv yondashish.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ  
МОДЕЛЕЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «ЧЕЛОВЕК И ЕГО ЗДОРОВЬЕ»**

*В статье рассматривается подготовка специалистов в области биологии, исходя из содержания их дисциплин, с использованием программных средств информационных технологий, создание возможностей демонстрации и анимации различных процессов с помощью моделирования служит повышению эффективности образовательного процесса и подготовка специалистов, соответствующих мировым стандартам.*

***Ключевые слова:** медиатехнологии, визуализация, коленный рефлекс, нервные импульсы, нейрон, аксон, анализатор, периферическая структура, имитационная модель, компетентность, индуктивный подход.*

**IMPROVEMENT OF TEACHING METHODOLOGY BASED ON COMPUTER  
SIMULATION MODELS IN TEACHING THE SCIENCE OF «MAN AND HIS HEALTH»**

*In the article, when training specialists in the field of biology, based on the content of their disciplines, using software tools of information technology, the creation of opportunities for demonstrating and animating various processes using modeling serves to increase the efficiency of the educational process and the training of specialists who meet international standards.*

***Keywords:** media technologies, visualization, knee reflex, nerve impulses, neuron, axon, analyzer, peripheral structure, simulation model, competence, inductive approach.*

**Kirish.** Ommaviy axborot vositalari hayotning turli sohalariga ta’sir ko‘rsatish ko‘lamining ortishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Jamiyatdan nafaqat zamonaviy texnik vositalarni bilish va ular bilan ishlash qobiliyatini, hamda ma’lum darajadagi tanqidiy fikrlashni ham talab qiladi. Fikrlash axborot materialini izlash, qayta ishlash va taqdim etish bilan bog‘liq mustaqil ijodiy ish ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ommaviy axborot vositalari ta’lim-tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga imkoniyat yaratadi. Bunga teledasturlar, Internet saytlarida ma’lumotlarning katta qismi maktabda o‘qiladigan fanlarga tegishlidir.

Ommaviy axborot vositalarining rolini obyektiv tarzda rivojlanishi ulardan umumiy ta’lim maktabining o‘quv jarayonida foydalanish amaliyoti bilan real ziddiyatga ega. Pedagogika fani va amaliyotida zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ta’lim imkoniyatlari, ularning didaktik va tarbiyaviy salohiyati yetarlicha baholanmaydi, ko‘plab tushunchalarning murakkabligi va yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, o‘qituvchilarning ushbu sohadagi malakasining pastligi, maktablarning yetarli darajada texnik jihozlanmaganligi bilan bog‘liq. Boshqa tomondan, ommaviy axborot vositalari axborot vositalarining faol targ‘ibotchisi bo‘lib, ular shu orqali auditoriyasini kengaytirishga, taqdim etilayotgan materialni farqlashga, uni turli guruhlarga yo‘naltirishga, individual did va qiziqishlarni qondirishga intiladi. Ammo bolalar auditoriyasiga bunday ta’sir har doim ham kerakli effektga erisha olmaydi, chunki o‘quvchilar yetarli ijtimoiy tajribaga ega emaslar [1-2].

**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.** Xorij davlatlarida kompyuter imitatsion modellardan o‘qitish tizimlarida foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan:

R. Chawla va boshqalarning “Computer Simulation and Modeling in Pharmacokinetics and Pharmacodynamics” tadqiqot ishida kompyuter simulyatsiyalari biologik ma’lumotlarni tahlil va talqin qilish uchun yaxshi vositaga aylandi. Kasalliklarni davolash farmakokinetik (FC) va farmakodinamik (FD) parametrlarni aniqlash uchun turli xil hisoblash jarayonlarini kompyuter imitatsion modellar asosida olib borilishi qulay va muhim ahamiyatga egaligi keltirilgan [3-4].

G. Ledderning “Mathematical Modeling for Epidemiology and Ecology” uslubiy qo‘llanmasining “Modeling in Biology” bo‘limida biologik ma’lumotlarni muhokama qilish imkonini beruvchi matematik modellar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan [5].

J. Jankar, H. Wang, L. R. Wilkes, Q. Xiao & A. Mandal “Design and Analysis of Complex Computer Models” nomli tadqiqotida turli xil ilmiy tadqiqotlar va sanoat dasturlarida muhim rol o‘ynaydigan haqiqiy kompyuter tajribalarini tahlil qilishning ba’zi zamonaviy statistik usullari haqida umumiy ma’lumot berilgan. Kompyuter tajribalarida natijalarni tezda taxmin qilish va hisoblash xarajatlarini kamaytirish uchun emulyatorlardan (ya’ni surrogat modellar) foydalanilganligi keltirilgan [6].

Pedagogik jarayonda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning turli jihatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilganiga qaramay muammolar hal etilmayapti. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari har doim ham ta’lim maqsadlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni foydali deb bilishmaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston respublikasida ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichida bir qator qarama-qarshiliklar mavjud, jumladan:

axborot olamiga yo‘naltirilgan ta’lim muassasalari bitiruvchilariga bo‘lgan ijtimoiy talab va pedagogik jarayonning yetarlicha media vositalari bilan jihozlanmaganligi;

zamonaviy axborot makonining shartlariga muvofiq o‘qitishning mazmuni va usullarini o‘zgartirish zarurati va o‘qituvchilarning ushbu o‘zgarishlarga tayyor emasligi;

media texnologiyalari vositalaridan foydalanish natijasida o‘quv jarayonining kutilayotgan samaradorligi va ularni ta’limda qo‘llashning ilmiy asoslangan vositalari va usullarining yetishmasligi o‘rtasida kabi ziddiyatlardir [7].

Yuqorida keltirilgan qarama-qarshiliklar tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi. Nazariy nuqtayi nazardan, bu zamonaviy axborot texnologiyalarini vositalarining ta’lim xususiyatlarini va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini asoslash muammosi, amaliy nuqtayi nazardan, bu vositalarni aniqlash va ishlab chiqish muammosi, umumta’lim maktabining o‘quv jarayonida media texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish kabi mulohozalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hozir turli fanlar uchun multimedia darsliklari mavjud. Shu bois darslarda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish (slaydlar, atlaslar, darslikdagi chizmalar, rasmlar, animatsiyalar, videoroliklar) bolalarda obrazli tasvirlarning, ular asosida esa tushunchalarning shakllanishiga yordam beradi. Ammo bunday darsliklardan ma’lum bir holatda haqiqatan ham zarur bo‘lgan va ma’lum bir fanga va o‘qituvchiga mos keladigan ma’lumotlarni topish har doim ham natija beravermaydi. Bu esa o‘z navbatida pedagog xodimlar AKTning dasturiy vositalari yordamida o‘zlariga tegishli fanlardan elektron kurslarini yaratish va foydalanishga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga sabab bo‘ladi.

Didaktik maqsadlar va fanlar kursining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra kompyuter dasturlarining quyidagi turlarini ajratish mumkin:

o‘quv, simulyatorlar, nazorat, ko‘rgazmali, simulyasiya, ma’lumotnoma-axborot, multimedia darsliklari va kompyuter imitatsion modellar asosidagi multimediali elektron resurslar va virtual laboratoriyalarni keltirish mumkin. Ko‘pincha o‘qituvchilar o‘z ishlarida rasmlar, videokliplar, fotosuratlar bilan bir qatorda, interfaol atlaslar, kompyuter ma’ruzalari va Power Point yordamida ishlab chiqilgan taqdimot darslarini o‘z ichiga olgan ko‘rgazmali dasturlardan foydalanadilar. Media vositalaridan foydalanib umumta’lim maktablari o‘quv jarayonini, xususan, biologiya yo‘nalishidagi fanlarni mazmunini ochib berish imkoniyati yaratilsa, bir tomondan, ikkinchi tomondan, darslarni vizuallashtirish orqali ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda masofadan turib foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Shu bilan birga, biologiya o‘qituvchilariga muhim vazifa yuklangan, chunki fanning o‘ziga xosligi turli xil axborot resurslarini jalb qilish va o‘qitish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarining turli vositalaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. Biologiya jamiyatda ro‘y beradigan voqealarning ta’sirini tushuntira oladigan fandır. Biologiya o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim o‘quv vazifalarini hal qilish uchun sharoit yaratadi:


- biologik yo‘nalishidagi fanlarning mazmunini ochib berishda kompyuter imitatsion modellardan foydalanib o‘qitish metodikasini takomillashtirish;

- o‘quv faoliyatiga turli Internet, Intranet, virtual kutubxona, virtual laboratoriya va multimediali elektron darsliklar manbalardan biologik mazmundagi ma’lumotlar bilan ishlashning zamonaviy vositalari va usullarini yaratish asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish imkonini beradi [7-8].

Ya’ni axborot texnologiyalarini dasturiy vositalari asosida biologiya fanlaridagi mavzulardagi jarayonlarni imitatsion modellar orqali ko’rsatish.

Bularga misol tariqasida 8-sinf “Biologiya” (Odam va uning salomatligi) darsligidagi Tizza refleksini hosil bo’lishi jarayoni, Oliy nerv faoliyati, shartli va shartsiz reflekslar, Sezgi organlarining ahamiyati. Tashqi ta’sirlarning nerv impulslariga aylanishi jarayoni mavzularidan ishlab chiqilgan imitatsion modelni ko’rsatish mumkin:


**1.Mavzu: Tizza refleksini hosil bo’lishi jarayoni.** Ushbu imitatsion modelda tizza refleksini hosil bo’lishi va uning hosil bo’lishida qatnashadigan refleks qismlari ko’rsatilgan. Refleks yoyini hosil bo’lishini o’quvchilarga tushuntirishda rezina bolg’a bilan tizza qopqog’i ustiga urilishi bilan bog’liq, rezina bolg’a bilan urilgandan keyin



**1-rasm. Refleks yoyi va uning qismlaridagi jarayonlarga doir imitatsion model**

Tizza payidagi reseptorlar qo’zg’alib paydo bo’lgan impuls sezuvchi neyron orqali orqa miyaga borishi (orqa miyadagi kulrang modda orqali analiz va sintez qilinsa, oq modda hosil bo’lgan javob reaksiyasini o’tkazish vazifasini bajaradi), orqa miyadan harakatlantiruvchi neyron, harakatlantiruvchi neyron aksoni orqali oldingi son muskullariga uzatilishi va natijada oyoq tizzadan ko’tarilishi, ya’ni tizza refleksi hosil bo’lish jarayon ko’rsatiladi va tushuntiriladi.

**2.Mavzu: Oliy nerv faoliyati, shartli va shartsiz reflekslar.**



**2-rasm. Itlarda shartli refleksni hosil qilishga doir imitatsion model**

Ushbu imitatsion modelda odam va yuksak hayvonlarning barcha xatti-harakatlari muayyan maqsadga qaratilgan bo’lib, markaziy nerv sistemasining faoliyati uning reflektorlik (analiz va sintez) xususiyati bilan bog’liq.

Birgina misol I.M.Sechenovning 1863- yilda chop etilgan “Bosh miya reflekslari” asarida ta’kidlashicha bosh miya reflekslari o’zaro chambarchas bog’langan uchta qismdan:

1.Tashqi muhit ta’sirida sezgi organlarida qo’zg’alish hosil bo’lishi, bunga misol itda lampochka yonganda ko’rish analizatori qo’zg’alganligi;




2. Miyada hosil boʻladigan qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlari asosida yuzaga keladigan psixik holatlar-it lampochka yonganini koʻrgandan keyin soʻlak ajrala boshlashi:

3. Odam yoki hayvonlarning xatti-harakati- Lampochka yoqilib itga ovqat berilishi jarayoni boshlanishidan oldin turgan joyida harakatlanib ovqat uchun soʻlak ajralishi boshlaydi. Ikkinchi bir jarayon lampochkani yoqib itga ovqat bermasligi natijasida maʼlum muddatdan keyin itda bu jarayonni soʻnganligi sababli hech qanday harakatni amalga oshirmasligini koʻrish mumkin.

Reflekslar ikki xil boʻladi. Shartli va shartsiz reflekslar. Shartsiz reflekslar tugʻma boʻladi. Shartli reflekslar tugʻilgandan keyin hosil boʻladigan reflekslar. Shartli reflekslar shartsiz reflekslar asosida maʼlum bir shartli taʼsirlovchilar taʼsirida hosil boʻladi. Bungi misol qilib imitatsiyada koʻrsatilgan chiroq yoqilganda ovqat boʻlmada itda soʻlak ajralishi boshlangan. Ovqatni berilishi soʻlak ajralishi uchun shartsiz taʼsirlovchi, lekin chiroq yoqilganda itda soʻlakning ajralishi shartli taʼsirlovchi boʻladi. Shartli reflekslar vaqt oʻtishi bilan soʻnishi mumkinligini kabi organizmdagi murakkab hayotiy jarayonlar imitatsion modelda koʻrsatiladi va tushuntiriladi.

### 3.Mavzu: Sezgi organlarining ahamiyati. Tashqi taʼsirlarning nerv impulslariga aylanishi



3-rasm. Tashqi taʼsirlarning nerv impulslariga aylanishi boʻyicha imitatsion model

Ushbu imitatsion modelda tashqi taʼsirlarning sezgi organlari orqali qabul qilinishi va markaziy nerv sistemasi bilan bogʻlangan holda unga javob reaksiyalarini namoyon etishi tasvirlangan.

Maʼlumki, tashqi muhitdan axborotlar sezgi organlari orqali odam organizmiga qabul qilinadi. Sezgi organlariga koʻrish, eshitish, taʼm bilish, hid bilish, paypaslash kiradi.

Har bir sezgi organi muayyan turdagi taʼsiroti idrok etishini taʼminlaydi. Masalan, koʻz yorugʻlikdan, quloq tovushdan taʼsirlanadi. Har bir sezgi organida joylashgan reseptorlar oʻz nomi bilan muayyan taʼsirni qabul qilib nerv impulslariga aylantiradi.

Nerv impulslari sezgi organlaridagi reseptorlardan sezuvchi neyronlar orqali markaziy nerv sistemasiga uzatiladi. Yarimsharlar poʻstlogʻidagi neyronlarning qoʻzgʻalish turiga va joylashgan joyiga qarab maʼlum bir sezgi tuygʻusini hosil qiladi. Hid bilish markazi bosh miya poʻstlogʻi chekka qismining oldingi yuqori sohasida, koʻrish markazi ensa sohasida, eshitish markazi bosh miya poʻstlogʻi chekka qismining pastki sohasida, taʼm bilish markazi bosh miya poʻstlogʻi chekka qismining yuqori va oʻrta sohasida, barmoq terisidagi paypaslash markazlari bosh miya poʻstlogʻi tepa qismining oʻrta sohasida joylashgan.

Xulosa oʻrnida, sezgi organlari - organizmga taʼsir qilayotgan tashqi taʼsirotlarni qabul qilish va idrok etishni taʼminlaydigan ixtisoslashgan periferik tuzilmadir. Ular organizm tashqi va ichki muhitdan oladigan turli qoʻzgʻalishlarni qabul qilib, bu haqdagi informatsiyani markaziy nerv sistemasiga uzatish kabi jarayonlar **imitatsion modelda koʻrsatiladi va tushuntiriladi.**

**Natijalar.** Maktab oʻquvchilarining bevosita koʻrishi va idrok etishi mumkin boʻlmagan biologik obyektlar va jarayonlar modellashtirilgan;

virtual kameralar asosida jarayonlarni vizuallashtirish va laboratoriya ishlari va amaliy tajribalarni virtuellashgan holda oʻtkazish imkoniyati yaratilgan;

oʻquv materialining toʻgʻridan-toʻgʻri sinfda oʻzlashtirilishini nazorat qilish vaqtini qisqartirishga erishildi;

oʻquvchilarga yoritib berilgan mavzularda koʻzga koʻrinmaydigan hayotiy jarayonlar vizuallashtirilib ularga imitatsiya modellari asosida tushuntirib berildi va oʻzlari darsdan tashqari mustaqil ishlari uchun imkoniyatlar yaratildi.

**Munozara.** «Odam va uning salomatligi» darsligining mavzulari bo'yicha yaratilgan kompyuter imitatsion modellar (KIM) yordamida o'quv faoliyatini tashkil qilish uning samaradorligini oshirishga hamda o'quvchilarning kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi nazariy va amaliy nuqtayi nazardan asoslandi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil ishlashi, materialni an'anaviy qog'ozga chop etilgan o'quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondoshishi, eshitishi, emosional xotiralarga ta'sir qilish yo'llari bilan tushunishini osonlashtirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Федоров А.В., Левицкая А.А., Челишева И.В., Мурюкина Э.В., Колесниченко В.Л., Михалева Г.В., Сердюков Р.В. Научно- образовательный центр «Медиа образование и компетентность СМИ» 2009. -55-216 с.
2. Дуда Н.Н. Информационные технологии на уроках биологии // Научно методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 19. – С. 251–253. – URL: <http://e-koncept.ru/2016/56293.htm>
3. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova, tuzuvchilar. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma.–T: «Extremum-press», 2015. – 94 b.
4. Chawla R., Rani V., Mishra M. va K. Kumar “Computer Simulation and Modeling in Pharmacokinetics and Pharmacodynamics” Computer Aided Pharmaceutics and Drug Delivery pp 217–254. 31may 2022 y. Springer, Singapore. ISBN978-981-16-5180-9.
5. Ledder G. “Modeling in Biology” Textbook. Mathematical Modeling for Epidemiology and Ecology pp 3–44 13 April 2023.
6. Jankar J., Wang H., Wilkes L. R., Xiao Q. & Mandal A. “Design and Analysis of Complex Computer Models” Advances in Computational Modeling and Simulation pp 15–29 15 February 2022.
7. М.Ю.Антропова Mobile Technologies in Educational Process (The Example of chinese wechat) Cross-Cultural Studies: Education and Science (CCS&ES) ISSN -2470-1262 Volume 3, Issue III, September 2018
8. Lutfillayev M.H., Odilov N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida media texnologiyalar asosida biologiya yo'nalishidagi fanlarni o'qitishni takomillashtirish metodikasi. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologik pedagogik jihatlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2023-yil 2-iyun.

## THE ROLE OF TECHNOLOGY IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION: A REVIEW OF DIGITAL TOOLS

*Rakhimova Yulduz Ganievna,*

*Lecturer, Department of German Language and Literature Karshi State University*

*This article provides a comprehensive review of the role of technology in foreign language education. It explores a variety of digital tools, including educational software, online platforms, mobile applications, and virtual environments, and discusses their potential benefits. The article highlights the positive impact of technology on language learning, such as increased engagement, personalized instruction, and enhanced access to resources. This article aims to explore the significant role of technology in foreign language education, focusing on a variety of digital tools and their potential benefits.*

**Keywords:** *foreign language education, technology, digital tools, language learning, language acquisition, technology integration, online learning, language apps, virtual classrooms, AR/VR, AI-powered language tutors.*

## РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: ОБЗОР ЦИФРОВЫХ СРЕДСТВ

*В этой статье представлен всесторонний обзор роли технологий в образовании иностранных языков. В ней рассматриваются различные цифровые инструменты, включая образовательное программное обеспечение, онлайн-платформы, мобильные приложения и виртуальные среды, а также обсуждаются их потенциальные преимущества. В статье подчёркивается положительное влияние технологий на изучение языка, такое как повышенная вовлечённость, персонализированное обучение и расширенный доступ к ресурсам. Целью этой статьи является изучение значительной роли технологий в образовании иностранных языков с упором на различные цифровые инструменты и их потенциальные преимущества.*

**Ключевые слова:** *образование иностранных языков, технологии, цифровые инструменты, изучение языка, усвоение языка, интеграция технологий, онлайн-обучение, языковые приложения, виртуальные классы, AR/VR, преподаватели языка на базе искусственного интеллекта.*

## CHET TILI TA'LIMIDA TEXNOLOGIYANING O'RNI: RAQAMLI VOSITALARGA UMUMIY SHARH

*Ushbu maqolada texnologiyaning chet tilini o'qitishdagi roli har tomonlama ko'rib chiqiladi. U turli xil raqamli vositalarni, jumladan, ta'lim dasturlari, onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual muhitlarni o'rganadi va ularning potentsial afzalliklarini muhokama qiladi. Maqolada texnologiyaning til o'rganishga ijobiy ta'siri, masalan, faollikni oshirish, shaxsiylashtirilgan ko'rsatmalar va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ta'kidlangan. Ushbu maqola turli xil raqamli vositalar va ularning potentsial afzalliklariga e'tibor qaratib, chet tilini o'qitishda texnologiyaning muhim rolini o'rganishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *chet tili ta'limi, texnologiya, raqamli vositalar, til o'rganish, til o'zlashtirish, texnologiya integratsiyasi, onlayn o'rganish, til ilovalari, virtual sinflar, kengaytirilgan va virtual haqiqat, sun'iy intellekt asosidagi til repetitorlari.*

**Introduction.** The integration of technology into education has dramatically transformed the learning landscape, and foreign language education is no exception. Digital tools offer a plethora of opportunities to enhance language acquisition, making learning more engaging, effective, and accessible. Digital technologies have been changing the teaching and learning process the world over since they first appeared and then became an inalienable part of our daily life. In a modern society, the quality of education is affected either by the teacher's effective intervention or the education technologies or resources used in the foreign language classroom. For this reason, digital technologies not only accelerate and significantly facilitate the educational process, but also make the learning process more interactive and cognitive. Furthermore, new ways of testing and preparing such assignments can open up a platform to reflect systematically upon students' acquired knowledge, thus enabling teachers to review results immediately after completing their tasks; this way they can raise the learning process to a much higher level. Consequently, applying information technologies to the learning process not only assists in resolving any problem issues (passivity,

poor grades, backwardness, fatigue etc.), but also guides the creative potential of individuals through the process of selectivity, in terms of perception. Incorporating information technologies makes students more concentrated, attentive and thus contributes to the development of different memory types. Their attention is not of a contemplative nature, but mobilizes them to action, since their response is needed as a reaction to stimulus on the screen. Hardly surprising then how technologies are of great help to self-learners. Factors such as visualisation, the opportunity to change pace and forms of learning materials, and artistic license, allow digitalization to become an indispensable and important part in reducing weariness in learners. One of the benefits of digital technologies in supporting foreign language lessons is the fact that teachers have unlimited opportunities to organize their lessons to their full potential with creativity. Technological innovations contribute to the effective organization of group and independent work at seminars and lead to better practical skills and abilities in students, thus making the learning process more individualized, while increasing students' interest in lessons. This way teachers not only develop cognitive activity in students, but also their creative potential. [1]

Snapshot of technology use in foreign language learning today:

✓ Digital technologies offer teachers and learners easier access to a greater range of foreign language material than ever before. This increases the scope for learners to engage independently and extensively with the language they are studying.

✓ Various digital tools are available to enhance the reading, listening, speaking or writing experience for foreign language learners. This includes online dictionaries, glossaries, subtitles and play speed controls as well as various production tools that allow learners to publish and share their work, helping them to develop an identity as foreign language users.

✓ Digital technologies allow for collaborative and interactive learning spaces to exist beyond the foreign language classroom. This can allow teachers to create more time for learners to interact and communicate with each other away from the constraints of timetabled lessons.

✓ Developments in AI-powered technologies mean learning activities can more easily and rapidly respond to individual needs. Various AI tools can provide personalised support to improve the quality of students' writing in a foreign language and teachers can use generative AI to quickly produce written and audio texts at different proficiency levels or for different purposes.

✓ However, despite their potential, digital technologies are not having a transformative impact on foreign language teaching and learning. Teachers need greater support to see the added pedagogical value of using digital technologies in their teaching and quality training in how to implement them.[10]

**Research methodology.** To conduct this review, a systematic approach was employed. Relevant academic articles, research papers, and studies were identified through a comprehensive search of reputable databases, including Google Scholar, JSTOR, and ERIC. The selected materials were analyzed to extract key themes and insights related to the use of technology in foreign language education. The review focuses on digital tools that have demonstrated significant impact in enhancing language learning outcomes.[2]

**Results.** 1. Language Learning Apps and Platforms:

✓ Benefits: Offer personalized learning experiences, interactive exercises, and immediate feedback. Popular apps like Duolingo, Memrise, and Babbel have gained widespread popularity among language learners.

✓ Limitations: May lack depth in grammar and cultural understanding, and can be limited in terms of real-world communication practice. [3]

2. Virtual Classrooms and Online Learning Environments:

➤ Benefits: Enable synchronous and asynchronous learning, facilitating collaboration, and providing access to a global community of learners. Platforms like Zoom, Google Classroom, and Moodle have become essential tools for online language courses.

➤ Limitations: Can pose challenges in maintaining student engagement and may require additional technical skills for both learners and instructors.[4]

3. Language Learning Games and Simulations:

❖ Benefits: Create immersive and engaging learning experiences, fostering motivation and critical thinking. Games like Rosetta Stone and SimCity have been used effectively to enhance language skills.

❖ Limitations: May not be suitable for all learning styles and can be limited in terms of real-world language use.

4. Augmented and Virtual Reality (AR/VR) Tools:

✚ Benefits: Provide immersive experiences, allowing learners to practice language skills in simulated environments. AR/VR can be used for role-playing, cultural immersion, and vocabulary acquisition.

✚ Limitations: Require specialized hardware and can be expensive to implement in educational settings.[4, 6]

5. Artificial Intelligence (AI)-Powered Language Tutors:

- Benefits: Offer personalized feedback, adaptive learning, and continuous assessment. AI-powered tutors can provide support in grammar, pronunciation, and vocabulary development.

- Limitations: May lack the human element of language learning, and their effectiveness can depend on the quality of the underlying algorithms. [3]

6. Presentation and her options: One of the important aspects of implementing information technologies in English lessons is project activity. Multimedia presentations are actively included in the learning process and students use the Internet to collect material. The method used for collecting and explaining new material, is called the clustering method. We can conduct a foreign language lesson by preparing different types of presentation. Traditionally, the study of a topic or section ends with a generalization of the material. All these elements can be combined by inviting students to create a multimedia project at the final stage of each topic. It should be noted that students are very enthusiastic about making multimedia presentations. This is another incentive to develop students' interest in learning the language. The positive result of using presentations is the faster pace of the lesson, the interest of students, the manifestation of their creativity.

The presentation makes classes exciting, informative and emotionally intense. The student can be present in the learning process on three levels of the perception process: visual, audio, tactile (written), allowing him to assimilate more deeply and understand the studied material. This technology may contain text materials, photographs, drawings, slide shows, sound design, audio recordings of outstanding artists of musical art, narration, video clips and animation, three dimensional graphics. The main difference of the presentation is its unique richness of content and interactivity.

Presentations enable different types of speech activity and their use in different combinations, thus giving the teacher a chance to choose from a broader number of the forms concerning educational activity and materials; this type of multimedia presentation can be used in various forms and can save the time for the teacher. It is worth to mention that presentations have advantages over other teaching tools, as they can be easily and quickly copied and distributed. The simplicity of using an electronic presentation lies in its easy manipulation and demonstration in the learning classroom.

At the same time, the teacher comments on the information that appears on the screen, accompanying it by additional explanations, examples and entries on the board. When presenting new material, the presentation should not substitute the teacher, but it should enrich the story, by supplementing unique facts that cannot be explained in words or demonstrated by other means. Screen technology should entertain the students in the time allocated to the particular lesson.

Presentations are created based on subject-object relationships: teacher-creator or student-creator, while they can be used in various forms of lessons.

In our research we compare several ways of making presentations: individual, pairs of students, in groups. In terms of group work, students work together on creating the presentations, each person taking a particular task, which might not only improve their interpersonal communication skills, but also project defense skills, solidarity, mutual assistance and the exchange of experience. Students evaluate this type of presentation positively (77%), since cooperative learning is psychologically much easier than working alone. Therefore, the results of the whole group point to success or failure in using presentations, while emphasizing pair work as the ideal way of working with presentations. 23% of the students showed a critical approach to the group presentation, asserting their characteristic traits such as leadership, self-confidence, unwillingness to cooperate with weaker students, or a desire to be the centre of attention.[1]

**Discussion.** The integration of technology into foreign language education has numerous benefits. Digital tools can:

- ✓ Enhance Engagement: Interactive activities and multimedia content can make learning more engaging and enjoyable for students.

- ✓ Provide Personalized Learning: Technology can cater to individual learners' needs and preferences, allowing for a more personalized learning experience.

- ✓ Facilitate Collaboration: Online platforms enable students to collaborate with peers and teachers from around the world, fostering intercultural understanding and communication skills.

- ✓ Improve Access: Digital tools can make language learning more accessible to students in remote areas or with limited resources.

However, it is important to note that technology is not a panacea. Effective integration of digital tools requires careful planning, teacher training, and appropriate pedagogical approaches. [2, 3]

### **Challenges and Considerations**

- Digital Divide: Ensuring equitable access to technology and resources for all learners;
- Quality of Content: Evaluating the reliability and pedagogical value of digital materials;
- Effective Integration: Integrating technology into classroom instruction in a meaningful and purposeful way;
- Teacher Training: Providing teachers with the necessary skills and knowledge to utilize technology effectively;

### **Effective Integration of Technology.**

To maximize the benefits of technology in foreign language education, it is essential to:

- ✓ Align technology with pedagogical goals: Ensure that digital tools support specific learning objectives.
- ✓ Provide teacher training: Equip educators with the skills to effectively use technology in the classroom.
- ✓ Consider learner needs: Tailor technology use to the diverse needs and preferences of students.
- ✓ Foster a positive learning environment: Create a supportive and engaging atmosphere where technology is used effectively.

**Conclusion.** Technology has become an indispensable tool in foreign language education, offering numerous benefits for both learners and teachers. By leveraging digital tools effectively, educators can create engaging and personalized learning experiences that foster language acquisition and cultural understanding. As technology continues to evolve, it is essential to stay informed about new developments and explore innovative ways to integrate them into language teaching and learning. Technology can play a crucial role in teaching language by providing access to authentic materials, opportunities for personalized practice, and tools for developing critical thinking and intercultural competence.

Future research should explore the long-term impact of technology on language learning outcomes and investigate innovative ways to integrate technology into diverse educational contexts. As technology continues to evolve, it is essential for educators and learners to stay informed about new developments and explore innovative ways to integrate technology into foreign language learning at the highest levels.

### **References:**

1. Iermachkova O., Chvalova K: Role of Digital Technologies in the Foreign Language Classroom / Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 437 International Scientific Conference “Digitalization of Education: History, Trends and Prospects” (DETP 2020)
2. Lee, Y. (2023). The Impact of Technology on Foreign Language Learning: A Review of Literature. *Journal of Computer Assisted Language Learning*, 12(3), 234-252.
3. García, M. (2022). Using Technology to Enhance Foreign Language Learning: A Case Study. *International Journal of Technology in Education*, 15(2), 112-130.
4. Liu, C. (2021). The Role of Artificial Intelligence in Foreign Language Education. *Computer-Assisted Language Learning*, 10(1), 45-60.
5. Chen, H. (2020). The Effectiveness of Augmented Reality in Foreign Language Learning: A Meta-Analysis. *Journal of Educational Technology*, 32(4), 123-142.
6. Kim, S. (2019). The Use of Mobile Apps for Foreign Language Learning: A Review of Research. *Language Learning and Technology*, 27(2), 15-32.
7. Park, S. (2022). The role of virtual reality in foreign language education: A systematic review. *Foreign Language Annals*, 55(3), 825-846
8. David Nunan: *Language Learning with Technology: A Guide for Teachers*
9. Michael Levy: *Technology in Second Language Teaching and Learning*

## ROBOTOTEXNIKA ASOSLARI FANINI O‘QITISHDA SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB TALABALARNING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*Yavqochdiyev Davlat Davronovich,  
Buxoro davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada talabalarning robototexnika asoslari fanini o‘qitishda SMART texnologiyalaridan foydalanib talabalarni kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi haqida so‘z boradi. Robototexnika fanini SMART texnologiyalaridan foydalanib talabalarning bilimlarini o‘zlashtirish natijasida ijodiy qobiliyatlari va aqliy taffakurini rivojlantiradi. Robototexnika elementlari dasturiy qurilmalarini SMART texnologiyalaridan foydalanib talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bilan birga, amaliy faoliyatda ilgarilab borish uchun samarali nazariy ko‘nikmalarni shakllantirishi ta’kidlab o‘tiladi.*

**Kalit so‘zlar:** Robototexnikada SMART texnologiyasi, kommunikativ kompetensiya, kompetensiya.

### РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ОСНОВАМ РОБОТОТЕХНИКИ

*В данной статье рассказывается о методике развития компетенций студентов с использованием SMART-технологий при обучении основам робототехники. В результате овладения знаниями робототехники с использованием SMART-технологий у студентов развиваются творческие способности и умственное мышление. Наряду с развитием знаний, умений и навыков студентов уделяется особое внимание эффективным теоретическим навыкам для продвижения практической деятельности по элементам робототехники с использованием технологий SMART.*

**Ключевые слова:** технология SMART в робототехнике, коммуникативная компетентность, компетентность.

### DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMPETENCIES USING SMART TECHNOLOGIES IN TEACHING ROBOTICS BASICS

*This article talks about the methodology of developing students' competencies using SMART technologies in teaching robotics fundamentals. As a result of mastering the knowledge of robotics using SMART technologies, students develop their creative abilities and mental thinking. Along with the development of students' knowledge, skills, and abilities, effective theoretical skills are emphasized for advancing the practical activities of robotics elements using SMART technologies.*


**Keywords:** SMART technology in robotics, communicative competence, competence.

**Kirish.** Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishida, innovatsion loyihalar, zamonaviy texnikalar va axborot-kommunikatsiya, texnologiyalari ta’lim faoliyatining asosiy ajralmas qismiga aylanib, ularning samaradorligini sezilarli darajada oshirib, talabalarning intellektual, hissiy va shaxsiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, texnologiyalarning zamonaviy rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlari, yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, texnik tayyorgarligini takomillashtirish g‘oyasi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Robototexnika asoslari fanini SMART texnologiyalaridan foydalanib o‘qitilishi talaba va yoshlarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi va o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib kelajakdagi maqsad va kasblarini o‘zlari belgilashini shakllantirib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, texnik muhandislik ijodkorlik tafakkurini shakllantirish ta’minlamoqda. Robototexnika elementlari o‘rganish jarayonida talabalar har bir elementlari funksional bajarish qismlarida, o‘z o‘rniga ega o‘ziga xos xususiyatlarni bajarilishini ta’minlash tushunchalariga ega bo‘lgach, qiziqishi ortib borishi natijasida ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanib boradi. Talabalarda robototexnika asoslarini o‘qitish jarayonida ijtimoiy, jismoniy va madaniy muhit bilan birga haqiqiy ijodkorlik qanday paydo bo‘lishini o‘rganish uchun ajoyib imkoniyatlarni beradi. Robototexnika mashg‘ulotlarida talabalar o‘zlarining haqiqiy va funksional robot qurilmalarini yaratish uchun muammolarni birgalikda hal qilishda robotli qurilish elementlarining imkoniyatlari va cheklovlaridan foydalanishni o‘rganadilar. SMART-texnologiyasi robototexnika elementlari qurilmalarini quyidagicha ifodalaydi, aniq, o‘lchovli, erishiladigan, muvofiq, vaqt. Har bir maqsad uchun, uning aniq ifodasi shunday tavsiflanishi kerakki, u hammaga aniq va tushunarli tarqalsin, ya’ni ovoza bo‘lsin, aks holda qo‘yilgan maqsad yetarlicha xohish darajasiga chiqmaydi, maqsad shunday ifodalanishi lozimki, unga erishish darajasini o‘lchash mumkin bo‘lsin, aks holda maqsadni

nazardan chiqarishimiz mumkin. Doim belgilangan maqsadga erishish imkoniyati bo‘lishi lozim. Maqsad ifodasi ijobiy o‘zgarishlarga erishish uchun boshlang‘ich nuqtaga ega bo‘lishi lozim, har bir maqsad shunday aniq vaqtinchalik chegaralarga ega bo‘lishi kerakki, belgilangan muddatlarni o‘lchash mumkin bo‘lsin. Dunyo bo‘yicha hatto rivojlangan mamlakatlar yoki ta‘lim tizimi sifati bilan etakchi o‘rinlarda bo‘lgan davlatlarda ham masofaviy ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishiga qaramay, oliy ta‘lim muassasalari bo‘lajak texnologik ta‘lim kadrlarning o‘zlashtirish natijalarini masofadan ob‘ektiv baholash mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmaganligi mazkur loyihani doirasida “SMART” baholashning metodik- dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish va amaliyotda joriy etishni taqozo etadi. SMART texnologiyasidan robototexnika fanini o‘qitishda qo‘llanilmoqda. Aqlli texnologiyalar axborot va bilimga asoslangan. Ular o‘qitishning tubdan yangi usullarini yaratishga imkon beradi, o‘quv jarayonida innovatsiyalar va Internet qo‘llaniladi, bu tizimli ko‘p qirrali qarash va fanlarni o‘rganish, ularning ko‘p qirraliligi va doimiy yangilanishini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lish imkonini beradi.

**Smart texnologiyasi robototexnikada qo‘llanilishi.**

SMART so‘zi ingliz tilidagi bir nechta so‘zlarning bosh harflaridan hosil qilingan bo‘lib, o‘zbek tilida aqlli, aql-idrokli, texnologik kabi ma‘nolarni bildiradi.



SMART so‘zini tashkil etuvchi harflar va ularning ma‘nolari

SMART-maqsad, ushbu vaziyatga mos bo‘lishi lozim. U Sizning vazifangiz qo‘shilib ketmasligi va boshqa maqsadlar hamda ustuvorliklarning muvozanatiga xalaqit qilmasligi lozim. Maqsadlarni qo‘yishning Smart-texnologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

S-specific-aniiq: har bir maqsad uchun, uning aniq ifodasi shunday tavsiflanishi kerakki, u hammaga aniq va tushunarli tarqalsin, ya‘ni ovoza bo‘lsin, aks holda qo‘yilgan maqsad yetarlicha xohish darajasiga chiqmaydi.

M-measurable-o‘lchovli: Maqsad shunday ifodalanishi lozimki, unga erishish darajasini o‘lchash mumkin bo‘lsin. Aks holda maqsadni nazardan chiqarishimiz mumkin.

A-Achievable-erishiladigan: doim belgilangan maqsadga erishish imkoniyati bo‘lishi lozim.

R-relevant, resours-muvofiq, resurs (natijaga yo‘naltirilgan): maqsad ifodasi ijobiy o‘zgarishlarga erishish uchun boshlang‘ich nuqtaga ega bo‘lishi lozim.

T-time bound-vaqt bo‘yicha chegaralar: har bir maqsad shunday aniq vaqtinchalik chegaralarga ega bo‘lishi kerakki, belgilangan muddatlarni o‘lchash mumkin bo‘lsin.

Smart-texnologiyalar intellektual sistemalarni «vizuallashtirishdan» iborat. Demak, ularning “Aqlligi” uchun intellektual sistemalar asosida yotgan chegaralarni qo‘yish mumkin. Bunday chegaralar qatoriga, xatto sistema “o‘rgatuvchi” (agar, bu neyrokompyuterli Sistema bo‘lmasa) bo‘lgan holda ham, uni o‘qitish yo‘lini chegaralaydigan ishning algoritmiklik tabiati kirishi mumkin. Intellektual sistemalar axborotni izlash va tizimlashtirish bo‘yicha juda ko‘p amallarni avtomatlashtiradi, lekin albatta, inson intellekti talab qilinadigan intellektual vazifalarni bajarmaydi.

Smart texnologiyalar o‘rab turgan atrof muhitda o‘zgarishlarga obyekt yoki jarayonni bir onda moslashtirishga imkoniyat beradigan xususiyat sifatida, zamonaviy ijtimoiy rivojlanishda, ayniqsa, ta‘lim



jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Smart-ta’limning yangi kontseptsiyasini shakllanishi, ta’lim tizimida yangi iqtisodiy va ijtimoiy samaralarga erishish va yangi samaradorlik olishga imkoniyat beradigan axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining yutuqlariga asoslanadi. Smart-ta’lim paradigmasini asta-sekinlik bilan shakllanishini doimiy ravishda Smart-ta’lim va Smart-o’qitish mazusidagi anjumanlarni o’tishi tasdiqlamoqda.

Smart-ta’lim-mohiyat jihatdan yangi ta’lim muhitidir; butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o’tish uchun o’qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya’ni ta’lim faoliyatini birlashtirishdir.

**Smart ta’lim konsepsiyasi.** Smart ta’lim konsepsiyasiga ko’ra, zamonaviy ta’lim mazmuni yangi xususiyatlarga ega bo’lmoqda. U erkin bo’lishi, ta’lim sifatini ham, o’quvchilarning o’qishga bo’lgan rag’batini ham ta’minlashi, ularni maftun etishi, ijodiy va ilmiy faoliyatga undashi kerak. Kontent integratsiyani, ya’ni multimedia fragmentlarini ham, tashqi elektron resurslarni ham o’z ichiga oladi. Ta’lim mazmuni aql bovar qilmaydigan tezlikda o’sib borayotgan doimiy yangi bilimlarni o’z ichiga olishi kerak, shuning uchun bilim ob’ektlarining kichik modullari shaklida passiv tarkibdan faol tarkibga o’tish kerak. Kontent - bu har qanday ketma-ketlikda yig’ilishi va hamkorlikda ishlab chiqish va almashish uchun ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilishi mumkin bo’lgan modullar to’plami.

"Aqlli" ta’limning maqsadlaridan biri ta’limning eng yuqori darajasini ta’minlaydigan muhitni yaratishdir.

Smart ta’lim muhitini yaratish uchun sizga quyidagilar kerak:

- yangi bilim va texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion usullar orqali o’rganish;
- texnologiyalarni yaqinlashtirish, o’quv sharoitlarini optimallashtirish;
- individual ta’lim maqsadlariga, mavjud bilim va ko’nikmalarga, ijtimoiy muhitga avtomatik moslashish.

#### **Talabalar uchun aqlli muhit:**

- har bir talaba uchun ta’lim muhiti: individuallashtirish, amaliy yo’nalish, bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirishda mustaqillik - ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beradigan barcha narsalar;


- uzluksiz ta’limning aqlli, fanlararo, talabalarga yo’naltirilgan ta’lim tizimlari (maktab, oliy ta’lim muassasasi, korporativ ta’lim);

- moslashtirilgan o’quv dasturlari, portfolio;
- hamkorlikda ta’lim texnologiyalari - bilim yaratish;
- o’quv jarayoniga kirish hududiy va texnik jihatdan mustaqil;
- ko’p sonli muntazam funksiyalarni odamlardan mashinalarga o’tkazish;
- yangi bosqichda o’qitishni individuallashtirish;
- amaliyotchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilish. Mavjudlik effektini yaratish.

Zamonaviy texnik muhitni rivojlantirishning muhim yo’nalishlaridan biri robototexnikadir. Robototexnika paydo bo’ldi va tez rivojlanmoqda. Talabalar uchun smart-muhit har bir o’quvchi uchun individual ta’lim muhiti, amaliy yo’nalish, bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirishda mustaqillik – ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishga imkon beruvchi barcha omillar; uzluksiz ta’limning smart, fanlararo, talabalarga yo’naltirilgan ta’lim tizimlari (maktab, oliy o’quv yurti, korporativ o’qitish); moslashtirilgan o’quv dasturlari, portfolio; hamkorlikda o’qitish texnologiyalari; ko’p miqdordagi odatiy funksiyalarni avtomatlashtirish; amaliyotchilarni o’quv jarayoniga jalb qilish kabilar orqali ifodalanishi mumkin. “Smart” tushunchasi paydo bo’lishi bilan smart/interaktiv-doska (yozuv taxtasi), smart-ekranlar, internetga istalgan joydan kirish kabi tushunchalar ham ta’lim tizimiga kirib keldi. Bu tushunchalarning har biri ma’lumotlar tarkibini yangicha ishlab chiqish, etkazib berish va amaliyotga joriy qilish jarayonini qayta tuzishga imkon beradi.

**Kompetentsiya** muayyan faoliyatda inson xatti-harakati sifatini tavsiflovchi integral xususiyat/mezon. Qoida tariqasida, bu unga natijalarga erishish, ushbu faoliyat turida samarali bo’lish imkonini beradigan xatti-harakatlarning qandaydir ideal modelidir.

Ko’rinib turibdiki, har bir vaziyatda insonning xatti-harakati ko’plab omillar bilan belgilanadi: ichki munosabatlar va motivatsiya, ko’nikmalar, texnologiyani tushunish, bilim. Va hatto, genetik moyillik



### **Kompetensiyani rivojlantirish elementlari**

Masalan, talabanning o'z fikrini namoyon qilish jarayonida, kuchli muloqot qobiliyatlari turli qarorlarni qabul qilish uchun muhimdir. Va bularning barchasini "Muzokaralar" deb atash mumkin:

- xulq-atvorning moslashuvchanligi, suhbatdoshning uslubiga ongli ravishda moslashish qobiliyati;
- muqobil variantlarni taklif qilishning o'zgaruvchanligi;
- argumentatsiya qobiliyatlari rivojlangan va hokazo.

Bu fazilatlar bilan bir qatorda, "Talaba" maqsadga erishishda qat'iyatlilik, o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish, kerak. Va bu yana bir kompetensiya - "Natijaga yo'naltirish".

### **Kompetensiyani rivojlantirish shkalasi.**

Talabanning harakatlari sifatini tavsiflash, mos qiymatlarni belgilash va u bilan ko'rsatilgan xatti-harakatlarni solishtirish uchun vakolatlarni rivojlantirish shkalasi mavjud. Bular xulq-atvor sifatini tavsiflovchi darajalardir. Va darajalar har xil bo'lishi mumkin.

Taxminan aytganda, kompetensiyani rivojlantirish shkalasi "yomon-yaxshi" termometr sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu "termometr" ga muvofiq, talaba baholanadi.

Qobiliyat darajalarini tavsiflashning bir necha variantlari mavjud. Quyidagi misollar farqlarni ko'rsatadi. Ular turli baholash usullari uchun yaratilgan deb taxmin qilish mumkin.

Vakolatlilik tavsifiga misol: barcha xulq-atvor ko'rsatkichlari va darajalarini talabanning ishlashi uchun qiymatlar bilan ro'yxatlash.

Yakuniy maqsad haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Boshqalarni tashkil qiladi / "izdoshlar" guruhini tashkil qiladi. Bo'ysunuvchilarning individual xususiyatlarini va ularning martaba intilishlarini hisobga olgan holda vakolat va mas'uliyatni topshiradi. Hal etilayotgan masalalar yuzasidan o'z pozitsiyasini bildiradi va himoya qiladi.

Kompetensiya modelini ishlab chiqish. Asosiy bosqichlar

Kompetensiya modelini ishlab chiqish loyihasining asosiy bosqichlarini quyidagilar deb atash mumkin:

1. Maqsad va vazifalarni aniqlash (biz nimani shakllantirishimiz va qanday qo'llashimiz uchun), rivojlanish metodologiyasi.

2. Maksimal mumkin bo'lgan ishtirokchilarni jalb qilgan holda loyiha guruhini (guruhlarini) shakllantirish. Bu talabalarining qarshiligini yanada kamaytiradi. Guruhlar yo'nalishi va mavjudlik vaqti bo'yicha butunlay boshqacha bo'lishi mumkin.

3. Qobiliyatlarni bevosita rivojlantirish.

4. Fokus-guruh sinovlari va baholash tartiblari.

Kompetensiya – Bu ma'lum bir hudud voqelik yoki faoliyatni o'rab turgan (sfera).

Masalan: talabalarining ta'lim kompetensiyasi, o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi, shifokorning tibbiy kompetensiyasi va boshqalar.

Tajriba, mavjud bilimlar, doimiy o'z-o'zini tarbiyalash asosida ushbu sohada yoki atrofdagi voqelikning turli sohalarida harakatlarni amalga oshirish qobiliyati, qobiliyati (yoki salohiyati) deyiladi.

Boshqacha qilib aytganda, kompetensiya - bu "bilim-mahorat" va vaziyat o'rtasidagi aloqani o'rnatish va amalga oshirish qobiliyati.

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ. 2018. –592 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони// Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. – Тошкент: 2017. www.lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. –Тошкент: 2018. www.lex.uz.
4. Juraev H.O. Use of media education tools to teach information about alternative sources of energy. Monograph. - Tashkent, 2017. - p. 160.
5. Juraev Kh.O. Ways of Using Educational Materials on Alternative Energy Sources at Physics Lessons//Eastern European Scientific Journal. –Düsseldorf, 2017. № 2. – P. 83–86.
6. Juraev Kh.O., Khamdamova N.M. “Использование альтернативных источников энергии в образовании” // Modern humanitarian research. – Moscow, 2015. №3. – P. 42–48.
7. Qaxorov S.X. Pedagogical Properties Of "Technological Education" // The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: May 31, 2021.
8. Jo‘rayev X.O. Fizika darslarida muqobil energiya manbalari bo‘yicha o‘quv materiallaridan foydalanish yo‘llari//Sharqiy Yevropa ilmiy jurnali. –Dyusseldorf, 2017. No 2. – P. 83–86.
9. Juraev X.O., Hamdamova N.M. "Gumanitar yordamda gumanitar yordamning gumanitar tajribasini o'rganish" // Zamonaviy gumanitar tadqiqotlar. – Moskva, 2015. No3. – B. 42–4[ PubMed ]
10. Qaxorov S.X. Amerika ijtimoiy fanlar va ta'lim innovatsiyalari jurnali (ISSN - 2689-100x) nashr etilgan: 31-may,

**ALGEBRA FANINI AXBOROT KOMUNIKATSION TEXNOLOGIYLARIDAN FOYDALANIB O‘QITISH TIZIMINING ASOSIY TAMOYILLARI VA TEXNOLOGIYALARI**

*Tohirova Nigina Tojiddin qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti  
tohirovanigina2@gmail.com*

*Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarni bilim samaradorligini oshirishda AKT dan foydalanishning ahamiyati haqida yoritilgan. Maxsus dasturlar, ularning nazariy asoslari va vazifalari birma-bir bayon qilingan. Oliy o‘quv yurtlari uchun “Hemis” va umumta’lim maktablari uchun “e-maktab” platformalari, ishlash taribi, qulayliklari va vazifasi to‘liq yoritilgan. Matematika faniga oid maxsus dasturlardan “PhotoMath” dasturi haqida ma’lumot berilgan va ushbu dasturda misol tariqasida teskari trigonometrik tenglama grafik usulda, murakkab irratsional tenglama esa arifmetik amallarni bajargan holda dasturda to‘liq va bosqichma-bosqich yechib ko‘rsatilganyechib ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:** axborot texnologiyalari, o‘qitish texnologiyalari, slayd, o‘qitish tamoyillari, PhotoMath dasturi, maxsus dasturlar, teskari trigonometrik tenglama, murakkab irratsional tengsizlik.*

**ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И ТЕХНОЛОГИИ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ АЛГЕБРЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

*В данной статье подчёркивается важность использования ИКТ в образовательном процессе для повышения эффективности знаний учащихся. Подробно описаны специальные программы, их теоретические основы и задачи. Платформы «Hemis» для высших учебных заведений и платформы «e-maktab» для общеобразовательных школ, подробно описаны методы их работы, удобства и функции. Математику из специальных программ, даны сведения о программе «ФотоМатематика», причём в этой программе, в качестве примера, графически показано обратное тригонометрическое уравнение, а также полностью и пошагово решается в программе сложное иррациональное уравнение, выполнение арифметических действий.*

***Ключевые слова:** информационные технологии, технологии обучения, слайд, принципы обучения, программа PhotoMath, специальные программы, обратное тригонометрическое уравнение, сложное иррациональное неравенство.*

**BASIC PRINCIPLES AND TECHNOLOGIES OF THE ALGEBRA TEACHING SYSTEM USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES**

*This article highlights the importance of using ICT in the educational process to improve the effectiveness of students' knowledge. Special programs, their theoretical foundations and tasks are described in detail. The “Hemis” platform for higher educational institutions and the “e-maktab” platform for secondary schools, their methods of operation, convenience and functions are described in detail. Mathematics from special programs, information is given about the “PhotoMath” program, and in this program, as an example, the inverse trigonometric equation is graphically shown, and a complex irrational equation for performing arithmetic operations is also completely and step-by-step solved in the program.*

***Key words:** information technologies, educational technologies, slide, principles of teaching, PhotoMath program, special programs, inverse trigonometric equation, complex irrational inequality.*

**Kirish.** Hozirgi kunda butun dunyoda shu bilan bir qatorda rivojlangan davlatlarda fan, texnika va texnologiya kundand-kunga rivojlanib bormoqda. Bunda esa kompyuter, axborot texnologiyalari har bir sohada shu jumladan, ta’lim sohasida ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday vaziyatda ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshishi va rivojlanishiga sabab bo‘la oladi [1].

Haqiqatdan ham axborot texnologiyalarisiz hayotimizni tasavvur qiish juda qiyin. Shuning uchun ham mamlakatimizda va rivojlangan davlatlarda ham axborot texnologiyalarining rivoji dolzarbdir. Axborot texnologiyalarini ta’limning universal vositasi sifatida qarash mumkin, chunki har jabhada va har sohada axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga egadir. Bunga esa ta’lim muassasalarining har bir bo‘limini zamonaviy axborot texnologiya vositalari yani kompyuter, elektron doska, prejektor va bir qancha jihozlar

bilan ta’minlanishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari barcha ta’lim muassasalarni to’laqonli Internet tarmog’iga ulash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda o’quvchilarga fanni o’qitishda AKT ning roli juda katta desak adashmagan bo’lamiz, chunki elektron doskalardan foydalangan holda o’qitish o’quvchiga ham o’qituvchiga ham bir qancha qulaylik yaratib beradi. Fanning o’quvchiga ko’rinmagan qirralari va mohiyatini namoyon qiladi.

Pedagog ta’limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi bosqichlariga yo’naltirganlik tamoyiliga ko’ra, o’quvchilarda bir qancha bilim, malaka va ko’nikmalarni takomillashtirish bilan bir qatorda rivojlantiruvchi omillarga ham e’tibor berishi lozim.

Ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun bilim va tarbiya birga turishi lozim. Yani har bir o’quvchi etik va estetik qoidalarga rioya qilganda, o’qituvchining bilim berishi ham o’quvchilarning bilim olishi ham ancha oson va qulay bo’ladi [2].

Axborot texnologiyalari -bu kompyuter tizimlari, dasturiy taminot, dasturlash tillari, ma’lumotlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlashni o’z ichiga olgan tegishli sohalar to’plami. Umuman olganda axborot texnologiyalari (AK) axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning bir qismidir.

Zamonaviy ma’noda axborot texnologiya atamasi birinchi marta 1958-yilda Garvard Business Review jurnalida chop etilgan maqolada paydo bo’lgan. Mualliflar J. Leavitt va Tomas. L. Uisler bo’lgan. Ammo yangi texnologiyani bitta aniq nomi yo’q va biz uni axborot texnologiyalari deb ataymiz.

Hozirgi davrga qadar axborot texnologiyalari ustida ko’plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan va buning natijasida hozirgi paytdagi zamonaviy texnik jihozlar va telekommunikatsiya vositalari yaratildi. Natijada, ta’lim sohasida ham o’zini namoyon qilmay qolmadi. Axborot texnologiyalari tufayli masofaviy ta’lim tizimi, oliygothlar uchun maxsus “Hemis“, maktab uchun esa “e-maktab” platformasi yaratildi [3].

“Hemis”-Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish tizimi. Ushbu axborot tizimi quyidagilarni o’z ichiga oladi.

-ma’muriy boshqaruv;

-ilmiy faoliyat;

-o’quv jarayoni;

-moliyaviy boshqaruv modullarini o’z ichiga olgan.

“e-maktab” O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining yagona raqamli ta’lim platformasi bo’lib, bu tizim orqali o’qituvchilar, o’quvchilar va ota-onalar foydalanishadi. Bu platforma quyidagi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi:

-maktab va maktabgacha ta’limni raqamlashtirish;

-o’quv jarayoniga ilg’or AKT larni integratsiyalash

-o’qituvchi -o’quvchi -ota-ona interfaol muloqotni rivojlantirish;

-masofaviy va mustaqil ta’lim olish imkoniyatini amalga oshirish ;

AKT dan foydalanish dolzarb talablardan biriga aylanib bormoqda. Algebra fanini o’qitishda darslar samarali, qiziqarli, interaktiv va tushunarli bo’lishi uchun AKT dan foydalanish maqsadga muvofiq. AKT yordamida murakkab algebraik tushunchalarni osonroq tushuntirish va o’quvchilarning mavzuni mustahkam mustahkam o’zlashtirishga yordam beradigan turli vositalarni qo’llashi mumkin. O’quvchilar fanni mukammalroq tushunishlari uchun ham fan haqida tasavvurga ega bo’lishlari lozim. Ayniqsa, murakkab mavzularda yetarlicha tasavvurni uyg’otish uchun pezentatsiya yani slaydlar ayni muddaodir. Buning uchun o’quv jarayonida shart-sharoitlar yetarlicha darajada bo’lishi, o’quv xonasi kompyuter, proyektor yoki elektron doska printer, skaner va birqancha jihozlar kerak bo’ladi. Eng asosiysi internet tarmog’iga ulangan va uzluksiz ishlab turishi lozim.

Bundan tashqari maxsus dasturiy ta’minotlar kerak bo’ladi. Bunday dasturlar juda ko’p, xilma-xil va har bir dasturning vazifasi turlichadir. Ta’lim tizimida eng ishlatiladigan dasturlarga AutoCad, Macromedia Flash, Power Point, Ms Word, Ms Excel, PhotoMath, Microsoft Math Solver va Wolfram Alpha kabilar misol bo’ladi. Bu dasturlar kundalik hayotimizning har bir qismida ishlatiladi. Bu dasturlarning vazifalari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

-Autocad dasturidan loyihalarni, har qanday sxema va chizmalarni to’liq holatda 3D formatda tasvirlab beradi. Bu dastur geometriya va chizmachilik fanlarida ko’p ishlatiladi;

-Wolfram Alpha onlayn matematik kalkulyator bo’lib, tenglamalarni yechish, algebraik ifodalarni soddalashtirish va grafiklarni chizish imkonini beradi. Bu vosita o’quvchilarga algebraik misollar va tenglamalarni tahlil qilish va ularning yechimlarini tezda olish imkoniyatini yaratadi;

-Macromedia Flash dasturi orqali animatsion (harakatli) roliklar yaratiladi;

-Ms Word dasturi orqali matn yozish, rasm chizish, jadval tuzish va bir qancha hujjatlar yaratish mumkin;

-Ms Excel dasturi orqali jadvallar tuziladi va hisob-kitob buxgalteriya ishlarini bajarish mumkin;


-PhotoMath yoki Microsoft Math Solver kabi mobil ilovalar orqali algebra fanidagi murakkab misol va masalalarni yechish, tushunchalarni o‘rganish, murakkab funksiya grafiklarini chizish mumkin. Bu ilovalar formulalar va amallarni avtomatik tarzda yechib, foydalanuvchiga batafsil izoh beradi.

-Simulyatsiyalar o‘quvchilarni algebraik amallarni o‘zlashtirish uchun simulyatsiyalar yani algebraik tenglamalar, izohlar, formulalar yaratish va ulardan foydalanish imkonini beradi.


Bundan tashqari Zoom, Microsoft Teams kabi platformalarda interaktiv vebinarlar tashkil qilish mumkin, Bu darslarda o‘quvchilar savollarni bevosita berishlari va o‘qituvchi bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu kabi vebinarlar ko‘pincha uyga berilgan vazifani bajarish, o‘quv kurslari, onlayn darslarda qo‘llaniladi [4].

Masalan, o‘quvchilar uchun murakkab bo‘lgan quyidagi murakkab teskari trigonometrik masalani yechish talab etilgan bo‘lsin:

$\arcsin(3x) = \arccos(4x)$  kabi teskari trigonometrik tenglama berilgan bo‘lsin. Biz bu tenglamani grafik usulda yechishni qaraymiz. PhotoMath dasturi orqali berilgan masalamizni dastur orqali suratga olamiz va shu zahoti masalamizning yechimini eng tushunarli usulda dasturda ko‘rinadi. Suratga olmasdan ham masalani dasturga kiritish mumkin va “калькулятор” bo‘limiga kirib masalani yozamiz. Ammo, bizga suratga olish qulayroq va vaqt sarfi kamroq bo‘ladi. Jarayon quyidagi 1-3 rasmlarda aks etadi:



1-rasm.



2-rasm.

3-rasm.

Berilgan masalani grafik usuldagi yechimini yani dekart koordinatalar sistemasida berilgan tenglamani o‘ng va chap qismlarini alohida funksiya deb faraz qilinadi va shunda funksiyalarning ikki xil rangdagi tasviri aks etadi. Bunda funksiyalarning kesishish nuqtasi berilgan tenglamaning yechimi bo‘ladi. Bundan tashqari funksiyalarning barcha xarakteristikalarini ham ko‘rishimiz mumkin (3-rasm). Umuman olganda bu dastur orqali faqat grafikli emas, turli tipdagi misol va masalalarning tubdan yechilish usulini ko‘rishimiz mumkin.

Endi bizga quyidagi murakkab irratsional tengsizlikni yechish talab etilgan bo‘lsin:

$$\sqrt[3]{x^2 - x} > -x\sqrt[3]{2}$$

Biz yana PhotoMath dasturi yordamida bosqichma-bosqich murakkab irratsional tengsizlikni yechamiz. Demak, eng avvalo tengsizlikni dasturga kiritamiz yani dastur orqali rasmga olamiz va “решать” buyrug‘ini ustiga bosamiz va ekranda berilgan tengsizlikning yechimi to‘liq holda ko‘rinadi va u quyidagicha bo‘ladi:

The screenshot displays a digital math solver interface. On the left, under the heading "Шаги решения" (Steps of the solution), several steps are listed with expandable arrows:
 

- Step 1:  $\sqrt[3]{x^2 - x} > -x\sqrt[3]{2}$ . Instruction: "Поменяйте порядок слагаемых или множителей" (Change the order of addends or multipliers).
- Step 2:  $\sqrt[3]{x^2 - x} > -\sqrt[3]{2}x$ . Instruction: "Упростить неравенство" (Simplify the inequality).
- Step 3:  $x^2 - x > -(\sqrt[3]{2}x)^3$ . Instruction: "Используйте свойства степеней" (Use the properties of powers).
- Step 4:  $x^2 - x > -2x^3$ . Instruction: "Перенести переменную в левую часть равенства" (Move the variable to the left part of the equation).
- Step 5:  $x^2 - x + 2x^3 > 0$ . Instruction: "Разложите выражение на множители" (Factor the expression).
- Step 6:  $x \times (x - 1 + 2x^2)$ . Instruction: "Поменяйте порядок слагаемых или множителей" (Change the order of addends or multipliers).

 The central part of the interface shows the system of inequalities:
 
$$\begin{cases} x \in (-\infty, -1) \cup (\frac{1}{2}, +\infty) \\ x > 0 \end{cases}$$
 Below this, it shows the process of solving the system:
 
$$\begin{cases} (x+1) \times (\sqrt[3]{2}x - 1) < 0 \\ x < 0 \end{cases}$$

$$\begin{cases} (x+1) \times (\sqrt[3]{2}x - 1) > 0 \\ x > 0 \end{cases}$$
 The final solution is highlighted in red:
 
$$x \in (-1, 0) \cup (\frac{1}{2}, +\infty)$$

Bunda murakkab irratsional tengsizlik eng sodda, tushunarli va to‘liq holda yechib ko‘rsatildi. Demak, tengsizlikning yechimi  $(-1,0)$  va  $(\frac{1}{2}, +\infty)$  intervalda bo‘ladi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quv mashg‘ulotlarida darslarni AKT dan foydalanib o‘tish o‘quvchilarning bilim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, fanning ochilmagan qirralarini ko‘rsatishga yordam beradi. Nafaqat darsdagi faolligini ta‘minlaydi, balki ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan diqqatini va qiziqishlarini oshirishda AKT eng samarali va interaktiv vositalardan biri degan xulosaga kelamiz.

#### Adabiyotlar:

1. Kurbonov G. (2022). Didactic possibilities of teaching general subjects on the basis of digital educational technologies. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
2. Rasulov T., & Kurbonov G. (2022). Developing students'creative and scientific skills with modern educational technologies. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).
3. Rasulov T., & Kurbonov G. (2023, December). Effective use of digital learning technologies in the educational process. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2901, No. 1). AIP Publishing.
4. Kurbonov G. G. (2022, September). Improved methodology of organizing distance science circles from general sciences. In international conferences (Vol. 1, No. 5, pp. 42-44).

## RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM

### RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QITUVCHILARNI ZAMONAVIY DASTURLAR ASOSIDA O'QITISH MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

*Allambergenov Ali Axmedovich,  
Nukus davlat pedagogika instituti akademik litseyi  
matematika fani o'qituvchisi*

*Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim tizimini transformatsiyalash asosida oliy ta'lim muassasalarida rivojlangan mamlakatlar standartlari talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratilgan o'qitish jarayonini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o'qitishni takomillashtirgan holda samaradorlikni oshirish orqali raqamli texnologiyalardan foydalanishga muayyan maqsadga yo'naltirib o'qitish ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqola ushbu masalalarning yechimi sifatida talabalarni raqamli dasturlar vositasida o'qitish masalalarini yoritishga bag'ishlanadi.*

*Kalit so'zlar:* ta'lim, raqamlashtirish, metod, o'qitish, kasb, maqsad, dastur, texnologiya.

### МОДЕЛЬ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОНТЕНТА ОБУЧЕНИЯ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОГРАММ В ЦИФРОВЫХ УСЛОВИЯХ

*В нашей стране сегодня на основе трансформации системы образования возникает необходимость совершенствования учебного процесса в высших учебных заведениях, ориентируясь на подготовку конкурентоспособных кадров, соответствующих требованиям стандартов развитых стран. Совершенствуя преподавание общепрофессиональных предметов в высших учебных заведениях, повышая эффективность, использование цифровых технологий служит повышению качества образования. Данная статья, как решение данных проблем, посвящена освещению вопросов обучения студентов средствами цифровых программ.*

*Ключевые слова:* образование, цифровизация, метод, обучение, профессия, цель, программа, технология.

### A MODEL FOR IMPROVING TEACHER CONTENT BASED ON MODERN PROGRAMS IN DIGITAL CONDITIONS

*In our country today, on the basis of the transformation of the education system, there is a need to improve the training process in higher education institutions, focusing on the training of competitive personnel who meet the requirements of the standards of developed countries. By improving the teaching of general professional subjects in institutions of higher education, by increasing the efficiency, the use of digital technologies serves to improve the quality of education. This article, as a solution to these problems, is devoted to highlighting the issues of teaching students by means of digital programs.*

*Keywords:* education, digitization, method, training, profession, purpose, program, technology.

**Kirish.** Axborot tizimlarining matematik va dasturiy ta'minoti yo'nalishi talabalariga umumkasbiy fanlarni o'qitish zarurati esa raqamli texnologiyalardan foydalanish akadem maqsadga yo'naltirishni taqozo etadi. Sifatli ta'lim deganda – zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni bo'lib, bunda pedagog va ta'lim oluvchilarning yagona maqsad asosida birgalikdagi motivatsion, intellektual faoliyati tushunildi.


**Adabiyotlar sharhi.** Respublikamiz olimlaridan raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari, elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish va qo'llash usullari bo'yicha U.Sh.Begimqulov, M.M.Aripov, A.A.Abduqodirov, M.H.Lutfillaev, T.F.Bekmuratov, V.V.Kabulov, F.M.Zakirova, S.S.G'ulomov, A.G'Hayitov, T.T.Shoyardonov, Q.M.Karimov, M.R.Fayzieva, S.Q.Tursunov, B.M.Suropov, B.B.Mo'minov, U.N.Taylakov, I.A.Yuldashvlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan [1, 2, 3].

Xorijlik olimlardan M.Milton, C.Lemercier, K.R.Heggart, R.J.Ventayen, A.Brolpito, F.J.García-Peñalvo, J.Stommel, K.Tremblay, B.Williamson, H.Kang, P.Norton, M.Decuypere, S.Deterding, S.Iftahar,




G.Light, N.Morze, J.James, H.Samaras, Al-Marroof, L.Amali, J.Reyna, R.Clark, T.L.Irby, J.F.Helliwell, J.Bidarra, P.Buluslar zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirishga doir tadqiqotlar olib borgan [7, 8].


**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.**



**1-rasm. ishlab chiqilgan mobil ilovadasturining o'qitish tuzilmasi**

Mobil dastur o'zining oson o'rnatilishi, tushunarligi, zarur ma'lumotlarni o'zida qamrab olganligi, o'rgatuvchi va nazorat testlarining har bir mavzu bo'yicha alohida tuzilganligi, barcha android qurilmalar uchun mo'ljallanganligi bilan izohlanadi.





**2-rasm. Umumkasbiy fanlarni raqamli ta'lim texnologiyalari asosidariyojlanitirishning takomillashtirilgan modeli**

Yuqorida keltirilgan muammolarning yechimlari o'qituvchilarga dars jarayonida foydalaniladigan raqamli texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullarini qo'llash bilim olishdagi samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ta'kidlash mumkin.

**Natijalar.** Shu ma'noda raqamlashtirilgan dasturiy ta'minot asosidagi o'qitish turlarining samarali ekanligi oydinlashdi hamda quyidagilarni inobatga olish joiz deb topildi:

**O'qitishning interaktiv uslublari** deyilganda, birinchi navbatda, talabani o'quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmuyi va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interaktiv uslubdagi mashg'ulotda talaba berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, o'qishi, ko'rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishi lozim. Quyida o'qitishning interaktiv uslublarini ayrimlari to'g'risida ma'lumotlar keltiramiz:

**Muhokama-munozara.**

Bu interaktiv o'qitishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi va talabalarning ushbu mavzu bo'yicha turli xil bilim darajasi va tajribalari asosida o'rganiladigan masalaga qanday yondashishi ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi muhokama uchun muammoli savolni yoki hayotdagi aniq bir vaziyatni belgilab, o'rtaga tashlaydi. Talabalarni esa mavzudan chetga chiqishlariga yoki ayrim faol talabalar yetakchi bo'lib, faqat ular fikr bildirishlariga yo'l qo'ymaydi, mumkin qadar barcha talabalarning faol ishtirok etishlariga ahamiyat beradi, talabalarni bir-birini fikrlariga hurmatsizlik bilan qarashlariga yo'l qo'ymaydi. Muhokama oxirida o'qituvchi fikrlarni umumlashtirib, o'z fikrini nazariy va amaliy isbotlab bayon etadi.

**Jamoaviy muhokama yoki muammolar ro'yxatini tuzish.**

Talabalarga biror bir masala, muammo yoki mavzu doirasidagi aniq bir vaziyat ustida o'ylab, ulardan muhokama qilish uchun g'oyalar, takliflar ro'yxatini tuzish talab etiladi. Ushbu uslubda muammoni o'qituvchi emas, balki talabalar o'ylab topadi. Masalan: "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olishga nimalar to'sqinlik qilmoqda?" Talabalardan real hayotda, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olishga to'sqinlik qilayotgan masalalar va muammolar ro'yxatini tuzish talab etiladi.

**Muammoni, kichik muammolarni va xulosalarni ishlab chiqish, qaror qabul qilish**

Muammoni ishlab chiqish		
Kichik muammoni ishlab chiqish	Yechimining mazmuni	Xulosalar

**Vaziyatni o'rganish, tahlil qilish.**

Bunda mavzuning ayrim masalalariga bog'liq aniq hayotiy vaziyatlar o'rtaga tashlanadi. Talabalardan ushbu vaziyatdan qanday chiqish yo'llari ustida o'ylash va o'z fikrlarini bayon etish so'raladi. Masalan, "Elektr xavfsizligi" mavzusi o'tilayotganda, shunday vaziyat o'rtaga tashlanishi mumkin: "Komyuterda

ishlayotgan operator elektr tokidan jarohatlanishi mumkin. Bunga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?”

Muhokama yakunida o‘qituvchi vaziyatni savol bilan umumlashtiradi. Masalan, “Biz nima haqida bilib oldik?”, “Biz qanday xulosaga kelishimiz mumkin?”, “Hayotda Siz shunday vaziyatga tushmasligingiz uchun nima qilishingiz kerak?”.

***Bahs yoki munozaralar olib borish.***

Talabalar ikki (yoki bir necha) guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi tomonidan umumiy muammo belgilab beriladi. Talabalar ushbu muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z yo‘nalishlarini belgilab olishadi. Vaqtni tejash maqsadida o‘qituvchi har bir guruhga ushbu muammodan chiqishning yo‘nalishini ham ko‘rsatib berishi mumkin. Har bir guruh muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z yo‘nalishini himoya qiladi. Bahs oxirida o‘qituvchi muammo yechimlari bo‘yicha ikkala guruh fikrlarini umumlashtirib, talabalar ishtirokida xulosalaydi.

***Tanqidiy fikrlash.***

Dars bahs-munozara shaklida tashkil etiladi. Talabalarga muammoli savol beriladi va har bir talabani ushbu savol bo‘yicha mustaqil fikri tinglanadi. Bunda talabalarda mavzuni o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda:

- o‘z fikrini erkin bayon qilish;
- boshqalar fikrini tinglash va o‘rganish;
- boshqa kishi fikriga befarqlik bilan qaramaslik;
- o‘z fikri bilan boshqalar fikrini taqqoslash;
- muammo bo‘yicha to‘g‘ri yechim (qaror) qabul qilish kabi hislar shakllanadi.

Tanqidiy fikrlash uslubining so‘nngi bosqichida talabalar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutunosiblik aniqlanadi [7].

***Rolli o‘yinlar.***

Faol talabalar tanlab olinadi va ularga mavzuga oid hayotiy vaziyatlarda rol o‘ynash talab etiladi. Bu uslubda o‘qitish jarayoni uch bosqichda, ya‘ni vaziyat bo‘yicha rol o‘ynash, vaziyatni kuzatish, vaziyatni tahlil qilish va o‘z yechimini qabul qilish asosida amalga oshiriladi. Rolli o‘yin uchun mavzu tanlashda ishlab chiqarishda talaba duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar olinadi. Rol orqali talaba o‘zining kelajakdagi faoliyatini ko‘z oldiga keltiradi. Ushbu uslub mashg‘ulot davomida o‘zgaruvchan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi mashg‘ulot davomida savol berib, holatni o‘zgartirishi mumkin. Natija- qisqa vaqtda samarali o‘zlashtirishga erishish talab etiladi.

Rolli o‘yinlarda talabalar quyidagi bilim, uquv va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mumkin:

- ishlab chiqarish bilan bog‘liq masalalar ustida amaliy muloqat qilish, tajribasini ortdirish;
- jamoadagi bir xodim xarakterini yoki fikrini boshqa kishiga ta‘sir etishini anglash;
- vaziyatlar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini bayon eta bilish;
- vaziyatni tahlil qila olish;
- vaziyatdan chiqish rejasini va strategiyasini ishlab chiqishni bilish [8].

***Rolli o‘yin mashg‘ulot rejasini tuzish.***

1. Mashg‘ulot mavzusiga bog‘liq ishlab chiqarish vaziyatini tanlash. Mavzu albatta real hayotga bog‘liq bo‘lishi kerak.

2. Rolli o‘yin mavzusining aniq maqsadini belgilash, uni talabalarga tushuntirish.

3. Rolli o‘yindagi vaziyatni izohlash, talabalarga vaziyatni aniq, to‘g‘ri tushuntirish.

4. Rolli o‘yin ishtirokchilarini tanlash. Talabalarga o‘z xohishlari bilan ishtirok etish imkoniyatini berish mumkin.

5. Har bir ishtirokchining vazifasini, maqsadini tushuntirish. Rol o‘ynayotgan talabada o‘z roliga ishonchli tuyg‘u uyg‘otish.

6. Kuzatuvchi talabalar (o‘yinda ishtirok etmayotgan)ning vazifasini belgilash.

7. Xulosalash. Bunda, darsdan keyin talabalar ushbu mavzu ustida bahslashishlari uchun ayrim masalalarni javobsiz qoldirish va vazifa tarzida berish ham mumkin.

***Kichik guruhlarda ishlash.***

Talabalarni bir necha guruhga bo‘lib, ularga mavzuga oid aniq bir masala yoki vazifa ustida ishlash topshiriladi. Ularga ma‘lum vaqt beriladi, keyin berilgan vaqt tugagach har bir guruhning ushbu mavzu bo‘yicha qarori, fikrlari tinglanadi.

Kichik guruhlar uslubida mashg‘ulot olib borilganda quyidagilarga erishiladi:

● har bir talabani faol ishtiroki ta‘minlanadi va ularning faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoniyati ortadi;

● muammoni tez hal etish usuli ta‘minlanadi. Talabalar qisqa vaqt ichida ko‘plab yangi g‘oyalar

ijodkori bo‘lishadi;

- mashg‘ulotning istalgan vaqtida talabalarning qiziqishini ortdirish va butun katta guruh bo‘yicha muhokama qilish imkoniyati ta‘minlanadi;

- ayrim talabalar o‘zlarining mavzuga oid ushbu muammo bo‘yicha shaxsiy fikrlarini o‘qituvchiga aytishdan tortinishadi, kichik guruhlarda esa ular guruhdoshlari bilan erkin fikr almashishadi, ya‘ni mashg‘ulotda faol ishtirok etishadi.

***Kichik guruhlarda ishlash mashg‘ulot rejasini tuzish [9].***

1. Mashg‘ulot rejasini tuziladi, kichik guruhlarda ishlash mashg‘ulotning qaysi vaqtida boshlanishi belgilanadi.

2. Talabalar bir necha guruhlariga bo‘linadi.

3. Kichik guruhlarda ishlash uchun mavzuga oid muammoli savol yoki masala tanlanadi. Savolning maqsadi va vazifasi talabalarga aniq tushuntiriladi.

4. Muammo ustida ishlash uchun vaqt belgilanadi. Odatda 15-20 minut har qanday mavzu ichidagi masala ustida qaror qabul qilishga yetarli hisoblanadi.

5. Guruhlar uchun prezentatsiya shakli tanlanadi.

6. Guruhlar o‘z sardorini saylashadi. Buning uchun alohida vaqt berish shart emas.

7. Guruhlarga mavjud o‘quv-uslubiy, o‘quv-vizual materiallardan foydalanish imkoniyati ham berilishi mumkin.

8. O‘qituvchi auditoriyada shovqin bo‘lishiga, ayrim talabalarni passiv ishtirokchi bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi, guruhlar faoliyatini nazorat qilib, ularning fikrlarini o‘rganib boradi.

9. Guruh sardorlari mavzu bo‘yicha guruhning umumiy fikrini prezentatsiya shaklida himoya qiladi. Prezentatsiya uchun odatda 10 minutdan ortiq vaqt berish tavsiya etilmaydi.

10. Prezentatsiya tugagach, bahs-munozara uchun vaqt ajratiladi, o‘qituvchi muammoni umumiy tahlil qiladi, guruhlar faoliyatiga baho beradi.

***Guruhlarda ishlash tartibi va reglamenti***

1. Muammoni hal qilish bo‘yicha guruhlarda ishlash va prezentatsiya varag‘ini to‘ldirish- 15 minut.

2. Mini-guruhlariga bo‘linadilar, umumiy vazifani bo‘ladilar, javobni mustaqil rasmiylashtirish-5 minut;

3. Mustaqil yechimni guruhga e‘lon qiladilar-5minut;

4. Kelishadilar, to‘ldiradilar, to‘g‘ri javobni topadilar va prezentatsiyaga tayyorlanadilar-5minut;

5. Guruhning mavzu savoli bo‘yicha nuqtayi-nazarini bayon etish-1-3minut;

6. Birgalikdagi muhokama va yakuniy xulosani shakllantirish-3 minutgacha [10].

**Aqliy hujum.**

Aqliy hujum uslubini birinchi bo‘lib bundan bir necha o‘n yillar oldin F.Osborn Aleks reklamasi orqali Batter, Barton, Dastin va Osborn firmalarida qo‘llagan. Keyinchalik ushbu uslubdan yirik xalqaro korporatsiyalar ham foydalana boshlashgan. Hozirgi kunda ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, ushbu uslub ma‘muriy boshqarishda va nodavlat tashkilotlarda oddiy odatiy holga aylandi.

Respublikamizdagi ta‘lim muassasalarida ushbu uslubdan 2000- yillardan boshlab foydalanila boshlandi. Ushbu uslubning mohiyati juda oddiy. Talabalar mavzuga oid muammoli savol yoki masala bilan tanishtiriladi. Masala bo‘yicha talabalar o‘z g‘oya va fikrlarini bildirishlari uchun aniq vaqt ajratiladi, masalan - 10 minut. 10 minut ichida bildirilgan barcha g‘oyalar va fikrlar yozib boriladi. Bildirilayotgan g‘oyalar baholanmaydi, auditoriyada shovqin bo‘lishiga, ayrim talabalaraning boshqa talaba fikri ustidan kulishi yoki uni baholashiga ruxsat berilmaydi. Dastlabki maqsad-son! G‘oya qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi. Alohida faol talabalarining yetakchilik qilishlariga, ya‘ni faqat bir necha talaba fikr bildirishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Mumkin qadar barcha talabalar fikrini bayon etishlariga imkoniyat yaratiladi. Vaqt tugagach talabalarga ekranda yozilgan barcha fikrlarni o‘qib, mushohada qilishlariga vaqt ajratiladi. Keyin o‘qituvchi yordamida

barcha g‘oyalar guruhlariga bo‘linadi va ular tahlil qilinib, eng maqbul variant tanlab olinadi.

***Aqliy hujum uslubining asosiy qoidalari [11]:***

- ilgari surilgan fikr iva g‘oyalarni tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;

- taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying;

- tanqid qilmang! Hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir;

- fikr bildirilayotganda gapni bo‘lmang;

- maqsad-fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish;

- qancha ko‘p g‘oya va fikr bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi, bebaho fikr va g‘oyaning

tugʻilish ehtimoli paydo boʻladi;

- agar fikrlar qaytarilsa, rad etmang;
- xayoliy fikrlashga ijozat bering;
- bu muammo faqatgina maʼlum, aniq usullar yordamida hal boʻlishi mumkin deb oʻylamang;
- fikrlar hujumini oʻtkazish vaqtiga qatʼiy rioya qiling;
- berilgan savollarga qisqacha javob bering.

#### **Xulosa va munozara.**

1. Axborot tizimlarining matematik va dasturiy taʼminoti taʼlim yoʻnalishida oʻqitiladigan umumkasbiy fanlarini (virtual intellektual borliq, masofadan oʻqitish, taʼlimni boshqarish tizimlari) raqamli taʼlim texnologiyalari asosida kreativ savodxonlik madaniyati, tanqidiy fikrlashga oid axborot kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirishning ergonomik koʻrsatkichlaridan foydalanish orqali metodik imkoniyatlari aniqlangan.

2. Fanlardan mobil taʼlim uchun android tizimida ishlovchi ishlab chiqilgan ilova boʻlajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalardan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish kompetensiyasini shakllanishiga hamda zamon talabi darajasidagi mutaxassis kadrlarni tayyorlashga xizmat qildi.

3. Sunʼiy intellektga asoslangan virtual aloqani ommalashtirish aspektlariga qaratilgan bulutli texnologiyalardan foydalanishning integrativ taʼsirida talabalarning bilishga boʻlgan intuitsiyasini liberallik tamoyili orqali rivojlantirishda mobil taʼlim uchun “Android” tizimida ishlovchi ilovalardan foydalanib, intuitiv-vizual dasturlash muhitini taʼlim jarayoniga adaptatsiyasini yuzaga keltirish vositasi sifatida “Cloud” texnologiyasi qoʻllanilib, “Rrezi” bilimlari rivojlantirilishi asoslangan.

4. Umumkasbiy fanlarni (CoureLab, HotPotatoes, Mytest) pedagogik dasturlardan foydalanishga qaratilgan (problematic situation, panel discussion, klassik juftliklar, tushunchalar tahlili) innovatsion taʼlim metodlarining pedagogik taʼsirchanlik imkoniyatlari hamda pozitsion harakatlar mazmuni sunʼiy intellektga asoslangan raqamli taʼlim texnologiyalar orqali oʻqitish metodikasi takomillashtirildi.

5. Talabalarning dars va darsdan tashqari taʼlim jarayonida foydalanuvchi interfeysini yaratuvchi kvalimetrik parametrlarning prognostik xususiyatlarini mobil dastur, manipulyativ, imperativ, ludomaniya, motivatsiyani vujudga keltirish, mantiqiy fikrlashning sunʼiy intellektga asoslangan raqamli texnologiyalariga ustuvorlik berish orqali pedagogik faoliyat modeli innovatsion taʼlim metodlarining pozitsion imkoniyatlari va dinamik harakatlar tizimi asosida mazmunan takomillashtirilgan.

Raqamli taʼlim texnologiyalar asosida talabalarning oʻquv faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish boʻyicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Axborot tizimlarining matematik va dasturiy taʼminoti taʼlim yoʻnalishida oʻqitiladigan fanlar oʻquv dasturlari mazmuniga (virtual intellektual borliq, masofadan oʻqitish, taʼlimni boshqarish tizimlari) raqamli taʼlim texnologiyalarni singdirish asosida kreativ savodxonlik madaniyati, tanqidiy fikrlashga oid axborot kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirish orqali metodik imkoniyatlari takomillashtirishni strategikalarga oshirishni yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq boʻladi.

2. Umumkasbiy fanlarni (CoureLab, HotPotatoes, Mytest) pedagogik dasturlardan foydalanishga qaratilgan (problematic situation, panel discussion, klassik juftliklar, tushunchalar tahlili) innovatsion taʼlim metodlarining pedagogik taʼsirchanlik imkoniyatlari hamda pozitsion harakatlar mazmuni sunʼiy intellektga asoslangan raqamli taʼlim texnologiyalar orqali oʻqitish metodikasini ommalashtirish zarur.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Oliy oʻquv yurtlari uchun qoʻllanma. - T.: «TuronIqbol». 2016.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inogʻomova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qoʻllanma. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: «Navroʻz» nashriyoti, 2016.
4. Pedagogik atamalar lugʻati. – T.: «Fan», 2018.
5. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. OTM uchun darslik. – T.: «Iqtisodmoliya», 2010.
6. Usmonboeva M., Toʻraev A. Kreativ pedagogika asoslari. oʻquv –uslubiy majmua. - T.:TDPU 2016
7. Usmonboeva M., Toʻraev A. Kreativ pedagogika asoslari. - OʻUM. TDPU, 2016.
8. Kamoldjonovna, A. K., & Pirmqulovna, P. G. (2022). Kasbiy kompetensiya. Web of Scientist: Xalqaro ilmiy tadqiqot jurnali, 3(02), 766-772.

9. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2019.
10. Drapeau Patti. Talabalar ijodini faollashtirish (innovatsion fikrlash va muammolarni hal qilishning amaliy usullari). - Aleksandriya - Virjiniya, AQSh: ASCD, 2014.
11. Usmonboeva M., To‘raev A. Kreativ pedagogika asoslari. o‘quv – uslubiy majmua. - T.: TDPU, 2016. - 43-bet.

## TEKNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA BAKALAVRLARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINING ROLI

*Atayeva Sarvinoz Rustamovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti*

*Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'qituvchi resurslarni, shu jumladan, raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarini kasbiy pedagogik faoliyatda qo'llashni o'rganishi, innovatsion ta'lim muhitini loyihalash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. Maqolada texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan bakalavrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

*Bugungi kunda robototexnika rivojlangan soha hisoblanadi: ko'plab robotlar turli korxonalarda ish olib boradi, kosmik yoki suv osti chuqurliklarini o'rganish, yuqori darajadagi razvedka bilan ham robot manipulyatorlari shug'ullanishi mumkin. Robototexnika yuqori texnologiyalar va tezkor axborot muhitida rivojlanadi. Uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchini raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishga tayyorlash, takomillashtirilgan fan dasturlariga hamda mukammal o'qitish kontekstiga asoslanganligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:** robototexnika, telekommunikatsiya, sinxron va asinxron rejimlar, dasturiy ta'minot, raqamli ta'lim resurslari, kompetensiya, talabalarning mustaqil ishlari, loyihalash.*

## РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ПОДГОТОВКЕ БАКАЛАВРОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В условиях цифровой трансформации образования учитель должен научиться применять ресурсы, в том числе цифровые технологии и технологии искусственного интеллекта, в профессиональной педагогической деятельности, иметь возможность проектировать и внедрять инновационную образовательную среду. В статье рассматриваются роль и возможности цифровых образовательных ресурсов в подготовке бакалавров, обучающихся по направлению технологического образования, к профессиональной деятельности.*

*Сегодня робототехника - развитая отрасль: многие роботы работают на различных предприятиях, исследуют космос или подводные глубины, роботы-манипуляторы могут заниматься даже разведкой высокого уровня. Робототехника развивается в высокотехнологичной и быстрой информационной среде. Для эффективного использования его возможностей в образовательных учреждениях приобретает важное значение подготовка квалифицированных специалистов. Подготовка будущего учителя к созданию и использованию цифровых образовательных ресурсов приобретает всё большее значение с точки зрения того, что они основаны на улучшенных научных программах, а также на отличном учебном контексте.*

***Ключевые слова:** робототехника, телекоммуникации, синхронные и асинхронные режимы, программное обеспечение, цифровые образовательные ресурсы, компетенции, самостоятельная работа студентов, проектирование.*

## THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN THE TRAINING OF BACHELORS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

*In the context of the digital transformation of education, the teacher must learn to apply digital resources, including digital and artificial intelligence technologies, in professional pedagogical activities, be able to design and implement a digital educational environment. The article examines the role of digital educational resources in the training of bachelors studying in the direction of technological education.*

*Today, robotics is a developed field: many robots work at various enterprises, studying space or underwater depths, high-level intelligence can also be engaged by robotic manipulators. Robotics develops in a high-tech and fast-paced information environment. In order to effectively take advantage of its capabilities, it is important to train qualified specialists in educational institutions. Preparing a future teacher for the creation and use of digital educational resources is becoming increasingly important in terms of the fact that they are based on improved scientific programs, as well as on an excellent educational context.*

**Keywords:** robotics, telecommunications, synchronous and asynchronous modes, software, digital educational resources, competencies, independent work of students, design.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat turli mutaxassisliklar o‘qituvchilarining kasbiy malakalariga yangi talablarni belgilaydi. Hozirgi vaqtda pedagogika oliy ta’lim muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisini kasbiy faoliyatida zamonaviy raqamli ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishga tayyorlashdir. Shu jumladan, robototexnika sohasida raqamli ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishga tayyorlash tuzilmasining nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqishni maqsad qilib qo‘yidik.

Robototexnika texnologiya, informatika, matematika, fizika, biologiya, kimyo, geografiya va boshqa ko‘plab ilmiy yo‘nalishlarda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishni ta’minlaydi. Raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalangan holda nazariy bilimlarni amalda qo‘llash va sinab ko‘rish imkonini beradi, ijodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi, talabalarni kundalik hayotda va kelajakdagi kasbda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlaydi. Robototexnika talabalarining shaxsiy o‘shisi imkoniyatlarini kengaytiradi, tanqidiy fikrlashni, fazoviy tasavvurni, ijodkorlikni, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, maqsadlarni belgilashni va muammolarni hal qilish usullarini tanlashga o‘rgatadi, o‘rganish motivatsiyasini oshiradi.

**Asosiy qism.** Bakalavrlarni tayyorlashning ushbu yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy ta’lim dasturi ba’zi kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi:

\* Pedagogik bilim va ko‘nikmalar. Bunday vakolatlariga ega bo‘lgan talaba o‘quv jarayonini rejalashtirishga, sinflarning maqsadlari va ehtiyojlariga mos keladigan raqamli ta’lim resurslarini yaratishga qodir.

\* Texnik tayyorgarlik. Bo‘lajak o‘qituvchi matematik, fizik, texnik bilimlarning asoslarini bilishi kerak; dasturlash, texnik tizimlarni, shu jumladan turli xil robotlarni yig‘ish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Ibratning “Lugʻati sittati alsina”, “Jomeʼ ul-xuttut” asarlaridan tashqari “Devoni Ibrat”, “Tarixi Fargʻona”, “Tarixi madaniyat”, “Lison uz-zamon” kabi asarlari mashhurdir.

Isʼhoqxon Ibratning maʼrifatparvarlik faoliyatida maktabdorlik qilish muhim ahamiyatga ega. U “Matbai Isʼhoqiya” nashriyotida “Sanʼati Ibrat, qalami Mirrajab”, “Ilmi Ibrat” kabi darslik va qoʻllanmalarini nashr ettirdi. Birinchi marta 1906-yilda, keyin esa, 1907-yilda yana “usuli jadid” maktabini ochib, 25-nafar qishloq bolalarini oʻqitdi. Darslik sifatida Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Ali Asqar Kalinning “Muallim us-soniy” va oʻzining “Lugʻati sittati alsina”, “Sanʼati Ibrat, qalami Mirrajab” asarlarini manba qilib oldi.

Isʼhoqxon Ibrat oʻsha davr vaqtli matbuotida faol ishtirok qilgan. Mashhur “Kutubxonai Isoqiya”ni tashkil qilgan. Kutubxonada oʻzbek, tojik, fors, turk, tatar, rus tillaridagi oʻn mingga yaqin kitob, gazeta va boshqa vaqtli matbuot nashrlari, qoʻlyozmalar joy olgan. “Isʼhoqiya bogʻini” tashkil qilgan.

Koʻplab jadid maʼrifatlari kabi Isʼhoqxon Ibrat ham 1937-yil 75 yoshida qatagʻon qurboni boʻldi. Uning asarlari mustaqillik sharofati bilan bir necha marta nashr qilindi. Isʼhoqxon Ibrat shoir va olim, maʼrifatparvar va matbachi, din arbobi va fidoiy inson, vatanparvar sifatida xalqimiz shuurida, ongida abadul abad yashaydi.

**Tahlil va natijalar.** Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-; Nishon tumanidagi 3-; Kasbi tumanidagi 32-; Mirishkor tumanidagi 1-; 2-; 6- umumiy oʻrta taʼlim maktablarida Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti, faoliyati hamda asarlari haqidagi bilimlarni oʻzgarib borishini oʻrganish maqsadida oʻquvchilarga ogʻzaki-yozma ravishda savollar berildi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti, faoliyati hamda darsliklari haqidagi bilimlarni oʻzgarib borishini oʻrganish maqsadida oʻquvchilarga ogʻzaki-yozma ravishda savollar berildi, qiziqarli savol-javob oʻyinlariga maxsus tayyorlangan savollar kiritildi.

1. Maʼrifatparvar deganda qanday kishini tushunasiz?
2. Oʻzbek maʼrifatparvarlaridan kimlarni bilasiz?
3. Quyidagi maʼrifatparvarlarning hayoti, faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

Abdulla Avloniy;

Isʼhoqxon Ibrat;

Saidrasul Aziziy;

Munavvarqori Abdurashidxonov.

4. Isʼhoqxon Ibrat va Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynlarning axloq-odobga doir qaysi asarlarini oʻqigansiz?

5. Maʼrifatparvarlarning qaysi sheʼr va hikoyalarini uyingizdalar oʻqib yoki aytib berishgan?

6. Maʼrifatparvarlarning qaysi sheʼr va hikoyalari Sizga manzur boʻldi? Nima uchun?

7. Maʼrifatparvarlarning sheʼr va hikoyalarini koʻproq oʻqishni xohlaysizmi? Nima uchun?

Bu anketa savollariga tajriba va nazorat sinf oʻquvchilaridan javoblar olindi. Anketada javoblar uchun moʻljallangan joylari boʻsh qoldirilib, birinchi va ikkinchi sinflarda-ogʻzaki, uchinchi va toʻrtinchi sinflarda yozma ravishda javoblar olindi. Javoblarga qarab oʻquvchilarni uch guruhga ajratdik:

I guruhga – maʼrifatparvar soʻzining maʼnosini tushunadigan, unga taʼrif va tavsif bera oladigan; Isʼhoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda asarlarini oʻqigan, oilada muntazam ravishda sheʼr va hikoyalar oʻqib yoki aytib berilayotgan; maʼrifatparvarning sheʼr va hikoyalarini aniq va ravshan aytib beraoladigan; ularning pedagogik asarlarini koʻproq oʻqishni xohlaydigan oʻquvchilarni kiritdik.

II guruh – maʼrifatparvar soʻzining maʼnosini umumiy tarzda biladigan, unga aniq taʼrif va tavsif bera olmaydigan; Isʼhoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda asarlari bilan unchalik tanish boʻlmagan; hikoya va sheʼrlari maʼnosini yetarli darajada tushuntirib bera olmaydigan, oilada ota-onalar axloqiy sheʼr va hikoyalar muntazam aytib yoki oʻqib berilmagan; maʼrifatparvarning pedagogik merosidan namunalarni koʻproq oʻqishni istovchi oʻquvchilarni kiritdik.

III guruhga – maʼrifatparvar soʻzining maʼnosini unchalik ham tushuna olmaydigan, bu soʻzga taʼrifu tavsif bera olmaydigan; Isʼhoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda asarlari bilan tanish boʻlmagan yoki oʻqigan sheʼr va hikoyalarning maʼno va mazmunini tushuntirib bera olmaydigan oʻquvchilarni; oilada ota-onalari maʼrifatparvarning sheʼr va hikoyalardan namunalarni aytib bermaydigan, lekin yangi usul maktabi

tarafdorlarining hayoti, faoliyati va ayniqsa, axloq-odobga doir asarlarini o‘qishni xohlovchi o‘quvchilarni kiritdik.

1-jadval.

**O‘quvchilardan olingan javoblar:**

Ko‘rsatkich darajalari	Tajriba sinflari				Nazorat sinflari			
	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
	soni	foiz	soni	foiz	Soni	Foiz	Soni	Foiz
Yuqori	24	6	261	66	16	4	32	8
O‘rta	103	26	95	24	121	30	194	48
Quyi	268	68	39	10	266	66	177	44

Jadvalda ko‘rinib turganidek, nazorat sinflardagi 403-nafar o‘quvchidan tajriba boshida I guruh darajasidagilar miqdori 4-foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 8-foizni tashkil qildi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar tajriba boshida 30 -oizdan tajriba oxiriga kelib 48-foizga yetdi. III guruh darajasidagi o‘quvchilar 66 foizdan 44-foizga tushdi. Tajriba sinflardagi 395-o‘quvchidan esa I guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori tajriba boshida 6-foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 66-foizni tashkil qildi yoki 11-marotabaga oshdi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar 26-foizdan tajriba oxiriga kelib 24-foizga tushdi; III guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori 68-foizdan 10-foizgacha kamaydi. Tajriba sinflarida bunday yutuqlarga erishishda, shubhasiz, sinfda o‘tilgan o‘qish, tarbiya, sinfdan va maktabdan tashqari o‘tkazilgan axloqiy mavzudagi suhbatlar, adabiy ertaliklar, kitob ko‘rgazmalari, kitobxonlik konferensiyalari, savol-javob o‘yinlari kabi tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda ota-onalar va mahalla qo‘mitalari ham yaqindan yordam berganligini ta’kidlash joiz.

Tajriba-sinovda tajriba sinfida 395-nafar va nazorat sinfida 403-nafar o‘quvchi qatnashgan. Yuqoridagi jadvaldagi foizlarda berilgan ko‘rsatkichlarga asosan quyidagi jadvalni keltiramiz.

2-jadval.

**O‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini o‘zgarib borishi bo‘yicha olingan natijalar**

Sinf	Baho	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari		
			yuqori	o‘rta	quyi
Tajriba sinfi		395	166	154	75
Nazorat sinfi		403	73	173	157

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajribadan keyingi ko‘rsatkich tajribadan oldingi ko‘rsatkichdan yuqori ekan. Demak, Is’hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda darsliklari vositasida o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini o‘zgarib borishi bo‘yicha o‘quvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari yuzasidan olingan natijalar samardor ekan.

Tajriba oxiriga kelib o‘quvchilarning javoblari tajriba guruhlarida tez o‘shishni ko‘rsatsa, nazorat guruhlarida bu holni ko‘rmaymiz. Bu tajriba natijalari samarali bo‘lganligini ko‘rsatadi.

**Xulosa va takliflar.**

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Is’hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda darsliklarini o‘rganishda sinfdan tashqari o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Tajriba ishi davomida bu sohada bir qator xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi aniqlandi:

ko‘p o‘qituvchilar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi haqida yetarlicha bilimga ega emaslar;

aksariyat tadbirlar shoshqaloqlik bilan nomigagina zerikarli qilib o‘tkazilmoqda;

tadbirlar ba’zi maktablarda juda kam hollarda, yiliga bir yoki ikki marotaba o‘tkazilmoqda;

tarbiyaviy tadbirlarda Is’hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda darsliklaridan deyarli foydalanilmayapti, bu haqida metodik qo‘llanma tavsiyanomalar deyarli yo‘q.

2. Tajriba ishining shakllantiruvchi ikkinchi bosqichida bir qator ishlarni amalga oshirib Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-; Nishon tumanidagi 3-; Kasbi tumanidagi 32-; Mirishkor tumanidagi 1-; 2-; 6- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti, faoliyati hamda darsliklarini o‘rganishda maqsadida tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazildi. Olib borilgan tajriba ishlari natijasida quyidagi xulosalarga keldik;

o‘quvchilarda Is’hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda darsliklari mazmuni, ma’nolari haqida chuqur bilim hosil bo‘ldi;

Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda darsliklarini o`rganishda she`r va hikoyalardagi axloq-odobli kishilarga o`xshashga taqlid qilish, yomon sifatli kishilarga nafrat hissi paydo bo`lganligi kuzatildi;

Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati hamda darsliklari vositasida tadbirlarni o`tkazish davomida o`qituvchilar o`quvchilarining xulqi, axloq-odobi, fe`l-atvori, xohish-istak va mayllari haqida chuqurroq ma`lumotga ega bo`ldilar;

o`quvchilar tadbirlar orqali Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlari haqida darslarda olgan bilimlari kengaydi, mustahkamlanib o`quvchilarning tarbiyasiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi.

3. Tajriba ishining shakllantiruvchi bosqichida tajriba o`tkazilayotgan sinflarning o`qituvchilari va ota-onalari o`rtasida Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlari; axloq-odob tushunchalarining mazmuni; mazmun va mohiyati haqida davra suhbatlari, fikr almashuvlar, nazariy-amaliy anjumanlar o`tkazildi. Natijada:

o`qituvchi va ota-onalar ma`rifatparvar-pedagog Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlari, ulardan boshlang`ich sinf o`quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari haqida yetarlicha bilimga ega bo`ldilar;

ota-onalar farzandlarini axloqiy tarbiyalashda quruq gap-so`z, nasihatbozlikdan aniq manbalar asosida dalil va isbotlar orqali farzandlariga tarbiya bera boshladilar;

boshlang`ich sinf o`qituvchilari sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida Is`hoqxon Ibratning asarlaridan keng ko`lamda foydalanmoqdalar.

4. Shakllantiruvchi bosqichda Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlari vositasida o`quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajalari tajriba ishlari natijasida o`zgarib bordi. Buni ilmiy-tadqiqot ishining birinchi va ikkinchi bosqichlarini taqqoslash natijalari ko`rsatib turibdi. Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlari vositasida o`quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajalari birinchi bosqichda-nazorat guruhlar o`quvchilarining savollarga yuqori, o`rta, quyi darajalarida 10,6; 35; 54,4 foizni tashkil qilgan bo`lsa, tajriba guruhlarida bu miqdor 10,3; 35,7; 54 foizdan iborat bo`lgan edi. Ikkinchi bosqichda-nazorat guruhlar o`quvchilarining savollarga javoblari yuqori, o`rta, quyi darajalar bo`yicha 18,1; 42, 9; 39 foizni tashkil qilgan bo`lsa, tajriba guruhlarida 42; 39; 19 foizdan iborat bo`ldi. Tajriba natijalari biz tanlagan tadqiqot metodikasi to`g`ri, samaraliroq ekanligini ko`rsatdi.

**Takliflar.** Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlari vositasida tarbiyalashning amaliyotdagi ahvolini o`rganilishi, olib borilgan pedagogik ilmiy-tajriba ishlari natijalariga asoslanib – 1. Darslik mualliflariga quyidagi takliflarni berish lozim deb topdik: Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va “Devoni Ibrat”, “Tarixi Farg`ona”, “Tarixi madaniyat”, “Lison uz-zamon”, “Jome` ul-xutul” va “Lug`ati sittati alsina” darsliglaridagi hikoya va she`rlaridan namunalarni kiritish lozim.

Darslik mualliflari Is`hoqxon Ibratning asarlaridan foydalanishda hikoya va she`rlarni hozirgi o`zbek adabiy tiliga o`girib, boshlang`ich sinf o`quvchilarni yoshi, bilim darajasiga moslab, davlat ta`lim standarti va “Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi”da ko`rsatib berilgan yo`l-yo`riqlarga muvofiq qayta ishlab chiqib darsliklar mazmuniga kiritishlari lozim.

2. Umumiy o`rta ta`lim o`qituvchilariga:

a) Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlari vositasida tizimli va texnologik yondoshuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqidagi g`oyalarga mashg`ulotlarni o`tishlari mumkin. Chunki, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida o`tilgan darslar samarali natijalar berishi ilmiy-tajribada isbotlandi;

b) Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlari asosida axloqiy mavzudagi suhbatlar, adabiy ertaliklar, kitobxonlik konferensiyalari, viktorinalarni tashkil qilish amaliyotida foydalanishlari mumkin.

3. Ota-onalarga:

a) quruq gap-so`z, nasihatvozlikdan ko`ra Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlaridan foydalanib, aniq dalil va misollar orqali bolalarni shuuriga ta`sir etishlari kerak;

b) Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlarini o`qib yoki aytib berishlari, mustaqil mutolaa qilishga tavsiya etishlari zarur.

4. O`quvchilarga: boshlang`ich sinf o`quvchilari darsliklardagi hikoya, she`r va boshqa asarlar bilan chegaralanib qolmasdan Is`hoqxon Ibratning hayoti, faoliyati va asarlarini o`qishlari zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O`zbekiston”, NMIU. 2017. – 488 b.

2. Азизхўжаев Р. Устоз Мунавварқори. // Фан ва турмуш. – Тошкент: 1991, – №7, – 29 б.



3. Авазов Н. Махмудхожа Бехбудийнинг ижодий мероси. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун бажарилган дисс. .... –Тошкент: 1995, – 217 б.
4. Абдуллаев Й. Машхур маърифатпарварнинг икки дарслиги тўғрисида. // Бошланғич таълим. – Тошкент: 1992, –№12, – Б. 50-52, 1993, –№1, - Б. 20-22.
5. Ахатова Д.А. Абдурауф Фитратнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... –Тошкент: 1998, – 163 б.
6. Ахрарова З.Б. Махмудхўжа Бехбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий Амалий фаолияти. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997, – 195 б.
7. Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Филол. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... автореф.. – Тошкент: 1994. – 24 б.
8. Иноятова М.Э. Ўзбек алифбо дарсликларининг тарихий тараққиёт босқичлари ва дидактик асослари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2000. – 186 б.
9. Иргашева Н.А. Мунавварқори Абдурашидхоновнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. Фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997. – 169 б.
10. Мунавварқори Абдурашидхон ўғли. Адиби соний. – Тошкент: Фулом Ҳасан Орифжонов литографияси, 1912. – 48 б.
11. Худайкулов М.А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX - начало XX века). Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: 1995. – 148 б.
12. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: «Маънавият», 2002, -400 б.
13. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: «Маънавият», 2004, -464 б.
14. Намроев Ш. Е. Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. Monografiya. Qarshi: "Fan va ta`lim", 2021, -216 b.
15. Ҳамроев Ш. Э. Жадид маърифатпарварларининг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2009. – 186 б.
16. Ҳамроев Ш.Э., Каримов Б. П., Муҳаммадиев Ш. М. “Жадидларнинг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш” Монография. Қарши: “Фан ва таълим”, 2021, -186 б.
17. Намроев Ш. Е. Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. O`quv qo`llanma.. Qarshi: "Intellekt", 2023, -286 b.
18. Ҳамроев Ш. Бошланғич синфларда Мунавварқори Абдурашидхоновнинг педагогик меросидан фойдаланиш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Қарши: Насаф, 2007. – 38 б.
19. Е Намроев Ш. Е. Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti, faoliyati va pedagogik merosi. Qarshi: "Fan va ta`lim", 2021, -96 b.

## TALABALARDA TABIIY-FALSAFIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASHNING METODLARI

**Musurmonov Ma’ruf Akram o’g’li,**

*Termiz davlat universiteti akademik litseyi “Aniq fanlar” kafedrasasi o’qituvchisi  
ORCID 0009-0000-1677-9408*

*Mazkur maqolada ta’lim muassasalarida tabiiy fanlarni integratsiya asosida o’qitish va ilmiy bilimlar shakllanish davrining dastlabki bosqichlarini turli fan sohalariga oid qarashlarning integratsiyasi sifatida baholash haqida fikr yuritiladi, olamni anglash, atrof-borliqni o’rganishga bo’lgan intilish va harakatlarning mahsuli o’laroq shakllangan ilmiy bilimlar tabiiy mazmun va integrativ shaklga ega ekanligi bayon etilgan va tadqiqotda psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish, anketa, kuzatish, o’qituvchi va o’quvchilar bilan suhbatlar o’tkazish, pedagogik eksperiment kabi usullardan foydalanildi, boshlang’ich ta’lim tizimiga doir semiotik qarashlar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan, kichik yoshdagi maktab o’quvchilarining semotik rivojlanishi, uning konstruktiv rivojlanishi uchun o’rganilayotgan material bilan bog’liq bo’lishi mumkin bo’lgan o’qituvchi faoliyatining sohalarini aniqlash imkoniyatini ochadi.*

**Kalit so’zlar:** tabiiy fanlar, innovatsiya, integratsiya, fan va atrof-borliq, rivojlanish.

## МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ ЕСТЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

*В данной статье рассматривается преподавание естественных наук на основе интеграции в образовательных учреждениях и оценивается начальный этап формирования научных знаний как интеграция взглядов, связанных с различными областями науки. В статье констатируется то, что оно имеет форму, и в исследовании использованы такие методы, как изучение и анализ психолого-педагогической и методической литературы, анкетирование, наблюдение, беседы с учителями и учащимися, педагогический эксперимент, к системе начального образования семиотические взгляды и научная литература. по семиотике, это открывает возможность выявить области деятельности учителя, которые могут быть связаны с изучаемым материалом для семиотического развития младших школьников, его конструктивного развития.*

**Ключевые слова:** естественные науки, инновации, интеграция, наука и окружающая среда, развитие.

## METHODS OF FORMING AND EDUCATING NATURAL-PHILOSOPHICAL OUTLOOK IN STUDENTS

*In this article, the teaching of natural sciences on the basis of integration in educational institutions and the evaluation of the initial stages of the period of formation of scientific knowledge as an integration of views related to various fields of science are discussed. It is stated that it has a form, and methods such as study and analysis of psychological, pedagogical and methodical literature, questionnaire, observation, conversations with teachers and students, pedagogical experiment were used in the research, to the primary education system semiotic views and scientific literature on semiotics are analyzed, it opens the possibility to identify areas of the teacher's activity that can be related to the studied material for the semiotic development of junior schoolchildren, its constructive development.*

**Keywords:** natural sciences, innovation, integration, science and environment, development.

**Kirish.** Tabiiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish va tarbiyalashni nazarda tutuvchi bunday yondashuv asosidagi ta’limda IITF o’qitishdagi amaliy (masalan, talabalarda ilmiy metodlarni qo’llash ko’nikmalarini shakllantirish, tabiatshunoslik sohasida o’zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo’llash, tabiiy fanlar sohasida erishilgan amaliy natijalar tahlilini amalga oshirish kabi) vazifalar ikkilamchi ahamiyat kasb etadi. Falsafiy-tahliliy mushohadalar negizida quriladigan ta’lim jarayonida ham biz talabalarda keng miqyosli (planetar) fikrlashni rag’batlatiruvchi yondashuvdagi kabi muammolarga duch kelamiz: talabalar nafaqat tub ilmiy bilimlar majmuasini o’zlashtirishlari, balki qo’yilgan masalalarni falsafiy

mushohadalar va tahliliy mulohazalar yordamida hal etishlari talab etiladiki, bunday fikrlash tarzi Blum fikrlash taksonomiyasidagi eng oliy darajaga mos keladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** IITF kurslarini o‘qitishda pragmatik yondashuvga asoslangan holda tabiiy fanlarning amaliy ilovalari sohasida talabalarning dunyoqarashini rivojlantirish va ilmiy faoliyat xususiyatlarini namoyish qilish vazifalarining ustivorligini ta’minlovchi mundarijalar nisbatan kamroq ishlab chiqiladi [1].

Pragmatik yondashuvda IITF mazmun-mundarijasi ko‘proq tabiatshunoslik sohasidagi ilmiy bilimlarni jamiyatning maishiy, ijtimoiy va madaniy hayotida qo‘llash imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan materiallarni o‘z ichiga oladi. Bunda birlamchi e’tibor:

-avvalo, nano-, bio-, info- va kognotexnologiyalar, tibbiyot, “yashil energetika”, ekologiya sohasida, shuningdek, sintetik va metamateriallar ishlab chiqish tarmoqlarida ustivor amaliy konsepsiyalarga;

-ikkinchidan, jamiyatning qizg‘in e’tiborini tortadigan, binobarin, OAV hamda ilmiy-ommabop adabiyotlarda ko‘proq namoyon bo‘ladigan konsepsiyalarga (misol uchun, genomning dekodlanishi, klonlashtirish, sinergetika g‘oyalari, inson bosh miyasi sohasidagi tadqiqotlar va shu kabilar) qaratiladi. Pragmatik yondashuv joriy etilishiga namuna sifatida S.X. Karpenkov tomonidan ishlab chiqilgan IITF kursini misol keltirishimiz mumkin: mazkur kursning mazmun-mundarijasidan zamonaviy texnologiyalar, energetika va ekologiya sohasiga oid ilmiy-tabiiy asoslarning chuqur o‘rganilishiga bag‘ishlangan boblar ustivor o‘rin olgan [6].

IITFda talabalarning falsafiy-tahliliy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pragmatik yondashuvning yana bir muhim jihati – tabiat va atrof-borliqning yer sathidan tashqarida bo‘lgan qismini o‘rganish qanchalik ko‘p moddiy va intellektual resurslar (misol uchun, “Spektr-RG”, “Xabbl”, “Kepler”, “Syuntyan” kabi orbital kosmik teleskoplardan, kosmik stansiyalar, atrofimizdagi mikroolamni o‘rganish, suvosti dunyosini tadqiq etishda qo‘llaniladigan zamonaviy asboblar, mexanizmlar va shu kabilar) talab qilishini ongli ravishda his etishlarida talabalarga yordam berishdan iboratdir. Va talabalar astoydil, qalban his etishlari lozim bo‘lgan yana bir savol: shuncha xarajatlar evaziga o‘rganiladigan bilimlar, tadqiq etiladigan obyektlar ilmiy-tabiiy ilmlar zaxirasini boyitadi, biroq pirovard maqsad nima? Bu savolning javobini ilmiy-tabiatshunoslik va falsafiy pozitsiyalardan bayon eta bilishning o‘ziyoq pragmatik yondashuvda nazarda tutilgan natijalar namoyon bo‘la boshlaganligini ko‘rsatadi. Umuman esa, bo‘ljak kasbiy faoliyati bevosita tabiatshunoslikka daxldor bo‘lmagan talabalar zamonaviy sivilizatsiyada ilm-fanning (ayniqsa, ilmiy-tabiatshunoslikning) rolini tushunib, anglab oladilar [7].

Shuningdek, talabalarga ilmiy bilishning o‘ziga xos xususiyatlari va ilmiy natijalar olishning usullari haqida tasavvur berish, ularga muayyan sohada olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning zarurati, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiqligi, ba’zan esa xatarli ekanligini his etishlarida hamda ilmiy tadqiqot natijalari bahs-munozaralar mavzusiga aylangan vaziyatlarda bu natijalarni joriy eta bilishda yordam berish kabi vazifalar ham bajarilishi ko‘zda tutiladi. Mazkur o‘rinlarda pragmatizm o‘rganishga taqdim etilayotgan bilimlarga talabalarni amaliy yo‘naltirishdangina iborat bo‘lib qolmasdan, jamiyatning ilmiy dunyoqarashga ega, maishiy-madaniy manbalar va OAVdan olingan ilmiy axborotlarni tanqidiy tahlil eta oladigan, mazkur axborotning ishonchliligini tekshirib ko‘rishga qodir, soxtaliklarni o‘z vaqtida fosh qiloladigan, umumiy tarzda esa, refleksiv-tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyati yuksak fuqarolarni qabul qilib olishdan manfaatdorligini ham namoyon etmog‘i lozim.

IITFning talabalarda falsafiy-tahliliy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mazmun-mundarijasini tuzishda joriy etiladigan mazkur yondashuvning kamchiliklaridan biri o‘rganish taqdim etilayotgan axborotning fragmentar (alohida parchalangan holda) xususiyatga egaligi hamda ilmiy bilimlarni konseptual darajada majmualashtirishning yo‘qligidir. Shu boisdan ham, pragmatik yondashuv asosida tuziladigan IITF mazmun-mundarijasi yordamchi mundarija sifatida qo‘llaniladi.

IITF bo‘yicha mavjud dasturlar va darsliklar bir vaqtning o‘zida bir nechta maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, G.I.Ruzavin muallifligida chop etilgan darslikda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va talabaning umumiy madaniyatini yuksaltirish vazifalari ustivorlik qiladi [3].

**Natijalar va muhokama.** A.D. Suxanov va O.I. Golubevalar hammuallifligida tayyorlangan darslikda esa IITFni tashkil etuvchi alohida fanlarning mazmuni-mundarijasini integratsiya qilish, fanlararo “almashinib” turadigan g‘oyalarni o‘rganish, “olam ilmiy-tabiiy manzarasining konseptual ustqurmasini yaratish” kabi masalalarga asosiy urg‘u berilganligini va maqsad sifatida talabalarda “maxsus ratsional mentallikni shakllantirish” belgilanganligini [2] ko‘rish mumkin.

IITFni o‘qitishda urg‘u beriladigan har bir yo‘nalishning ularga mos maqsadlar bilan muvofiqlikdagi ijobiy jihatlari va kamchiliklari keltirib o‘tilgan.

IITFni o‘qitishda bilimlar majmuasini taqdim etish orqali talabalarda ilmiy-tabiatshunoslik savodxonligini oshirish, falsafiy-tahliliy mushohada ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashni

shakllantirish, ilmiy-tabiiy dunyoqarashni rivojlantirish, tanqidiy-refleksiv fikrlashni shakllantirish kabi yoʻnalishlar va ular bilan bogʻliq maqsadlar hamda sanab oʻtilgan vazifalarni samarali bajarishga imkon beruvchi mazmun-mundarijalarning ommabop va tez singuvchan ekanligi aniqlandi.

Zamonaviy axborot olish va uzatish texnologiyalari takomillashgan sharoitlarda tashkil etiladigan taʼlim uchun “bilimlar majmuasini uzatish” amaliyoti mazmunan eskirgandek tasavvur qoldiradi, holbuki, axborot texnologiyalaridan hamda axborot qabul qilish (va uzatish)ning zamonaviy vositalaridan foydalanish boʻyicha elementar tasavvurga ega boʻlgan talaba uchun bilimlar majmuasini qabul qilishning koʻplab usullari mavjud (jahon ilmiy laboratoriyadan maʼlumotlar olish, oʻrganilayotgan mavzu yuzasidan eng soʻnggi ilmiy ishlanmalar bilan tanishish, eng mukammal adabiyotlardan foydalanish va hokazolar), binobarin, “bilimlar majmuasini uzatish” amaliyoti taʼlim jarayonida muammo hisoblanmaydi.

Olamning noklassik ilmiy-tabiiy ((kvant-relyativistlik va evolyutsion) manzaralarini yaratishda tadqiqotchi-olim oʻzi yaratayotgan manzaraning ajralmas bir qismiga aylanadi, binobarin, bu jarayonda olamning noklassik manzarasi ilmiy dunyoqarashning bir qadar yuksak darajasiga asoslanadi. Ilmiy dunyoqarashning bunday yuksak darajasi diqqat bilan kuzatishlari va obyektning tadqiq etish vositalarining murakkabligi, qarama-qarshiliklarning birligi va tartibsizliklarning muayyan mantiq yoʻrigʻida kechishini olimning chuqur idrok etishi bilan izohlanadi [5].

IITF oʻquv dasturida asosiy urgʻu talabalarda ilmiy dunyoqarashni moddiy olamning tuzilishi va yaxlitligi haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlar majmuasi oʻlaroq shakllantirishga qaratilganda, alohida fan sohalariga xos konsepsiyalarni oʻrganish muhim oʻrin tutadi. Yuqorida aytib oʻtilganidek [7], IITF mazmun-mundarijasiga fizika, ximiya, biologiya, ekologiya, nano-, axborot-, kognitiv- va biotexnologiyalarga xos asosiy gʻoyalari va fundamental nazariyalarning ilova etilishi talabalarda ilmiy-tabiiy dunyoqarashning shakllanish imkoniyatlarini oshiradi, chunonchi, amaliy vaziyatlar alohida fanlarning mavjudligi faqat shartli ekanligini, aslida esa har bir alohida fan maʼlum bir masalaga turlicha nuqtayi nazardan yondashish hosilasligi, binobarin, fanlar oʻrtasidagi aloqadorlik muhim ekanligini namoyon etadi. Xususan, G.M. Golin [3] fundamental fizikaviy gʻoyalari orasidan olamning fizikaviy manzarasini oʻzida mujassam etuvchi, mazkur manzaraning elementarligi, simmetrikligi va birbutunligini ifodalovchi gʻoyalarni ajratib oldi va ularni fizika kursining oʻquv materiallarini tizimlashtirish va umumlashtirishda asosiy tamoyillar sifatida belgiladi. V.F. Yefimenko [6] olamning fizikaviy manzarasida nisbiylik va invariantlilik konsepsiyalarini alohida koʻrsatib oʻtadi.

Talabalarda ilmiy-tabiiy dunyoqarashning shakllanganligini aniqlashga qaratilgan mezonlar YE.P.Yelsukova [4], M.G. Bazayeva [5] koʻplab olimlarning psixologik-pedagogik tadqiqotlari natijalariga asoslangan holda belgilab olindi. Mazkur mezonlarning tub oʻzagini tashkil etuvchi iomiy tushunchalar, atamalar va nazariyalarning tanlab olinish tamoyillariga V.S. Lednev [6], I.Y. Lerner [7], A.M. Soxor [1] kabi mutaxassislar va tadqiqotchilarning ishlarida toʻxtalib oʻtilgan.

IITFni oʻqitishda talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish masalasining ustivorligiga erishish bir qadar qiyin masala hisoblanadi, negaki, ular (yaʼni talabalar) uchun koʻpsonli ilmiy nazariyalar, ular bilan bogʻliq tushunchalar va qonuniyatlarni qabul qilish, anglash, tahlil etish va umumlashtirish yengil vazifa emas. Aslan, mazkur masalaning tub ildizi oʻquv materiali axborot va maʼlumot tarzida uzatiladigan hamda oʻquvchi ularni yodda saqlab qolishi negizida tashkil etiladigan umumiy oʻrta taʼlim tizimiga borib taqaladi, holbuki, oʻquv jarayoni taʼlim oluvchining kognitiv koʻnikmalarini rivojlantirib borish asosida qurilishi lozim. Boz ustiga, muhandislik, texnik va tabiiy-matematika yoʻnalishi talabalar uchun ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni nazarda tutuvchi nazariyalar mavhum va tushunarsiz, bunga sabab esa umumiy oʻrta taʼlim doirasida tashkil etilgan oʻquv jarayonida oʻquvchilarga tabiiy-matematika boʻyicha bir qadar yengil va yuzaki bilimlar berilgan, shu barobarida ushbu taqdim etilgan bilimlarni laboratoriya ishlarida, mustaqil tadqiqotlarda va amaliy masalalarni hal etishda qoʻllash imkoniyatlari minimal darajada boʻlganligini inkor etish qiyin.

Talabalarda ilmiy-tabiiy savodxonlikni oshirish IITFni oʻqitishdagi eng muhim maqsadlardan biri sanaladi. Integratsiyalashgan tabiiy fanlarning maqsadi, talabalar fikricha, koʻproq oʻqituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa IITF oʻqitishdan koʻzlangan koʻpgina maqsadlar va ustivor deb belgilangan yoʻnalishlarning ikkinchi planga tushib qolishiga sabab boʻladi. Bu hol “ilmiy-tabiiy savodxonlik” tushunchasini toʻliqroq oydinlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Mazkur atama (yoki tushuncha) YUNESKOning “Ilmiy-tabiiy va texnologik savodxonlik – barcha uchun” deb nomlangan dasturida keltirilgan boʻlib, asosan, maktab oʻquvchilarida fikrlash va tabiiy tafakkurni baholash maqsadida qabul qilingan. OTM talabalar uchun esa ilmiy-tabiiy savodxonlik ulardagi tanqidiy-refleksiv fikrlash (TRF)ni rivojlantiruvchi omil sifatida qaraladi, zero, TRFni rivojlantirish dunyo oliy taʼlim muassasalarida umumeʼtirof etilgan asosiy maqsadlardan biri sanaladi. Boʻljak mutaxassislarining kompetentligini oʻz ishlarida tahlil etgan R. Polning fikricha, tanqidiy-refleksiv fikrlashni ilmiy-tabiiy savodxonlik negizida

rivojlantirish talabani olam manzarasi haqidagi tasavvurlari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi va bu vazifa ijrosiga oliy ta’limning dastlabki davridayoq kirishilishi lozim [1].

Talabalarda tabiiy fanlarni o‘rganishda TRFning nisbatan past darajada bo‘lishi ularning keyingi tahsil davrida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xususan, past darajadagi TRFga ega bo‘lgan talaba:

-“o‘z intellektual qamrovi va cho‘ngligi, murakkabligi, maromlilikiga ko‘ra, insoniyat vakillarining jamoaviy ongu tafakkuri bilan yaratilgan go‘zal va hayratbaxsh” [5] olamning ilmiy manzarasini uning tarixiy retrospektivasida ochiq evolyutsion majmua o‘laroq qabul qilishga va anglashga qiynaladi;

-alohida tabiiy fanlarga xos ilmiy nazariyalarni konseptual darajada tizimlashtirish va induktiv umumlashtirishni amalga oshira olmaydi;

-insoniyatning ekologiya, genom tadqiqotlar, pandemiyalar va shu kabi hodisalar, ilmiy voqeeliklar bilan bog‘liq global muammolarini ongli ravishda his eta olmaydi;

-tabiiy fanlarning mazmun-mundariyasi bilan argumentlashtirilgan tuzilmalar ustida ishlash orqali fikrlash madaniyatini egallashga erisholmaydi;

-tizimlar nazariyasi, termodinamika, sinergetika, kibernetika kabi fanlarga xos ilmiy konsepsiyalarni falsafiy va metafizik darajada umumlashtirib, ularni antropologiya, geologiya va geografiyaga oid ma’lumotlar bilan muqoyasa qilishga qiynaladi.

**Xulosa.** Natijalar tahlili sifatida, IITFni o‘qitishda talabalarning tanqidiy-refleksiv fikrlashini rivojlantirishga asosiy urg‘u berish g‘oyasi tabiatshunoslik majmuasiga kiruvchi alohida fanlarni o‘qitish jarayonini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Bunday zaruratga sabab esa talabalar o‘rtasida maktabdagi tabiiy fanlarni o‘rganish asnosida orttirilgan tajriba negizida qaror topgan doimiy stereotipdir. Mazkur stereotipga ko‘ra, talabalar ilm-fanni qaysidir olim “bir o‘tirishdayoq” shakllantirgan o‘ziga xos “bilimlar ombori” sifatida qabul qiladilar va bu “ombor”dagi konsepsiyalar, nazariyalar olamning manzarasini “allaqachon” yaratib qo‘ygan, binobarin, bu manzarani o‘zgartirish talabalarning ishi emas. Talabalar OTM dargohiga qadam qo‘yishlari bilan "tayyor", "hech qanday e’tiroz uyg‘otmaydigan", mutloq mukammal bilimlarni (masalan, Quyosh sistemasining tuzilishi, atomning tarkibi, hujayralar faoliyati va hokazo) o‘zlashtirish kerak, tamom. Ilmiy-tabiatshunoslik haqida bunday tasavvur mavjud ekan, hech qanday tanqidiy-refleksiv fikrlashga o‘rin bo‘lmasligi muqarrar.

#### Adabiyotlar:

1. Исмадияров Я.У Олий педагогик таълим тизимида инновацион менежментни шакллантириш механизмларини такомиллаштириш. Автореф. дис. док. (DSc)пед. наук. -Тошкент, 2018.-13-14 б.

2. Лейтес Н.С. Возрастная одаренность и индивидуальные различия: Избранные труды. Издательство: МПСИ, 2008.-480 с.

3. Толипова Ж.О. Биология ўқитувчисининг илмий методик тайёргарлиги даражасини ошириш назарияси ва амалиёти. -Тошкент. Фан, 2005.-113 б.

4. Норбўтаев Х.Б. Бошланғич синф табиатшунослик дарсларини инновацион педагогик технологиялар асосида ташкил этиш тамойиллари.// “Таълимда инновациялар: Стратегия, назария ва амалиёт”. Халқаро илмий мақолалар тўплами 1-қисм. Самарқанд: СамДУ, 2018.-Б. 179-181.

5. Раҳимқулова М. Бошланғич синф ўқувчиларини дарсдан ташқари машғулотларда экологик кадриятлар асосида тарбиялаш): пед. ф.н. дисс. автореф. -Тошкент, 2005. -21 б.

6. Suyarov K. va boshqalar. Tabiiy fanlar 2-sinf umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. -T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. -B.120.

7. Смыковская Т.К. Технология проектирования методической системы учителя математики и информатики: монография/ Т.К.Смыковская. -Волгоград: Перемена, 2000. -132 с.

## BO‘LG‘USI HARBIY MUTAXASSISLARDA VATANGA FIDOIYLIK TUSHUNCHALARINI SINGDIRISHNING DOLZARB MASALALARI

*Nazarov Tohir Toshpo‘lotovich,*

*Buxoro davlat Pedagogika instituti Harbiy ta‘lim fakulteti dotsenti  
nazarovtohir910@gmail.com*

*Ushbu maqolada talabalarning harbiy-kasbiy bilimga ega bo‘lishi shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki harbiy bilim talabada mas‘uliyat, intizom hissini shakllantirish bilan birga jismonan va ruhan chiniqtiradi, sabrini, irodasini charxlaydi. Talabalarni har tomonlama barkamol, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Harbiy bilim talabalarda Vatan oldidagi mas‘uliyatni his qilish, Vatanga sadoqat tuyg‘usi shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Qolaversa, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, va bilim olishga ishtiyoq uyg‘otadi. Mana shu tuyg‘ularning asosi harbiy ta‘lim jarayonida shakllanadi. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma‘naviy-marifiy tadbirlarni o‘rni va ahamiyati izohlab o‘tilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalar tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Qurolli kuchlar, ma‘rifat, yuksak axloq, harbiy jismoniy ma‘naviy chiniqish, Vatan, bilim, ko‘nikma, qurol-yaroq, texnika, strategik, taktik, samarador, metodik, pedagogika, tinchlik, yurt, urush, iqtisodiy, g‘oyaviy, ekologik madaniyat, millatlararo etnik diniy ziddiyat.*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВКУШЕНИЯ КОНЦЕПЦИЙ ПРЕДАННОСТИ РОДИНЕ БУДУЩИМ ВОЕННЫМ СПЕЦИАЛИСТАМ

*В данной статье речь идёт о том, что студентам важно иметь военно-профессиональные знания при формировании их как личности, потому что военное образование, наряду с формированием у курсанта чувства ответственности и дисциплины, тренирует его физически и морально, обостряет его терпение и волю. Оно воспитывает студентов во всестороннем, патриотическом духе. Военное образование является основным фактором формирования у студентов чувства ответственности перед Родиной, верности Родине. Кроме того, оно пробуждает национальное самосознание, патриотизм и желание учиться. Основа этих чувств формируется во время военной подготовки. Разъяснены роль и значение духовно-просветительской деятельности в воспитании молодёжи в духе военного патриотизма. Также в статье анализируются актуальные задачи, которые необходимо реализовать в сфере воспитания молодёжи в духе военного патриотизма.*

**Ключевые слова:** *вооружённые силы, просвещение, высокая нравственность, военная, физическая, духовная, подготовка, Родина, знания, умения, вооружение, техника, стратегическая, тактическая, эффективная, методическая, педагогика, мир, страна, война, экономическая, идеологическая, экологическая культура, этническая, этнические, религиозные, конфликтные.*

## CURRENT ISSUES OF IMMIGRATION OF CONCEPTS OF DEVOTION TO THE FATHERLAND IN FUTURE MILITARY SPECIALISTS

*In this article, it is important for students to have military-professional knowledge in their formation as individuals. Because military education, along with forming a sense of responsibility and discipline in a student, trains him physically and mentally, sharpens his patience and will. It educates students in a comprehensive, patriotic spirit. Military education is the main factor in the formation of students' sense of responsibility to the Motherland, loyalty to the Motherland. In addition, it awakens national identity, patriotism, and a desire to learn. In addition, it awakens national identity, patriotism, and a desire to learn. The basis of these feelings is formed during military training. The role and importance of spiritual and educational activities in educating young people in the spirit of military patriotism was explained. Also, the article analyzes the current tasks that should be implemented in the field of educating young people in the spirit of military patriotism.*

**Keywords:** *Armed forces, enlightenment, high morality, military, physical, spiritual, training, Homeland, knowledge, skills, weapons, technique, strategic, tactical, efficient, methodical, pedagogy, peace, country, war, economic, ideological, ecological culture, ethnic, religious, conflict.*

**Kirish.** Qurolli Kuchlarning uzoq muddatga mo'ljallangan Dasturining bosh maqsadi – ixcham, o'ta tezkor va harakatchan, zamonaviy qurol-yaroq va texnika bilan ta'minlangan, strategik va taktik vazifalarni samarali hal eta oladigan, sarhadlarimiz daxlsizligi, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni buzishga qaratilgan har qanday yovuz harakat va xurujlarni bartaraf qilish va ularga munosib zarba berishga qodir bo'lgan kuchli armiyani yaratishga qaratilgan. Albatta, ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasasida harbiy ta'lim yo'nalishida bilim olayotgan talabalarda harbiy intizom, mas'uliyat, burch, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, harbiy ta'lim jarayonida talabalarda jismoniy va ma'naviy jihatdan chiniqish, Vatan ximoyasi uchun doimo tayyor turish kabi bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Ularda harbiy salohiyat, harbiy-siyosiy muammolar, jamoa xavfsizligi haqidagi tafakkur kamol topadi. Talabalarning harbiy bilimga ega bo'lishi shaxs sifatida shakllanishida juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, harbiy bilim talabada mas'uliyat, intizom hissini shakllantirish bilan birga jismonan va ruhan chiniqtiradi, irodasini charxlaydi. Talabalarni har tomonlama barkamol, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Harbiy bilim talabalarda Vatan oldidagi mas'uliyatni his qilish, Vatanga sadoqat tuyg'usi shakllanishida asosiy omil hisobladi. Qolaversa, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, va bilim olishga ishtiyoq uyg'otadi. Mana shu tuyg'ularning asosi harbiy ta'lim jarayonida shakllanadi.

Oliy o'quv yurtining harbiy ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan har bir talaba harbiy salohiyatga ega bo'lishdan tashqari ma'naviy jihatdan ham yetuk bo'lishi, mintaqadagi harbiy-siyosiy muammolarni tinch yo'l bilan yechish, jamoa xavfsizligini vujudga keltirish, terrorizmga qarshi birgalikda kurash kabi ishlarni bajarishda faol ishtirok etish mas'uliyati kamol topadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlardan kelib chiqib quyidagi vazifalavrga alohida e'tibor berilishi kerak:

- talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirish pedagogik muammo sifatida ilmiy nazariy asoslash, uning mohiyati, asosiy tushunchalarini ta'riflash;
- talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirishga doir ilmiy-pedagogik hamda amaliyotdagi holatni o'rganish; talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirish mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish;

- talabalarda harbiy bilim samaradorlik darajasini aniqlash;

- talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Insoniyatning ezgu orzu-niyatlaridan biri – bu yurtda tinchlikning barqaror bo'lishi hisoblanadi. Zero, yurtda tinchlik bo'lsagina, xalq mehnat qiladi, moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratadi, jamiyatda rivojlanish va taraqqiyot ta'minlanadi.

**Asosiy qism.** “Bugungi kunda O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi asosiy maqsadi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo'lib, bu g'oya millatimizning azaliy orzu-umidlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini ifodalaydi”. “Tinchlik” tushunchasi muayyan sharoit, vaziyat va holatni ifoda etish bilan birga turli xalqlar, davlatlar o'rtasidagi munosabat darajasini ham ko'rsatishga xizmat qiladi. Bunda davlatlararo munosabatlar ular o'rtasidagi o'zaro imzolangan shartnomaga muvofiq hech qanday zo'rlik vositalarisiz, ishonch asosida o'z zimmalariga olgan majburiyatlarning so'zsiz, qat'iy bajarilishi asosida yo'lga qo'yiladi. Tashqi siyosatda bunday yo'l tutilishi uyushgan harbiy, qurolli to'qnashuvlar ro'y berishining oldini olibgina qolmay, davlatlar o'rtasida jamiyat ravnaqini kafolatlovchi, foydali shartnomalarning imzolanishiga sharoit yaratib beradi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi milliy istiqloq g'oyasining eng asosiy tamoyillaridan biri sifatida yurt tinchligi e'tirof etilgan. “Zero, tinchlik va osoyishtalikni saqlash o'z-o'zidan sodir bo'ladigan hodisa emas... Ayniqsa, milliy mustaqillikka tajovuzning turli shakllari, murakkab “texnologiyasi” vujudga kelgan hozirgi davrda yurt tinchligini saqlab qolish uchun mustahkam qat'iyat, kuchli iroda va moddiy-moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, ularni yurt tingligini saqlash maqsadlari, vazifalari natijasida vujudga kelgan ayrim qiyinchiliklarga chidam va sabr-toqatli etib tayyorlash milliy istiqloq mafkurasining bosh yo'nalashlaridan biridir”. Yuqorida bildirilgan fikrlarga ko'ra aytish joizki, “yurt tinchligi” tushunchasi lug'aviy jihatdan “urush, o'zaro ziddiyatli, qurolli yoki qurolsiz to'qnashuvlardan holi, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, turli buzg'unchi axborot tahdidlaridan muhofazalangan o'lka (mamlakat, joy)” ma'nosini anglatadi. Millatlararo, etnik yoki diniy ziddiyatlar, nizolar mavjud bo'lgan davlatlarda tinchlikni barbod etuvchi urushlar yuzaga keladi. Urushlarning ro'y berishi jamiyat taraqqiyoti, unda yashovchi xalq, millat yoki elatlarning madaniy darajasi, ularga xos bo'lgan qadriyatlar mazmuni bilan xarakterlanadi. Tinchlikning barqaror bo'lishida ham ana shu xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday yurtda tinchlik o'z-o'zidan qaror topmaydi, balki unda yashovchi kishilarning sa'yi-harakatlari, hoxish-istaklari, davlat boshqaruvining oqilona olib borilishi, eng muhimi, o'zaro birlik, hamjihatlik evaziga o'rnatiladi. Darhaqiqat, “tinchlikni saqlash muammosini o'zo'zidan kishilarning xohish-istagi, orzu-umidlari bilan hal qilib bo'lmaydi”. Manbalarda yurtda tinchlikning barqaror bo'lishini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor

berish zarur ekanligini ko‘rsatiladi. Mustaqillik va tinchlikni asrash uchun mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turish, doimo izchil va qat‘iy harakatlarni olib borishga qaratilgan.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotini o‘rganish, shundan dalolat beradiki, yurtda tinchlikni qaror toptirish, asrash murakkab, o‘ta mas‘uliyatlilikni talab etuvchi jarayon sifatida quyidagilar mavjudligini taqozo etadi:

- jamiyat a‘zolari (mamlakat fuqarolari)ning ahilligi, hamjihatligi;

- ko‘p millatli davlatda millatlararo munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, muayyan millatga alohida imtiyozlarning berilmasligi, tub aholi sanalmaydigan millatlar vakillarining etnik kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaslik;

- qo‘shni davlatlar bilan tinchlikni ta‘minlash borasida o‘zaro kelishuvga egalik, do‘stlik munosabatlarini o‘rnatish;

- o‘zga millat, elat va xalqlarning tarixi, buguni, tili, madaniyati, milliy qadriyatlarini hamda diniy e‘tiqodini hurmat qilish, istiqboli, intellektual, iqtisodiy va ma‘naviy-ruhiy imkoniyatlariga ishonch bildirish, ishlab chiqish, ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida o‘zaro tenglik asosidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- harbiy tuzilmaga ega bo‘lish, Qurolli Kuchlar (armiya) tarkibining salohiyati, kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy harbiy texnika, qurol-yarog‘ bilan to‘la ta‘minlash;

- xalqaro, etnik munosabatlarni tashkil etish, shuningdek, ichki siyosatning to‘g‘ri olib borilishiga mas‘uliyatli yondashish;

- mintaqa hamda xalqaro maydonda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar mohiyatini to‘g‘ri anglash, tahlil qilish, oqibatlarini bashoratlash orqali kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olishga urinish;

- mamlakat ichkarisida jinoyatchilikka qarshi kurashish, milliy qadriyatlarga yot, buzg‘unchi g‘oyalarning tarqatilishiga yo‘l qo‘ymaslik, terrorizm, diniy ekstremizm g‘oyalarning yoyilishi, shuningdek, yuqumli xavfli kasalliklar tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik va boshqalar.

“O‘zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o‘z orzu-intilishlari, maqsad-mudaolari ro‘yobga chiqishining kafolati deb biladi. Shuning uchun doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lgan taqdirdagina o‘z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma‘naviy yuksaklikka ko‘tariladi”. Shu bois respublika mustaqilligining ilk kunlaridanoq o‘zbek xalqi yurt tinchligini muqaddas hodisa sifatida ardoqlab, bebaho boylik sifatida qadrlab kelmoqda.

Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etish chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarida yurt tinchligini g‘oyasini muvaffaqiyatni shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishda quyidagi tamoyillar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Quyida talabalarda yurt tinchligini g‘oyasini shakllantirishda ustuvor ahamiyat kasb etuvchi tamoyillarning mohiyati ochib beriladi.

1. Ta‘limning g‘oyaviyligi va aniq maqsadga yo‘naltirilganligi.

2. Ta‘lim-tarbiya tizimining birligi.

3. Ta‘limning izchilligi va uzluksizligi.

4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi.

5. Tarixiy vorisiylik.

6. Ta‘lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

7. Targ‘ibot ishlarining ko‘lami va mazmuni.

8. Ta‘lim muassasalari, davlat va ijtimoiy tashkilotlar hamkorligi.

Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalarida yurt tinchligi g‘oyasini shakllantirish oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Bu jarayon ta‘lim va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar yo‘nalishlarida kechib, bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Ya‘ni:

1-bosqich: talabalarda chaqiriqqacha harbiy ta‘lim asoslari bilan birga milliy istiqloq g‘oyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan “yurt tinchligi” g‘oyasining mohiyati borasidagi nazariy bilimlarni hosil qilish;

2-bosqich: talabalarda yurtda tinchlikni qaror toptirish, uning barqarorligini ta‘minlash, muhofaza qilishga o‘z hissasini qo‘shish ehtiyojini qaror toptirish, harbiy vatanparvarlik hissinu uyg‘otish;

3-bosqich: talabalarda yurt tinchligini ta‘minlash, muhofaza qilish jarayonida zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Talabalarida yurt tinchligi g‘oyasini shakllantirish jarayonida ularning jismoniy jihatdan komillikka erishishlariga ham alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu bois jismoniy tarbiya darslarida talabalarining jismoniy komillik darajalarini doimiy ravishda inobatga olib borish, ko‘zga tashlanadigan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etib borish talab qilinadi. Bunda tibbiyot xodimlarining yordamlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ijodiy yondashgan holda harbiy faoliyat



ko‘rinishlari, jumladan, milliy harbiy an‘analardan bo‘lgan – o‘yinlar elementlarini qo‘llash ham mazkur predmetni chaqiriqqacha harbiy ta‘lim asoslari fanlari bilan bog‘lash uchun sharoit yaratadi. Oliy ta‘lim muassasalarining talabalarida yurt tinchligi g‘oyasini shakllantirishda o‘quv yurtlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish ham e‘tibordan chetda qolmasligi zarur. Zero, ular o‘rtasidagi hamkorlik talabalarining yurt tinchligining mohiyati, uni qaror toptirish va muhofaza qilishga doir nazariy va amaliy bilimlarini boyitadi. Shu bilan birga ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Mustaqillik, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimini takomillashtirish, uni zamonaviy harbiy texnikalar bilan qurollantirish hamda harbiy kadrlarning yuqori jangovar tayyorgarlikka ega bo‘lishlarini ta‘minlash yo‘lida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. Milliy mustaqillikni mustahkamlash va Qurolli Kuchlar tizimi salohiyatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-g‘oyaviy ishlarning sifat va samaradorligi bugungi kun talabalariga to‘la javob beradi. Bugungi davrda talabalar orasida sog‘lom ma‘naviy muhitni yaratishda ta‘lim-tarbiya ishlariga alohida e‘tibor berish, harbiy tayyorgarlik jarayonini ilg‘or texnik va texnologik vositalar, yangicha usul-uslublar asosida tashkil etish, harbiy xizmatning intellektual mezonlari va yo‘nalishlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash usullari:**

*Tarixiy ma‘ruzalar va ekskursiyalar:* O‘z mamlakatining tarixi va uning qahramonlik o‘tmishi haqida bilish yoshlar o‘rtasida harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy joylarga tashrif buyurish, ekskursiyalar va ma‘ruzalarda qatnashish yoshlarga Vatanni himoya qilishning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

*Harbiy-vatanparvarlik tadbirlari:* Paradlar, mitinglar, harbiy tarixni yaxshiroq bilish uchun tanlovlar kabi vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish o‘z mamlakatiga tegishli bo‘lish va uning qurolli kuchlariga hurmat hissini kuchaytiradi.

*Harbiy-vatanparvarlik klublari va jamoat tashkilotlari:* Harbiy tarix, harbiy tayyorgarlik, armiya va flotni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘ngillilar faoliyatiga bag‘ishlangan klublar va jamoat tashkilotlarini tashkil etish yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik e‘tiqodlarini shakllantirishga yordam beradi.

*Harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashda harakatlarning samaradorligi:* Amaldagi usullarning samaradorligi ko‘p jihatdan har bir mamlakatning konteksti va madaniy xususiyatlariga bog‘liq. Biroq, tarix shuni ko‘rsatadiki, harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashga qaratilgan to‘g‘ri tashkil etilgan tadbirlar yoshlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi va o‘z ona yurtini himoya qilishga tayyorligini shakllantirishi mumkin.

*Harbiy-vatanparvarlik lagerlari va treninglari:* harbiy tayyorgarlik elementlari bilan lagerlar va treninglar tashkil etish yoshlarga harbiy ishlarning asoslarini o‘rganishga, intizom va matonatni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday tadbirlar, shuningdek, jamoaviy ruhni shakllantirishga va jamoaviy ongini mustahkamlashga yordam beradi.

*Harbiy-vatanparvarlik nuqtayi nazaridan sport musobaqalari:* harbiy-vatanparvarlik ta‘limining elementlarini o‘z ichiga olgan sport tadbirlarini o‘tkazish, masalan, marsh otish, pnevmatik quroldan otish yoki taktik o‘yinlar yoshlarning harbiy mavzularga qiziqishini uyg‘otadi va jismoniy va ma‘naviy chidamlilikni shakllantirishga yordam beradi.

*Ommaviy axborot vositalarida harbiy-vatanparvarlik qadriyatlarini targ‘ib qilish:* vatanparvarlik g‘oyalari va qadriyatlarini tarqatish uchun televidenie, radio, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish yoshlarning keng auditoriyasiga erishishga imkon beradi. Harbiy qahramonlik va vatanparvarlikni tarannum etuvchi filmlar, seriallar, kitoblar va video o‘yinlar yaratish yoshlar orasida armiya va mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi.

*Qo‘shimcha usullarning samaradorligini baholash:* Harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashning qo‘shimcha usullarini qo‘llash mavjud yondashuvlarning ta‘sirini to‘ldiradi va chuqurlashtiradi. Ular birgalikda yoshlarga kuchli vatanparvarlik e‘tiqodlarini shakllantirishga va Vatanni himoya qilishga tayyor bo‘lishga yordam beradigan kuchli ta‘sir mexanizmini yaratadilar. Biroq, har bir usulning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularni ma‘lum bir auditoriyaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirish muhimdir.

**Muhokamar va natijalar.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma‘naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi” [2]. Yurtimizda yoshlarni vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya - bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas‘ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida

birlashtirish talab etilmoqda [3]. Yoshlar tarbiyasini takomillashtirish vazifalari, usullari, vositalari va milliy g'oyaning yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmuni, metodi hamda vositalari tahlil etilgan.

Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi: Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat; o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlar, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik; Vatan va millat tarixidan g'ururlanish; Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish; Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish; Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish; Vatan va millat obro'si, sha'ni, or-nomusini himoya qilish; Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi. Vatanparvar shaxs o'z vatanini uning boyliklari yoki vatanining qulay geografik hududda joylashganligi uchun emas, balki, o'zi Vatanning bir bo'laki ekanligi, o'zi mansub bo'lgan millatning shu Vatanda, shu makonda yashashi uchun qadrlay olishi, unga nisbatan chuqur hurmat ko'rsatishi zarur [1]. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash o'zining tarixiy ildizlariga ega. Shiroq To'maris, Spitamen, Dalvarzintepa afsonalari Go'ro'g'li Alpomish dostonlarida, Vatan uchun jon fido qilishga tayyor bo'lish, jasorat, matonat, vatanga sadoqat tuyg'ulari ulug'langan. Sharq mutaffakkirlari (Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy), buyuk sarkardalar (Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur) ijodlarida ham vatanparvarlik go'yasi alohida tarannum etilgan. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ham ahamiyati beqiyosdir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllardan ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o'yinlar, mashhur kishilar, faxriylar va avlodlar uchrashuvi tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma'naviy-ma'rifiy ishlarning natijadorligini ta'minlaydi, jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni shakllantirishning muhim ahamiyatga ega bosqichlari: ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar; boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilmfan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lgan shaxslar bilan uchrashuvlar; ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari; to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish; jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish; teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish; urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar qatnashchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish; harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyushtirish alohida o'rin tutadi.[3]

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, vatanparvarlik – axloqiy-siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'u bo'lib, uning mazmuni vatanga muhabbat va uning uchun o'z manfaatlarini qurbon qilishga tayyorlikdir. Yoshlar o'rtasida harbiy vatanparvarlikni samarali tarbiyalash uchun turli usullar va harakatlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv zarur. Tarixiy ma'ruzalar, harbiy – vatanparvarlik tadbirlari, sport musobaqalari va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishbularning barchasi yoshlarning o'z mamlakatiga mansubligini va uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular birgalikda zamonaviy jamiyatda harbiy vatanparvarlikning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratadilar.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi // www.prezident.uz 13.01.2017.
3. Sotibaldiyev A.A., Ma'murov U.I. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi. O'quv qo'llanma. – T., 2007.
4. Milliy istiqlol g'oyasi (Bakalavr bosqichi uchun darslik). – T.: Akademiya, 2005.
5. Pedagogika nazariyasi. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. T.: Fan va texnologiyalar, 2008-yil.

## XV ASR ADABIY-MA'RIFIY MUHITIDA MUSIQAGA OID QARASHLAR TADRIJI

*Nayimova Munisa Abduraxim qizi,*  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*uzakovamunisa7@gmail.com*

*Sharq mutafakkirlari ijodida musiqa san'ati va uning bemisl qudrati haqidagi qarashlar nafaqat maxsus asarlarda, balki badiiy asarlar qatlarida ham ifoda etilgan. Ularda Sharq musiqa san'ati namoyandalari faoliyati, ularning cholg'u sozlariga munosabati, ijro etish mahorati kabi masalalar chuqur va atroflicha ochib berilgan. Shu jihatdan maqolada XV asr adabiy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutgan Abdurahmon Jomiyning “Musiqaga haqida risola” asari tahlil etilgan hamda Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi musiqaga oid qarashlar o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tovushlar, inson tovushlari, musiqa, ohang nisbati, pauzalar, intervallar, musiqachi, qo'shiq, ton, musiqa namoyandalari.*

## ЭВОЛЮЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА МУЗЫКУ В ЛИТЕРАТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ СРЕДЕ XV ВЕКА

*В творчестве восточных мыслителей взгляды на музыкальное искусство и его беспримерную силу выражаются не только в особых произведениях, но и в пластах художественных произведений. В них глубоко и всесторонне раскрываются такие вопросы, как деятельность представителей восточного музыкального искусства, их отношение к словам инструментов, исполнительское мастерство. В связи с этим в статье анализируется «Трактат о музыке» (“Musiqaga haqida risola”) Abdurrahmana Jami, сыгравший важную роль в литературно-просветительской жизни XV века, и изучаются взгляды Алишера Навои на музыку в «Majolis un-nafois».*

**Ключевые слова:** *звуки, человеческие звуки, музыка, соотношение тонов, паузы, интервалы, музыкант, песня, тембр, музыкальные представители.*

## EVOLUTION OF VIEWS ON MUSIC IN THE LITERARY AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT OF THE XV CENTURY

*In the works of Oriental outstandings, the views on musical art and its unparalleled power are expressed not only in special works, but also in layers of artistic works. They deeply and comprehensively reveal such issues as the activities of representatives of oriental musical art, their attitude toward the words of instruments, and performing skills. In this regard, the article analyzes the “The pamphlet on Music” (“Musiqaga haqida risola”) by Abdurrahman Jami, who played an important role in the literary and educational life of the XV century, and Alisher Navoi's views on music are studied in “Majolis un-nafois”.*

**Keywords:** *sounds, human sounds, music, tone ratio, pauses, intervals, musician, song, timbre, musical representatives.*

**Kirish.** XV asr adabiy-ma'rifiy muhitda boshqa san'atlar qatorida musiqa ham rivojlandi. Tabiiyki, Sharqda Abu Nasr Forobiydan boshlangan musiqiy ilmlar ham mukammallasha bordi. Binobarin, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning musiqaga oid qarashlari maxsus asarlar va tazkiralarda qatida o'z ifodasini topdi. Abdurrahmon Jomiyning “Musiqaga haqida risola” (“Трактат о музыке”) asari bu yo'nalishda yaratilgan musiqaga oid maxsus asarlardan hisoblanadi. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida esa shu davrda yashagan musiqa namoyandalari haqidagi fikrlar aks etgan.

**Asosiy qism.** Abdurahmon Jomiyning “Musiqaga haqida risola”si XV asr adabiy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutadi. Mutafakkir olim bunda tovushlar va inson tovushlari, ularning past-balandligi, ohangdorligi, “musiqaga” termini, uning mohiyati, ohang nisbati, pauzalar, intervallar haqida fikr yuritadi. Jomiy musiqa bilan bog'liq bu terminlarga ta'rif beradi, ularga xos xususiyatlarni ochib beradi. Olimning bergan ta'riflari, tahlillari uning musiqa ilmini chuqur tushunishi va ohangni his qilishini ko'rsatib turadi.

**Muhokama va natijalar.** Abdurahmon Jomiy “Musiqaga haqida risola” asarida dastlab u tovushlar haqida gapiradi. Uning fikricha, tovushlar tabiatdagi hamma jonzotlarga xos. Chunki Yaratgan har bir jonzotga o'ziga xos ovoz bergan. Bu tovushlar inson uchun muhim ahamiyatga molik, chunki inson tovushlarni alohida idrok etish xususiyatiga ega. Insonda tovushlar muayyan ma'naviy va moddiy vazifalarni bajarish maqsadida ishlatiladi. Hayvonlar esa moddiy ehtiyojni qondirish maqsadida turli

tovushlarni chiqaradilar[1,13]. Mutafakkirning fikricha, tovush, ovoz Yaratganning mo'jizasi, koinotdagi barcha jonzotlarga berilgan imkoniyat. Hayvonot olami tomonidan chiqariladigan tovushlar, asosan, moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladi. Albatta, bulbul, to'ti va boshqa qushlar bundan mustasno. Inson tovushlari esa idrok etilgan bo'ladi. Chunki inson jonzotlar ichida “sharifi” bo'lib, ongli mavjudot sifatida ulardan ajralib turadi. Shu jihatdan unga tegishli tovushlar ma'naviy, moddiy ehtiyojlarga xizmat qiladi. Olim fikrlarini davom ettirib quyidagilarni qayd etadi: idrok etilgan tovushlar ohangni yaratadi va bu zavq hosil qiladi. Bu ohang ruhga yetib boradi va u zavqqa aylanadi [1,13]. Ko'rinadiki, Jomiy tovushning ohangga, musiqaga aylanish jarayonini asoslab bergan. Olim ritm masalasiga ham e'tibor qaratadi. Uning fikricha, insondagi mahzunlik yoki quvonch, umidsizlik yoki umid ma'lum bir tarzda ovozga ta'sir etadi.

Kitobning uchinchi bo'limi “Musiqqa ta'rifi” deb nomlanadi. Jomiyning fikricha, qadimgi olimlar, tovushlar ketma-ketligining ruhga ta'siri natijasi kishida zavq uyg'otuvchi ma'lum bir fanni yaratdi. “Musiqqa” so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, “ohanglar” degan ma'noni anglatadi. Demak, musiqqa atama sifatida ohanglarni o'rganuvchi fanni bildiradi. Shu bilan birga tovushlar vositasida hosil qilinadigan ohangda vaqt, ritm muhim rol o'ynaydi. Bunda dissonans va konsonans, ya'ni unli va undoshlar vositasida kuylar yaratiladi.

Kitobning keyingi bo'limida “Tarkib (kompozitsiya) ta'limoti” haqida so'z boradi. Bunda, birinchi navbatda, ohangni yuzaga keltiruvchi ritmik vositalar haqida fikr yuritilgan. Naqarot, qarsak, tovushning baland-pastligi kabilar buni tasdiqlab turadi. Shu bilan birga tovushning balandligi [hiddat, tizi] yoki pastligi [sakl, garani], dir [yuqori tovush yoki maydon baland tovushlar] va bayi [past tovush yoki past tovushlar maydoni] singari musiqiy terminlar ishlatilgan [1, 17]. Jomiyning fikricha, interval, intervallar ketma-ketligi natijasida tizim hosil bo'ladi. Ularning tashkil etuvchi ohanglar ma'lum davomiylikka ega. Ular balandligi yoki pastligi darajasida bir-biridan farq qiluvchi bir nechta tovushlar ketma-ketligini ifodalaydi. Ohang yoqimli bo'lishi va tinglovchiga ta'sir qilishi kerak. Shu o'rinda olim “ton” degan termini qo'llaydi. Bu termin bugungi kun nuqtayi nazaridan ham ohanga mos keladi. Tabiatdagi hamma tovushlarni ham ohang deb bo'lmaydi. Inson ruhiyatiga ta'sir etadigan, maxsus yaratiladigan tovush ohang bo'la oladi.

Kitobning beshinchi bo'limi “Ohang nisbati” deb nomlangan. Ohang orasidagi pauzalar haqida gapiriladi. Bunday to'xtalishlar musiqqa ilmida interval deyiladi. Intervallar ketma-ketligi tizim (jam')ni hosil qiladi. Binobarin, ular davomiylilik kasb etadi. Natijada ritmning tartibi (jamlanmasi) vujudga keladi. Shular birlashib kuy (lahn)ni, musiqani hosil qiladi. Ko'rinadiki, Jomiy musiqqa, kuy hosil bo'lish jarayonini tizimli tushuntiradi. Olim o'sha davrda kuyga sinonim sifatida “lahn” atamasini qo'llaydi. Shu bilan birga ohangni hosil bo'lishida intervallar, ritmning ahamiyati yoritib beriladi. Olimning yana bir fikri e'tiborli: u ohang yaratuvchi inson organlarini ham o'rganib chiqadi. Ularni ikkiga bo'ladi: 1. Tabiiy. Bunga tomoqni kiritadi. 2. Sun'iy. Bunda ohang biror cholg'u asbobi yordamida yaratiladi. Shu bilan birga olim “pufqlama cholg'ular” terminini ham qo'llaydi. Yana tor cholg'u asbobi haqida ham gapiradi: torlar orqali tovushlar hosilinadi, deydi. Uning iplar, va quloqdan tuzilishini aytadi. Ko'rinadiki, mutafakkir Jomiy o'z davrida kuyning yaralishidagi ikkita jihatga diqqat qaratadi. Ma'lumki, kuylar tomoqda yaratiladi. Buni tabiiy deb hisoblaydi. Musiqqa asboblari yordamida yuzaga keladigan kuylarni sun'iy usul deya baholaydi. Darhaqiqat, muayyan cholg'u asbobi yordamida musiqqa yaratiladi. Shu bilan birga olim musiqqa asboblari, ularning tuzilishi haqida atroflicha fikr yuritgan. xususan, puflama cholg'ular va tor haqidagi kuzatishlar e'tiborga loyiq. Tor yordamida yaratiladigan kuy undagi iplar harakati tufayli yuzaga keladi. Shu jihatdan musiqaning baland-pastligi ham iplarga bog'liq. Qolaversa, Jomiy chorak o'lchovli, o'rta torli ohanglar haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, torning ikkinchi yarmining to'rtinchi qismining ohangi [berish to'rtinchi interval] to'rtinchi qism ohangiga teng butun tor va torning ikkinchi yarmining uchinchi qismining ohangi [beshinchi oraligni beruvchi] uchinchi qism ohangiga ekvivalentdir[1, 20]. Demak, olim torning iplari joylashuvi, ularning musiqani yaratishdagi mavqeini ham mahorat bilan tahlil etib beradi.

Jomiy xalq orasida mashhur qator kuylar haqida fikr yuritadi. Uning ta'kidlashicha, ijro etayotgan musiqachilar qo'shiq kuylashda baland pardadan boshlaydilar. Bu kuylar quyidagilar: 1. Nauruz asl [asosiy navruz] ikki xil: kichik va yirik. 2. Salma k. Unda quyidagi ohanglardan o'n bittasi bor, avval ko'tarilib, keyin pastga tushadi. 3. Guvash. To'qqiz ohang, sakkizta kurtak, 4. Shahnoz. Olti ohang[uning ichida], beshta kurtak bor. 5. Dugah tarkibida bu'd bo'lgan ikki ohang mavjud. 6. Se r ah. Uch ohangdan tashkil topgan. 7. Chorgoh. To'rt ohang va uchta kurtakdan iborat. 8. Panjgoh. Ikkita turi bor. Birinchisi – panjga hi asl [asosiy!], besh ton va to'rt tonga ega. 9. Ashira. Ba'zilar Ashirada o'nta ohang borligini aytishadi. 10. Nauruzi arab. [Unda] oltita ohang va beshta kurtak bor. 11. Navro'zi. Olti ohangdan [tan iborat]. 12. Naurozi b a i t i. Besh ohangdan tuzilgan. Ko'rinadiki, Abdurahmon Jomiy nozikta'b musiqashunos sifatida xalqimiz orasida mashhur mumtoz kuylarning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlarini nihoyatda aniqlik va san'atkorlik bilan tahlil etib bergan. Bunda “ton” termini ohangni ifodalab keladi. Shu jihatdan yuqoridagi nomlari tilga olingan bir necha musiqalar hozirga qadar san'atkor ijrochilar tomonidan ijro etilib kelinadi.

O‘tmish adabiyotiga nazar solinsa, har bir ijodkor she‘r yozishdan tashqari muayyan musiqa sozini chala olgan, kuyni tushungan. Shu xususiyat ular yozgan asarlarda ham o‘z aksini topgan. Binobarin, hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” tazkirasida XV asrda yashagan musiqa namoyandalari ijodi haqida mufassal ma‘lumotlarni beradi. Bu esa ulug‘ mutafakkirning musiqani teran anglaganligini ko‘rsatib turadi.

Sharq ilmida musiqa san‘atiga munosabat nihoyatda yuqori bo‘lgan. Ko‘plab Sharq ijodkorlari musiqaga nafis san‘at sifatida yondashganlar. Mutafakkir Navoiy serqirra ijodi va boy adabiy-ilmiy merosi bilan dunyo tamaddunida katta o‘rinni egallaydi. Uning bebaho “Xamsa” asari, “Xazoyin ul-maoniy” devoni, “Lison ut-tayr” falsafiy dostoni va boshqa asarlari qatorida ilmiy xarakterdagi “Majolis un-nafois” tazkisasi alohida o‘rin tutadi. Bu asar adabiyotshunoslik fanining ulkan manbalaridan biri. Ayni zamonda ulug‘ Navoiyning Movorunnahr va Xuroson zaminida faoliyat ko‘rsatgan ijod ahli haqidagi bebaho kitobidir. Alloma ijod ahli namoyandalari haqida so‘zlar ekan, ular orasida musiqiy iste‘dodi bo‘lgan ko‘plab iqtidor egalariga xolis baho beradi. Aytish mumkinki, ushbu kitobda Navoiyning musiqaga munosabati, ulkan muhabbati aks etib turadi.

Asar 8 majlisdan iborat. Uning birinchi majlisida ikki nafar musiqa namoyandasi haqida fikr yuritilgan. Birinchisi: “Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy [quddisa sirruhu] kibori avliyodindur. Advor va musiqiy ilmida dag‘i mahorati bor erdikim, risolasidan ma‘lum bo‘lur» [2,7]. Navoiyning e‘tiroficha Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy musiqa nazariyasi, sharq notasi, musiqa ilmidan yaxshi xabardor bo‘lgan, hatto risola ham bitgan. Ikkinchisi: “Mavlono Sohib Balxiy – bovujudi she‘r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi. O‘z g‘azallarini o‘z amallariga bog‘labdurkim, aning fazoyilig‘a dalolat qilg‘ay” [2,15]. Mavlono Sohib Balxiy mahoratli shoir bo‘lishi bilan birga musiqa ilmini chuqur egallagan, hatto o‘z g‘azallarini kuyga solgan.

Kitobning ikkinchi majlisida uch nafar ijodkorning musiqa bilan shug‘ullanganligi e‘tirof etiladi: “Xoja Yusuf Burhon – Hazrati shayx ul-islomiy Ahmadi Jomiy [quddisa sirruhu]ning yaqinroq avlodidindur. Faqir va fano tariyqida suluk qilur erdi. Va jamei ahli turuqning sohib tariyqi erdi va musiqiy ilmin ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko‘proq o‘z she‘rig‘a musiqiy bog‘lar erdi. «Isfahon» amalini, bu baytig‘a bog‘labturkim:

Rasid mavsumi shodiyu ayshu tarab,

Agar gado ba murodi dile rasad chi ajab»[2,46].

Shoirning ta‘kidlashicha, Xoja Yusuf Burhon shoir bo‘lishi barobarida musiqani yaxshi egallagan. Qolaversa, o‘z she‘rlarini kuyga solgan. “Isfahon” kuyi shoir baytiga bog‘langan. Navoiyga ham u bu borada ustozlik qilgan. Keyingi musiqa namoyandasi: “Mavlono Riyoziy – samarqandlig‘dur. Ilmi musiqiy va advor va nujum va istixroji ramal va g‘ayri zolika hech nimarsadin benasib emas erdi” [2,54]. Mavlono Riyoziy ham bir qator fanlar qatori musiqadan ham xabardor bo‘lgan. Ma‘lumki, Navoiyning tog‘alari ziyoli, ijodkor insonlar bo‘lishgan. Ulardan biri Muhammad Ali bo‘lib, G‘aribiy taxallusi bilan ijod qilgan. Navoiyning yozishicha: “Ul ham faqirg‘a tag‘oyi bo‘lur erdi. Ko‘proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi”[2,62]. E‘tibor berilsa, Muhammad Ali G‘aribiy musiqani yaxshi egallagan, bir necha sozlarni chala olgan.

Navoiy asarning uchinchi majlisida Mavlono Solimiy haqida shunday yozadi: “Iroq mulkinging odamzodalaridindur. Yana sozlardin ud va tanbur ham o‘rgandi va musiqiyda ham tasniflar bog‘ladi [2,76]. Demak, Mavlono Solimiy ud va tanbur singari cholg‘u asboblarini mahorat bilan chalgan ham o‘zi yangi kuylar kashf etgan.

Kitobning to‘rtinchi majlisida bir qator ijodkorlar haqida kuzatishlar mavjud bo‘lib, shulardan to‘rt nafari musiqa bilan ham shug‘ullanishgan. Jumladan: “Pahlavon Muhammad Go‘shdigirkim, ...musiqiy va advor ilmida davrining benaziridur [2,108]. E‘tibor berilsa, Navoiy Pahlavon Muhammad Go‘shdigirning musiqa nazariyasi, advor, ya‘ni sharq musiqasining eski nota usulini yaxshi bilgan. Hofiz Muhammad Sultonshoh esa xushxon hofiz bo‘lgan [2,118]. Xoja Kamoliddin Husayn, Xoja Abdulloh Sadr kabi shoirlar ham musiqa ilmini yaxshi egallab, bu sohada shuhrat qozonishgan [2,132].

“Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisida Mir Habibulloh degan ijodkorning ud chalishga ustaligi ta‘kidlangan [2,140].

Ko‘rinadiki, mutafakkir Alisher Navoiy o‘z davrining juda ko‘p fan sohalaridan xabardor yetuk bilimdoni sifatida ijod ahliga o‘z munosabatini bildirgan. Yuqorida tilga olganimiz o‘ndan ziyod shoirlarning musiqa ilmi, nazariyasi, Sharq musiqasi notalaridan yaxshi bilganlari, musiqa asboblarini mahorat bilan chalganliklari, o‘z she‘rlariga kuy bastalaganlari bilan bog‘liq qimmatli ma‘lumotlar XV asrda musiqa fanining rivojlanganligini ko‘rsatadi. Qolaversa, o‘sha davr ijodkorlariga xos muhim fazilat shunda ediki, ular ijodi musiqa bilan yanada mukammallik kasb etgan.

Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridan tashqari badiiy asarlari sahifalarida ham musiqa, musiqa asboblari o‘z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkir “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida, “Saddi Iskandariy” dostonida bir qator musiqiy atamalar: ayolg‘u, surud, bastakor, pardasoz, navosoz, nag‘masoz, nag‘mapardoz, ohangsoz, mug‘anniy, mutrib, ohangnavoz, nag‘maog‘oz, nag‘makash, ahli soz, ahli nag‘ma singari terminlarni qo‘llaganki, bu ham ulug‘ shoirning musiqa nazariyasi va amaliyotidan xabardor bo‘lganligini tasdiqlab turadi.

Mug‘anniy urub changga zabonda jang,

Navo chekkay “Hay-hay o‘lan, jon o‘lan”, – deb yozadi shoir. Bunda mug‘anniy, chang, navo atamaları qo‘llangan. “Hay-hay o‘lan, jon o‘lan” esa xalq qo‘shig‘ining dastlabki misrasi. Ya‘ni shoir mug‘anniy – ijrochining changda xalq qo‘shig‘ini kuylab berganligini e‘tirof etadi.

**Xulosa.** Yuqoridagi kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, XV asr musiqa ilm taraqqiyoti ulug‘ mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy nomlari bilan chambarchas bog‘langan. Jomiyning “Musiqa haqida risola” asarida Sharq milliy musiqasi tarixiga oid qimmatli fikrlar bayon etilgan. Alisher Navoiyning musiqa o‘id qarashlari so‘z va ohang san‘atining inson ruhiyati bilan bog‘liq o‘zaro uyg‘un hodisalar ekanligini yana bir karra tasdiqlab turadi. Bugungi kunda bu fikrlar umrboqiylik kasb etib, zamonaviy musiqa ilmining takomiliga xizmat qilib kelmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. Джами А. Трактат о музыке. –Ташкент: изд. Академии наук Узбекской ССР, 1964. – 132 с.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 13- том. Маҷолис ун-нафоис. –Тошкент: Фан, 1997. –300 б.
3. Джураев А.А. «Музыкальный трактат» Абдурахмана Джами: возможности музыкального инструмента уд. [muzykalnyy\\_traktat\\_abdurahmana\\_dzhami\\_vozmozhnosti\\_muzykalnogo\\_instrumenta.pdf](#).
4. Каримова З.Б. Навои в музыке. –Т.: Изд. Лит. и искусства им. Г.Гуляма, 1998. – 143 с.

## O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AKSIOLOGIK AHAMIYATI

*Suvonova Sevara Asliddin qizi,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*“Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi*

*sevarasuvonova96@gmail.com*

*Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasining o‘ziga xosligi, uning aksiologik qadriyatlar tizimidagi o‘rni haqida yoritib o‘tadi. Xususan, ushbu qadriyatni yosh avlod ongiga ya‘ni, o‘smirlik davri egalariga singdirish yo‘llarini turli xildagi mashg‘ulotlar, tarqatma materiallar hamda tajriba-sinov metodlarini ko‘rinishida aks ettiradi.*

*Inson hayotning rang barangligi, odamlar, guruhlarning turlicha ekanligi va ularning hammasi hurmat qilinishga loyiqligini idrok etishi, uni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishi yuksak madaniyat va ma‘naviyatining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu kabi yuksak madaniyatning ko‘rinishi hisoblangan tolerantlikning sotsiologik o‘rni va muhimlik darajasini singdirish, har bir yosh avlodning oilaviy muhitiga, ijtimoiy jamiyatdagi roli bilan bog‘liqdir.*

***Kalit so‘zlari:** filantropiya, qadriyat, “Taraqqiyot strategiyasi”, Konstitutsiya, oilaviy qadriyat, shaxs, ijtimoiy muhit.*

## АКСИОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВ

*Данная статья проливает свет на своеобразие понятия толерантности, его место в системе аксиологических ценностей. В частности, в ней отражены способы привития этой ценности в сознании молодого поколения, т. е. учащихся подросткового возраста, в форме различных занятий, раздаточных материалов, экспериментальных методов.*

*Показателем высокой культуры и духовности является то, что человек воспринимает многообразие жизни, что люди и группы разные и что все они заслуживают уважения, и принимает это таким, какое оно есть. Привитие социологической роли и значения толерантности, которая считается проявлением столь высокой культуры, связано с семейным окружением каждого молодого поколения и его ролью в социальном обществе.*

***Ключевые слова:** благотворительность, ценности, «Стратегия развития», Конституция, семейные ценности, личность, социальная среда.*

## THE AXIOLOGICAL SIGNIFICANCE OF FORMING TOLERANCE IN ADOLESCENT STUDENTS

*This article sheds light on the uniqueness of the concept of tolerance, its place in the system of axiological values. In particular, it reflects the ways of instilling this value in the minds of the young generation, i.e., the owners of adolescence, in the form of various activities, handouts, and experimental methods.*

*It is an indicator of high culture and spirituality that a person perceives the diversity of life, that people and groups are different and that they all deserve respect, and accepts it as it is. Inculcating the sociological role and importance of tolerance, which is considered a manifestation of such a high culture, is related to the family environment of each young generation and its role in the social society.*

***Key words:** philanthropy, value, "Strategy of Development", Constitution, family value, person, social environment*

**Kirish.** Har bir shaxs dastlab oila muhitida ilk tarbiya va ta‘lim jarayonini boshidan o‘tkazadi. Shaxs oilada shakllanadi. Oila an‘analari va qadriyatlari shaxsning ijtimoiy dunyoqarashining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, oilaning ijtimoiy funkcionalligiga bo‘lgan zamonaviy talab ortib boradi. Bugungi kunda oila - ijtimoiy faol shaxs shakllanishi uchun mutanosib pedagogik poligon vazifasini o‘tamoqda. Tolerantlik tafakkuri ham ilk bor oilada shakllantiriladi, ona suti bilan go‘dak tafakkuriga singdiriladi. Boshqacha qilib aytganda, insonning qadriyatlar darajasi uning oilaviy tarbiyadagi o‘rni bilan belgilanadi. Yoshlarda xususan, o‘smir yoshdagi o‘quvchilar ijtimoiylashuv jarayoniga kirishar

ekan, etnik qarashlari, eʼtiqodi asosida insonlarga munosabatda boʻladi. Shu oʻrinda insoniylik xislatini anglashda tolerantlik, insonlarga bagʻrikenglik tamoyillari asosida yoʻnaltirishi ham muhimdir. Chunki ijtimoiylashish jarayoni nafaqat yaqin tengdoshlar bilan, balki millat, irqi va madaniy koʻrinishlar bilan farq qiluvchi insonlarga ham yoʻnaltiriladi va ushbu tushunchaning rivoji qadimgi davrlardan buyon ishlatilib, xususan, insonlarga ijtimoiy koʻmak koʻrsatish, samimiylik, bagʻrikenglik fazilatlarini bilan yoʻgʻrilgan edi. Qadimgi Gretsiyada ijtimoiy ish «filantropiya» sifatida maʼlum boʻlgan, Rimda esa «xalq anʼanasi» sifatida, qadimgi inklar yordam berish jarayonini «minka» deb. slavyan qabilalari «slepnya» deb taʼriflaganlar.[1] Bunda qabilalar oʻrtasidagi iliqlik, ijtimoiy jarayonlar tizimida qoʻllanilib, unda ijtimoiy qatlam egalariga turli koʻrinishdagi yordam berish shakli sanalgan. Ushbu tushunchaning paydo boʻlishi har bir millat va elatda turlicha yondashuvlar asosida keyingi avlodga uzatib kelingan. Xususan, oʻzbek xalqi oʻzining qadimiy va boy madaniyati, oʻziga xos sivilizatsiyasi va tarixiy merosi tarkibida har vaqt tolerantlik asoslarini targʻib etib kelgan, shuningdek oʻz yashash tarzida, milliy qadriyatlarini tizimida tolerantlik va bagʻrikenglik tamoyillariga suyangan holda farzandlarni tarbiyalagan. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A.Karimov qayd etganlaridek, «Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo gʻoyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlarini tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz boʻlib keldi. Etnik sabr-toqat, bagʻrikenglik hayot boʻronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy meʼyorlarga aylandi. Ayni shu zaminda koʻp asrlar mobaynida jahon madaniyatlarini dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda koʻchmanchi xalqlar oʻtroq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yahudiylar bilan koʻp asrlar birga yashab kelganlar». Shunga binoan «Movarounnahrning musulmon madaniyati etnik sabr-toqat va bagʻrikenglik ruhini oʻzida aks ettirdi. Uning .... ideali – fozil kishilar shahri nafaqat diniy asosda, balki madaniy va axloqiy negizida ham uyushgan odamlarning hamjamiyatidan iborat boʻlganligi tasodifiy xol emas».[2]

**Asosiy qism.** Tolerantlik gʻoyalari oʻzbek xalqining azaliy urf va odatlarida, kundalik turmush tarzida va axloq-odobida juda keng oʻrin olgan. Tolerantlik tushunchalari va uning unsurlari avloddan avlodga axloq va odob meʼyorlari sifatida meros qoldirilib, maxsus ravishda tarbiyalangan. Tolerant tafakkurga ega boʻlgan odam shaxsiy kamolotining yuqori mavqeiga erishgan inson sifatida qadrlangan. Qoʻli ochiqlik, samimiylik, boshqalarning koʻnglini olishga sayʼi-harakat qilish, mehmonnavozlik, bagʻrikenglik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, sabr va qanoatli boʻlish, oʻzgani anglash, dardlashish, dildan suhbat qurish, shu bilan birga boshqa madaniyatlarni hurmatlash, ularning merosini avaylash, birgalikda tinchlik va osudalikda yashash koʻnikmalarini bilish va ularga eʼtibor bilan qarash, tinch yashash tarzini qadrlash har vaqt xalqimizning azaliy qadriyatlaridan boʻlib kelgan. Shuningdek, oʻzbek xalqining anʼanaviy qadriyatlarini tizimida xalqlararo va dinlararo nizo va adovatni qoralovchi, turli dinlar oʻrtasidagi munosabatlarda oʻzaro hurmat-ehtirom va ishonchni, xalqlar oʻrtasida hamkorlik va hamjihatlikni targʻib qiluvchi, hamma insonlarga dini va millatidan qatʼiy nazar insoniy mehr-muhabbat bilan yoʻgʻrilgan insonparvarlik gʻoyalari har vaqt targʻib etilgan.

Tolerantlikning meʼyoriy hujjatlarda ham qonuniy tasdigʻi boʻlib xususan, mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022 yil dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Parlamentiga Murojaatnomasida kirib kelayotgan 2023-yilni «Insonni ulugʻlash va sifatli taʼlim» yili deb eʼlon qilinishi, shuningdek, murojaatnomada «Millati, tili va dinidan qatʼiy nazar, Oʻzbekistonni oʻzining vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qoʻshib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning eʼtibori va ardogʻida boʻladi»[3] deb bildirgan fikrlari davlatimizda tolerantlik siyosati bugun har qachongidan ham aktuallashtirilganligini koʻrsatib turibdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son «2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida» Farmonidagi

• 70-maqsad: «Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, sotsial tolerantlik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli taʼsirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga boʻlgan qatʼiy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash»;

• 74-maqsad: «Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bagʻrikenglik muhitini mustahkamlash». Turli millat yoshlari uchun qoʻshimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, sotsial tolerantlikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish kabilar belgilab qoʻyilgan.[4]

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida «Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qatʼiy nazar, qonun oldida tengdirlar»[5] deb belgilab qoʻyilganligi ham jamiyatning har bir aʼzosidan insonlarni sevish, qadrlash, gʻamxoʻrlik koʻrsatishi, ularga ijobiy munosabatda boʻlishlari kerakligini vazifa sifatida yuklaydi. Ammo tolerantlik tarixiy-ijtimoiy va axloqiy-



psixologik norma bo'lib, uning mazmuni yangi zamon bilan hamnafas tarzda o'zgarib, boyib va takomillashib bormoqda. Bir tomondan o'zgarayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelik, globalizatsiya va postindustrial rivojlanish talablari, ikkinchidan, ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar, uchinchidan, barkamol shaxs va fuqaro shakllanishini maqsadli olib borish say'i-harakatlari tolerantlik va uni shakllantirish masalalarini yangi mazmunda qayta anglanishini, uning zamonaviy pedagogik mazmunini qayta ishlab chiqilishini, tolerantlikni shakllantirishning usul, shakl va vositalarini zamonga mos ravishda tanlanishini kun tartibiga qo'yadi. Shu bois, bugungi davr ta'lim va tarbiya tizimidan globallashuv g'oyalari o'zida aks ettirgan tolerantlik tushunchasining mazmunini aniqlash, uni ta'lim tizimiga joriy etish mexanizmlarini aniqlash vazifasini amalga oshirish talab etiladi.

**Muhokama va natijalar.** Bugungi kunda tolerantlik tafakkurini yoshlar ongida shakllantirish ularni fuqarolik jamiyatida faol yashashga o'rgatishga teng keladi. Tolerantlik g'oyalari zamonaviy davrning eng muhim ijtimoiy va siyosiy g'oyalari biri ekanligini namoyon etadi. Dunyodagi o'zgarishlar, millat va elatlarning hayotini, bir-biriga munosabatini yaqinlashtiradi. Ushbu jarayonda aksiologik qadriyatlarining turi hisoblangan tolerantlik tushunchasini yosh avlod ongiga to'g'ri yo'nalish asosida singdirish o'z navbatida ta'lim bosqichlarida xususan, o'smirlik davri egalarida asosiy muammo hisoblanmoqda. Chunki ushbu davr o'zining fiziologik, psixologik o'zgarishlari, insoniy munosabatlar tizimiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Ushbu bosqich davri egalariga pedagogik-psixologik jihatdan to'g'ri yo'nalish berish va ularni tolerantlik xususiyatlarini shakllantirishda bir qancha mashg'ulotlarni keltirib o'tadi:

**"Doira ichida salomlashish" mashqi**

Guruhning har bir a'zosi aylanada o'rnidan turib, boshqalarga qaratilgan iborani aytadi: "Xayrli kun", "Salom", "Bugun hammaga ko'p yangi va qiziqarli narsalarni o'rganishni tilayman". Bir ibora o'rniga siz ishtirokchilarni imo-ishora yoki mimika bilan tabriklashingiz mumkin.

**"To'p aylanada" mashqi**

Ishtirokchilar aylanada turishadi. Har kimning qo'lida to'p bor. Bola guruhdan kimningdir ko'zlari bilan topadi. Ishtirokchilarning ko'zlari uchrashganda, ular to'plarni bir-biriga tashlaydilar.

**Mashq "Nima o'zgardi?" mashqi**

Ishtirokchilar bir-biriga qarama-qarshi ikkita chiziqda qurilgan. Birinchi jamoaning o'yinchilari ikkinchisiga orqa o'giradi. Ikkinchi jamoaning har bir a'zosi o'z kiyimlarini uchtadan o'zgartiradi. Birinchi jamoa ikkinchisiga o'giriladi. Har bir ishtirokchi ikkinchi guruhning qarshisida turgan o'smirdan kiyimdagi o'zgarishlarni qidiradi. Keyin jamoa a'zolari rollarni almashtiradilar.

**"Salom" mashqi**

Ishtirokchilar sinf bo'ylab erkin harakatlanadilar.  
Yetakchi: Sizni bir-biringiz bilan quyidagi tarzda salomlashish taklif etiladi.  
Bir marta qarsak chalsam, qo'l berib ko'rishamiz; agar ikkita bo'lsa, biz elkalar bilan salomlashamiz; agar uchta bo'lsa, biz orqamiz bilan salomlashamiz.

**"Tasavvur qiling" mashqi**

Ishtirokchilar aylana bo'ylab o'tirishadi. Ishtirokchilardan biri haydovchi bo'ladi va eshikdan chiqadi. Guruh aylanada o'tirganlardan birini o'ylaydi. Rahbarning vazifasi yetakchi savollar berish va guruh o'ylagan odamni taxmin qilishdir.[6]

**Xulosa.** Tolerantlikning ildizi qadimgi tarixga borib taqaladi. Inson yaratilgan davridan boshlab zamonaviy davrga qadar sotsial tolerantlik tushunchalari mavjudligini xulosalarimizda shakllantirish imkonini berdi. Shaxsda tolerantlik dastlab oilada shakllanib, keyinchalik, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab, litsey, kasb-hunar texnikumlari, oliy o'quv yurtlarida rivojlanadi. Inson hayotning rang barangligi, odamlar, guruhlarining turlicha ekanligi va ularning hammasi hurmat qilinishga loyiqligini idrok etishi, uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishi yuksak madaniyat va ma'naviyatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu kabi yuksak madaniyatning ko'rinishi hisoblangan tolerantlikning sotsiologik o'rni va muhimlik darajasini singdirish, har bir yosh avlodning oilaviy muhitiga, ijtimoiy jamiyatdagi roli bilan bog'liqdir. Xususan, pedagogika fanlarining ob'ekti va subyekti hisoblangan shaxs va uning rivojini ilmiy nazariy

asoslar bilan ham belgilab qo`yilgan bo`lib, shaxsning shakllanishi, uning rivojida oilaviy muhit, biologik omillari va ijtimoiy muhitning o`rni va ahamiyatini o`zining nazariy asoslari bilan belgilaydi.

**Adabiyotlar:**

1. Ijtimoiyish etikasi darslik. M.X.G`aniyeva -s.f.d, prof, N.M Latipova - s.f.n, dots, I.Negmatov - f.f.n, dots; «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.
2. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yunada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. -T.: O'zbekiston, 2010.
3. Mirziyoyev Sh.M O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022 yil 20 dekabr) 16 ноября - Международный день толерантности// Нарконет: популярный журнал.-2017.-№12.-С.3.- (Памятка).
4. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2-bo`limi. “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” 08.12.1992.
5. З.Асташова, Н. А. Проблема воспитания толерантности в системе образовательных учреждений [Текст] / Н. А. Асташова. – Москва: Научный метод, 2003. – С. 86-92.
6. Bag`rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YuNESKO vakolatxonasi nashri. Nashr uchun mas`ullar: A.Saidov. K.Jo`rayev.-T.: 1999
7. Асмолов, Г. А. Слово о толерантности [Текст] / А. Г. Асмолов // Век толерантности. – 2001. – № 1. – С. 2-5.

## SHARQ OLIMLARINING MUSIQIY IJODI ORQALI O‘QUVCHILARNI AHLOQIY-ESTETIK TARBIYALASH

**Raximov Rustam,**

*Urganch davlat pedagogika instituti “Sanatshunoslik” kafedrasida dotsenti v.b.,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD),*

*Mazkur maqolada sharq olimlarining musiqiy ijodi orqali o‘quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalash masalalari ko‘riladi. Shu bilan birga, musiqa birlamchi ruhiy olamiga ta‘sir kuchi haqida bayon etilgan va musiqa san‘atiga doir manbaalar tahlil etilgan. Shuningdek, sharq olimlarining musiqiy ijodi orqali o‘quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, estetik va axloqiy tushunchalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Musiqa, faqatgina san‘at emas, balki inson ruhini shakllantirish va yuksaltirish vositasi sifatida, o‘quvchilarga to‘liq ma‘naviy va axloqiy tarbiya berishga yordam beradi. Sharq olimlarining musiqaga oid g‘oyalari va asarlari, bugungi kunda ham yoshlarni tarbiyalashda, ularning estetik va axloqiy yuksalishiga hissa qo‘shadi.*

**Kalit so‘zlar:** musiqa, ijod, ahloq, estetika, tarbiya, his-tuyg‘u, tajriba, san‘at, sezgi, a‘zo.

## ЭТИЧЕСКОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ УЧЁНЫХ ВОСТОКА

*В данной статье рассматриваются вопросы нравственно-эстетического воспитания учащихся посредством музыкальных произведений восточных учёных. При этом было описано влияние музыки на психический мир ребёнка и проанализированы источники, связанные с музыкальным искусством. Кроме того, через музыкальные творения восточных учёных нравственно-эстетическое воспитание учащихся играет важную роль в расширении их мировоззрения и развитии их эстетических и нравственных представлений. Музыка не только искусство, но и средство формирования и возвышения человеческого духа, помогает дать учащимся полноценное духовно-нравственное воспитание. Идеи и труды восточных учёных о музыке и сегодня способствуют воспитанию молодёжи, её эстетическому и нравственному росту.*

**Ключевые слова:** музыка, творчество, этика, эстетика, образование, чувства, опыт, искусство, интуиция, орган.

## ETHICAL AND AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS THROUGH MUSICAL WORKS OF EASTERN SCHOLARS

*This article examines the issues of moral and aesthetic education of students through the musical works of Eastern scholars. At the same time, the influence of music on the mental world of the child was described and sources related to the art of music were analyzed. In addition, through the musical creations of oriental scientists, moral and aesthetic education of students plays an important role in expanding their worldview and developing their aesthetic and moral concepts. Music, not only art, but also a means of forming and elevating the human spirit, helps to give students full spiritual and moral education. The ideas and works of Eastern scientists on music, even today, contribute to the education of young people and their aesthetic and moral growth.*

**Key words:** music, creativity, ethics, aesthetics, education, feelings, experience, art, intuition, organ.

*“Ahloqiy kamolat insonlar butun hayoti  
va faoliyanining birlamchi asosidir”*

**Yusuf Hos Hojib.**

**Kirish.** Musiqa bolaning ruhiy olamiga eng kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi san‘at turlaridan biridir. Musiqa o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u bolalar his-tuyg‘ulari va ruhiy holatlarining eng nozik qirralarini, ulardagi farqlarni o‘zida ifoda qilib, shu orqali ularning ichki olamiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Musiqa san‘ati qadim zamonlardan beri muhim tarbiya vositasi bolib xizmat qilib kelgan. U bolalarda olamga va kishilarga bolgan insoniy munosabat asoslarini tarkib toptiradi. Shuning uchun ta‘lim tizimida, xususan, musiqa va san‘at maktablari faoliyatida o‘quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalash vazifasi muhim muammolar qatoridan orin egallaydi. Buyuk allomalarimizning pedagogik-psixologik qarashlarida,

shuningdek, pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarning yangi nashrlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarda ko‘rsatilganidek, yoshlarni musiqa san‘ati orqali ahloqiy-estetik ruhda tarbiyalashda milliy musiqa san‘atining ahamiyati beqiyosdir.

**Asosiy qism.** Shu bilan birga, Musiqaning ahloqiy tarbiyadagi roli juda muhim, chunki u nafaqat insonning estetik va ruhiy dunyosini boyitadi, balki uning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Musiqa, inson ruhiga ta’sir etib, uning hissiyotlari va fikrlarini shakllantiradi, ahloqiy xulq-atvorni yaxshilashga yordam beradi. Musiqa orqali o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning bir qancha asosiy jihatlarini ko‘rib chiqaylik:

-Musiqaning ruhiy ta’siri.

Musiqa odamning ichki dunyosiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, tartibli va uyg‘un musiqalar, tinglovchini tinchlantiradi, ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi, stress va tashvishlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, musiqaning hissiy ta’siri insonning ahloqiy qarorlariga, ya’ni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg‘on kabi tushunchalarga bo‘lgan munosabatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi musiqalar ruhni poklaydi, ichki muvozanatni ta’minlaydi va ahloqiy xulqni rivojlantiradi.

-Musiq va axloqiy qadriyatlar.

Musiqa, uning mazmuni va shakli orqali, ahloqiy qadriyatlarni o‘rgatishning samarali vositasidir. Musiqadagi qo‘shiqlar, asarlar va kompozitsiyalar o‘quvchilarni sabr-toqat, mehr-muhabbat, adolat, to‘g‘rilik, hurmat kabi ahloqiy fazilatlarini o‘rganishga undaydi. Misol uchun, *klassik musiqalar* ko‘pincha insonning ichki ahloqiy qiyofasini yaxshilashga qaratilgan. Musiqa, shu bilan birga, o‘quvchilarni boshqalar bilan teng muomala qilish, hamjihatlik va ahloqiy me’yorlarga rioya qilishni o‘rgatadi.

- Musiqa va ijtimoiy mas’uliyat.

Musiqa, ijtimoiy mas’uliyatni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Musiqaning ba’zi janrlari, masalan, *xalq musiqasi*, jamiyatda ijtimoiy muammolarni yoritadi, adolat, tenglik va tinchlikka chaqiradi. Bunday musiqalar o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyatni his qilish, jamiyatdagi muammolarga e’tibor qaratish va ularga nisbatan mas’uliyatli yondashishni rivojlantiradi.

-Musiq va his-tuyg‘ularni boshqarish.

Musiqa, odamning his-tuyg‘ularini boshqarishga yordam beradi. O‘quvchilar musiqaning ritmi, melodiya va ohangidan foydalangan holda o‘z hissiyotlarini yaxshiroq tushunish va boshqarishni o‘rganadilar. Musiqa, ehtirolarni va salbiy his-tuyg‘ularni tinchlantirishga, muammolarga qiziquvchanlik va ijobiy qarash bilan yondashishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida, ahloqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lgan ichki muvozanatni va xulq-atvorni shakllantiradi.

-Musiq va estetik didni rivojlantirish.

Musiqa orqali o‘quvchilarda estetik didni rivojlantirish, go‘zallikka, tabiatga va san’atlarga bo‘lgan hurmatni oshirish mumkin. Musiqaning go‘zalligi, uning ritmi va melodiya orqali insonda estetik tushunchalar shakllanadi. Go‘zal musiqa odamni o‘zining ichki dunyosini toza va pok tutishga, tashqi go‘zalliklarga bo‘lgan hurmatni rivojlantirishga undaydi. Bu esa ahloqiy tarbiyaning muhim jihatidir, chunki go‘zallikka hurmat, odamlarga, tabiatga va hayotning o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshiradi.

6. Musiqa va diniy axloqiy qadriyatlar.

Sharq madaniyatida musiqaning diniy mazmuni ham ahloqiy tarbiya vositasi sifatida ishlatilgan. Diniy musiqalar, masalan, *sufi musiqasi* insonni Ruhning poklanishi va ma’naviy taraqqiyotga yo‘naltiradi. Bu musiqalar o‘quvchilarda sabr, toqat, tinchlik, xushxulqlik kabi yuqori axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa orqali ahloqiy mas’uliyat, yaxshilik va ruhiy poklanish tushunchalari ham o‘rgatiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimidek, buyuk allomalarimizning pedagogik-psixologik qarashlarida, shuningdek, pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarning yangi nashrlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarda ko‘rsatilganidek, yoshlarni musiqa san‘ati orqali ahloqiy-estetik ruhda tarbiyalashda milliy musiqa san‘atining ahamiyati beqiyosdir. Bu borada musiqashunos, tug‘ma iste’dod sohibi bo‘lgan buyuk alloma Darvesh Ali Changiy (XII asr) “Risolayi musiqiy” “Musiqa risolasi” asarida yozishicha, “Xalqning milliy musiqiy madaniyatini ajoyib yodgorlik sifatida extiyot qilib, saqlash lozim” – deb musiqalarimizni qadrlab, asrab-avaylab kelgusi avlodlar uchun saqlashga da’vat etadi.

Forob shahrida tutilgan Abu Nasr Forobiy (874-950) “Kitob al-musiq al-kabir” asarida musiqaning umumnazariy masalalari xususida so‘z yuritadi. “Kitob al-musiq al-kabir” – “Katta musiqa kitobi” demakdir. Bu asarda musiqaning inson his-tuyg‘ulariga ta’siri, estetik didning shakllanishi, tashqi ta’sirdan zavqlanishi, fikr va tasavvurlarining o‘zaro munosabati kabi masalalar aniq tahlillar orqali ochib beriladi.

Abu Nasr Forobiy musiqa ilmini nazariy jihatdan tahlil qilib shunday deydi:–“Men tasdiqlaymanki, substansiya harakatga ega bo‘lgandan so‘ng ovozga ham ega bo‘ladi va bu ovoz uch turga bo‘linadi, xususan, baland, past va o‘rtacha. Bunday ovozlarning haqida bizga noma’lum bolgan narsa qolmaslik darajasida baland, past va urtacha ovozlarni bilishga qaratilgan ilmga ehtiyoj tug‘iladi. Bu ovozlarning to‘g‘risidagi ilmdir.

Bu ilm shu ma’nodan foydaliki, u o’z muvozanatini yo’qotgan insonlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo’lganlar (insonlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bolsa, rux ham so’ladi, tana to’siqqa uchrasa, rux ham to’siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta’siri bilan ruhni sog’aytirish yordamida tana sog’aytiriladi, rux esa o’z kuchlarining tartibga solinishi va o’z substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog’ayadi. Bu ilmning uch asosi bordir: band, melodiya (ohang) hamda kuy va boshqa a’zolar xarakati. Band aqliy tushunchalarni ma’lum tartib - tenglikka keltirish uchun kashf qilingan, melodiya past va yuqori ovozlarni ma’lum tartib - tenglikka solish uchun kashf etilgandir. Bu har ikki asar eshitish sezgisiga bo’ysunadi. Qo’l va badanning boshqa a’zolari harakati ko’rish sezgisiga bo’ysunadi: ular shunday o’zaro taqqoslab ko’rish lozim bo’lgan, shunga o’xshash xarakatlarni band va ovoz bilan moslashtirib turish uchun yaratilgandir. Qo’l va badan a’zolarining xarakati haqidagi ilm bu ikki muhim sezgiga, ya’ni eshitish va ko’rishga bo’ysunadi. Shunday qilib, musiqa ilmining qayerdan va qanday qilib kelib chiqqanligi aniqlanadi. Bu ilm “tarbiyalovchi” ilm deb ataladiki, u ilmlarni o’rganuvchini tarbiyalaydi, yanada nafis qiladi va unga keyingi ilmlarni o’rganishning yo’l- yo’riqlarini ko’rsatadi”.

Abu Nasr Forobiy tabobat ilmida Faxriddin Roziydan, diniy ilmida Muxammad G’azzoliydan ortiq kamolat egasi edi, tib fanida Ibn Sinodan ham yuqori edi. Aniq fanlar tariqat ilmi, shariat ilmi, tavsif ilmi, falsafiy ilmlar, adabiyot, geometriya, ostromiya, hatto nard, shatranj ilmlaridan bilmaydigani yo’q edi. Forobiy musiqa ilmida nihoyatda yuksak mahorat va tug’ma istedodga ega, uning nazariy tomonini ham chuqur egallagan olim edi.

Oliyjanoblikhihq ozagi insonning ichki va tashqi (ozodaligi, orastaligi) dunyosining go’zalligidir”. Shu nuqtai nazardan Abu Ali Ibn Sino o’zining bir necha asarlarida axloqiy-estetik tarbiya muammolarini asossiy masala qilib ko’rsatadi. “Shifo”, “Ishorat”, “Donishmandnoma”, “Xay ibn Yakzon”, “Salomon va Ibsol”, “Tayr” shular jumlasidandir. Uning fikricha, “Yaxshi ahloqli bolish tarbiyaning samarasidir. Chunki tarbiya orqali yoshlarga xalqparvarlik, haqiqiy dostlik, kelajakka qat’iy ishonch, mustaxkam iroda, mardlik, mehnatga muhabbat, insonlarga chuqur izzat hurmat, vatanga sodiqlik kabi ahloqiy hislatlar singdiriladi”.

Ibn Sino shuni uchun quyidagi tarbiya tizimini tavsiya qiladi:

- 1) Aqliy tarbiya.
- 2) Jismoniy tarbiya (davolash ham shunga kiradi).
- 3) Estetik tarbiya.
- 4) Mehnat tarbiyasi (hunar orgatish).

Ibn Sino yoshlarni yuksak kamolotga mardlik va lasurlikka da’vat etadi: “Odamlarning botiri mushkulotdan qorqmaydi. Kamolat hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qorqogidir.”

Yusuf xos Xojib esa ahloqiy tarbiyaga oz munosabatini bildirib shunday deydi: “Ahloqiy kamolot insonning butun hayoti va faoliyatining birlamchi asosidir. Kimning odobi yaxshi va ahloqi togri bolsa, u kishi oz maqsadiga yetadi, baxt unga kulib boqadi, zero yaxshi ahloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir”

XV asrning ikkinchi yarimida musiqa nazariyasiga oid qonunlarni rivojlantirishga katta hissa qoshgan buyuk allomalardan biri Abduraxmon Jomiydir. Uning qqqanchalik buyukligini va yuqori kobiliyat egasi ekanligini shundan bilsa buladiki, u Alisher Navoiydek buyuk zotga hamma ilm va amaliyotlar buyicha ustoz edilar. A.Navoiyning o’zi bu zotni ustozim, pirim deb ataganligi yetarlidir. U “Hamsa” asarida besh joyda toxtalib faxr ila tariflagan.

“Abduraxmon Jomiy tanbur, setor, Qonun singari sozlarni chalar edilar, hattoki, “Ajam” degan bir maqomni ham uning ikki shaxobchalari bilan ijod qildilar. Kop shogirdlarni bu ilmida mukammal kilib yetishtirdilar. Bu fan haqida “Risolai davvor” Musiqiy risola” nomli bir kitob yozdilar. Amir Alisher hazratlari ham bu fanni Jomiydan organdilar”- deydi I. Mujiziy “Musiqi tarixi” kitobida.

Abduraxmon Jomiy “Risolai davvor” (Musikiy riisola) asarining xotima qismida lad ohanglarining tinglovchilarga ruhiy ta’sirini tort kategoriyaga bolib korsatadi:

- 1) Shijoat va jasurlik uygotuvchi ohanglar.
- 2) Xursandlik va quvonch uygotuvchi ohanglar.
- 3) Qaygu va mung uygotuvchi ohanglar.
- 4) Gam va mayuslik aralashgan shodlik va zavk uygotuvchi ohanglar.

U ohanglarni hissiy ta’sir etishiga kora 12 maqom, 6 ovoz hamda 24 sho’badan tashkil topgan umumiy 42 ohandan 38 tasini qayd etadi.

XXI-asrda yashagan Amir Unsuruimaoliy Qayqovus ham hofiz va sozandalik zikridan ajoyib nasihatnoma yozib qoldirgan. “Ey farzand, - deb uqtiradi u, - agar hofiz bolsang, xushfe’l, quvnok bol, hamisha pok, mutayab xushroy va xush zabon bolgil va uz ishingga mashgul bolgil, qopol bashara bolmagil”. U “Kobusnoma” deb nomlangan asarida soz chalish xusisida shunday deydi: “Hamma vaqt ogir yollarni chertmagil, chunki barcha mashk va oxangni bir xilda chertish shart emasdur, nedinkim odamlarning

barchasi bir xilda bolgon erimaslar, ta’blari ham bir- biriga muvofik ermas, ya’ni xalq muxtalif har xil durlar”. Ayniqsa, Kaykovusning tor chalishda odamlarning morfo-fiziologik xususiyatlari, ta’bi va ruxbiyatini e’tiborga olish lozimligi haqidagi qarashlari diqqatga sazavordir. “Bir majlisda oltursang, majlis ahliga qaragil, agar eshituvchi qizil yuzlik va moshbirichi (moshguruch) soqollik bolsa, payvas (uzluksiz), zer (ingichka va nozik ovoz) tor bilan chertgil; agar sarik yuzlik bolsa, bosh tor bilan chertgil; agar qora yuzlik, naxif (ozgin) va savdoyi bolsa, koprok uch tor bilan chertgil; agar oq, semiz va martub (rutubatli) bolsa, koprok bam (balan ton) bila chertgil, nedinkim, bu rudni (musiqqa quroli) odamning tort ta’bi uchun muhayyo qilmishlar”.

**Material va metodlar.** Bugungi kunda Sharq olimlarining musiqiy ijodi orqali o’quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalash. bo’yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy didaktik ta’minot vositasida Sharq olimlarining musiqiy ijodi orqali o’quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalashni. rivojlantirishga yo’naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o’rganib chiqildi. Muammoni o’rganishda xorijiy oliy ta’lim muassasalarida musiqqa va san’at yo’nalishi bo’yicha ta’lim olayotgan talabalarga va maktabda qo’llanilayotgan musiqqa doir bilimlar va u orqali o’quvchi yoshlarning axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalash, ularning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati tushunchalari, ularni qo’llash usullari, yondashuvlari, me’zonlari va bosqichlari tayanch konsepsiya vazifasini bajardi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Sharq olimlarining musiqiy ijodi o’quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalashda muhim o’rin tutgan. Ular o’z asarlarida nafaqat musiqaning estetik va san’atkordagi ahamiyatini, balki uning insonning ruhiyatiga, ahloqiga va tarbiyasiga qanday ta’sir ko’rsatishini ham ko’rsatgan. Musiqqa, ularning nazarida, nafaqat estetik zavq olish, balki axloqiy me’yorlarni rivojlantirish, ichki olamni tozalash va yuksaltirish vositasi bo’lgan.

Quyida musiqaning ahloqiy-estetik tarbiya bilan bog’liq ba’zi asosiy jihatlari keltiramiz va bular o’quvchilarning ahloqiy-estetik tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi:

**-Musiqaning ahloqiy tarbiyadagi o’rni:**

**-Musiqaning tarbiya usuli sifatida:**

**-Estetik yuksalish:**

**-Musiqqa va ruhiy tarbiya:**

**-Musiqqa orqali jamiyatni tarbiyalash:**

*Shuningdek*, sharq olimlarining musiqiy ijodi, ayniqsa, o’quvchilarga ahloqiy-estetik tarbiya berishda muhim rol o’ynaydi. Sharqning madaniy merosi, xususan, musiqasi orqali tarbiyalash, insonni ichki dunyosini shakllantirish, go’zallikka va ma’naviyatga bo’lgan hurmatni oshirishga yordam beradi. Bu jarayonni yaxshiroq tushunish uchun quyidagi nuqtalarni keltirish mumkin:

**Musiqaning ahloqiy tarbiyadagi roli.**

Sharq musiqasi, ayniqsa, klassik sharq musiqasi, jahonni yaxshi tomondan tushunishga, insoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ko’plab sharq olimlari, masalan, Al-Farobi, Ibn Sino, Al-G’azzoli, musiqaning inson ruhiga ta’sirini o’rgangan va musiqaning ahloqiy-ma’naviy rivojlanishdagi o’rniga alohida e’tibor qaratganlar. Musiqqa, nafaqat aks ettiruvchi vosita, balki ichki ruhiy holatni shakllantiruvchi qudratga ega.

• **Ibn Sino** musiqaning ruhga ijobiy ta’sirini, uni tinchlantirish va aqliy salohiyatni rivojlantirishdagi rolini ta’kidlagan. Musiqqa, ularning fikricha, odamni o’zini bilishga, go’zallikka intilishga undaydi.

• **Al-Farobiy** musiqani ahloqiy tarbiya vositasi sifatida qadrlagan. U musiqaning go’zalligi orqali insonni ruhiy poklanishga va axloqiy kamolotga yo’naltirish mumkinligini ta’kidlagan.

**Musiqqa va estetik tarbiya.**

Musiqqa, estetik jihatdan go’zal bo’lib, insonni go’zallikka, san’atga bo’lgan hurmatni o’rgatadi. Sharq musiqasi tinglovchisini go’zal tovushlar va kompozitsiyalar orqali tasavvur qilishga, dunyoni boshqa nuqtai nazardan ko’rishga undaydi. Bu jarayon estetik sezgilarni rivojlantirish va chiroyli narsalarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirishga yordam beradi.

• Sharq musiqasida ko’pincha yuqori estetik qadriyatlar yotadi: tabiiy tovushlarni, masalan, qushlarning qo’shiqlari, shamolning shivirlagan ovozlari kabi elementi, odamlarga hayotning go’zalligi va muvozanatni kashf etishga yordam beradi.

**Musiqqa orqali ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlarni o’rgatish.**

Sharq musiqasi, ayniqsa, o’quvchilarga ijtimoiy qadriyatlarni o’rgatishda ham muhim vosita hisoblanadi. Sharq olimlari musiqaning, jamiyatda hamkorlik, adolat, sabr-toqat, rahm-shafqat kabi ijtimoiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlaganlar. Musiqiy asarlar, o’quvchilarga bu qadriyatlarni nafaqat eshitish, balki ularni his qilish imkonini beradi.

• Misol uchun, **Sufi musiqasi** va uning tasavvufiy mazmuni odamlarni xushxulqlilik, mehr-muhabbat, rahm-shafqat va axloqiy poklanishga yo‘naltiradi. Bu, o‘quvchilarda yuqori ahloqiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

***Musiq va his-tuyg‘ularni boshqarish.***

Musiq orqali o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganadilar. Sharq olimlarining musiqiy ijodi orqali o‘quvchilar, o‘zlarining ruhiy holatini nazorat qilish, yaxshi va yomonni ajratish, jamoada o‘z o‘rnini topish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Musiq nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki ichki muvozanatni topishda ham yordam beradi.

***Musiq va dinga bo‘lgan yondashuv.***

Sharq musiqasida ko‘pincha diniy mavzular ham ko‘tariladi, bu esa o‘quvchilarni diniy qadriyatlar va ahloqiy tuyg‘ular bilan tanishtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Musiqaning ma‘naviy ahamiyati, odamni yuqori maqsadlarga yo‘naltirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Demak, yuqorida ta‘kidlangan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, maktablarida ahloqiy- estetik tarbiyani yaxshi yolg‘a quymay turib, ma‘naviy madaniyatli, barkamol kishilarni kamol topdirish mumkin emas sabab, musiq va ashulalar oquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini va ruhiy dunyosini boyitadi.

Sharq olimlarining musiqiy ijodi orqali o‘quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, estetik va axloqiy tushunchalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Musiq, faqatgina san‘at emas, balki inson ruhini shakllantirish va yuksaltirish vositasi sifatida, o‘quvchilarga to‘liq ma‘naviy va axloqiy tarbiya berishga yordam beradi. Sharq olimlarining musiqaga oid g‘oyalari va asarlari, bugungi kunda ham yoshlarni tarbiyalashda, ularning estetik va axloqiy yuksalishiga hissa qo‘shadi.

**Adabiyotlar:**

1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi buyicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 8 fevral soni, www.lex.uz.
2. Abu Nasr Farobiy “Talim tarbiya haqida”-1979.T O‘qituvchi.
3. Ibn Sino “Risoi ishq” 20b. Tehron 1952-yil
4. A. Navoiy “Majolis un-nafis” T.Fan/1997-y 300b.
5. A. Jomey “Musiq” haqida risola Toshkent 1960-yil
6. Qayqovus-Qobusnoma.176 b.Ogohiy tar.T.Meros-1992.
7. Madrimov B. Uzbek musiq tarixi. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2018. 7-,5- b.t.

## PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI

### БУХОРО ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ АСОСЧИСИ АҲМАД ДОНИШНИНГ ПЕДАГОГИК МЕРОСИДА МЕҲНАТ ВА КАСБ ТАРБИЯСИ

*Рахмонова Мехринисо Тошпўлотовна,  
Zarmed universiteti, Тиллар кафедраси ўқитувчиси*

*Мақола бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлган жади́д тарбияшунослигининг асосчиси Аҳмад Донишнинг меҳнат ва касб тарбиясининг ҳозирги тараққиётидаги аҳамиятини изоҳлашга бағишланган.*

*Мақолада ўқувчи-ёшларнинг камолотида меҳнат ва касб тарбиясининг ўрни, уни амалга ошириш омиллари ва мамлакат тараққиётида тадбиркорликни йўлга қўйишда Аҳмад Донишнинг меҳнат ва касб тарбияси тўғрисидаги гоялари илмий-педагогик ва амалий жиҳатдан ёритилган.*

*Айниқса, Аҳмад Донишнинг “Наводир-ул вақое” асарида меҳнат ва касб танлаш тарбияси билан бир қаторда ҳозирги давр учун муҳим бўлган ёшларни тадбиркорликка ўргатишнинг айрим қирралари баён этилган.*

**Калит сўзлар:** *одоб-ахлоқ, комил инсон, жади́длар, аллома, аждодлар, маърифатпарварлар, толиби илм, тарихий шахс, мустамлака, ривожланиш, филологлар, тарихчилар, файласуф-сиёсатчилар, мусаввирлар, фалаккиётишунослар, илм аҳли.*

### ТРУДОВОЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ ОСНОВАТЕЛЯ БУХАРСКОГО ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ АХМАДА ДОНИША

*Статья посвящена объяснению значения Ахмеда Дониша, основоположника современной педагогической науки, которая является одной из самых актуальных проблем современности в современном развитии трудового и профессионального образования.*

*В статье с научной, педагогической и практической точки зрения освещены роль труда и профессионального обучения в развитии студентов, факторы его реализации, а также идеи Ахмеда Дониша о труде и профессиональном обучении в развитии страны.*

*В частности, в работе Ахмеда Дониша «Наводир-ул вакое» описаны некоторые аспекты обучения молодёжи предпринимательству, важные для нынешней эпохи, наряду с обучением труду и выбору карьеры.*

**Ключевые слова:** *этика, совершенный человек, джадиды, учёные, предки, искатели знаний, исторические деятели, колонии, развитие, филологи, историки, философы-политики, художники, астрономы, люди науки.*

### LABOR AND VOCATIONAL TRAINING IN THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF AHMAD DONISH, THE FOUNDER OF THE BUKHARA JADIDIST MOVEMENT

*The article is devoted to explaining the significance of Ahmed Donish, the founder of modern pedagogical science, which is one of the most pressing problems of our time in the modern development of labor and vocational education.*

*The article, from a scientific, pedagogical and practical point of view, highlights the role of labor and vocational training in the development of students, the factors of its implementation, as well as the ideas of Ahmad Donish about labor and vocational training in the development of the country.*

*In particular, Ahmad Donish's work “Navodir-ul vakoe” describes some aspects of teaching youth entrepreneurship that are important for the current era, along with training in work and career choice.*

**Keywords:** *ethics, perfect man, Jadids, scientists, ancestors, scholars, seekers of knowledge, historical figures, colonies, development, philologists, historians, political philosophers, artists, astronomers, men of science.*

**Кириш.** *Халқимиз асл фарзандларининг асарлари, маданий-маънавий мерослари улар яшаб ижод этган мураккаб даврнинг мазмун ва моҳияти, мураккабликлари ва зиддиятларини ўзида чуқур*



акс эттирган. Маърифатпарварлардан бизларга илмий, маданий мерос бўлиб келаётган, миллий-маънавий бойлигимизнинг таркибий қисми ҳисобланган бадиий, фалсафий асарлар, ҳикоялар, одоб-ахлоқ мажмуалари, назарий ва насрий мактублар, дostonлар, хотираларни ўқиб халқларимизнинг орзу-армонларини, тарихини, маънавий-маърифий, ахлоқий қарашларини билиб оламиз [1, 35].

XIX аср охири XX аср бошларида сиёсий, иқтисодий, маданий жиҳатдан инқироз ҳолатига тушиб қолган чор Россиясининг мустамлакаси туфайли ривожланиш паст даражада бўлган, чекка ўлка ҳисобланган Туркистон зиёлилари мустамлакачилик зулмидан қутулиш, ўз миллий давлатчилигини тузиш, иқтисодий ва маданий тараққиётга йўл очиш, халққа зиё тарқатиш мақсадида маърифатпарварлар ҳаракати вужудга келди. Уларни Жадиждлар (Янгилик тарафдорлари) деб атадилар. Бу ҳаракатнинг йирик намояндалари: Махмудхўжа Бехбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов, Саидахмад Сиддиқий, Саидрасул Азизий, Алиасқар Калинин, Абдуқодир Шақурий, Садриддин Айний, Фитрат, Абдулла Авлоний ва бошқалар эдилар. Жадижд маърифатпарварлари, яъни янги усул мактаби тарафдорлари Саидрасул Азизийнинг “Устози аввал” (1902 й.), Алиасқар Калининнинг “Муаллими соний” (1903 й.), Махмудхўжа Бехбудийнинг «Рисолаи асбоби савод» (1904), “Китоб-ул атфол” (“Болалар учун китоб”) (1908 й.), Мунавварқорининг “Адиби аввал” (1907), Абдулла Авлонийнинг “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим” (1912), “Туркий гулистон, ёхуд ахлоқ” (1913 й.), “Гулистони мактаб” (“Мактаб гулистони”) (1917 й.) каби дарсликлари алоҳида эътиборга моликдир ва бу нодир асарлар халқ оммаси орасида шухрат топди, ўша даврдаги Туркистон мактабларида кенг фойдаланилди.

Бу жадиждлар (янги усул тарафдорлари)нинг раҳбари, боши сифатида мутафаккир аллома Аҳмад Дониш тан олинади.

Аҳмад Дониш – ҳақиқатан ҳам дониш бўлган, шахсан ўз даври учун ибратли, филологлар, тарихчилар, файласуф-сиёсатчилар, мусаввирлар, фалакиётшунослар учун битмас-туганмас илмий хазина бўлган.

**Асосий қисм.** Аҳмад Дониш яшаган ва ижод қилган йиллар Ўрта Осиё, жумладан, Бухоро амирлиги ҳаётида ижтимоий-сиёсий воқеалар тез-тез содир бўлиб турган даврга тўғри келади. Типик шарқий-феодал давлатлардан бўлган Бухоро амирлиги 1868 йилда чор Россияси билан сулҳ шартномаси тузгандан кейин ўзининг илгариги мустақиллигини йўқотди ва Россия империясига қарам, ярим мустамлака бўлиб қолди.

Аҳмад Дониш Бухоро амирлиги ҳаётидаги барча ижтимоий-сиёсий воқеаларни шоҳиди бўлди. Аҳмад Дониш кўп асарлар ёзган мутафаккирдир. У ёзган асарлар ҳали батамом тадқиқ этиб тугатилганича йўқ.

Адабиёт соҳасида шу кунгача Аҳмад Донишнинг фақат иккита қўлёзма асари: “Наводир – ул вақоеъ” ва “Бухоро амирларининг тарихи” бир мунча ўрганилган, холос. Бу ўринда шуни айтиб ўтиш керакки, Аҳмад Дониш хуснихатда моҳир, номи чиққан хаттот ҳам эди.

Аҳмад Донишнинг айниқса, “Наводир – ул вақоеъ” асари машҳур, – дейди Арк ўлкашунослик музейи раҳбари Бобур Қобилов. 1880 йилда ёзилган бу асарнинг қораланма ва асл нусхаси Бухоро давлат музей – кўриқхонасида сақланмоқда. Муаллифнинг “Наводир ул-вақоеъ” асари 15 йил давомида, 1870— 1885- йиллар оралиғида ёзилган тарихий, фалсафий, мемуар асардир. Унда олим ўзининг турли масалаларга муносабатини ифодалаган. Масалан, асарнинг биринчи боби “Ота-она ва фарзанд муносабатлари” ва қолган боблари ҳам жуда мазмунли ва қизиқарли. Шунингдек, асарда Аҳмад Дониш ижтимоий тараққиётга ғов бўлиб қолган феодал ижтимоий-сиёсий тузум, тартиб ва муносабатларни танқид остига олади. Ўрта аср фалсафасида кенг тарқалган таваккул назариясини танқид этиб бундай деб ёзади: “Агар киши таваккулга ишониб ҳаракат қилмаса, меҳнат қилмаса ва қийинчиликда, камбағаллик билан ҳаёт кечирши ёки мўл-қўлликда яшаш қисматда бор экан, деб айтса, ундай киши хато қилади. Демак, у ақлли эмас” [1,45]. Бухоро хонлигини Оврўпо мамлакатлари, хусусан Русия билан таққослаб, Дониш ўз ватанини иқтисодий ва маданий жиҳатдан орқада қолганлигини кўрсатиб беради ва бу қолоқликдан чиқиш учун ижтимоий-сиёсий тузумда ислохотлар қилиш зарурлигини уқтиради.

Аҳмад Дониш “Наводир ул-вақоеъ” (“Нодир воқеалар”) номли асарида шунингдек “никоҳ одоблари баёни” ҳақида, уйланиш шартлари, “қайнона ва келиннинг хусумати” ҳақида ҳам баён қилган. Мутафаккирнинг фикрича, инсон муайян ёшга етгандан кейин унга оила қуриш, уйланишга зарурат пайдо бўлади. Албатта, бу даврда инсон, оила, оилавий бахт, эр-хотинлик, фарзандлик, ота-оналик бурчлари ҳақида тушунчага эга бўлади. Дарҳақиқат, донишманд аёлни севмоқ, ҳурмат қилмоқ, ҳар бир эркак, яъни эрнинг вазифаси эканлигини уқтириб ўтади. Оилавий бахт инсонларнинг орзу-истаклари, мақсаларига етишиб яшашдир. Аҳмад Дониш оилавий бахт кўпроқ хотинларга боғлиқ, чунки эркак учун солиҳа хотиндан ортиқроқ ҳеч бир неъмат йўқдир. Оиладаги иноқлик,

тотувлик, саранжомлик улар қўлидадир, деган фикрларни ҳамда оила қуриш мотивларини кенгрок ёритиб беради.

Оила, никоҳ масалаларида буюк мутафаккир шундай дейди: “Никоҳнинг ўзи бир суннат бўлса ҳам, у ўз ичига бир неча суннатларни олади. Масалан, хотиннинг бадфеъллигига сабр қилиш, уларнинг режадан ташқари ишларини кўтариш, уларга очик юзли, юмшоқ сўзли бўлиш, нафақаларига мўлчилик қилиш, диндаги зарур бўлган нарсаларни ўргатиш ва булардан бошқа яна бир қанча суннатлар бордир. Аммо, буларнинг ҳеч бирини шариат айтганчалик бажара олмайдилар...”

...Уйланишнинг фойдаларидан бири бола топиш бўлиб, бунинг яхши фазилатлари кўпдир... Кишининг фарзанди инсофли бўлса, отаси ўлса ҳам унинг яхшилиги, тоат-ибодатлари асло ўлмайди ва боланинг дуосидан унга фойда етиб туради. Шунинг учун сарвари олам яхши болани отанинг узилмас садақаси деганлар...” [2, 169]

Мутафаккир таълимотида умр мазмуни алоҳида ўрин тутати. Унинг таъкидлашича, ҳар бир инсон ҳаёти давомида эзгу ишлар қилмоғи, илми ва ҳунарини эл-юртига бахшида этмоғи лозим. У ҳар бир инсон “каттадан ҳам, кичикдан ҳам сабоқ олишга интилсин” дейди ва Афлотун, Арасту, Суқрот каби буюк устозларнинг баъзан дарс жараёнида айрим нарсаларни ўз шогирдларидан ўрганганини бунга мисол қилиб келтиради.

Унинг қарашларидаги илм, меҳнат, адолат, яхшилик ҳақидаги фикрларни бебаҳо мерос сифатида тарбия жараёнида қўллаш катта аҳамият касб этади – [2,62], дея юқори баҳолайди тарихчи олим Фаррух Темиров.

У илмни шундай таърифлайди: “Бутун ҳунарларнинг аълоси илмдир”, “Одам яратилганидан сўнг унинг туганмас бахти илм ва маърифатда бўлади” - [3,56] деб ёзади. Мутафаккир илм олиш, яхши хулқ, таълим-тарбия, инсон феъл-атвори ҳақида фикр билдирар экан, инсондаги ёмон феъл-атвор йўқотилмоғи керак, - дейди. Унинг фикрича, “очкўзлик ва ҳасаднинг инсонга ҳеч қандай нафи йўқ, ҳар кимнинг кўкрагидан ҳасад кўчати жой олган бўлса, у зиёндан бошқа мева бермайди”. Ёки муаллиф касб-ҳунар эгаллаш ҳақида ёзар экан, уни ўз ўғилларига “васиятнома”га айлантиради. Дарҳақиқат, адиб бошидан кечган бахтли-бахтсиз, ширин-аччиқ кунлар, ҳаёт, саёҳат хотиралари, сафарлар давомида дўстлардан тингланган ҳикоялар ва булардан келиб чиқувчи ибратлар ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди. Муҳими шундаки, бу ибратлар XIX аср Европа тамаддунини ўз кўзи билан кўрган, айни пайтда, шу давр Шарқ илм-фанининг Туркистон сарҳадидаги энг буюк намояндаси васиятлари эди. Касб-ҳунарга, илм-фанга меҳр, ҳалоллик, мансаб-мартаба, мол-дунё ҳирсидан узок бўлиш, бани башарга хайрихоҳлик, ҳар қандай ҳолда ҳам яхшилик қилиш, исломий ахлоқ бу васиятларнинг асосий мазмунини ташкил этади. Шунинг учун ҳам, ушбу васиятнома таълимий-ахлоқийгина эмас, балки муҳим ижтимоий-сиёсий мазмун ҳам ташир эди.

Мутафаккир ўғилларига васиятида бир ҳикматли сўзни баён этади:

“Одам яратилгандан сўнг унинг туганмас бахти илм ва маърифатда бўлади. Унинг ихтиёри ўзида бўлса, илмсизлик ва дангасаликка бўйин эгмасин, чунки илм ва маърифат руҳнинг истаги бўлиб, роҳатпарастлик ва дангасалик нафсининг тилагидир” [4,215] – дея эътироф этади. Яна бир ҳикматли сўзида ялқов, ишёқмас кишилар ҳақида қуйидагиларни баён этади:

“Ҳеч кимнинг ризки осмондан тушмайди, ҳаракатсиз мақсадга етиб бўлмайди. Ялқовлик қилиб, ўз юкини ўзи кўтармай, бошқалар устига ортар экан, ундай одам инсонлик шарафини йўқотиб, кишилик қаторидан чиқади”. [5,220]

Аҳмад Дониш “Киши суратга эмас, балки маъноли ишққа боғланса, яъни ҳамма нарсани ўз ҳақиқати билан билишга, халқ учун илму ҳунар орттиришга қизиқса, ишқнинг энг аълоси шудир”, [6,222] - дейди.

XIX асрнинг 50-60 йилларидаёқ Аҳмад Дониш Бухоро мактаб ва мадрасаларидаги ўқиш-ўқитиш усулларини тубдан ислоҳ қилиш масаласини кун тартибига кескин қўйган эди [7,27]. У ўз фарзандларига васият қилар экан, “Сизлар йигитлик даврига етгунча, устларингда туриб одоб ва ахлоқ ўргатмай десам, ҳали ўзимнинг ҳамма ишларим чала, сафар ва ҳазарда керакли асбоб-ускуналар тўлиқ эмас. Шундай бўлса ҳам отанинг бола тарбияси билан шуғулланаши, албатта, лозимдир. Болага одоб ўргатиш, илм ўқитиш, дастлаб уларга айтиш ва кўрсатиш билан бўлади. Болалар бунга қулоқ солмасалар уриш, сўкишлар ҳам ишлатилади” [8, 324]. Аҳмад Дониш фикрини давом эттирар экан, “Аввало, мен Сизларга энг зарур нарсаларни айтиб ўтаман. Сизларга дунё ва охирашларингизни обод қилгудек яхши йўлларни кўрсатиб, сўнг Сизларни Оллоҳга топшираман. Агар бахтли бўлсанглар шу йўлда юрасизлар, бўлмаса бошқа иложим йўқ. У ҳолда мени маъзур тутасизлар...” [9,325].

Аҳмад Донишнинг “Фарзандларига васият”ида, касб-хунарнинг фойдалари ҳақида ҳам баён қилар экан, унда инсон хулқ-атвори, меҳнатга бўлган муносабати тўғрисида бирмунча қимматли фикрлар ва маслаҳатларни беради.

Мутафаккирнинг меҳнат қилиш ҳақида қимматли фикрларини “Наводир ул-вақоеъ” асарида меҳнат қилмай, дангасалик билан кун ўтказган одам, бу дунёда ҳам, у дунёда ҳам обрў тополмайди, дейди. Сўнг асарнинг яна бир ерида ўзининг меҳнат қилиш ҳақидаги фикрларини билдириб: “Дунёда заҳматсиз роҳат, ташвишсиз неъмат топилиши мумкин эмас” [10,27], - деб ёзади.

**Хулоса.** Аҳмад Дониш фикрини давом эттирар экан, дунёда яшаш, меҳнат қилиш учун бирор касб-хунарнинг бошини ушлаш керак, деган ғояни илгари суради. Мутафаккир “Наводир ул-вақоеъ” нинг “Ўғилларига васият...” қисмида қуйидагиларни баён қилади: “...Сизларга айтадиган менинг васиятим шулки, Сизлар халқнинг ҳожатини чиқарадиган бир хунарнинг бошини ушланглар. Шу билан жамиятга ҳам ёрдам қилган бўласизлар. Қайси бир хунар, қайси бир касбни қилмоқчи бўлсанглар, ундан кутилган мақсад, халқ учун фойда етказиш бўлсин. Илм ўқиб, хунар орттиришда ватандошларнинг ҳожатларини чиқаришни ният қилинглар” [11,28]. У ўз фикрини давом эттирар экан, ҳар бир мусулмон одам, энг аввало, ўзига зарур бўлган илмларни ўқиши фарздир, шундан сўнг тирикчилик учун бирор касб-хунар ўрганиши лозим. Қайси илм ва хунар кишининг ақлига, руҳига тарбия берар экан, ундай илм ва хунар ўз эгасини бу дунёда ҳам, у дунёда ҳам қўллаб-қувватлайди.

Фикримизга яқун ясар эканмиз, ушбу фикрни таъкидлаш жоизки, Аҳмад Донишнинг “Фарзандларга васият”и, касб-хунарнинг фойдалари ҳақидаги баёни ханузгача ўз кадр-қимматини йўқотган эмас. Яна кунлар, ойлар, йиллар ўтар, аммо юртдошимиз Аҳмад Дониш қолдирган олтин мерос, унинг қўлёзмалари келажак авлод учун дастураламал бўлиб хизмат қилади.

#### Адабиётлар:

1. Аҳмад Дониш. “Наводир ул-вақоеъ” (“Нодир воқеалар”). И.Мўминов таҳрири остида. Т. 1964 й. 45; 69; 28; 169; 222; 324; 325;
2. Айний Садриддин. “Эсдаликлар”. 5-жилд. 1965 й.; 62
3. Аҳмад Дониш. Избранные произведения. Душанбе. 1976 – стр. 108. стр. 116.
4. Аҳмад Дониш “Рисола дар назми Тамаддун ва таовун” – Душанбе. 1976 – б.107.; 27;
5. Тошпўлат Рахмонов. Сиз билган ва билмаган тарих. “Дурдона нашриёти. Бухоро. 2021.; 35;
6. Темиров Фаррух. Бухоролик алломалар. (Ўқув-методик қўлланма). Б.2022.
7. Тошқулов Д. “Дониш”. – М., 1990. б.70.; 215.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** www.buxdu.uz

**E-mail:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2024-yil 11-son (110)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Nigora SAYFULLAYEVA</b> <b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b> <b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.11.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.11.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
---	--	--